

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ODIL SUDLOV AKADEMIYASI

BERDIYAROV RAXMATJON
TOJINOROVICH

**QISHLOQ XO'JALIGIDA TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING TO'LOVGA
QOBILIYATSIZLIGI:**

**NAZARIY-HUQUQIY ASOSLAR, FUQAROLIK-
HUQUQIY HIMOYA MEXANIZMLARI VA
QONUNCHILIKNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI**



UDK: 347.15/.18:631.1:334.72

BBK: 67.404+65.290

B 55

O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi Kengashining 2026 yil 19 may sanasidagi 4-sonli majlis qarori bilan tasdiqlangan va nashrga tavsiya etilgan.

Berdiyarov, R.T.

Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligi: nazariyhuquqiy asoslar, fuqarolik-huquqiy himoya mexanizmlari va qonunchilikni rivojlantirish masalalari [Matn] / R.T. Berdiyarov .- Toshkent: "Gold Print Pres", 2026. – 160 b.

Taqrizchilar:

Azizov Xudoyqul Tojiyevich
yuridik fanlar nomzodi, professor

Ibratova Fezura Boboqulovna
yuridik fanlar doktori, professor

Mazkur monografiyada qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligi institutining nazariy-huquqiy asoslari kompleks ravishda tadqiq etilgan bo'lib, to'lovga qobiliyatsizlik tushunchasi, uning genezisi va tamoyillari, to'lovga qobiliyatsizlikning o'ziga xos alomatlari, modeli yondashuvlarning mazmuni tahlil qilingan hamda ushbu subyektlarni sudgacha sanatsiya qilishning huquqiy asoslari, milliy va xorijiy qonunchilikning rivojlanish tendensiyalari qiyosiy-huquqiy jihatdan o'rganilgan.

Shuningdek, monografiyada qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligi sharoitida qo'llaniladigan fuqarolik-huquqiy himoya vositalari, ularning tizimi va sohaviy xususiyatlari tahlil etilgan bo'lib, kreditorlar yig'ilishi qarorlarini haqiqiy emas deb topish hamda qarzdor tomonidan tuzilgan bitimlarni haqiqiy emas deb topish institutlarining huquqiy tabiati, amalga oshirish mexanizmlari va huquqiy oqibatlari yoritilgan. Shu asosda sohadagi mavjud huquqiy muammolar aniqlanib, qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Ushbu monografiya huquqshunoslik yo'nalishidagi professor-o'qituvchilar, katta ilmiy xodim-izlanuvchilar, mustaqil tadqiqotchilar, bakalavriat va magistratura talabalari, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari, amaliyotchi yuristlar hamda mazkur masalalarga qiziquvchi keng kitobxonlar ommasi uchun mo'ljallangan.

ISBN 978-9910-5181-4-0

© Berdiyarov R.T.

© O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi, 2026 yil

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
 I BOB. QISHLOQ XO'JALIGIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING TO'LOVGA QOBILIYATSIZLIGI: NAZARIY-HUQUQIY ASOSLAR VA QONUNCHILIK RIVOJLANISHI	
1.1.§ Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligi tushunchasi, genezisi va tamoyillari	7
1.2.§ Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligining alomatlari va modeli yondashuvlarning mazmuni.....	27
1.3.§ Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligini sudgacha sanatsiya qilish qonunchilik asoslari.....	47
1.4.§ Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligiga oid milliy va xorijiy qonunchilikning rivojlanish tendensiyalari.....	66
 II BOB. QISHLOQ XO'JALIGIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING TO'LOVGA QOBILIYATSIZLIGIDA FUQAROLIK-HUQUQIY HIMOYA VOSITALARI VA ULARNI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMLARI	
2.1.§ Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizlik sharoitida fuqarolik-huquqiy himoya vositalarining tushunchasi, tizimi va sohaviy xususiyatlari.....	87
2.2.§. To'lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarida kreditorlar yig'ilishi qarorlarini haqiqiy emas deb topishning fuqarolik-huquqiy tabiati va amalga oshirish mexanizmlari.....	103
2.3.§. Qarzdor tomonidan tuzilgan bitimlarni haqiqiy emas deb topishning sivilistik mazmuni va uning huquqiy oqibatlari.....	127
 XULOSA.....	153
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	156

KIRISH

Bugungi global iqtisodiy jarayonlarda bozor munosabatlarining chuqurlashuvi, iqtisodiy raqobatning kuchayishi hamda moliyaviy xavf-xatarlarning ortishi tadbirkorlik subyektlari faoliyati barqarorligiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligi nafaqat alohida xo'jalik yurituvchi subyekt manfaatlariga, balki oziq-ovqat xavfsizligi, aholi bandligi, agrar bozor barqarorligi hamda mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, mazkur sohada to'lovga qobiliyatsizlik munosabatlarini samarali huquqiy tartibga solish, qarzdor va kreditorlar manfaatleri muvozanatini ta'minlash, iqtisodiy faoliyatni saqlab qolish hamda sog'lom raqobat muhitini shakllantirish davlatning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash, investitsiya muhitini yaxshilash va iqtisodiy munosabatlarni bozor tamoyillari asosida tashkil etishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, to'lovga qobiliyatsizlik institutini modernizatsiya qilish, mazkur sohada sud va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish, kreditorlar huquqlarini ishonchli himoya qilish hamda xalqaro standartlarga mos huquqiy mexanizmlarni joriy etish bo'yicha muhim chora-tadbirlar qabul qilindi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 6 maydagi "To'lovga qobiliyatsizlik institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-78-son Farmoni mamlakatimizda to'lovga qobiliyatsizlik sohasini tubdan isloh qilish, mazkur institutning zamonaviy huquqiy mexanizmlarini joriy etish hamda xalqaro standartlarga mos samarali tizimni shakllantirishda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Mazkur Farmon bilan to'lovga qobiliyatsizlik sohasida davlat siyosatini takomillashtirish,

kreditorlar huquqlarini ishonchli himoya qilish, iqtisodiy jihatdan qiyin ahvolga tushib qolgan xo'jalik yurituvchi subyektlarni moliyaviy sog'lomlashtirish hamda ularning faoliyatini qayta tiklashga qaratilgan mutlaqo yangi yondashuvlar belgilandi.

Ayniqsa, qishloq xo'jaligi sohasida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, ularni moliyaviy inqiroz holatidan chiqarish va samarali reabilitatsiya mexanizmlarini joriy etish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, qishloq xo'jaligi sohasi tabiiy-iqlim sharoitlari, mavsumiy ishlab chiqarish jarayoni, bozor kon'yunkturasi hamda moliyaviy resurslarga yuqori darajada bog'liqligi bilan boshqa tarmoqlardan farq qiladi. Bu esa mazkur sohada to'lovga qobiliyatsizlik munosabatlarini alohida huquqiy yondashuvlar asosida tartibga solish zaruratini keltirib chiqaradi.

Shu bilan birga, qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligini huquqiy tartibga solishda ayrim muammo va bo'shliqlar saqlanib qolmoqda. Jumladan, agrar sohaning o'ziga xos xususiyatlari inobatga olingan maxsus huquqiy mexanizmlarning yetarli darajada shakllanmaganligi, to'lovga qobiliyatsizlik alomatlarini aniqlash mezonlarining mukammal emasligi, reabilitatsiya va sanatsiya mexanizmlarining samaradorligi pastligi, shuningdek, milliy qonunchilikning xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirilishi zarurati mazkur sohada kompleks ilmiy tadqiqot olib borishni taqozo etmoqda.

Mazkur monografiya qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligini fuqarolik-huquqiy tartibga solishning nazariy-metodologik asoslarini tadqiq etishga bag'ishlangan bo'lib, unda to'lovga qobiliyatsizlik tushunchasi, uning huquqiy tabiati, genezisi va asosiy tamoyillari, to'lovga qobiliyatsizlikning alomatlari, iqtisodiy va huquqiy modellari, qishloq xo'jaligi sohasida qo'llaniladigan modelli yondashuvlarning

mazmuni yoritilgan hamda milliy va xorijiy qonunchilikning rivojlanish tendensiyalari qiyosiy-huquqiy jihatdan o'rganilgan.

Shuningdek, qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligi sharoitida qo'llaniladigan fuqarolik-huquqiy himoya vositalarining nazariy-huquqiy asoslari, ularning tizimi va sohaviy xususiyatlari, to'lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarida kreditorlar yig'ilishi qarorlarini haqiqiy emas deb topish institutining huquqiy tabiati, uni qo'llash asoslari hamda protsessual va moddiy-huquqiy mexanizmlari ilmiy tahlil qilingan. Qarzdor tomonidan tuzilgan bitimlarni haqiqiy emas deb topishning sivilistik mazmuni, bunday bitimlarni haqiqiy emas deb topishning shartlari, mezonlari va huquqiy oqibatlari milliy qonunchilik, sud amaliyoti hamda xorijiy tajriba asosida fuqarolik-huquqiy himoya mexanizmlarini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari ishlab chiqilgan. Shuningdek, sohani rivojlantirishning konseptual asoslari, qonunchilikni yanada takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va tavsiyalar, huquqni qo'llash amaliyotidagi mavjud muammolarning yechimlari hamda zamonaviy huquqiy yondashuvlar ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

I BOB. QISHLOQ XO'JALIGIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING TO'LOVGA QOBILIYATSIZLIGI: NAZARIY-HUQUQIY ASOSLAR VA QONUNCHILIK RIVOJLANISHI

1.1.§ Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligi tushunchasi, genezisi va tamoyillari

Zamonaviy huquqiy islohotlar va iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida to'lovga qobiliyatsizlik instituti faqat qarzdorni bankrot deb topishga qaratilgan protsessual mexanizm sifatida emas, balki tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy barqarorligini saqlab qolish, ularning to'lov qobiliyatini tiklash hamda bozor munosabatlarining uzluksizligini ta'minlashga xizmat qiluvchi kompleks fuqarolik-huquqiy institut¹ sifatida namoyon bo'lmoqda.

Milliy huquq tizimida bankrotlik institutning umumiy nazariy jihatlar², uning to'lovga qobiliyatsizlik instituti bilan o'zaro bog'liqligi va nisbati³, shuningdek tadbirkorlik subyektlariga nisbatan qo'llaniladigan umumiy huquqiy mexanizmlar⁴ muayyan darajada tadqiq etilgan bo'lsa-da, qishloq

¹ Агеев А.Б. Банкротство в гражданском праве, проблемы теории. Дисс.к.ю.н.- Москва.: -С.144.; Витрянский В.В. Как реформировать законодательство о банкротстве. // Законодательство, 1999, N 5.; Карелина С.А. Механизм правового регулирования отношений несостоятельности (банкротства). Автореферат.- Москва., 2008.-С.54.; Свириденко О.М. Концепция несостоятельности (банкротства) в Российской Федерации: методология и реализация. Автореферата по д.ю.н.;-Москва.:2011.-С.54.; Charles W. Mooney, Jr., A Normative Theory of Bankruptcy Law: Bankruptcy As (Is) Civil Procedure, 61 Wash. & Lee L. Rev. 931 (2004). Ершова И.В., Енькова Е.Е. Банкротство: законодательная модель и правоприменительная практика. *Lex russica*. 2016;(8):178-207.; Мамбетазаров Б.Б. Қишлоқ хўжалиги тadbirkorligining хусусиятлари ва ривожлантириш истикболлари (Қорақалпоғистон Республикаси деҳқон хўжаликлари мисолида). Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати, Нукус -2023. www.ziyounet.uz.; Atalykova G.Sh., Narzullaev O.Kh., Ibratova F.B. Formation and development of civil law doctrines on the bankruptcy of business entities in the Republic of Uzbekistan.// International journal of Professional Science, №10-2021. -С.5-11.

² Лопашева Н.В. Правовые последствия признания юридического лица банкротом: дис. ... канд. юрид. наук. – Т., 2006. – С. 6.; Дўстов У.Н. Хўжалик юритувчи субъектлар банкротлиги. Ўқув қўлланма / Ф.Х.Отахоновнинг умумий таҳрири остида. – Т.: ТДЮИ, 2007. – Б. 10.; Rahmonqulov H.R., Gulyamov S.S. Korporativ huquq. Huquqshunoslik oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Т., TDYI, 2007. – Б. 373. Azizov X.T. Bankrotlikni huquqiy tartibga solish.Darslik. – Т.: TDYU nashriyoti, 2017. – 205 b.

³Xudaybergenov B.B. Институт неплатежеспособности как институт правового регулирования санации и банкротства // Вестник Омского государственного университета. 2020. №3. – С. 273-277.

⁴ Рўзиназаров Ш.Н. Бозор шароитида қишлоқ хўжалик ишлаб чиқариш тузилмаларининг фуқаролик ҳуқуқий мақоми – Т.: Адолат. 1997.; Ибратова Ф.Б. Тadbirkorlik субъектларини банкрот деб топишнинг фуқаролик-ҳуқуқий муаммолари: юрид. фан. док.... дис. Тошкент, 2021. – Б. 26-27.; Xudaybergenov B.B. Tadbirkorlik subyektlari to'lovga qobiliyatsizligini bartaraf qilish va tugatishning huquqiy masalalari. Monografiya. Mas'ul muharrir: yu.f.d., prof. K.O.Sindorov. – Т., TDYU nashriyoti, 2021. – Б. 116.

xo'jaligi sohasida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligi fuqarolik-huquqiy tartibga solishning mustaqil va o'ziga xos obykti sifatida yetarli darajada ilmiy tahlil qilinmagan.

Ayniqsa, qishloq xo'jaligi sohasida to'lovga qobiliyatsizlik asosan, umumiy fuqarolik-huquqiy qoidalar doirasida baholanib, mazkur sohaning mavsumiyliги, tabiiy xavf-xatarlarga yuqori darajada bog'liqligi, yer va mulk munosabatlarining alohida huquqiy rejimi, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va tartibga solish mexanizmlarining ustuvorligi kabi omillar yetarli darajada inobatga olinmagan. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligi tushunchasi, uning genezisi, tamoyillari va alomatlari hamda milliy qonunchilikning shakllanishi kompleks tarzda ilmiy tahlil obykti sifatida o'rganilmagan. Natijada qonunchilikda qishloq xo'jaligi tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligini barvaqt aniqlash, uning oldini olish va fuqarolik-huquqiy vositalar orqali hal etishga qaratilgan aniq va tizimli normalar yetarli darajada mavjud emas bo'lib, amaldagi huquqiy tartibga solishda mazkur subyektlarga nisbatan qo'llaniladigan fuqarolik-huquqiy vositalarning mazmuni, chegarasi va o'zaro nisbati atrofli darajada aniq belgilab berilmagan.

Bugungi kunda qishloq xo'jaligida to'lovga qobiliyatsizlik holatlarini asosan, bankrotlik tartib-taomillari doirasida hal etish amaliyoti ustuvor bo'lib, bunday yondashuv qarzdor xo'jalik subyektlarini iqtisodiy muomaladan chiqarishga olib kelmoqda⁵.

Holbuki, zamonaviy fuqarolik huquqi konsepsiyasi to'lovga qobiliyatsizlikni bankrotlikka olib keluvchi yakuniy holat sifatida emas, balki tuzatish, rehabilitatsiya va xo'jalik faoliyatini saqlab qolish imkoniyatini

⁵ Qarzdor xo'jalik subyektlariga nisbatan amaliyotda ko'p hollarda moliyaviy sog'lomlashtirish yoki qayta tiklash choralari yetarli darajada qo'llanilmasdan, to'g'ridan-to'g'ri tugatishga qaratilgan ish yuritish tartib-taomillari joriy etilmoqda. Bunday yondashuv esa faoliyatini qayta tiklash va iqtisodiy muomalani davom ettirish imkoniyati mavjud bo'lgan tadbirkorlik subyektlarini ham iqtisodiy muomaladan chiqarishga olib kelmoqda. Bu esa qishloq xo'jaligi sohasining barqaror rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

beruvchi dinamik huquqiy jarayon sifatida talqin etishni taqozo etadi. Shu ma'noda, qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligini fuqarolik-huquqiy tartibga solishning nazariy-metodologik asoslarini zamonaviy huquqiy yondashuvlar, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash hamda raqamli monitoring mexanizmlari bilan uyg'un holda qayta ko'rib chiqish zarurati vujudga kelmoqda⁶. Mazkur sohada huquqiy bo'shliqning mavjudligi, qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyoti o'rtasidagi nomutanosiblik hamda yaxlit ilmiy konsepsiyaning shakllanmaganligi ushbu dissertatsiya tadqiqotining yuqori dolzarbligini belgilaydi.

Darhaqiqat, zamonaviy huquqiy doktrinada tadbirkorlik qishloq xo'jaligida nafaqat iqtisodiy faoliyat turi, balki ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan murakkab huquqiy-iqtisodiy fenomen sifatida qaraladi. Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlari esa o'z navbatida jamiyatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq aholisi bandligini saqlab qolish hamda milliy iqtisodiyot barqarorligini mustahkamlashda strategik o'rin tutadi. Shu nuqtayi nazardan, ushbu sohada tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligi masalasi faqat qarzdorning majburiyatlarni bajara olmasligi bilan cheklanib qolmasdan, balki iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy manfaatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash zarurati bilan ham belgilanadi.

Amaldagi qonunchilik tahlili shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligida tadbirkorlik faoliyatini tartibga solish umumiy tadbirkorlik to'g'risidagi normalar bilan bir qatorda, maxsus huquqiy qoidalarga ham tayanadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi⁷ (keyingi o'rinlarda

⁶ Карелина С.А. Институт несостоятельности (банкротства) в эпоху цифровизации // LegalTech в сфере предпринимательской деятельности: Монография / - М.: Проспект, 2023. С. 79–87; Аристов Д.Д. Правовые аспекты банкротства в условиях цифровизации экономики: регулирование криптоактивов в процедурах несостоятельности // Тенденции развития науки и образования. 2025. № 121-3. С. 20–23; Ткачев В.Н., Милов П.О. Цифровизация процедур банкротства: правовые проблемы внедрения технологий 131 искусственного интеллекта и блокчейн в институт несостоятельности // Вестник Российского нового университета 132 Серия: Человек и общество. 2025. № 4. С. 119-127.

⁷ Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон, 26.12.2025 й., 03/25/1107/1216-сон; 30.12.2025 й., 03/25/1109/1241-сон.

Fuqarolik kodeksi), qishloq xo'jaligi sohasiga oid maxsus normativ-huquqiy hujjatlar hamda O'zbekiston Respublikasining "To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida"gi qonuni ⁸ (keyingi o'rinlarda Qonun) qoidalari ushbu subyektlarning huquqiy maqomini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu holat huquqshunoslik doktrinasida qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarini mustaqil huquqiy kategoriya sifatida qarash zaruratini taqozo etadi. Professor Sh.Ro'zinazarov ta'kidlaganidek, qishloq xo'jaligida tadbirkorlik faoliyatini huquqiy tartibga solishning amaldagi holati va uning darajasini fuqarolik-huquqiy konstruksiyalar nuqtayi nazaridan zamonaviy talablar asosida chuqur tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Olimning fikriga muvofiq, agrar sohada faoliyat yurituvchi subyektlarning huquqiy maqomida so'nggi yillarda yuz bergan institutsional va tashkiliy-huquqiy o'zgarishlarni inobatga olgan holda mazkur institutni qayta ko'rib chiqish obyektiv zaruratga aylanmoqda⁹. Shu nuqtayi nazardan, qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyekti tushunchasini har tomonlama tahlil qilish va uning huquqiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy jihatlarini integrativ ravishda o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Xuquqshunos olimlar asosan ushbu tushunchani uning huquqiy maqomi va fuqarolik-huquqiy munosabatlar doirasida, ya'ni qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining huquq va majburiyatlari, mulkiy javobgarligi va shartnomaviy munosabatlardagi ishtiroki jihatidan baholashni afzal ko'rishsalar¹⁰, iqtisodchi olimlar esa bu tushunchani bozor iqtisodiyotidagi rivojlanish, ishlab chiqarish hajmi, ishchi kuchidan foydalanish va iqtisodiy samaradorlik kabi ko'rsatkichlar orqali tahlil qiladilar¹¹.

⁸ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 13.04.2022 й., 03/22/763/0306-сон; 19.02.2025 й., 03/25/1031/0160-сон; 24.06.2025 й., 03/25/1070/0536-сон; 30.12.2025 й., 03/25/1109/1241-сон.

⁹ Рўзиназаров Ш.Н. Қишлоқ хўжалик тadbirkorlik субъектларининг ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилиш асослари. Масъул муҳаррир: Ҳ.Р.Раҳмонқулов.- Т. : 2008. -106 б.

¹⁰ Қаранг: Алтухов А. И. Совершенствование организационно-экономического механизма устойчивого развития агропромышленного промышленное предприятие [Текст] / А. И. Алтухов // Экономика сельскохозяйственных и перерабатывающих предприятий. - 2016. - № 7. – С. 15-17.

¹¹ Қаранг: Наринбаева Г., Дехканова Н., Муратова М. Развитие предпринимательской деятельности в сельском хозяйстве // https://inlibrary.uz/index.php/development_economy/article/download/16326/17039; Дехканова Н., Саъдиев С. Развитие предпринимательства в сельском хозяйстве Узбекистана //

Huquqshunoslar Z.F.Safin va A.V.Mixaylovlarning fikricha, hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitda qishloq xo'jaligi sohasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tadbirkorlik faoliyatidan ajratib qarash mumkin emas¹². Shu nuqtayi nazardan, fuqarolik muomalasida ishtirok etuvchi subyektlar o'z faoliyatini doimiy ravishda foyda (daromad) olish maqsadiga yo'naltirgan holda amalga oshiradilar, bu esa qishloq xo'jaligini ham tadbirkorlik munosabatlarining to'laqonli qismi sifatida baholashga asos yaratadi.

Fikrimizcha, qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyekti tushunchasini to'liq va har tomonlama ochib berish uchun huquqiy va iqtisodiy yondashuvlarni uyg'un holda qo'llash zarur. Bu integrativ yondashuv bir tomondan ushbu subyektning huquqiy maqomi va javobgarligini aniq belgilashga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan esa uning iqtisodiy faoliyati samaradorligini baholash va agrar sektorni rivojlantirish uchun mustahkam nazariy asos yaratadi.

Shu o'rinda professor Sh. Ro'zinazarovning fikrlariga qo'shilish o'rinlidir chunki, olim tomonidan qishloq xo'jaligida tadbirkorlik tushunchasiga har ikki soha vakillarining iqtisodiy va huquqiy yondashuvlarini qamrab olgan holda ta'rif beriladi¹³. Unga ko'ra, qishloq xo'jaligidagi tadbirkorlik qishloq xo'jaligi subyektlarining mahsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish, shuningdek foyda yoki daromad olishga qaratilgan tashabbuskorlik asosida amalga oshiriladigan faoliyati hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligida tadbirkor faoliyatining mazmuniga huquqshunos G.M.Shabanova to'xtalar ekan, boshqa sohalardagi tadbirkorlar kabi foydani ko'paytirish maqsadida agrar sektorda turli o'zgarishlarni yuzaga keltiruvchi

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА: ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ, №2 (12), 2016. –С.48-53.

¹² Сафин З.Ф., Михайлов А.В. Правовые основы предпринимательской деятельности в сельском хозяйстве / З.Ф. Сафин, А.В. Михайлов // Ученые записки Казанского университета. Серия: Гуманитарные науки. – 2013. – Т. 155. – № 4. – С. 157-166.

¹³ Рўзиназаров Ш.Н. Қишлоқ хўжалик тadbirkorlik субъектларининг ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилиш асослари. Масъул муҳаррир: Ҳ.Р.Раҳмонқулов.- Т. : 2008. -126.

shaxs ekanligini ta'kidlaydi¹⁴. Huquqiy adabiyotlarda esa uni ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish (qishloq xo'jaligi sohasida – ta'kid bizniki) hamda foyda yoki daromad olishga qaratilgan qonunlar doirasidagi tashabbuskorlik faoliyati sifatida ko'rsatadi¹⁵.

BMТning oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) esa "agripneurship"ni "qishloq xo'jaligi qiymat zanjirlarida innovatsion biznes yondashuvlarini qo'llash orqali ishlab chiqarish samaradorligi, daromad va barqarorlikni oshirish jarayoni" sifatida ta'riflaydi¹⁶. Bu ta'rif qishloq xo'jaligidagi tadbirkorlining xalqaro darajadagi ahamiyati va ilmiy yondashuvlarning ham xilma xilligini aks ettiradi.

Adabiyotlarda "qishloq xo'jaligida tadbirkorlik" tushunchasi turlicha talqin etilsa-da, ularni nazarimizda, quyidagi umumiy belgilar birlashtiradi: Jumladan, qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlari hamisha mustaqillik harakatlarga asoslanishi va sohadagi tabiiy iqlim va sharoit bilan bog'liq xavf-xatarni qabul qilish lozimligi, faoliyatning foyda yoki iqtisodiy qiymat yaratishni asosiy maqsad sifatida markaziy ahamiyat kasb etishi hamda sohada muttasil ravishda barqarorni ta'minlashga qaratilgan holda innovatsion faoliyatga intilish mavjudligini ta'kidlash o'rinlidir. Huquqshunoslar O.V.Jdanova, M.D.Kovalchuk va S.V.Tichinin qishloq xo'jaligidagi tadbirkorlik faoliyatining muhim xususiyati qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalaridan asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida foydalanish bilan bog'liq bo'lishi kerak, deb hisoblaydilar¹⁷. Yuqorida adabiyotlarda keltirilgan tushuntirishlardan ko'rish

¹⁴ Шабанов М. Г. Особенности и факторы развития предпринимательства в сельском хозяйстве региона // Вопросы структуризации экономики. – 2005. – № 1. – URL: <http://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-i-factory-razvitiya-predprinimatelstva-v-selskom-hozyaystve-regiona>.

¹⁵ Қишлоқ хўжалик ҳуқуқи: Олий ўқув юртларининг ҳуқуқшунослик мутахассислиги бўйича таълим олаётган талабалари учун // Раҳмонкулов Х.Р., Усмонов М.Б., Рўзиназаров Ш.Н. ва б. –Т.:”Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси” нашриёт уйи, 2000, 171-172 б.

¹⁶ FAO, "Agripneurship Development for Youth", Rome, 2022.

¹⁷ Қаранг: Жданова О.В. Банкротство сельскохозяйственных предприятий: актуальные проблемы современности // Вестник АПК Ставрополя. 2011. N 2(2). С. 65 – 67; Ковальчук М.Д., Тычинин С.В. К вопросу о несовершенстве правового регулирования несостоятельности (банкротства) сельскохозяйственных организаций в России // Эпомен. 2020. N 40. С. 201 - 207.

mumkin, “qishloq xo‘jaligida tadbirkorlik” tushunchasi borasida olimlar o‘rtasida yagona ta’rif va tushuntirish mavjud emas va bu tabiiy hol bo‘lib, nazarimizda ushbu soha har bir mamlakatning milliy huquqiy tizimi va iqtisodiy modeliga mos holda turlicha talqin qilinishi bilan izohlanadi.

Bizning fikrimizch, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash, ularni realizatsiya qilish orqali foyda olishga qaratilgan, jamiyatning oziq-ovqat va xomashyoga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi, qishloq xo‘jaligi resurslaridan, shu jumladan yer uchastkalaridan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan mustaqil va tavakkalga asoslangan faoliyatdir. Mazkur faoliyat qonunchilikda belgilangan tartibda maxsus huquqiy maqomga ega bo‘lgan subyektlar tomonidan amalga oshiriladi.

Boshqacha aytganda, mazkur faoliyat bozor iqtisodiyoti qonuniyatlariga asoslangan holda resurslardan oqilona va samarali foydalanish orqali yuqori sifatli hamda raqobatbardosh qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishdan foyda olishga qaratilgan iqtisodiy faoliyat hisoblanadi. U mustaqillik va tashabbuskorlik asosida zamonaviy texnologiyalar, ilmiy-texnikaviy yutuqlar hamda resurs tejamkor usullarni joriy etishni nazarda tutadi, shuningdek tabiiy-iqlim sharoitlari, bozor kon’yunkturasi, narxlar o‘zgarishi va mehnat unumdorligi bilan bog‘liq xatarlarni tadbirkorning o‘z zimmasiga olishini taqozo etadi.

Tadqiqot ishini yoritishdagi yana bir muhim masalalardan biri qonunchilikda qishloq xo‘jaligi sohasidagi tadbirkorlik subyektlarining o‘ziga xos tashkiliy-huquqiy shakllariga nisbatan aniq ta’rif yoki yagona huquqiy tushuntirishning mavjud emasligidir. Mazkur holat ushbu subyektlar asosan umumiy tadbirkorlik tushunchasi doirasida talqin qilinishi bilan izohlanadi. Natijada qishloq xo‘jaligi sohasida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlarining turlari hamda ularning huquqiy maqomini belgilash va baholashda turlicha yondashuvlar shakllanishiga sabab bo‘lmoqda. Bu holat

esa qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligi yuzaga kelganda uning huquqiy va iqtisodiy oqibatlarini aniq baholashni yanada murakkablashtiradi. Xususan, qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlariga nisbatan "agrar tadbirkorlik"¹⁸, "agrobiznes sohasi"¹⁹ sifatida, Qonunning 5-moddasida "qishloq xo'jaligi korxonasi" tarzida²⁰ ifodalangan.

Nazarimizda, qishloq xo'jaligidagi tadbirkorlik subyektlari tushunchasini yuqoridagi turli shakllarini barchasini qamrab olishi nazariy jihatdan to'liq to'g'ri hisoblanmaydi. Chunki, bugungi kunda qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllari doimiy ravishda o'zgarib, murakkablashib bormoqda. Masalan, sohada klasterlar tashkil etilgan va ayrim hollarda yakka tartibdagi tadbirkorlik subyekti ham qishloq xo'jaligida faoliyat yuritishi mumkin. Shu bois qishloq xo'jaligi sohasi uchun qulay va maqbul tadbirkorlik subyektlari doirasini aniq belgilash nafaqat qonun ijodkorligi uchun ahamiyatli, balki ularning tashkiliy-huquqiy shakllarini amaliyotda to'g'ri tatbiq etish nuqtayi nazaridan ham muhimdir. Agar qishloq xo'jaligida iqtisodiy faoliyat yuritishning maqbul tashkiliy-huquqiy shakllari belgilanmagan bo'lsa, bu holat agrar tadbirkorlikni rivojlantirishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, qishloq xo'jaligida mas'uliyati cheklangan jamiyatlar , aksiyadorlik jamiyatlari kabilar faoliyatining xususiyatlarini belgilaydigan qonun hujjatlari mavjud emas. Chunki, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish kafolatlari to'g'risida", "Mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi qonunlar qishloq xo'jaligi tadbirkorligining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olmaydi

¹⁸ Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020 - 2030 йилларга мўлжалланган Стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида"ги Фармони // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 24.10.2019 й., 06/19/5853/3955-сон; 16.02.2024 й., 06/24/36/0130-сон, 08.05.2024 й., 06/24/74/0332-сон; 01.03.2025 й., 06/25/27/0196-сон; 20.09.2025 й., 06/25/173/0852-сон.

¹⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi Farmoniga 9-ilova tarzda tasdiqlangan "Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish strategiyasini 2025-yilda amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi"ning 2-bandi. // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 25.03.2025 й., 06/25/50/0272-сон.

²⁰ Ular qishloq xo'jaligi kooperativi, fermer xo'jaligi va yuridik shaxs tashkil etgan holdagi dehqon xo'jaligi, shuningdek faoliyatining asosiy turi qishloq xo'jaligi mahsulotini ishlab chiqarishdan iborat bo'lgan boshqa yuridik shaxslardan iborat ekanligi belgilangan.

va ularni nazariy va huquqiy jihatdan ham “qishloq xo‘jaligi korxonasi” tarzida ifodalab bo‘lmaydi.

Vaholanki, xorijiy davlatlarda qishloq xo‘jaligi sohasida faoliyat yurituvchi subyektlarga nisbatan qonunchilikda qo‘llaniladigan atamalar mamlakatlar va huquqiy tizimga qarab farq qilsa-da, ular umumiy tarzda korxonalar sifatida ifodalanmagan. Masalan, Braziliyada bu subyektlar rasman “agribusiness entities” (agrobiznes subyektlari) sifatida ²¹ belgilanadi, AQSHda esa keng qamrovli huquqiy va iqtisodiy tushuncha sifatida “Agribusiness” (agrobiznes) atamasi ²² qo‘llaniladi. Yevropa Ittifoqida qishloq xo‘jaligi davlat siyosatining asosiy qismi Common Agricultural Policy (CAP) bo‘lib, u fermerlar va agroiqtisodiy subyektlarni (qishloq xo‘jaligidagi faoliyati bilan shug‘ullanadigan bizneslar) qo‘llab -quvvatlash tartibini belgilaydi va ular Yevropa qonunlari doirasida “agrar subyektlar” sifatida²³, ayrim olimlar “agrobiznes” vakillari sifatida e‘tirof etishadi²⁴. Rossiya qonunchiligida “qishloq xo‘jaligi tashkilotlari” sifatida qayd etilib, qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishi asosiy faoliyat turi sifatida va daromad miqdori²⁵ asosiy ikki mezon sifatida qabul qilinadi. Bunda olimlar har ikki omil ham bir vaqtning o‘zida mavjud bo‘lishi lozimligini ta’kidlaydi ²⁶.

Nazarimizda, qishloq xo‘jaligidagi tadbirkorlik subyektlari avvalo, iqtisodiy va huquqiy jihatdan umumiy tadbirkorlik subyektlaridan fundamental farqlariga ega hisoblanadi. Ularning faoliyati asosan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va xizmat qilishga yo‘naltirilgan

²¹https://practiceguides.chambers.com/practice-guides/comparison/1373/17152/26876-26880-26885-26889-26892-26898-26903-26907-26912?utm_source

²² https://nationalaglawcenter.org/overview/international-law-organizations/?utm_source

²³ https://agriculture.ec.europa.eu/common-agricultural-policy/cap-overview/cap-glance_en?utm_source

²⁴ Davis J.H. and Goldberg P.A. A concept of agribusiness. -Boston. Mass.; Harvard Univ, 1957. [https://ru.wikipedia.org/wiki/; Жудро К. Основы агробизнеса: Монография. -М.:, Право и экономика., 2004, -С. 24.; Перелетов А. Развитие агробизнеса в муниципальном районе. Автореферат дис.канд.экон.наук., Воронеж., 2009, -С.7.](https://ru.wikipedia.org/wiki/;_Жудро_К._Основы_агробизнеса:_Монография._-М.:,_Право_и_экономика.,_2004._-С._24.;_Перелетов_А._Развитие_агробизнеса_в_муниципальном_районе._Автореферат_дис.канд.экон.наук.,_Воронеж.,_2009._-С.7.)

²⁵ Qishloq xo‘jalik mahsulotini ishlab chiqarish va (yoki) qayta ishlash bo‘lgan yuridik shaxslarning sotuvdan tushgan daromadi umumiy daromadining kamida 50%ini tashkil qilishi kerak // Федеральный закон от 26.10.2002 N 127-ФЗ (ред. от 29.12.2025) "О несостоятельности (банкротстве)".

²⁶ Ткачёв В.Н. Теоретические и практические проблемы правового регулирования несостоятельности (банкротства) особых категорий субъектов конкурсного права. Дисс док юрид наук. –Москва. 2008. С.54.

bo'lib, bu ularni agrar davr va tabiiy resurslardan bevosita ta'sirlanuvchi xususiyatlarga ega qiladi. Iqtisodiy xususiyatlar ham uni boshqa tadbirkorlik subyektlaridan farqlaydi. Ular uchun davlatning qo'llab-quvvatlashi, subsidiyalar va soliq imtiyozlari faoliyatning barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki agrar mahsulot ishlab chiqarish jarayoni tabiiy va mavsumiy omillardan katta darajada ta'sirlanadi. Shu bilan birga, iqtisodiy xavf va natijalar bozordan tashqari ekologik va biologik sharoitlarga ham bog'liqligi bilan ajralib turadi, bu esa ularning boshqaruv va moliyaviy mexanizmlari uchun maxsus yondashuvlarni talab qiladi. Huquqiy jihatdan ham boshqa tadbirkorlik subyektlaridan farq qiladi, chunki ularning huquqiy maqomi, mulkiy javobgarligi va kreditorlar bilan munosabatlari qishloq xo'jaligi sohasining xos talablarini inobatga olgan holda tartibga solishni talab etadi.

Huquqiy adabiyotlarda qishloq xo'jaligida tadbirkorlikning ikki xil ko'rinishini, oddiy shaklda ya'ni yakka tartibdagi tadbirkorlik – dehqon xo'jaligi yuridik shaxs tashkil etmasdan hamda murakkab shaklda yuridik shaxs tashkil etgan holda tashkil etilishini nazarda tutadi²⁷. Qolaversa, bu borada qonunchilik ham qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlari nafaqat yuridik shaxs shaklida, shu bilan birga yuridik shaxs tashkil etmagan holda dehqon xo'jaliki tarzda²⁸ birgalikdagi tadbirkorlik faoliyati sifatida oilaviy tadbirkorlik, oddiy shirkat xo'jaligi shakllarida²⁹ faoliyat yuritish va ro'yxatdan o'tishga ruxsat beradi³⁰.

²⁷ Qishloq xўжалик ҳуқуқи:Олий ўқув юртларининг ҳуқуқшунослик мутахассислиги бўйича таълим олаётган талабалари учун // Раҳмонқулов Х.Р., Усмонов М.Б., Рўзиназаров Ш.Н. ва б. –Т.:”Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси” нашриёт уйи, 2000, -171б.

²⁸ Dehqon xo'jaligining faoliyati tadbirkorlik faoliyati jumlasiga kiradi va dehqon xo'jaligi a'zolarining istagiga ko'ra yuridik shaxs tashkil etgan holda ham, yuridik shaxs tashkil etmasdan ham amalga oshirilishi mumkin.O'zbekiston Respublikasining “Dehqon xo'jaligi to'g'risida”gi Qonunining 3-moddasi// Qonun hujжатлари маълумотлари миллий базаси, 02.04.2021 й., 03/21/680/0263-сон.

²⁹ Ўзбекистон Республикасининг “Тадбиркорлик фаолияти эркинлигининг кафолатлари тўғрисида”ги Қонуни// <https://lex.uz/mact/2006789> (Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 25.12.2025 й., 03/25/1104/1213-сон.)

³⁰ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yakka tartibdagi tadbirkorlar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida”gi Qarori bilan tasdiqlangan ilovada YATTga tashkilotlar uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari tayyorlash bo'yicha xizmatlar, maxsus va qishloq xo'jaligi texnikasidan foydalangan holda xizmatlar ko'rsatish belgilangan. // O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 15-dekabrda

Shu sababli, ushbu jihatlariga mos ravishda, qishloq xo'jaligi sohasidagi milliy qonunchilikda va amaliyotda subyektlarning huquqiy maqomi va ular bilan bog'liq munosabatlarni to'g'ri aks ettirish maqsadida "qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyekti" tushunchasini qo'llash taklif etiladi. Fikrimizcha, ushbu tushuncha barcha turdagi qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanuvchi subyektlarni qamrab olishi bilan birga ularni huquqiy aniqlik va amaliyotda ularning tashkiliy-huquqiy shakllari to'g'ri talqin etishda samaralidir.

Ularni tashkiliy huquqiy shakliga ko'ra, fermer xo'jaligi³¹, qishloq xo'jaligi kooperativi³², qishloq xo'jaligi xususiy korxonasi³³, dehqon xo'jaliklari, qishloq xo'jaligida aksiyadorlik jamiyati, agroklastlar, agrofirmalar, qishloq xo'jaligidagi boshqa tadbirkorlik subyektlar tarzda tashkil etilishi hamda ularni iqtisodiy ko'rsatkichlar, tashkiliy-huquqiy shakl hamda ishlab chiqarish ko'lamiga ko'ra kichik, o'rta va yirik toifalarga ajratish mumkinligini³⁴ inobatga olib, inobatga olib, qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyekti deb topishning eng asosiy mezonlari sifatida mahsulotning umumiy aylanmasidagi ulushining 50 foizdan ortiq bo'lishini Qonunning 3-moddasida aniq belgilab qo'yilishi taklif etiladi³⁵. Mazkur mezon qishloq xo'jaligi subyektlarini aniq va

791-sonli qarori tahririda// Qonunchilik maълumotlari milliy bazasi, 16.12.2025 й. 09/25/791/1167-сон. // O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 9-fevraldagi 66-son qarori bilan tasdiqlangan "Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizomga 4-ilovada tasdiqlangan yuridik shaxs tashkil etmagan tadbirkorlik subyekti (yakka tartibdagi tadbirkorni) davlat ro'yxatidan o'tkazishda dehqon xo'jaligi shakli belgilangan.

³¹ Shu bilan birga, ko'p tarmoqli fermer xo'jaligi - qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish bilan birga qishloq xo'jaligi mahsulotini qayta ishlash, saqlash va realizatsiya qilish, sanoat ishlab chiqarishi, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi fermer xo'jaligi // Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг "Кўп тармоқли фермер хўжаликлари реестрини юритиш бўйича давлат хизматини кўрсатишнинг маълумотларини регламентини тасдиқлаш тўғрисида"ги Қарори // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 03.03.2025 й., 09/25/135/0208-сон.

³² Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshirish uchun pay usuliga, jismoniy va (yoki) yuridik shaxslarning ixtiyoriy ravishda birlashishiga asoslangan mustaqil tijorat tashkiloti // Ўзбекистон Республикасининг қишлоқ хўжалиги кооперативи тўғрисидаги Қонуни // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 11.11.2024 й., 03/24/995/0908-сон.

³³ Xususiy korxona qonunchilikka muvofiq har qanday faoliyat turlarini amalga oshiradi.// Ўзбекистон Республикасининг хусусий корхона тўғрисидаги қонуни 22-моддаси // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон.

³⁴ Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Кичик ва ўрта бизнеснинг иқтисодийдаги ўрнини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида" Фармони // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 25.03.2025 й., 06/25/50/0272-сон.

³⁵ Амалдаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда "асосий фаолият тури" тушунчасининг аниқ меzonлар ва

yagona huquqiy yondashuv asosida farqlash imkonini beradi hamda amaliyotda yuzaga kelayotgan turlicha talqinlarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Huquqiy adabiyotlarda qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlariga nisbatan qo'llaniladigan «to'lovga qobiliyatsizlik», «bankrotlik» hamda «iqtisodiy nochorlik» tushunchalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, ularning mazmun-mohiyati va huquqiy ahamiyati ilmiy jihatdan keng o'rganib chiqilgan. Mazkur tushunchalar ko'p hollarda bir-biriga yaqin ma'noda qo'llanilsa-da, huquqiy tabiati, qo'llanish bosqichi va huquqiy oqibatlari nuqtayi nazaridan o'zaro farqlanadi.

Fuqarolik kodeksining dastlabki tahriridagi 57-moddada «yuridik shaxsning nochorligi» tushunchasi qavs ichida «bankrotligi» sifatida ifodalangan ³⁶, «Bankrotlik to'g'risida»gi Qonunning 2-moddasida³⁷ «bankrotlik» atamasi qavs ichida «iqtisodiy nochorlik» tarzida ko'rsatilgan. Bu holatlar qonun chiqaruvchi tomonidan mazkur tushunchalarga dastlab bir xil ma'noda qo'llaniladigan sinonim huquqiy tushunchalar sifatida yondashilganidan dalolat beradi. Biroq, A.V.Vasilev mazkur tushunchalar o'rtasidagi muhim farqni asoslab, iqtisodiy nochorlik qarzdorning moliyaviy ahvoli buzilganligi haqidagi holatning taxmin qilinishi va u sud jarayonida isbotlanishi lozim bo'lgan holat ekanini, bankrotlik esa ushbu holat sud tomonidan tekshirilib, isbotlangan va huquqiy fakt sifatida e'tirof etilgan holat ekanini ta'kidlaydi ³⁸. Mazkur ilmiy pozitsiyani ko'plab huquqshunos olimlar qo'llab-quvvatlab, uni nazariy va amaliy jihatdan asosli deb baholaydilar³⁹.

кўрсаткичлар асосида белгилаб берилмаганлиги ушбу масалада турлича ёндашув ва ҳуқуқий баҳолашларга сабаб бўлмоқда.

³⁶ <https://lex.uz/mact/111189?ONDATE=01.03.1997%2000#152087> // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1996 й., 2-сонга илова; 1997 й., 2-сон, 56-модда; 1998 й., 5-6-сон.

³⁷ <https://www.lex.uz/acts/65991> // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2003 й., 5-сон, 63-модда.

³⁸ Васильев Е.А. Банкротство и несостоятельность: соотношение понятий // Право и жизнь 2000. № 29. – С. 55.

³⁹ Жминько, Н.С. Несостоятельность и банкротство как независимые экономические категории / Н. С. Жминько // Политематический сетевой электронный научный журнал Кубанского государственного аграрного университета. - 2013. - № 92. - С. 1115-1124.; Отахонов Ф.Х., Ибратова Ф.Б. Хўжалик судларида

Darhaqiqat, fikrimizcha, iqtisodiy nochorlik va bankrotlik tushunchalarini farqlash, ayniqsa qishloq xo'jaligida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan subyektlarga nisbatan alohida ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy nochorlik bu subyektlar uchun to'lovga qobiliyatsizlikka olib kelishi mumkin bo'lgan vaqtinchalik moliyaviy holat sifatida namoyon bo'ladi, bankrotlik esa faqat ushbu holat barqaror xususiyat kasb etgan, to'lov qobiliyatini tiklash imkoniyatlari tugagan va sud tomonidan tegishli tartib-taomillar asosida isbotlangan taqdirdagina qo'llanilishi lozim.

To'lovga qobiliyatsizlik tushunchasi borasida huquqiy adabiyotlarda turli yondashuvlar keltirilgan bo'lib, B.Xudaybergenov uni bankrotlik to'g'risida ish qo'zg'atilishidan oldin vujudga keladigan va muayyan vaqt davomida saqlanib turuvchi davom etuvchi huquqiy holat sifatida talqin qiladi, ya'ni to'lovga qobiliyatsizlik bankrotlik to'g'risida ish qo'zg'atilishidan oldin vujudga kelib, sud tomonidan bankrotlik tartib-taomillari yakunlangunga qadar yoki qarzdorning to'lov qobiliyati tiklanmagunga qadar saqlanib turishini ifodalaydi⁴⁰. Bu yondashuv to'lovga qobiliyatsizlikni faqat muayyan bir paytdagi holat emas, balki vaqt davomida rivojlanuvchi jarayon sifatida ko'rish imkonini beradi. Boshqa bir guruh olimlar to'lovga qobiliyatsizlikni funksional yondashuv asosida baholab, uni qarzdorning to'lovlarni to'xtatganligi natijasida o'z pul majburiyatlarini bajara olmasligi bilan bog'laydilar ⁴¹. Ushbu yondashuvda asosiy e'tibor majburiyatlarni bajarish jarayoniga qaratilgan bo'lib, to'lov intizomining buzilishi to'lovga qobiliyatsizlikning asosiy belgisi sifatida qaraladi. Shuningdek, ayrim huquqshunoslar to'lovga qobiliyatsizlikni mulkiy yondashuv nuqtayi nazaridan talqin qilib, uni qarzdorning qarzlarni

банкrotlik ишларини кўришнинг ўзига хос хусусиятлари. Монография. – Т.: ТДЮИ нашриёти, 2013. – Б. 22.

⁴⁰ Худайбергенов Б.Б. Суд санациясининг ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш масалалари. Монография. Масъул муҳаррир: ю.ф.д., проф. К.О.Синдаров. – Т., ТДЮУ, 2018.– Б.27.

⁴¹ Телюкина М.В. Теория и практика несостоятельности (банкротства). – М., 2002. – С. 105; Попондопуло В.Ф. Проблемы совершенствования законодательства о несостоятельности (банкротстве) // Правоведение. – 2006. – №3. – С. 23; Москалева О.А. Категория неплатежеспособности в конкурсном праве России // Предпринимательское право. – 2007. – №4. – С. 24.

qoplash uchun yetarli miqdorda mol-mulki yoki pul mablag'larining mavjud emasligi bilan izohlaydilar ⁴². Bu yondashuvda to'lovga qobiliyatsizlik qarzdorning aktivlari va passivlari o'rtasidagi nomutanosiblik natijasi sifatida namoyon bo'ladi.

Shu tariqa, mazkur yondashuvlar o'zaro raqobatlashuvchi emas, balki bir-birini to'ldiruvchi nazariy pozitsiyalar sifatida baholanishi lozim. Ularni kompleks qo'llash to'lovga qobiliyatsizlikning iqtisodiy, moliyaviy va huquqiy jihatlarini chuqurroq anglashga, ayniqsa qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlariga xos bo'lgan mavsumiylik, tabiiy xavf-xatarlar va ishlab chiqarish siklining uzoqligi ta'sirini inobatga olgan holda ushbu tushunchani yanada aniq va mazmunli shakllantirishga xizmat qiladi. Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligi bu subyektning moliyaviy majburiyatlarini belgilangan muddatlarda bajara olmasligi bilan namoyon bo'ladigan va bankrotlik to'g'risidagi sud tartib-taomillari qo'zg'atilishidan oldin ham rivojlanishi mumkin bo'lgan, qarzdorning to'lov qobiliyati tiklanmay, sud tomonidan bankrotlik sifatida rasman e'tirof etilgunga qadar saqlanib turuvchi davomiy huquqiy-iqtisodiy jarayondir.

Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligi institutining shakllanishi va rivojlanishi o'ziga xos tarixiy-iqtisodiy sharoitlar ta'sirida kechgan. Tarixiy rivojlanish jarayonida xalqimizning qishloq xo'jaligi sohasidagi faolligi, tadbirkorlik va ishbilarmonlik sifatlari alohida ahamiyat kasb etib, ushbu soha jamiyat va davlat iqtisodiy barqarorligining asosiy tayanchlaridan biri bo'lib kelgan. Ayniqsa, Amir Temur davrida dehqonlar va raiyatdan dehqonchilik qilishga qurbi yetmay qolganda (iqtisodiy nochor holga tushganda – R.B.), ularga ekin-terim uchun zarur urug', asboblari tayyorlanib

⁴² Суворов Е.Д. Неплатежеспособность как основание для признания индивидуального предпринимателя банкротом // Несостоятельность (банкротство): Научно-практический комментарий новелл законодательства и практики его применения / Под ред. В.В. Витрянского. – М.: Статус, 2010. – С. 319.

taqdim qilish buyurilganligi⁴³ qishloq xo'jaligida tadbirkorlik faoliyati jamiyat va davlat rivojida muhimligini, ular to'lovga qobiliyatsiz bo'lib qolmasligi uchun davlat tomonidan maxsus qo'llab-quvvatlash choralari ko'rilganligidan dalolat beradi.

Mazkur institutning genezisida qishloq xo'jaligi subyektlarining iqtisodiy nochorligi tabiiy ofatlar, hosilsizlik, urushlar yoki soliq yukining ortishi kabi omillar bilan izohlangan va bunday holatlar qarzlarni kechirish, soliq imtiyozlari berish yoki yer munosabatlarini qayta ko'rib chiqish orqali hal etilgan. Shu ma'noda, to'lovga qobiliyatsizlik huquqiy emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy muammo sifatida qabul qilingan, ya'ni bu institutning ilk bosqichlari huquqiy mexanizmlardan ko'ra iqtisodiy va ijtimoiy vositalar orqali shakllangan.

Sovet iqtisodiy tizimi sharoitida qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlari mavjud bo'lmagani sababli bankrotlik instituti qonunda formal jihatdan belgilangan bo'lsa-da, amalda inkor etildi. Ushbu tuzilmalar davlat tomonidan to'liq moliyaviy qo'llab-quvvatlangan bo'lib, ularning iqtisodiy nochorligi bilan bog'liq masalalar sud tomonidan emas, balki davlat organlari orqali hal etilgan. Bu davrda to'lovga qobiliyatsizlik kategoriyasi mustaqil huquqiy tushuncha sifatida shakllanmagan, balki reja ko'rsatkichlarining bajarilmasligi yoki xo'jalik faoliyati samaradorligining pastligi sifatida baholangan. Ayrim nodavlat mulkka asoslangan xo'jaliklar o'rtasida nizolar ham yuzaga kelgan⁴⁴, ammo qishloq xo'jaligi ishlab chiqarilishida davlat monopoliyasi sharoitida bankrotlikning qonuniy jihatdan mustahkamlanishi deyarli ma'nosiz edi, chunki iqtisodiy mas'uliyat asosan davlatning moliyaviy intervensiyasi orqali ta'minlangan.

⁴³ Темур тузуклари. Форсчадан А.Соғуний ва Ҳ.Кароматов таржимаси. <http://www.temurtuzuklari.uz/uz#>. - Б. 36-39.

⁴⁴ Жилинский С.Э. Предпринимательское право (правовая основа предпринимательской деятельности). Учебник для вузов. Изд. 2-ое, испр. И доп. – М.: «ИНФРА-М-НОРМА». 1999. С.574.

O'zbekistonda mustaqillikdan so'ng bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida qishloq xo'jaligi sohadagi xo'jaliklari jamoa xo'jaliklariga, kooperativlarga va davlatga qarashli bo'lmagan boshqa xo'jaliklarga aylantirildi⁴⁵, lekin keyinchalik ularning to'lovga qobiliyatsizligi muammosi ham obyektiv ravishda yuzaga chiqdi. Natijada, qishloq xo'jaligida tadbirkorlarni sog'lomlashtirish choralari ko'rish uchun bosqichma bosqich fermer xo'jaliklari, dehqon xo'jaliklari va turli tashkiliy-huquqiy shakldagi agrar tuzilmalar iqtisodiy mustaqil subyekt sifatida tashkil etilib, faoliyat yuritish boshladi⁴⁶. To'lovga qobiliyatsizlik chorasini sifatida banklar va mahsulot yetkazib beruvchilarga to'lanadigan qarzlari kechiktirish, jarimalardan kechish, davlat tomonidan sog'lomlashtirishga qaratilgan sudgacha sanatsiya qilish mexanizmlari ishlab chiqildi⁴⁷. Mazkur bosqichda to'lovga qobiliyatsizlik instituti, bir tomondan, umumiy bankrotlik institutining tarkibiy qismi sifatida qaralsa, ikkinchi tomondan esa qishloq xo'jaligining o'ziga xos iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatlarini hisobga olgan holda maxsus huquqiy yondashuvni talab etuvchi institut sifatida shakllana boshladi.

Zamonaviy bosqichda qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligi bankrotlikni e'lon qilishga qaratilgan faqatgina repressiv mexanizm sifatida emas, balki subyektning iqtisodiy barqarorligini tiklash, uni saqlab qolish va faoliyatini davom ettirishga qaratilgan huquqiy institut sifatida talqin etilmoqda⁴⁸. Bu yondashuv qishloq xo'jaligining milliy

⁴⁵ Вазирлар Маҳкамасининг «Давлат қишлоқ хўжалиги корхоналарига молиявий ёрдам кўрсатиш ва уларнинг хўжалик юритиш шакллари тақомиллаштириш тўғрисида» 1992 йил 21 январдаги 21-сон ва «Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигида иқтисодий ислохотларни янада чуқурлаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» 1993 йил 7 январдаги 13-сонли қарорларининг қандай бажарилаётганлиги ҳақида <https://lex.uz/docs/892421?query=%D2%9B%D0%B8%D1%88%D0%BB%D0%BE%D2%9B%20%D1%85%D1%9E%D0%B6%D0%B0%D0%BB%D0%B8%D0%B3%D0%B8#sr-1>

⁴⁶ Шукуруллаев А.Х. Қишлоқ хўжалик корхоналарини қайта ташкил этиш ва тугатишнинг фуқаролик ҳуқуқий тартибга солиниши: юрид. фан. ном. ... дис. Ташкент, 2001. – Б. 131.

⁴⁷ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1998 йил 14 январдаги 21-сон қарори билан қишлоқ хўжалиги корхоналарини санация қилиш тартиби тасдиқланди. <https://lex.uz/docs/701154?query=%D2%9B%D0%B8%D1%88%D0%BB%D0%BE%D2%9B%20%D1%85%D1%9E%D0%B6%D0%B0%D0%BB%D0%B8%D0%B3%D0%B8#701159>

⁴⁸ Xudaybergenov B.B. To'lovga qobiliyatsizlikni tartibga solishga doir tendensiyalar // Yuridik fanlar axborotnomasi. Ilmiy-amaliy huquqiy jurnal. 2022. № 2. – B. 100-115.

iqtisodiyotdagi strategik ahamiyati, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va qishloq aholisining ijtimoiy himoyasi bilan izohlanadi. Shu tariqa, qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligi tarixi uning ijtimoiy-iqtisodiy muammodan mustaqil huquqiy institutgacha bo'lgan evolyutsiyasini aks ettirib, qishloq xo'jaligi uchun maxsus to'lovga qobiliyatsizlik modelini ishlab chiqish zaruratini ilmiy jihatdan asoslaydi. Bu maqsadda qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligi tushunchasining nazariy asoslari yaratildi va uni mustahkam huquqiy institut sifatida tartibga soluvchi maxsus qonun qabul qilindi. Ushbu qonun qishloq xo'jaligida faoliyat yurituvchi fermerlar, dehqon xo'jaliklari, agrofirmalar va boshqa tadbirkorlik subyektlari uchun to'lovga qobiliyatsizlik holatlari, ularni aniqlash tartibi, tiklash va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash mexanizmlarini alohida belgilab, sohada huquqiy himoyani mustahkamlaydi.

Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligiga doir tamoyillar qonunchilikda alohida yagona tizimlashtirilgan bo'lmasa-da, ushbu sohadagi munosabatlarni tartibga soluvchi prinsiplar ko'pincha turli moddalar mazmunida aks etgan. Zero, to'lovga qobiliyatsizlik jarayonlarini tartibga soluvchi qonunchilik kopseptual g'oyalar va tartibga soluvchi asosiy tamoyillardan holi tarzida ishlashi mumkin emas.

Huquqiy adabiyotlarda to'lovga qobiliyatsizlik sohasidagi tamoyillar bir qator olimlar tomonidan tahlil qilingan. Xususan, B.Xudaybergenov fikricha⁴⁹, ushbu munosabatlar mulkiy javobgarlik, insofli qarzdorga imkoni qadar imtiyoz berish, qarzdorni kreditorlarning qonunga zid harakatlaridan himoya qilish, kreditorlar manfaatlariga zid tuzilgan bitimning haqiqiy emasligi, to'lovga qobiliyatsizlik belgilarining isbotlanishi hamda talablarni adolatli va navbat bilan qanoatlantirish kabi tamoyillarga asoslanadi. V.M.Polyakov esa qonunning boshqa normativ-huquqiy hujjatlardan ustuvorligi, tadbirkorlik

⁴⁹ Xudaybergenov B.B. To'lovga qobiliyatsizlikni huquqiy tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari: sanatsiya va bankrotlik: yurid. fan. dok. ... diss. Toshkent, 2023. – B. 44.

subyektini saqlab qolish va to'lov qobiliyatini tiklash, imkoniyati bo'lmaganida qarzdorning mol-mulkini tugatib kreditorlarning talablarini adolatli taqsimlash hamda bankrotlik to'g'risidagi ish yuritishni davlat tomonidan tartibga solish kabi prinsiplarni alohida qayd etadi⁵⁰. Huquqshunos F.Ibratova esa ushbu tamoyillarni tadbirkorlik subyektlarini bankrot deb topish bilan bog'liq xususiyatlar nuqtayi nazaridan izohlab, adolatlilik va mutanosiblik, subyektlar huquqlarining tengligi, tugatish massasini mutanosib taqsimlash, kreditorlarning talablarini individual tartibda qondirishni taqiqlash, talablarni navbat bilan qondirish va navbat talablari to'liq bajarilganidan so'ng qolgan navbatning talablarini qondirish kabi umumiy huquq prinsiplariga asoslanishini⁵¹ e'tirof etadi.

Mazkur tadqiqotlarda to'lovga qobiliyatsizlik tamoyillari asosan umumiy xarakterda keltirilgan bo'lib, ularning sohaviy yoki qishloq xo'jaligi subyektlariga xos maxsus xususiyatlari yetarli darajada ajratilmagan. Zero, qishloq xo'jaligi sohasida ular alohida institutsional va funksional yondashuvni talab qiladi, chunki ushbu subyektlar iqtisodiy va moliyaviy jihatdan o'zgacha xususiyatlarga ega bo'lib, qishloq xo'jaligining iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati, ishlab chiqarish jarayonining yuqori darajada xavf-xatarlilik, shuningdek, davlat manfaatlarining ustuvorligi mazkur sohada to'lovga qobiliyatsizlikni tartibga solishda maxsus tamoyillar tizimini shakllantirishni obyektiv ravishda taqozo etadi.

Fikrimizcha, to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi qonunchilikda qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligini tartibga soluvchi normalarni sistematik va maqsadli talqin qilish orqali ushbu institutining tamoyillar tizimini shakllantirish mumkin. Bu joyda tamoyillar ikki asosiy guruhga ya'ni umumiy (barcha tadbirkorlik subyektlariga tatbiq

⁵⁰ Поляков Б.М. Право несостоятельности (банкротства) в Украине. - К.: Концерн «Видавничий Дім «Ін Юре», 2003. - 440 с.

⁵¹ Ибратова Ф.Б. Тadbirkorlik субъектларини банкрот деб топишнинг фуқаролик-ҳуқуқий муаммолари: юрид. фан. док. ... дис. Тошкент, 2021. – Б. 34.

etiladigan) va maxsus (agrar sohaning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadigan) tamoyillarga bo'linadi.

Umumiy tamoyillar qonunning asosiy qoidalari va to'lovga qobiliyatsizlik institutining umumiy tamoyillari asosida belgilanib, ular barcha tadbirkorlik subyektlariga, shu jumladan qishloq xo'jaligi subyektlariga ham tatbiq qilinishi mumkin. Xususan, qonuniylik tamoyili to'lovga qobiliyatsizlikka oid barcha tartib-taomillar qonun talablariga qat'iy rioya etilgan holda amalga oshirilishi lozimligini, kreditorlar manfaatlarini teng himoya qilish tamoyili qarzdorning mol-mulkidan oqilona foydalanish va kreditor talablarini qonuniy tartibda qondirish ustuvor hisoblanishini, ijtimoiy adolatlilik va mutanosiblik tamoyili qo'llaniladigan chora-tadbirlar qarzdorning moliyaviy ahvoli va qarz miqdoriga mutanosib bo'lishi shartligini, to'lovga qobiliyatsizlikni sud orqali e'tirof etish tamoyili qarzdorning to'lovga qobiliyatsizligi faqat sud tartibida belgilanishini va taraflar huquq va manfaatlarining muvozanati tamoyili esa qarzdor, kreditorlar va davlat manfaatlari o'rtasida oqilona muvozanat ta'minlanishi lozimligi belgilaydi. Maxsus tamoyillar esa qishloq xo'jaligi sohasining iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatlaridan kelib chiqib, to'lovga qobiliyatsizlik jarayonini samarali tartibga solishga qaratilgan bo'ladi. Avvalo, to'lovga qobiliyatsizlikni oldini olish ustuvorligi tamoyili bu qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning ijtimoiy ahamiyatini hisobga olgan holda qarzdorni tugatish emas, balki to'lov qobiliyatini tiklash choralari ustuvor hisoblasa, ishlab chiqarish uzluksizligini ta'minlash tamoyili esa mavsumiylik va oziq-ovqat xavfsizligi sababli qishloq xo'jaligi subyektlari faoliyati imkon qadar to'xtatib qo'yilmasligi talab etadi. Tabiiy-iqlim omillarini hisobga olish tamoyili qarzdorning to'lov qobiliyatini baholashda tabiiy ofatlar, hosildorlik va ob-havo sharoitlari e'tiborga olinishi zarurligi belgilasa, yer resurslarining maxsus huquqiy rejimi tamoyili esa qishloq xo'jaligi yerlari fuqarolik muomalasida cheklangan obyekt sifatida hisoblab, bankrotlik jarayonida ularga nisbatan alohida huquqiy yondashuv

talab etadi. Davlat va jamiyat manfaatlarini hisobga olish tamoyili qishloq xo'jaligi subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligi oziq-ovqat xavfsizligi, bandlik va ijtimoiy barqarorlikka ta'sir ko'rsatishini ifodalasa, q o'llab-quvvatlash choralari bilan uyg'unlik tamoyili davlat subsidiyalari, imtiyozli kreditlar va restrukturizatsiya mexanizmlari bilan uyg'un qo'llanilishi lozimligi ko'rsatadi.

Umuman olganda, qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligiga oid munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik tamoyillarini tizimlashtirish hamda ularni qonun hujjatlarida alohida modda orqali aniq ifodalash zarur, deb hisoblaymiz. Chunki sud amaliyoti tahlili shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi sohasida to'lovga qobiliyatsizlik taomillarida yuzaga keladigan barcha munosabatlar ham qonunchilikda yetarli darajada huquqiy tartibga solinmagan. Ayniqsa, mavsumiylik, tabiiy-iqlim omillariga yuqori darajada bog'liqlik hamda ishlab chiqarish davriining uzoqligi bilan bog'liq nizoli holatlar mavjud bo'lib, ularni hal etishda ijtimoiy adolat, manfaatlar muvozanati va mutanosiblik kabi umumhuquqiy tamoyillarga tayanish talab etiladi⁵².

Bunday sharoitda sudlar ishni ko'rib chiqish jarayonida amaldagi iqtisodiy vaziyat yoki o'z amaliyotiy tajribasiga tayangan holda qaror qabul qilishga majbur bo'lmoqda. Bu esa, o'z navbatida, qishloq xo'jaligida to'lovga qobiliyatsizlik ishlarida ishtirok etuvchi kreditorlarning manfaatleri to'liq va teng darajada ta'minlanmasligi, shuningdek, sohaviy xususiyatlarni inobatga olmagan holda yagona sud amaliyoti shakllanishiga olib kelishi mumkin.

Shu bois, to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi qonunchilikka qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligiga xos bo'lgan asosiy tamoyillarni belgilab beruvchi alohida moddalarni kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi. Xususan, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining

⁵² Sirdaryo viloyati Xovos tumanida fermer xo'jaliklarining yer maydonlarini olinib, auksionga chiqarilishda bilan bog'liq nizolar ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokama qilinmoqda.// <https://kun.uz/kr/news/2026/01/13/xovosda-fermerlarning-yerlari-ommaviy-tortib-olinyapti>; <https://kun.uz/kr/news/2026/01/24/110-ta-fermer-bankrot-bolsa-bu-tizimning-muammosi-faollar>

mavsumiyligini hisobga olish, yer va qishloq xo'jaligi maqsadidagi mol-mulkni saqlash ustuvorligi, ishlab chiqarish faoliyatining uzluksizligini ta'minlash, kreditorlar manfaatlarining muvozanatini saqlash hamda sud nazoratining kuchaytirilgan shaklini joriy etish kabi prinsiplarni qonun darajasida mustahkamlash zarur. Qonunga 177¹-modda sifatida yangi "Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligiga oid asosiy tamoyillar" nomli qoidalarni joriy etish qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy barqarorligini saqlash hamda to'lovga qobiliyatsizlik ishlarida barqaror va adolatli sud amaliyotini shakllantirishga xizmat qiladi.

1.2.§ Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligining alomatlari va modeli yondashuvlarning mazmuni

To'lovga qobiliyatsizlik alomatlari qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining har qanday iqtisodiy-huquqiy modeli uchun fundamental ahamiyatga ega bo'lgan konseptual kategoriya hisoblanadi. Mazkur alomatlar qishloq xo'jaligi sohasida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlarining o'z zimmasiga olgan pul majburiyatlarini belgilangan muddatlarda va to'liq hajmda bajara olmaslik holatini ifodalovchi obyektiv va subyektiv ko'rsatkichlar majmuini aks ettiradi⁵³. Shu bilan birga, to'lovga qobiliyatsizlik alomatlarining mazmuni, chegaralari va huquqiy ahamiyati bo'yicha yagona ilmiy doktrina, qonunchilik va sud amaliyoti orasida ham barqaror yondashuv hali shakllanmaganligi, bu sohada qo'shimcha huquqiy tahlil va izlanishlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

⁵³ Туркина А. А. Институт несостоятельности (банкротства) сельскохозяйственных товаропроизводителей в российском праве: Дис. ... канд. юрид. наук. М., 2003. С. 102.; Лысенко Л.А. Проблемы несостоятельности (банкротства) субъектов предпринимательства сферы сельскохозяйственного производства по законодательству Российской Федерации: Дис. ... канд. юрид. наук. Ростов н/Д, 2003. С. 120.; Зубренкова О.А., Лисенкова Е.В., Ильин А.С. Оценка вероятности прогнозирования банкротства сельскохозяйственных организаций // Фундаментальные исследования. 2020. № 12. С. 74-79.

Huquqiy nazariyada hamda to'lovga qobiliyatsizlik instituti doirasida "alamat" va "belgi" tushunchalari mazmunan va funksional jihatdan o'zaro yaqin bo'lsa-da, milliy qonunchiligimizda ular, qoida tariqasida, aniq farqlantirilmasdan to'lovga qobiliyatsizlikning "alomatlari" sifatida umumiy tushuncha doirasida qo'llanilmoqda.

Qonunchiligimizda to'lovga qobiliyatsizlik belgilari o'rnida ham yagona alomatlari doirasida ifodalanib, yillar davomida turlicha ko'rinishda talqin qilinib kelingan. Xususan, 1994 yilgi "Bankrotlik to'g'risida"gi qonunida qarzdorlik majburiyatlarini, jumladan kreditorlar va budjet hamda budjetdan tashqari fondlarga bo'lgan to'lovlarni mol-mulki orqali qondira olmasligi hamda to'lov muddatini uch oydan ortiq bajarmaganligi tashqi alomatlar sifatida belgilangan bo'lsa, mazkur qonunning 1998 yilgi tahrirda esa, ushbu alomatlar subyektlar doirasida biroz o'zgarib, yuridik shaxslar uchun olti oy, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun uch oylik muddatda majburiyatlarni qanoatlantirilmassligida ifodalandi. Yuqoridagi qonunning 2003 yildagi tahrirda esa bankrotlikning asosiy belgilari (alomatlari) o'zgarishsiz qoldi, faqatgina qarzdor qarz summasini qoplashni amalga oshirishi lozim bo'lgan muddatgina o'zgardi. To'lovga qobiliyatsizlik quyidagi prezumsiyani nazarda tutadi ya'ni, agarda qarzdor uch oydan ortiq vaqt mobaynida majburiyatlari bo'yicha kreditorlar bilan hisob kitob qilmasa va budjet va budjetdan tashqari fondlarga majburiy to'lovlarni to'lamasa to'lovga qobiliyatsiz sifatida baholanadi. N.V.Lopayeva⁵⁴ ushbu muddatlarning olti oydan uch oyga o'zgartirilishini qonun normalarini muvofiqlashtirish ⁵⁵ bilan izohlaydi. Zero, Ye.A.Maxneva ta'qidaganidek, to'lovga qobiliyatsizlik holatini aniqlash uchun belgilanadigan

⁵⁴ Ўзбекистон Республикасининг "Банкротлик тўғрисида"ги қонунига шарҳлар // Муаллифлар жамоаси: М.К.Азимов ва бошқ. – Тошкент: 2007. – Б. 46.

⁵⁵ О'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq xo'jaligida hisob-kitoblar o'z vaqtida o'tkazilishi uchun korxona va tashkilotlar rahbarlarining mas'uliyatini oshirish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonida tovarlar amalda jo'natilgan, ishlar bajarilgan, xizmatlar ko'rsatilgan kundan boshlab 90 kun o'tgandan keyin mablag'lar kelib tushmaganligi muddati o'tib ketgan debitorlik qarzi deb hisoblanishi nazarda tutilgan // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1995 й., 5-сон, 89-модда.

muddatlar masalasi davlat iqtisodiyotining rivojlanish darajasi bilan uzviy bog'liq sanaladi ⁵⁶. Fikrimizcha, muddatlar masalasi to'lovga qobiliyatsizlikning muhim indikatori sifatida, qarzdorning moliyaviy barqarorligi va to'lov qobiliyatini baholashda huquqiy mezon sifatida qaralishi kerak.

Biroq mazkur kategoriyalarni aynanlashtirish yoki bir-birining o'rnida ishlatish ilmiy-nazariy hamda huquqni qo'llash amaliyoti nuqtayi nazaridan maqbul emas deb hisoblaymiz. Chunki, "alamat" va "belgi" tushunchalari turli darajadagi huquqiy umumlashtirishni ifodalaydi hamda to'lovga qobiliyatsizlik holatini aniqlash jarayonida turlicha funksional vazifani bajaradi.

Bu holat avvalo, to'lovga qobiliyatsizlik huquqining o'z huquqiy tabiatiga ko'ra ommaviy va xususiy huquq elementlarini, shuningdek, moddiy va protsessual huquq normalarini o'zida mujassam etgan kompleks huquqiy soha sifatida namoyon bo'lishi bilan izohlanadi. Mazkur institut doirasida fuqarolik, xo'jalik, moliya, soliq hamda protsessual huquq, qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlariga nisbatan agrar huquq normalarining o'zaro kesishuvi mavjud bo'lib, uni tartibga soluvchi huquqiy mexanizmlar iqtisodiy omillar va bozor munosabatlari bilan uzviy bog'liqdir⁵⁷. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi sohasida ishlab chiqarish jarayonlarining mavsumiyligi, daromadlar shakllanishining notengligi, tabiiy-iqlim xavf-xatarlarining yuqori darajada ekanligi to'lovga qobiliyatsizlik holatini aniqlash va unga huquqiy baho berish jarayonini yanada murakkablashtiradi.

Ilmiy-nazariy nuqtayi nazardan, to'lovga qobiliyatsizlik alomatlari umumiy ma'noda qarzdorning kreditorlar oldidagi talablarni qanoatlantirish imkoniyatidan mahrum ekanligini, ya'ni uning moliyaviy-iqtisodiy holatida shakllangan salbiy tendensiyalarni aks ettiradigan baholovchi kategoriya

⁵⁶ Махнева Е.А. Развитие гражданских правоотношений в процедурах банкротства: дисс. ... канд. юрид. наук. – М., 2002. – С. 112.

⁵⁷ Жилинский С. Э. Предпринимательское право (правовая основа предпринимательской деятельности): учебник для вузов. 8-е изд. М.: Издательство НОРМА, 2007. С. 865; Кораев К.Б. Правовое положение неплатежеспособного должника: дис. ... докт. юрид. наук. – Санкт-Петербург, 2014. – С. 24.

sifatida namoyon bo'ladi. To'lovga qobiliyatsizlik belgilari esa ushbu imkoniyatsizlikning huquqiy jihatdan aniqlashtirilgan parametrlarini belgilab beradi, jumladan, qaysi turdagi kreditor talablari bajarilmaganligi, ularning miqdori hamda ushbu majburiyatlar qancha muddat davomida ijro etilmaganligini ifoda etadi. Aynan shu belgilar yig'indisi to'lovga qobiliyatsizlikni yuridik fakt⁵⁸ sifatida shakllantirishga xizmat qiladi hamda to'lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarini qo'llash uchun zarur bo'lgan huquqiy asosni vujudga keltiradi. To'lovga qobiliyatsizlik alomatlarini aniqlashda qarzdorlik miqdori muhim huquqiy va iqtisodiy mezon sifatida baholanadi.

Fikrimizcha, to'lovga qobiliyatsizlik alomati bu qarzdorning o'z majburiyatlarini bajara olmayotganligida namoyon bo'ladigan moliyaviy va iqtisodiy holat bo'lib, sud hamda ekspert-xulosalarda baholanadi. Ushbu alomatlarga uzluksiz qarz kechiktirish, naqd pul oqimining yetishmasligi va uzoq muddatli ijobiy moliyaviy natijalarning yo'qligida namoyon bo'ladi. To'lovga qobiliyatsizlik belgisi esa ushbu alomatning aniq va obyektiv ko'rinishidir. Belgilar kreditorlarning qaysi talablari, uning miqdori va qancha muddat bajarilmaganligida ifodalanadi. Shu tarzda, alomat va belgilar bir-biriga bog'liq bo'lib, alomat to'lovga qobiliyatsizlikning mavjudligini ko'rsatsa, belgilar uning aniq hodisa va ko'rinishini ifodalaydi.

Sohani tartibga soluvchi yangi Qonunda qarzdorlik miqdorini chegarasi o'z ifodasini topmaganligi⁵⁹ bois, hozirgi vaqtda huquqni qo'llash amaliyotida kreditorlar sudga ariza berganda qarzdorlikning umumiy hajmi asosiy mezon sifatida hisoblanmaydi, balki huquqiy baholashda asosiy e'tibor qarzdorning majburiyatlarni bajarmaganlik fakti va uning uch oy mobaynida davom etgan to'lov kechikishiga qaratilmoqda. Sud amaliyotida qarzdorlik miqdorining aniq va me'yoriy chegaralari belgilanmaganligi sababli, qarzdorning miqdori har

⁵⁸ Ткачёв В.Н. Конкурсное право. Правовое регулирование несостоятельности (банкротства) в России: учеб.пособие. М.: Юнити-Дана, 2012. – С. 80.

⁵⁹ “Bankrotlik to'g'risida”gi Qonunda farqli ravishda “To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida”gi Qonunda qarzdorlik minimal miqdor chegarasi belgilanmadi.

qanday darajada bo'lsa ham to'lovga qobiliyatsizlikka oid ish qo'zg'atish uchun asos sifatida qaralmoqda.

To'lovga qobiliyatsizlik alomatlarining birlamchi muhim belgilaridan bo'lgan asosiy qarzdorlik yoki boshqacha aytganda pul majburiyatlari bo'lib, uning tarkibi va miqdori borasida olimlar o'rtasida turlicha fikrlar bildirilmoqda. Ularni turkumiga mehnat munosabatlaridan kelib chiqadigan qarzdorlik⁶⁰ hamda ushbu yo'nalishdagi boshqa majburiy to'lovlarni⁶¹ kiritish masalasi yuzasidan takliflar ilgari surilmoqda.

Fikrimizcha, bu fikrga qo'shilish bahsli sanaladi, chunki mehnat munosabatlaridan kelib chiqadigan majburiyatlar, avvalo, xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ularning huquqiy tabiati fuqarolik-huquqiy yoki tijorat majburiyatlaridan farq qiladi. Bunday qarzdorlik ko'p hollarda xo'jalikning vaqtinchalik moliyaviy qiyinchiliklari natijasida yuzaga kelishi mumkin va u har doim ham qarzdorning barqaror to'lovga qobiliyatsizligini anglatmaydi. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi sohasida bu masala yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki mazkur tarmoqda ishlab chiqarish jarayoni mavsumiy xususiyatga ega bo'lib, daromadlarning asosiy qismi hosil yig'ib olinganidan keyin shakllanadi. Natijada ayrim davrlarda ish haqi bo'yicha qarzdorlikning yuzaga kelishi korxonaning mutlaq moliyaviy nochorligini emas, balki agrar ishlab chiqarish siklining o'ziga xos iqtisodiy xususiyatlarini ifodalaydi. Shu nuqtayi nazardan, mehnat munosabatlaridan kelib chiqqan qarzdorlikni avtomatik tarzda to'lovga qobiliyatsizlik alomati sifatida baholash asosli hisoblanmaydi.

⁶⁰ Брагинский М.И., Витрянский В.В. Договорное право. Книга 1. Общие положения. 2-изд. – Москва, 2000. – С. 22. Борисенкова Т.В. Соотношение частных и общих интересов при правовом регулировании банкротства юридических лиц: дис. ... канд. юрид. наук. Москва. 2008. – С. 29.; Новоселова Л.А. Проценты по денежным обязательствам. – Москва, «Статут», 2000. – С. 29.; Ибратова Ф.Б. Тадбиркорлик субъектларини банкрот деб топишнинг фуқаролик-ҳуқуқий муаммолари: юрид. фан. док. ... дис. Тошкент, 2021. – Б. 23-24.

⁶¹ Xudaybergenov B.B. To'lovga qobiliyatsizlik vujudga kelishiga asos bo'ladigan talablar: pul majburiyatlari va majburiy to'lovlar // "Yurisprudensiya" jurnali. 2022. № 3. – B. 74-88.

Qishloq xo'jaligi sohasida tadbirkorlik subyektlariga nisbatan sud to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida ishni qo'zg'atish uchun ikkilamchi talablar penya va jarimalarga tayangan holda yoki ularni asosiy qarzg'a qo'shib hisoblash orqali amalga oshirilishi amaliyoti mavjud. Bu borada huquqshunos olimi F.B.Ibratova rivojlangan davlatlar hamda MDHga a'zo mamlakatlar qonunchilik amaliyotida neustoyka (jarima, penya) va boshqa moliyaviy sanksiyalar majburiy to'lovlar yoki pul majburiyatlari tarkibiga kiritilmasligini, huquqiy tabiatidan kelib chiqib neustoyka kompensatsiyaviy va sanksiyaviy xususiyatga ega bo'lgani sababli uni bankrotlik alomatlari tarkibidan chiqarib tashlashni taklif etadi⁶². Ushbu yondashuvni qo'llab-quvvatlagan B.Xudaybergenov esa ikkilamchi qarzlار asosida ish qo'zg'atilishi to'lovga qobiliyatsizlik institutining maqsadiga zid bo'lib, qarzdorga nisbatan jazo chorasi sifatida qaralishi mumkinligini ta'kidlaydi⁶³.

Fikrimizcha, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlardan farqli ravishda, har qanday miqdordagi penya yoki jarimalar hamda qo'llanilgan moliyaviy sanksiyalar faqat sud orqali nizolashilgan va miqdori sud hujjati bilan aniqlanib, qonuniy kuchga kirgan hollardagina bajarilishi lozim bo'lgan pul majburiyatlari sifatida e'tirof etilishi mumkin. Shu tariqa, ular to'lovga qobiliyatsizlik alomatlari tarkibiga hamda kreditorlar reyestriga kiritish uchun asos bo'ladi. Buning sababi shundaki, sud qarori bilan huquqiy baho berilgan va belgilangan majburiyat o'z vaqtida ijro etilmagan taqdirda, ushbu pul majburiyatlari asosiy (boqimanda) qarzdorlikka aylanadi, ya'ni qishloq xo'jaligida tadbirkorning moliyaviy holatiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, sud amaliyotida kredit hisobiga mulkini garovga qo'ygan qishloq xo'jaligi tadbirkorlik subyektlariga nisbatan, garov mulki bilan qarzdorlik majburiyati bajarilmaganligi tufayli to'lovga qobiliyatsizlik alomati

⁶² Ибратова Ф.Б. Тadbirkorlik субъектларини банкрот деб топишнинг фуқаролик-ҳуқуқий муаммолари: юрид. фан. док. ... дис. Тошкент, 2021. – Б. 26-27.

⁶³ Xudaybergenov B.B. To'lovga qobiliyatsizlikni huquqiy tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari: sanatsiya va bankrotlik: yurid. fan. dok. ... diss. Toshkent, 2023. – B. 29.

yuzaga kelgan deb baholanishi va garovga qo'yuvchi subyektни to'lovga qobiliyatsiz deb topish bo'yicha turli amaliyot va qarashlar mavjud. Ba'zi holatlarda sudlar garov majburiyati to'liq bajarilmagan bo'lsa ham, asosiy pul majburiyatining mavjud emasligi tufayli qarzdorning to'lovga qobiliyatsizligi xulosasi chiqarishmoqda. Bu masaladagi amaliyot va huquqiy talqinlar farqli bo'lishi, qishloq xo'jaligi sohasidagi tadbirkorlar uchun to'lovga qobiliyatsizlik alomatlarini baholashda yagona va aniq mezonlarni ishlab chiqishning dolzarbligini ko'rsatadi.

Fikrimizcha, qishloq xo'jaligida garovga qo'yuvchi tadbirkor shartnoma yoki sud qarori orqali to'g'ridan to'g'ri muayyan pul majburiyatini olmagan bo'lsa ham, tegishli majburiyatlarni olganligi, ya'ni qarzdorlikni garov mulki orqali qoplash majburiyati yuzaga kelganligi holatida, ushbu majburiyat yuzaga kelgan sanadan e'tiboran olti oy ichida qarzdor tomonidan bajarilmagan bo'lsa⁶⁴, unga nisbatan ham to'lovga qobiliyatsizlik alomatlari mavjudligi haqida xulosa qilish mumkin. Shunga ko'ra, qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy holatini baholashda garov majburiyatlari ham nazarda tutilgan modeli yondashuvlar qo'llanilishi lozim.

Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligini baholashda qarzdorlik miqdori muhim belgi sanalishi borasida turlicha qarashlar mavjud. T.M. Suslova to'lovga qobiliyatsizlikni aniqlashda qarzdorlik summasining miqdorini asosiy alomat sifatida belgilash maqsadga muvofiq emas, deb hisoblab, ushbu mezonni qonun hujjatlaridan chiqarishni taklif etadi⁶⁵. Muallifning fikricha, qarzdorlik miqdorining belgilanishi to'lovga qobiliyatsizlikning iqtisodiy-huquqiy mohiyatini to'liq ifodalamaydi hamda qarzdorning real moliyaviy holatini baholash imkoniyatlarini cheklaydi. V.V.

⁶⁴ Respublikamiz va MDH davlatlari iqtisodchi olimlari qishloq xo'jaligi korxonalarini to'lovga qobiliyatsizlik alomatlari majburiyat olti oylik muddatda bajarilmagan kundan e'tiboran yuzaga kelishini qayd etishadi // Сергиенко О.В. Антикризисное управление сельскохозяйственными организациями на основе диагностики риска банкротства: Дисс. ...канд.экон.наук. Барнаул, 2006.

⁶⁵ Сусллова Т.М. Несостоятельность и банкротство: экономический и юридический аспекты / Журнал российского права. 2004. № 2. С. 50-54

Vitryanskiy ham ushbu yondashuvni qo'llab-quvvatlab, hamma vaqtda ham qarzdorlikning miqdori muhim shart bo'lmasligi bois, uni qo'llamaslik mantiqan asosli ekanligini, qarzdorlikning miqdori ikkinchi darajali ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi⁶⁶.

Biroq, qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining faoliyat xususiyatlari hamda milliy qonunchilikning amaldagi tartibga solish modeli mazkur yondashuvni to'liq qo'llash imkoniyatini ma'lum darajada cheklaydi. Xususan, ishlab chiqarish jarayonining mavsumiyligi, daromadlarning noteng shakllanishi hamda hosil yetishtirish va uni realizatsiya qilish o'rtasidagi vaqt oralig'ining mavjudligi qarzdorlik miqdorini mutlaq inkor etishni huquqiy jihatdan bahsli qiladi. Zero, N.V.Lopayeva o'rinli ta'kidlaganidek, to'lovga qobiliyatsizlikni baholashda qarzdor tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan qarzdorlik miqdori asosiy mezon hisoblanadi⁶⁷.

Nazarimizda, milliy qonunchilikda qarzdorlik summasining belgilanishi, avvalo, sud amaliyotida ishlarni qo'zg'atish uchun aniq va o'lchab bo'ladigan mezonni ta'minlashga xizmat qiladi hamda huquqiy aniqlik va barqarorlik tamoyillariga muvofiq keladi. Shu munosabat bilan, milliy qonunchilikda qarzdorlik miqdori to'lovga qobiliyatsizlikning yagona yoki hal qiluvchi alomati sifatida emas, balki qarzdorning moliyaviy holati, naqd pul oqimi va ishlab chiqarishning mavsumiy xususiyatlari kabi boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan uyg'unlikda qo'llanilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shu bois, to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ishlarni qo'zg'atishda huquqiy mezonlarni aniq va me'yoriy asosda belgilash maqsadga muvofiqdir. Qonunning 5-moddasida ifodalangan to'lovga qobiliyatsizlik alomatlarida muhim belgilardan biri sifatida qarzdorlik hajmiga minimal talab belgilanishi taklif etiladi. Xususan, agar qishloq xo'jaligi tadbirkorligiga ega yuridik shaxsga

⁶⁶ Витрянский В.В. Постатейный комментарий Федерального закона "О несостоятельности (банкротстве)". М.: НОРМА, 2001. – С.843.

⁶⁷ Ўзбекистон Республикасининг "Банкротлик тўғрисида"ги қонунига шарҳлар // Муаллифлар жамоаси: М.К.Азимов ва бошқ. – Тошкент: 2007. – Б. 47.

nisbatan jami talablar bazaviy hisoblash miqdorining kamida besh yuz karrasini tashkil etsa va to'lovga qobiliyatsizlik alomatlari mavjud bo'lsa, iqtisodiy sud tomonidan ish qo'zg'atilishi huquqiy mezon sifatida qabul qilinishi lozim. Bunda to'lovga qobiliyatsizlik alomatlari iqtisodiy-huquqiy holatning mazmuniy, obyektiv xususiyatini ifodalasa, to'lovga qobiliyatsizlik belgilari esa mazkur holatning huquqiy jihatdan formallashtirilgan, aniq va tekshirib bo'ladigan ko'rinishini tashkil etadi. Bu yondashuv sud amaliyotida to'lovga qobiliyatsizlikni baholashda barqarorlik va prognozlilikni ta'minlaydi, ekspertiza va tahlil uchun aniq mezon yaratadi hamda qishloq xo'jaligi tadbirkorlik subyektlarining vaqtinchalik iqtisodiy qiyinchiliklari bilan haqiqiy huquqiy mas'uliyatini adolatli tarzda ajratish imkonini beradi.

Ma'lumki, to'lovga qobiliyatsizlik alomatlarining yuzaga kelish muddati majburiyatlar yuzaga kelgan vaqtdan boshlanadi. Sudga ushbu alomatlarining mavjudligi asosida murojaat qilishda qonunchilik vaqtinchalik to'lovga qobiliyatsizlik uchun belgilangan uch oylik muddatni ko'rsatadi. Ya'ni, qarzdor tomonidan ushbu muddat davomida tegishli majburiyat bajarilmagan taqdirda, kreditor sudga to'lovga qobiliyatsizlik alomatlari mavjudligi asosida murojaat qilish huquqiga ega bo'ladi va bu qonunchilikda qat'iy belgilangan mezon hisoblanadi.

Biroq, sud amaliyotida tadbirkorlik subyektlari uchun boshqa pul majburiyatlaridan farqli ravishda, soliq va boshqa majburiy to'lovlardan kelib chiqadigan to'lovlarga nisbatan qobiliyatsizlik alomatlari uch oylik muddatdan tashqari ham baholanish holatlari mavjud. Buning asosi sifatida sudlar barcha ijro harakatlari amalga oshirilganligini, ya'ni ijro hujjati sud ijrosidan ijrosiz qaytarilganligini tasdiqlovchi dalillarni ham ilova qilishni nazarda tutadi. Nazarimizda, bu qisman to'g'ri amaliyot hisoblanadi, chunki aynan qishloq xo'jaligi tadbirkor subyektining qarzdorligini qoplash uchun mavjud aktivlar mahsulotning mavsumiyligi bois pishib yetilmagan yoki yig'ishtirib olinmagan

bo'lishi mumkin. Bu esa sud ijro varaqasini davlat ijrosi orqali keyinchalik ijro qilish uchun asos bo'ladigan aktivni yaratishga va qarzdorlikning muayyan darajada qoplanishiga zamin yaratadi.

Shu bois, Qonunning 43-moddasiga 3-qismida iloqa qilinishi lozim bo'lgan hujjatlar qatorini "Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlariga nisbatan berilgan arizalar bo'yicha davlat sud ijrochisining "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi qonunining 40-moddasi 3-qismiga ko'ra qaytarilganligi haqida qarori nusxasi" tarzida, to'ldirish asosida o'zgartirish kiritish taklif etiladi. Bu o'zgartirish qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlari uchun sud amaliyotida yagona va qat'iy huquqiy asosni ta'minlanlash barobarida ularni to'lovga qobiliyatsizlik alomatlarini aniqlashni standartlashtiradi hamda moliyaviy barqarorlikni baholash imkonini kuchaytiradi.

Sud amaliyotidagi to'lovga qobiliyatsizlikka doir ishlar tahlil qilinganda, ko'rilgan sud hujjatlarida qarzdorning to'lovga qobiliyatsizligi alomatlari vaqtinchalik yoki doimiyligiga huquqiy baho deyarli berilmaydi. Nazarimizda, bu huquqni qo'llash amaliyotida sudlar tomonidan yo'l qo'yilayotgan muhim kamchilik hisoblanadi, chunki ushbu alomatlarni aniqlash to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ishlarda sud tomonidan qo'llanadigan asosiy mezonlardan biridir. Vaholanki, qarzdorni to'lovga qobiliyatsizligini alomatlarini dalillarda to'liq aniqlashtirilmagan, bahslar yuzaga kelganda Qonunning 49-moddasi yettinchi qismi mazmuniga muvofiq, sud to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ishni muhokamaga tayyorlash va uni ko'rishning har qanday bosqichida qarzdorning moliyaviy ahvolini aniqlash maqsadida ekspertiza tayinlashga haqli ekanligi belgilangan. Ushbu ekspertiza xulosasi natijasida nafaqat to'lovga qobiliyatsizlik alomatlarining vaqtinchalik yoki doimiyligi aniqlash, shu bilan birga, soxta to'lovga qobiliyatsizlik, to'lov qobiliyatining yashirilishi yoki qasddan to'lovga qobiliyatsizlikka olib kelish

alamatlari holatini o'rganish imkoniyatini beradi. Bu esa qarzdorning to'lovga qobiliyatsizlik alamatlari mavjudligi bo'yicha to'g'ri va qonuniy xulosa qilishiga, to'lovga qobiliyatsizlik taomillarini to'g'ri qo'llashda shuningdek, to'lovga qobiliyatsizlik alamatlarini inkor qilib, arizani rad etish va jinoyat ishini qo'zg'atish masalasini hal etish uchun prokurorga tegishli materiallarni ilova qilish imkonini beradi. Bu esa qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizlik alamatlarini aniqlashda ekspert bahosi va moliyaviy tahlil asosida sud qarorlarida alamatlar vaqtinchalik yoki doimiyligini huquqiy jihatdan aniq belgilash, sohaviy xususiyatlar, mavsumiylik va mahsulotlarning aktivga aylanish darajasini hisobga olish imkonini beradi.

Darhaqiqat, qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarida to'lovga qobiliyatsizlik alamatlarining mavjudligi har doim ham ularning to'lovga mutlaqo qodir emasligi yoki xo'jalik faoliyatini tugatish jarayoniga olib kelinishini anglatmaydi. Bozor munosabatlari sharoitida har qanday xo'jalik yurituvchi subyektning ma'lum darajada qarzdor bo'lishi iqtisodiy jihatdan obyektiv va tabiiy holat hisoblanadi. Shu bois, qonunchilikda nazarda tutilgan to'lovga qobiliyatsizlik alamatlarini ifodalovchi shartlar qarzdorni avtomatik tarzda to'lovga qobiliyatsiz deb e'tirof etishga emas, balki kreditorlar yoki vakolatli davlat organlari tomonidan sudga murojaat qilish uchun zarur bo'lgan huquqiy asoslarni belgilab berishga qaratilgan.

To'lovga qobiliyatsizlikni aniqlashda qarzdorlikning mavjudligi dastlabki va asosiy shart hisoblansa, ushbu majburiyatlarning muayyan vaqt mobaynida bajarilmasdan kelayotganligini aniqlash ikkinchi muhim shart sifatida namoyon bo'ladi. Biroq mazkur ikki mezon bilan cheklanib qolmasdan, to'lovga qobiliyatsizlik alamatlarining darajasini belgilab beruvchi yana bir muhim iqtisodiy-huquqiy ko'rsatkich mavjud. Xususan, qarzdorning majburiyatlari yillik hisobot davrida uning aktivlari qiymatidan oshib ketishi to'lovga qobiliyatsizlikning chuqurlik darajasini aniqlovchi asosiy chegara sifatida

xizmat qiladi. Aynan ushbu mezon orqali to'lovga qobiliyatsizlik holatining vaqtinchalik yoki doimiy xususiyat kasb etganligi aniqlanadi.

Shu nuqtayi nazardan, qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligi to'g'risidagi arizalarni sudlar tomonidan ko'rib chiqishda eng muhim vazifalardan biri qarzdorda to'lovga qobiliyatsizlik alomatlarining qaysi turda namoyon bo'layotganligini, ya'ni mazkur holatning vaqtinchalik yoki doimiy xarakterga ega ekanligini aniq belgilashdan iboratdir. Chunki qishloq xo'jaligi sohasida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy holati, odatda, mavsumiy ishlab chiqarish sikli, tabiiy-iqlim sharoitlari hamda hosildorlik darajasiga bevosita bog'liq bo'lib, to'lovga qobiliyatsizlik alomatlari ko'p hollarda vaqtinchalik tusga ega bo'ladi.

Sud amaliyotida ko'p hollarda fermer xo'jaliklari va boshqa qishloq xo'jaligi subyektlarining yer maydonlarida hosil pishib yetilmagan yoki yig'ishtirib olinmagan davrda ularni to'lovga qobiliyatsiz deb baholash masalasi bahsli holatlarni keltirib chiqaradi. Bunday vaziyatlarda qarzdorning aktivlari tarkibida mavjud bo'lgan, ammo hozircha likvidlikka ega bo'lmagan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (hosil) hisobga olinmasligi natijasida to'lovga qobiliyatsizlik holati noto'g'ri aniqlanishi mumkin.

Shu sababli iqtisodiy sudlar qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarini to'lovga qobiliyatsiz deb topish to'g'risidagi arizalarni ko'rib chiqish jarayonida to'lovga qobiliyatsizlik alomatlarining xarakteriga alohida e'tibor qaratishi lozim. Xususan, to'lovga qobiliyatsizlikni baholash uchun qonunchilikda nazarda tutilgan shartlardan kamida biri mavjud bo'lmagan taqdirda sud arizani ish yuritishga qabul qilishni rad etishga, ariza ish yuritishga qabul qilingan hollarda esa da'vo talablarini qanoatlantirishni rad etish haqida hal qiluv qarori qabul qilishga haqli hisoblanadi.

Shu bilan birga, hatto kreditorlar yig'ilishi tomonidan kuzatuv tartib-taomili yakunlari bo'yicha qarzdorni bankrot deb topish va uni tugatishga doir

ish yuritishni boshlash to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda ham, sud qishloq xo'jaligi subyektlariga xos bo'lgan mavsumiy moliyaviy qiyinchiliklar, ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligi hamda faoliyatni tiklash uchun real iqtisodiy imkoniyatlarni inobatga olgan holda qarzdorga nisbatan to'lov qobiliyatini tiklashga qaratilgan tartib-taomillardan birini joriy etish masalasini ko'rib chiqishi mumkin⁶⁸.

Mazkur yondashuv qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy barqarorligini saqlab qolish, ularning ishlab chiqarish faoliyatini uzluksiz davom ettirish hamda kreditorlar manfaatlari bilan qarzdor manfaatlari o'rtasida oqilona muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi.

Darhaqiqat, Qonunning 5-moddasida to'lovga qobiliyatsizlik alomatleri, asosan, formal-huquqiy mezonlar orqali belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra, pul majburiyatlarining uch oy davomida bajarilmaganligi, sudga murojaat etish vaqtida qarzdorning majburiyatlarni ado etishga qodir emasligi hamda majburiyatlar miqdorining aktivlar qiymatidan oshib ketganligi kabi holatlar huquqiy belgi sifatida e'tirof etiladi.

Mazkur yondashuv, shubhasiz, huquqiy aniqlik va protsessual barqarorlikni ta'minlaydi. Biroq, qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining o'ziga xos iqtisodiy tabiati ushbu formal mezonlarni har doim ham yetarli emasligini ko'rsatadi. Chunki, agrar sohada moliyaviy aylanma mavsumiy xarakterga ega bo'lib, daromadlar yil davomida bir marotaba yoki muayyan davrlarda shakllanadi, xarajatlar esa uzluksiz amalga oshiriladi. Shu sababli uch oylik muddat mezoni ba'zan obyektiv mavsumiy qiyinchilikni doimiy to'lovga qobiliyatsizlik bilan aralashtirib yuborishi mumkin.

Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligini aniqlashda alomatlar va modeli yondashuv muhim ahamiyatga ega. Xorijiy

⁶⁸ Bu holatda sudlar O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi 13-sonli "Iqtisodiy sudlar tomonidan "To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi qarori 9-bandi qoidalariga asoslanishi mumkin.

davlatlar huquqiy doktrinasida esa mazkur institut formal mezonlar va iqtisodiy tahlil vositalari uyg'unlashtirilgan holda qo'llaniladi⁶⁹. Germaniya huquqiy amaliyotida qishloq xo'jaligi subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligini baholashda likvidlik darajasi, aktiv va passivlar nisbati hamda agrar sohaga xos moliyaviy va tabiiy xatarlar kabi o'ziga xos jihatlar alohida inobatga olinadi. Xususan to'lovga qobiliyatsizlikning "Zahlungsunfähigkeit" konsepsiyasi doirasida, eng avvalo, likvidlik yetishmasligi orqali qarzdor o'z majburiyatlarining muhim qismini bajara olmagan va bu holat barqaror tus olgan taqdirda baholanadi⁷⁰. Bu yerda masala faqat qarz mavjudligida emas, balki qarzdorning joriy va qisqa muddatli majburiyatlarini o'z vaqtida qoplash uchun yetarli likvid mablag'larga egaligi yoki egalik qilmasligida namoyon bo'ladi. Sud amaliyotida odatda uch haftagacha bartaraf etilmagan likvidlik tanqisligi va o'n foizlik likvidlik tafovuti hal qiluvchi mezon sifatida qabul qilinadi. Joriy majburiyatlar va mavjud likvid aktivlar o'rtasidagi jiddiy nomutanosiblik bartaraf etilmasa, bu holat to'lovga qobiliyatsizlikning obyektiv ko'rsatkichi sifatida baholanadi. Shu bilan birga, "Überschuldung" (yuqori qarzdorlik) modelida aktiv va passivlar nisbati strategik mezon sifatida qo'llanilib, bu qarzdorning majburiyatlari (qarzlari) uning mol-mulki va aktivlari qiymatidan oshib ketgan holatni anglatadi⁷¹. Ya'ni, qarzdorning umumiy qarz miqdori uning umumiy aktivlaridan yuqori bo'ladi va bu jarayonda uning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligiga huquqiy baho beriladi. Shu nuqtayi nazardan, qishloq xo'jaligi subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligini baholashda Germaniya tajribasiga asoslangan modeli yondashuv qo'llanilishi maqbuldir. U formal-huquqiy belgilar va iqtisodiy

⁶⁹ Несостоятельность (банкротство): Учебный курс. В 2 т. / Под ред. д.ю.н., проф. С.А. Карелиной. Т. 2. – М.: Статут, 2019. – С. 807.; Кравченко Е. А. Признаки банкротства в Великобритании, США, Германии, России и Франции (сравнительный анализ) / Вестник Высшего Арбитражного Суда Российской Федерации. 2000. №8.

⁷⁰ Bork R. Grundfragen der Zahlung sunfähigkeit (§ 17 InsO) // Zeitschrift ffir Insolvenz-recht. 2005. Nr. 3. Heft 1.; Harz M., Baumgartner U., Conrad G. Kriterien der Zahlungsunfähigkeit und der Uber-schuldung // ZInsO. 2005. Nr. 24.

⁷¹ Трушников С. С. Возбуждение производства по делам о несостоятельности в Федеративной Республике Германия : дис. ... канд. юрид. наук. Екатеринбург, 2003.С.181.

indikatorlarni uyg'unlashtirib, to'lovga qobiliyatsizlikning real va dinamik holatini aniqlaydi hamda sud va moliyaviy qarorlar uchun obyektiv asos yaratadi.

Anglo-amerika huquq tizimida, jumladan AQSH amaliyotida, to'lovga qobiliyatsizlikni aniqlash ikki asosiy mezon "Cash-flow test" va "Balance-sheet test" orqali amalga oshiriladi ⁷² . Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligini baholashda Cash-flow (naqd pul oqimi) testi muhim mezon sifatida qo'llaniladi. Balance-sheet (balans) testi mohiyati o'ziga xos tarzda 1994 yilgi "Bankrotlik to'g'risida"gi Qonunida⁷³ ifodasini topib, unda bankrotliklikning asosiy mezoni sifatida qarzdorning majburiyatlari uning mol-mulki qiymatidan oshib ketganligi tarzida belgilangan. Keyingi tahrirlarda esa Cash-flow (naqd pul oqimi) testi ya'ni qarzdorning joriy va yaqin istiqboldagi pul oqimi va likvidligi asosidagi baholash mezoni asosiy o'rinni egallaganligini ko'rish mumkin ⁷⁴ .

Cash-flow (test) mezoni qarzdorning joriy va yaqin istiqboldagi majburiyatlarini bajarish qobiliyatini dinamik jihatdan tahlil qiladi, ya'ni pul oqimining real harakatiga e'tibor qaratadi⁷⁵. Mazkur yondashuvga ko'ra, qarzdorning to'lovga qobiliyatsizligi uning aktivlari mavjud yoki mavjud emasligi bilan emas, balki majburiyatlar yetib kelgan paytda ularni qoplash uchun yetarli naqd pul yoki tezda pulga aylantiriladigan vositalarning mavjud emasligi bilan belgilanadi. Shu bois, ushbu test doirasida asosiy e'tibor qarzdorning haqiqiy moliyaviy aylanmasi, pul tushumlari va to'lovlar o'rtasidagi mutanosiblikka qaratiladi.

Huquqshunos olim B.Xudaybergenov Cash-flow testini O'zbekiston qonunchiligidagi vaqtinchalik to'lovga qobiliyatsizlikka to'liq mos deb

⁷² Ram Mohan M P (2022) The role of insolvency tests: implications for Indian insolvency law, Indian Law Review, 6:3, 387-408, DOI: [10.1080/24730580.2022.2129197](https://doi.org/10.1080/24730580.2022.2129197)

⁷³ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1994 й., 5-сон, 130-модда.

⁷⁴ O'zbekiston Respublikasining "Bankrotlik to'g'risida"gi Qonuni 1998-yilda va 2003-yilda yangi tahrirlarda qabul qilingan.

⁷⁵ <https://www.law.cornell.edu/uscode/text/11/303>

hisoblaydi⁷⁶. Fikrimizcha, bu fikrni to'liq qo'shilib bo'lmaydi, chunki Cash-flow (naqd pul oqimi) testi qarzdorning to'lov qobiliyatini dinamik jihatdan baholashga asoslanadi, ya'ni u qarzdorning joriy va yaqin istiqboldagi majburiyatlarini qoplash imkoniyati, naqd pul oqimi va likvidlik darajasiga e'tibor qaratadi. Bu jihatlar qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligini baholashda Cash-flow testini muhim vosita bo'lsa-da, uni to'liq yagona mezon sifatida belgilash mumkin emas. O'zbekiston qonunchiligidagi vaqtinchalik to'lovga qobiliyatsizlik ham mazmunan shu mezonga yaqin, asosiy belgilari qarzdorning kreditorlar talablarini va soliq majburiyatlarini o'z vaqtida qoplay olmasligi hamda qisqa muddatli pul oqimi cheklanganligidir. Biroq, belgilangan uch oylik muddat Cash-flow konsepsiyasi uchun xarakterli emas, shu bois bu mezon nazariy jihatdan qonunchilik mezoni o'xshash, lekin ekvivalent, to'liq muvofiq deb bo'lmaydi. Qolaversa, Cash-flow testining qishloq xo'jaligi subyektlari uchun qo'llanilishida bir qator kamchiliklar ham mavjud bo'lib, u kelgusidagi pul oqimini baholashga asoslanib, muayyan darajada subyektiv va taxminiy xarakter kasb etadi. U joriy likvidlikka ustuvor ahamiyat berib, qarzdorning umumiy moliyaviy barqarorligini to'liq qamrab olmaydi. Shuningdek, pul oqimini kechiktirish yoki qayta taqsimlash orqali to'lov qobiliyatini sun'iy ravishda namoyon etish imkoniyati manipulyatsiya xavfini oshiradi hamda balansdagi mol-mulk va uzoq muddatli resurslar qiymati yetarlicha inobatga olinmaydi.

To'lovga qobiliyatsizlik alomatlarini baholovchi yana bir yondashuv "Balance-sheet test" qarzdorning moliyaviy barqarorligini umumiy aktivlari va passivlari asosida baholavchi mezondir. Agar qarzdorning umumiy majburiyatlari uning barcha aktivlari qiymatidan oshsa, u to'lovga qobiliyatsiz

⁷⁶ Xudaybergenov B.B. To'lovga qobiliyatsizlikni huquqiy tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari: sanatsiya va bankrotlik: yurid. fan. dok. ... diss. Toshkent, 2023. – B. 34.

deb hisoblanadi⁷⁷ , ya'ni naqd pul oqimi va qisqa muddatli to'lov qobiliyati emas, balki qarzdorning umumiy moliyaviy holati asosiy mezon hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi subyektlari uchun bu yondashuvning ahamiyati shundaki, ularning moliyaviy holati ko'pincha mavsumiy pul oqimi va tabiiy resurslarga bog'liq bo'ladi, shu bois to'liq moliyaviy barqarorlikni baholash uchun faqat naqd pul oqimi bilan cheklanib qolmasdan, umumiy balans holati ham inobatga olinishi kerak. ushbu yondashuvda qishloq xo'jaligi korxonalarida aktiv va passivlar nisbati, uzoq muddatli qarzlari va moliyaviy majburiyatlarni umumiy qiymatga nisbatan tahlil qilish imkonini beradi, bu esa to'lovga qobiliyatsizlikning strategik ko'rinishini aniqlashda muhimdir. Lekin, qarzdorning naqd pul oqimi va qisqa muddatli to'lov qobiliyatini dinamik jihatdan baholashga e'tibor qaratmasligi kamchiliklari sanaladi.

Shu nuqtayi nazardan, qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligini baholashda Cash-flow testi va Balance-sheet testi integratsiyasi orqali kompleks modeli yondashuv qo'llanilishi maqbuldir. Bu yondashuv formal-huquqiy belgilari, naqd pul oqimi va moliyaviy barqarorlik indikatorlarini uyg'unlashtirib, sud amaliyotida iqtisodiy ekspertiza va moliyaviy tahlil xulosalari bilan boyitilgan holda qo'llaniladi hamda to'lovga qobiliyatsizlikning real va dinamik holatini aniqlashda ilmiy va yuridik jihatdan asoslangan vosita bo'lib xizmat qiladi.

Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligi alomatlarini aniqlash va baholashda Rossiya Federatsiyasida differensiallashtirilgan huquqiy model qo'llaniladi⁷⁸. Mazkur model sohaviy spetsifikani inobatga olgan holda, bankrotlik ishini qo'zg'atish uchun belgilangan minimal qarz miqdorini turli subyektlar uchun turlicha belgilaydi:

⁷⁷ Худайбергенов Б.Б. Тўловга қобилиятсизлик белгиларини аниқлашнинг ҳуқуқий жиҳатлари: Cash flow ва Balance sheet // Юридик фанлар ахборотномаси. 2020 йил №4-сон., -Б.40-43.

⁷⁸ Соколов А.Д. Модель института несостоятельности (банкротства) в системе российского права // Международный научный журнал «ВЕСТНИК НАУКИ» № 12 (69) Том 4. ДЕКАБРЬ 2023 г. -С.558-562. Кузнецов С. А. Основные проблемы правового института несостоятельности (банкротства): монография / Москва: Инфотропик Медиа, 2020. 304 с.

umumiy tadbirkorlik subyektlari uchun 2 mln rubl, qishloq xo'jaligi sohasida faoliyat yurituvchi subyektlar uchun esa 3 mln rubl. Ushbu yondashuv bankrotlik institutini universal emas, balki sektor xususiyatlariga moslashtirilgan tartibda qo'llash konsepsiyasiga asoslanadi.

Modelning nazariy-huquqiy asosi shundaki, qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti yuqori darajada mavsumiylik, tabiiy-iqlim omillariga bog'liqlik, uzoq ishlab chiqarish sikli va katta aylanma mablag'lar talab etilishi bilan tavsiflanadi. Shu bois nisbatan bu sohada kichik qarzdorlik mavjudligi doimiy to'lovga qobiliyatsizlikni anglatmaydi⁷⁹, minimal qarzdorlik miqdorining yuqoriroq belgilanishi to'lovga qobiliyatsizlik institutidan tezkor va asossiz foydalanish xavfini cheklash, raqobatga zid bosim vositasi sifatida qo'llanilishining oldini olish⁸⁰ hamda agrar sektor barqarorligini ta'minlashga qaratilgan. Bu o'z navbatida, qishloq xo'jaligi subyektlarining iqtisodiy faolligini saqlab qolish, ishlab chiqarish zanjirlarining uzilishini bartaraf etish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash nuqtayi nazaridan ham strategik ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan mazkur model preventiv-himoyaviy funksiyani bajaradigan institutsional mexanizm sifatida baholanishi mumkin.

Biroq, mazkur yondashuv ham nazarimizda, kamchiliklardan holi emas, chunki, minimal qarz miqdorining yuqori darajada belgilanishi kreditorlar huquqlarini himoya qilish samaradorligini pasaytirishi mumkin, ya'ni qarzdorlik miqdori normativ miqdorga yetmagan taqdirda ham qarzdorning moliyaviy holati obyektiv ravishda tanazzul bosqichida bo'lishi mumkin. Shuningdek, yuqori qarzdorlik chegarasi ayrim hollarda qarzdor tomonidan majburiyatlarni qayta tuzish yoki kechiktirish orqali formal talablarga moslashish imkonini yaratib, iqtisodiy inqiroz holatini huquqiy jihatdan

⁷⁹ Сергиенко О.В. Антикризисное управление сельскохозяйственными организациями на основе диагностики риска банкротства: Дисс. ...канд.экон.наук. Барнаул, 2006. – С.52.

⁸⁰ Свириденко О. М. Концепция несостоятельности (банкротства) в России: Монография – М.: Юстицинформ, 2008. – 224 с.

yashirish xavfini keltirib chiqaradi. Shu nuqtayi nazardan, qishloq xo'jaligi subyektlariga nisbatan qo'llanilayotgan differensiallashgan model huquqiy barqarorlik va iqtisodiy muhofaza tamoyillariga mos keladigan tarzda shakllangan bo'lsa-da, uning samaradorligi formal mezonlarni mazmunan iqtisodiy tahlil bilan uyg'unlashtirish sud tomonidan huquqiy baho berish darajasiga bog'liq.

Zamonaviy huquqiy yondashuv nuqtayi nazaridan, to'lovga qobiliyatsizlikni aniqlash faqat qarzdorlik faktini qayd etish emas, balki qarzdorning moliyaviy salohiyatini kompleks, ko'p omilli va prognozli tahlil qilish jarayoni sifatida ko'riladi⁸¹. Ilmiy jihatdan, Cash-flow (dinamik likvidlik) va Balance-sheet (moliyaviy barqarorlik) mezonlarini integratsiyalashga asoslangan kompleks yondashuvni qo'llash mamlakatimizda to'lovga qobiliyatsizlik institutining adolatli, mutanosib va samarali amal qilishini ta'minlaydi. Bu esa to'lovga qobiliyatsizlikni faqat formal shartlar asosida emas, balki iqtisodiy mazmun va huquqiy adolat prinsiplari uyg'unligida baholash zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi. Shu bois, milliy qonunchilikni takomillashtirishda formal-huquqiy belgilarni saqlab qolgan holda likvidlik darajasi, pul oqimi barqarorligi, aktivlar real bozor qiymati va majburiyatlar strukturasini inobatga oluvchi kompleks testlar tizimini normativ jihatdan mustahkamlash maqsadga muvofiqdir.

Milliy qonunchilikda to'lovga qobiliyatsizlikni aniqlashda alomat va belgilar o'rtasidagi chegaralarni aniq belgilash, ularni tahlil va baholash jarayonida iqtisodiy va huquqiy mezonlarni kompleks integratsiyalash, shuningdek sud amaliyoti va protsessual qoidalar bilan uyg'unlashtirish maqsadga muvofiqdir.

⁸¹ To'lovga qobiliyatsizlik boshqa ma'zonlar bo'yicha ham qisman va mutlaq to'lovga qobiliyatsizlikka bo'linishi haqida huquqiy adabiyotlarlar fikrlar bildiriladi. // Попондопуло В.Ф. Коммерческое (предпринимательское) право. –М., 2005. – С. 93. Фролов И.В. Современная доктрина банкротного права в российской юрисдикции: анализ теоретических основ / И.В. Фролов // Предпринимательское право. 2022. №4. -С. 35–44.

Mazkur jihatlariga mos ravishda Qonunning 6-moddasi da to'lovga qobiliyatsizlik belgilarini aniq ifodalash taklif etiladi, xususan, birinchi va ikkinchi qismlarini "To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ish iqtisodiy sud tomonidan qo'zg'atiladi. Agar qonunda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, qarzdor yuridik shaxsga nisbatan talablar jami kamida BHMning 500 baravari , qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyekti uchun esa BHMning 800 baravari dan kam bo'lmagan miqdorda tashkil etilsa, qarzdor jismoniy shaxsga nisbatan ushbu qonunning 195-moddasi , qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorga nisbatan 228-moddasi da belgilangan miqdordan kam bo'lmasa", tarzida ifodalash taklif etiladi. Shu bilan birga, iqtisodiy sudlarga qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektining to'lovga qobiliyatsizligini aniqlashda kreditorlar oldida olti oydan ortiq muddatga kechiktirilgan qarzdorlik mavjudligi, qarz miqdorining balansidagi mol-mulki qiymatidan oshganligi hamda jami talablar bazaviy hisoblash miqdorining sakkiz yuz karrasidan kam bo'lmasligini (soddalashtirilgan tartib taomillar bundan mustasno) inobatga olish va bu haqida Plenum qarorida ham tushuntirish berish taklif etiladi.

Ushbu yondashuvlar to'lovga qobiliyatsizlik institutining aniq, adolatli va prognozli baholanishini ta'minlash, qishloq xo'jaligi subyektlarining huquqiy va moliyaviy himoyasini mustahkamlash hamda sud tomonidan to'lovga qobiliyatsizlik ishini qo'zg'atish institutini qonun darajasida aniqlash imkonini beradi. Bu esa ilmiy jihatdan to'lovga qobiliyatsizlikni faqat formal shartlar asosida emas, balki iqtisodiy mazmun va huquqiy adolat tamoyillari uyg'unligida baholashning asosli huquqiy kafolati sifatida ko'riladi.

1.3.8 Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligini sudgacha sanatsiya qilish qonunchilik asoslari

Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lov qobiliyatini tiklash, ularning barqaror va samarali faoliyat yuritishini ta'minlash, to'lovga qobiliyatsiz xo'jaliklarni moliyaviy sog'lomlashtirish bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Zero, agrar sektor iqtisodiyotning strategik muhim tarmoqlaridan biri sifatida nafaqat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlaydi⁸², balki aholining katta qismi uchun daromad manbai ham hisoblanadi⁸³.

Ma'lumki, mamlakat taraqqiyotining 2030 yilgacha mo'ljallangan strategik ustuvor yo'nalishlardan biri aholini ijtimoiy himoya qilishdan iborat⁸⁴. Ayniqsa, qishloq joylarda mehnatga layoqatli aholining asosiy qismi qishloq xo'jaligi faoliyati bilan band bo'lganligi sababli, ushbu sohadagi iqtisodiy barqarorlik bevosita ijtimoiy himoyani ta'minlashga ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lov qobiliyatini tiklash nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ham ega va u ikki tomonlama funktsiyani bajaradi⁸⁵. Bir tomondan, ular xo'jalik yurituvchi subyektlarni saqlab qolish, ularning ishlab chiqarish salohiyatini tiklash va kreditorlar talablarini qanoatlantirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan qishloq aholisini ish bilan ta'minlash, ularning daromad manbalarini saqlab qolish orqali ijtimoiy muhofaza qilish vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

⁸² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bilan O'zbekiston Respublikasining oziq-ovqat xavfsizligi va sog'lom ovqatlanishni ta'minlashning 2030-yilgacha mo'ljallangan strategiyasi tasdiqlandi va unda ham qishloq xo'jaligi eng muhim strategik tarmoq ekanligini namoyon bo'ladi. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.02.2024 й., 06/24/36/0130-сон.

⁸³ Yalpi ichki mahsulotining beshdan bir qismi, oziq-ovqat mahsulotlarining 95-97%ga yaqini ushbu sohaga tegishli // uza.uz

⁸⁴ Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Мамлакат тараққиётининг 2030 йилгача мўлжалланган устувор йўналишлари доирасида ислохотларни изчил давом эттириш ва янги босқичга олиб чиқишнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида"ги Фармони // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 17.02.2026 й., 06/26/21/0145-сон.

⁸⁵ Лысенко Л.А. Проблемы несостоятельности (банкротства) субъектов предпринимательства сферы сельскохозяйственного производства по законодательству Российской Федерации: автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Ростов н/Д, 2003. - 27 с.

Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligi jarayonida standart tugatish tartib-taomillarini qo'llash fuqarolik-huquqiy maqsadga muvofiqlik prinsipiga to'liq mos kelmaydi⁸⁶. Chunki, agrar ishlab chiqarishning mavsumiyliги, aktivlarning likvidligi pastligi, texnologik aylanmaning uzoq davom etishi va tabiiy-iqlim omillarining ta'siri natijasida moliyaviy qiyinchiliklar ko'p hollarda vaqtinchalik xarakterga ega bo'ladi. Aynan shu nuqtayi nazardan sanatsiya instituti⁸⁷ agrar korxonalarni tugatishdan ko'ra, ularni saqlab qolish va to'lov qobiliyatini tiklashga yo'naltirilgan samarali va ta'sirchan fuqarolik-huquqiy mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi⁸⁸.

Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligi jarayonida sanatsiya instituti ikki asosiy ko'rinishda ya'ni sudgacha sanatsiya va sud tartibidagi sanatsiya shakllarida namoyon bo'ladi. Har ikki institutning umumiy vazifasi qarzdorning moliyaviy barqarorligini tiklash, ishlab chiqarish jarayonini to'xtatib qo'ymasdan, uning iqtisodiy faoliyatini saqlab qolish va kreditorlar manfaatlarini himoya qilishdan iboratdir.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev sudgacha sanatsiyasi tizimi amalda samarali ishlamayotganligini tanqid qilib, to'lovga qobiliyatsizlik institutni takomillashtirish bo'yicha yangicha yondashuvlar, xususan tadbirkorlik subyektini sog'lomlashtirish mexanizmlarini qayta ko'rib chiqish, lozim bo'lsa davlat ko'magida sudgacha sanatsiya choralarini kengaytirishni ustuvor vazifa sifatida ko'rish lozimligini ta'kidladilar⁸⁹. Chunki, aynan sudgacha bosqichdagi

⁸⁶ Телюкина, М.В. Несостоятельность (банкротство) субъектов, осуществляющих сельскохозяйственную деятельность / М.В. Телюкина, В. Н. Ткачев // Юридический мир. - М. 2000. - № 9. - С. 13-19.

⁸⁷ Sanatsiya (lot. sanatio – davolanish, qarzdor tashkilotlarni sog'lomlashtirish) – qarzdor tashkilotlarga davlat yoki boshqa tashkilotlar tomonidan moliyaviy yordam berish // Ўзбекистон юридик энциклопедияси / Нашр учун масъул Р.А.Муҳитдинов ва бошқ.; масъул муҳаррир Н.Тойчиев. – Т.: Адолат, 2010. – Б. 394.

⁸⁸ Aynan sudgacha sanatsiya muhimligi shundaki, sud jarayonini boshlamasdan turib, qarzdor va kreditorlar o'rtasidagi munosabatlarni shartnomaviy va mulkiy-huquqiy vositalar orqali tartibga soladi. Masalan, qarzlarni qayta tuzish (restrukturizatsiya), muddatni uzaytirish, qarzning bir qismini kechirish, investitsiya jalb qilish kabi choralar - bularning barchasi fuqarolik huquqiga xos usullardir..

⁸⁹ Prezident Sh.Mirziyoyev to'lovga qobiliyatsizlik institutini takomillashtirish va moliyaviy ahvoli og'ir tadbirkorlik subyektlarini sog'lomlashtirish bo'yicha yangi yondashuvlar yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.// <https://president.uz/uz/lists/view/9071>

ta'sirchan choralar qarzdorning sudgacha yetmay turib, o'z vaqtida moliyaviy sog'lomlashuvini ta'minlash, vaqtinchalik likvidlik inqirozlarini yumshatish va to'lov qobiliyatsizlikka o'tish xavfini bartaraf etish imkonini beradi. Shu bois, davlat sanatsiya chora-tadbirlarining kamida 20 foizi bosqichma bosqich sud organlariga murojaat qilmasdan amalga oshirishni asosiy maqsad sifatida belgiladi⁹⁰. Binobarin, sudgacha sanatsiya institutining to'lovga qobiliyatsizlik mexanizmlari tizimidagi o'рни va dolzarbligi juda muhim bo'lib ayniqsa, qishloq xo'jaligida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, agrar bozor infratuzilmasini saqlab qolish, ishlab chiqaruvchi subyektlarning tashqi iqtisodiy va tabiiy omillarga nisbatan bardoshligini oshirish kabi strategik vazifalar ushbu institutni yanada takomillashtirish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

Qonunning 3-moddasida sudgacha sanatsiya qilish tushunchasiga “ qarzdor yuridik shaxsning muassislari (ishtirokchilari) yoki uning mol-mulki egasi, kreditorlar va boshqa shaxslar tomonidan qarzdorning to'lov qobiliyatini tiklash hamda to'lovga qobiliyatsizligining oldini olish uchun ko'riladigan chora-tadbirlar” dnya ta'rif berilgan bo'lsa, “Qishloq xo'jaligi korxonalarini sanatsiya qilish to'g'risida”gi Qonunning 1-moddasida sudgacha sanatsiya qilish qishloq xo'jaligi korxonalarining to'lovga qobiliyatsizligi to'g'risida ish qo'zg'atishga qadar amalga oshiriladigan, qishloq xo'jaligi korxonasining to'lov qobiliyatini, iqtisodiy quvvatini tiklash va kelgusida uning faoliyati samarali bo'lishi uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat ekanligi qayd etilgan. Albatta, ilmiy munozarada ushbu tushuncha haqida qarashlar turlicha bo'lishi tabiiy, lekin qonunchilikda bu borada yagona ta'rif bilan ifodalanishi lozim. Darhaqiqat, to'lovga qobiliyatsizlik jarayonida sudgacha sanatsiya qilishni alohida zaruriy taomil⁹¹ sifatida belgilash borasida ham fikrlar bildirilmoqda⁹².

⁹⁰ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Тўловга қобилиятсизлик институтини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 07.05.2026 й., 06/26/78/0454-сон.

⁹¹ “Таомил” so‘zi (fransuzcha *procédure*, lotincha *procedure* - “oldinga intilmoq”, “harakat qilmoq”, “rivojlanmoq” ma’nolarini anglatadi) biror ishni bajarish yoki amalga oshirish uchun rasmiy tarzda belgilangan harakatlar ketma-

Lekin, boshqa olimlar uni to'lovga qobiliyatsizlikning alohida taomili emas, balki sudgacha qo'llanishi mumkin bo'lgan choralar tizimi sifatida ta'kidlashadi⁹³. Bunday turlicha nazariy yondashuvlar sudgacha sanatsiyaning huquqiy tabiati yuzasidan yagona fikr mavjud emasligini ko'rsatadi.

Xorijiy davlatlar amaliyoti ham masalan, Yevropa Ittifoqining 2019/1023-sonli "Preventive Restructuring Directive" hujjatida sudgacha qayta tiklash profilaktik mexanizm sifatida e'tirof etiladi, ammo bankrotlikka oid sud taomili darajasiga yetkazilmaydi. Germaniyaning Insolvenzordnung (InsO) qonunchiligida ham sudgacha sanatsiya alohida iqtisodiy chora sifatida belgilangan, biroq alohida taomil bilan teng maqom berilmagan. Fransiya, Polsha va Chexiya amaliyotida ham ushbu mexanizmlar to'lovga qobiliyatsizlik bosqichini o'rnatmasdan, faqat qarzdorning moliyaviy barqarorligini tiklashga qaratilgan suddan tashqari institut sifatida qo'llaniladi.

Qonunchiligimizda, 2003 yilgi "Bankrotlik to'g'risida"gi hamda 2022 yildagi "To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida"gi qonunlar mazmuni tahlil qilinganda, taomil tushunchasi faqat sud tomonidan qo'llaniladigan va to'lovga qobiliyatsizlik ishi qo'zg'atilgandan keyin amalga oshiriladigan huquqiy rejim sifatida belgilangani aniqlanadi. Sudgacha sanatsiya institutining huquqiy tabiati amaldagi to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan "taomil" tushunchasiga to'liq mos kelmaydi. Nazariy jihatdan, taomil muayyan huquqiy rejim, aniq protsessual tartib va huquqiy oqibatlar majmuasi bilan tavsiflanadi. To'lovga qobiliyatsizlik taomillari esa qonunchilikda qat'iy protsessual qoidalar asosida, sud nazorati ostida amalga oshirilib, qarzdorning huquqiy maqomi va kreditorlar talablarining huquqiy taqdiriga bevosita ta'sir

ketligini ifodalaydi.

⁹² Свит Ю. Восстановительные процедуры – способ предотвращения банкротства // Российская юстиция. 1998. № 3. -С. 54-56.; Михайлова В.И. Обеспечительный механизм реализации прав и законных интересов должника в процессе несостоятельности (банкротства): автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – М., 2024. - 28 с.

⁹³ Витрянского В.В. Постатейный комментарий к ФЗ "О несостоятельности (банкротстве)"/ Под ред. В.В.Витрянского. – М.: Статут, 2001. - С. 38; Белых В.С., Дубинчин А.А., Скуратовский М.Л. Правовые основы несостоятельности (банкротства). - М.: НОРМА, 2001. - С. 25

ko'rsatadi. Sudgacha sanatsiya mazkur xususiyatlardan farqli ravishda sud ishtirokisiz amalga oshiriladi va qarzdor hamda kreditorlar o'rtasidagi ixtiyoriy kelishuvga asoslanadi. Unda maxsus protsessual tartib, sud nazorati va imperativ huquqiy oqibatlar mavjud emas. Shuningdek, u korxonaning huquqiy maqomini o'zgartirmaydi hamda to'lovga qobiliyatsizlik ishini yuritish doirasiga kirmaydi.

Shu o'rinda, huquqshunos B.Xudaybergenov o'rinli ta'kidlaganidek, sudgacha sanatsiya qilish to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ish qo'zg'atilguniga qadar qarzdor yuridik shaxs to'lov qobiliyatini tiklash maqsadida amalga oshiriladigan chora-tadbirlardan iborat⁹⁴. Boshqacha aytganda, u moliyaviy sog'lomlashtirishning suddan tashqari shakli bo'lib, to'lovga qobiliyatsizlik taomillari tizimidan mustaqil, ammo ularni to'ldiruvchi profilaktik institut sifatida tavsiflash imkonini beradi.

Shuningdek, sudgacha sanatsiya institutining mohiyati yuzasidan bahslar ya'ni uning qay darajada iqtisodiy tushuncha yoki huquqiy kategoriya ekanligi haqida turli yondashuvlar shakllangan. Iqtisodiy tushuncha sifatida fikr bildiruvchi olimlar (M.V. Telyukina, Yu.Yu.Shves, A.M.Korotchenkov, N.Xasanov) sudgacha sanatsiyani birinchi navbatda korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy sog'lomlashtirish mexanizmlari, choralari sifatida baholaydilar⁹⁵.

Sudgacha sanatsiyada huquqiy mohiyati ustuvor hisoblovchi olimlar guruhi (G.A.Pliyev, N.V.Lopayeva) uni maxsus profilaktik institut sifatida e'tirof etib, amalga oshirishda iqtisodiy choralarni qamrab olsa-da, uning tuzilishi va mohiyatida huquqiy belgilar ustuvorligi bilan ahamiyatli ekanligini

⁹⁴ Худайберганов Б.Б. Суд санациясининг ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш масалалари. Монография. Масъул муҳаррир: ю.ф.д., проф. К.О.Синдаров. – Т., ТДЮУ, 2018.– Б.23.

⁹⁵ Телюкина М.В. Способы предупреждения банкротства юридического лица // Адвокат. 1999. № 9. – С 17.; Шве́ц Ю.Ю. Управления финансовой санацией предприятия: [учебное пособие]. – Симферополь: ДИАЙПИ, 2013. – С. 4.; Коротченков А.М. Санация предприятия в отрасли. Учебное пособие. – М.: Проспект, 2015. – С. 20.; Шве́ц Ю.Ю. Управления финансовой санацией предприятия: [учебное пособие]. – Симферополь: ДИАЙПИ, 2013. – С. 4.; Хасанов Н.С. Бозор иқтисодиётига ўтиш шароитида банкротлик ва санациянинг назарий асослари: иқтисод. фан. ном. ...дисс. – Т: 2003.

ta'kidlashadi⁹⁶. Chunki, bu jarayonlar huquqiy normalarga tayanishi, qonun bilan belgilab qo'yilgan tartib orqali amalga oshirilishi, sog'lomlashtirish rejasining huquqiy kuchga ega bo'lishi avvalo huquqiy mexanizmlarsiz amalga oshirib bo'lmaydi, deb hisoblaydi. Huquqshunos olim B.Xudaybergenov, sudgacha sanatsiyani iqtisodiy choradan ko'ra huquqiy institut sifatida baholashni afzal ko'rib, sudgacha sanatsiya qilishda barcha kreditorlar talablari to'liq va bir vaqtda qanoatlantirilishi bilan birg, alohida kreditorlar bilan bo'lib-bo'lib to'lash, to'lovlarni kechiktirish yoki qarzlarni qisman to'lash to'g'risidagi kelishuvlar ham huquqiy shakl tarzida ifodalanadi⁹⁷, deb hisoblaydi.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda ko'plab olimlar ikkala qarashlarni birlashtiruvchi kompleks yondashuv ya'ni sudgacha sanatsiya ikki tabiatli institut ekanligini ta'kidlovchi tarafdorlar sudgacha sanatsiyani bir vaqtning o'zida iqtisodiy maqsad va mazmunga egaligi (to'lov qobiliyatini tiklash), shu bilan birga huquqiy shaklda huquqiy mexanizm orqali (normalar, tartiblar, o'zaro majburiyatlar) amalga oshirilishida namoyon bo'lishini ta'kidlashadi. Binobarin, a maliyot va qonunchilik mazmuni tahlili ham shuni ko'rsatadiki, sudgacha sanatsiya instituti ikki tabiatli huquqiy choralar tizimi sifatida namoyon bo'lib, iqtisodiy barqarorlashtirishga qaratilgan sog'lomlashtirish chora-tadbirlari bilan huquqiy tartibga solish vositalarining o'zaro uyg'un va bir-birini to'ldiruvchi tarzda amal qilishini talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan, qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarini sudgacha sanatsiya qilish instituti o'ziga xos gibril shakldagi tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy chora-tadbirlarni o'zi ichiga oluvchi qonunchilikda belgilangan huquqiy mexanizm sanaladi va u

⁹⁶ Плиев Г.А. Гражданско-правовой механизм предупреждения несостоятельности (банкротства) юридического лица: Дисс. ... канд. юрид. наук. – М.: 2005., – С. 137.; Лопалева Н.В. Правовые последствия признания юридического лица банкротом: дисс. ...канд. юрид. наук. – Т.: 2006.

⁹⁷ Худайберганов Б.Б. Суд санациясининг ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш масалалари. Монография. Масъул муҳаррир: ю.ф.д., проф. К.О.Синдаров. – Т., ТДЮУ, 2018.– Б.20

qarzdorning iqtisodiy barqarorligini sud jarayoniga qadar tiklash imkonini ta'minlashga yo'naltiriladi.

Sudgacha sanatsiya qilish tashabbuskori odatda qarzdor, uning muassislari (ishtirokchilari), boshqaruv organi bo'ladi⁹⁸, lekin qonun kreditorlar va boshqa shaxslar ham bo'lishi mumkinligini istisno etmaydi. Shu bilan birga, davlat vakolatli tuzilmalari ham nafaqat sudgacha sanatsiya qilishning tashabbuskor bo'lishi⁹⁹, balki davlat tomonidan moliyaviy yordam ko'rsatgan holda ham amalga oshirilishi mumkin¹⁰⁰. Sudgacha sanatsiya jarayonida davlat tomonidan moliyaviy yordam ko'rsatilishini ayrim olimlar inkor etib, uni bozor iqtisodiyoti prinsiplariga zid ekanligi bilan izohlashadi¹⁰¹. Lekin nazarimizda, sudgacha sanatsiya jarayonida qarzdor qishloq xo'jaligi sohasidagi tadbirkorlik subyekti uchun bunday moliyaviy ko'mak zarur va asosli hisoblanadi. Chunki, qishloq xo'jaligi tarmog'i o'zining o'ziga xos xususiyatlari xususan, ishlab chiqarishning mavsumiyligi, tabiiy-iqlim sharoitlariga kuchli bog'liqligi, yuqori tavakkalchilik darajasi hamda investitsiyalarning sekin qaytishi bilan boshqa sohalardan keskin farq qiladi. Bunday yordam orqali ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligi saqlab qolinadi, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda uzilishlarning oldi olinadi, shuningdek, qishloq joylarda bandlik darajasi pasayib ketishining oldi olinadi. Shu sababli, davlat tomonidan ko'rsatiladigan bunday yordamni bozor iqtisodiyoti prinsiplariga mutlaqo zid deb emas, balki uning samarali faoliyat yuritishini ta'minlovchi tartibga soluvchi vosita sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

⁹⁸ Гончаров А.И. Досудебная санация (финансовое оздоровление) коммерческой организации по законодательству о предпринимательстве Российской Федерации. - Ростов-наДону, 2002. 28 с.

⁹⁹ Ўзбекистон Республикасининг “Қишлоқ хўжалиги корхоналарини санация қилиш тўғрисида”ги Қонуни 12-моддаси // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон.

¹⁰⁰ О‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 708-son qarori bilan tasdiqlangan “Sudgacha sanatsiya qilishni davlat tomonidan yordam ko‘rsatgan holda o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi nizom // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.10.2024 й., 09/24/708/0864-сон.

¹⁰¹ Телюкина М.В. Основы конкурсного права (Серия «Библиотека профессионала») – М.: Волтерс Клувер, 2004. - С.154.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, fikrimizcha, Q onunning 3-moddasida “sudgacha sanatsiya qilish” tushunchasini takomillashtirish lozim, zero birinchidan, sudgacha sanatsiya “to’lovga qobiliyatsizlik ishi qo’zg’atilguniga qadar” amalga oshiriladi va ikkinchidan, sudgacha sanatsiya davlat vakolatli organi tomonidan ham turli chora tadbirlar ko’rilishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, sudgacha sanatsiya qilish tushunchasini “ *to’lovga qobiliyatsizlik ishi sudda qo’zg’atilgunga qadar qarzdor yuridik shaxsning muassislari (ishtirokchilari) yoki uning mol-mulki egasi, kreditorlar, davlat vakolatli organlari va boshqa shaxslar tomonidan qarzdorning to’lov qobiliyatini tiklash hamda moliyaviy sog’lomlashtirish uchun ko’riladigan chora-tadbirlar* ” tarzida ifodalanishi sudgacha sanatsiya qilishning mazmuni to’liq ochib beriladi. Shuningdek, amaldagi Qonunning 31-moddasini takomillashtirish maqsadida “suddan tashqari bajariladigan tartib-taomillar” atamasini “*suddan tashqari qo’llaniladigan choralar*” tarzida ifoda etish taklif etiladi. Bu esa sud ishtirokisiz amalga oshiriladigan moliyaviy sog’lomlashtirish (sudgacha sanatsiya qilish) va ixtiyoriy tugatish choralari bilan to’lovga qobiliyatsizlik jarayonidagi tartib-taomillar o’rtasidagi huquqiy chegaralarni yanada aniq belgilashga xizmat qiladi.

Qishloq xo’jaligida tadbirkorlik subyektlarining to’lovga qobiliyatsizligini sudgacha sanatsiya qilish jarayoni umumiy sanatsiya institutidan bir qator o’ziga xos huquqiy va iqtisodiy xususiyatlari, profilaktik ustunliklari hamda moliyaviy barqarorlikka erishish imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Birinchidan, m azkur sohada ishlab chiqarish jarayoni tabiiy-iqlim omillariga, mavsumiylikka bog’liq bo’lganligi, aktivlar tarkibi (yer uchastkalari, hosil, chorva mollari va boshqalar)ning darhol likvid aktivlarga aylantirish qiyinligi sababli moliyaviy qiyinchiliklar ko’p hollarda vaqtinchalik xarakterga ega bo’ladi. Shu bois, sudgacha sanatsiya mexanizmlarini qo’llash orqali xo’jalikning faoliyatini sog’lomlashtirish va to’lov qobiliyatini bosqichma-

bosqich barqarorlashtirishga yo'naltiriladi. Fikrimizcha, sudgacha sanatsiya chora-tadbirlari Qonunning 32-moddasining uchinchi qismida belgilangan "ariza sudga taqdim etilgunga qadar" emas, balki to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida ish sudda qo'zg'atilguniga qadar amalga oshirilishi deb belgilash huquqiy jihatdan maqbulroq bo'lardi. Chunki ariza sudga taqdim etilgan paytning o'zi ishning qo'zg'atilganini anglatmaydi ya'ni u sud protsessual o'rganilishi (besh kunlik muddat), shundan so'ng ish qo'zg'atish to'g'risida ajrim qabul qilish masalasi hal etilgach, yuridik ahamiyat kasb etadi. Shu bois sanatsiya mexanizmlarini aynan (ariza sudga taqdim etilgunga qadar emas) ish qo'zg'atilishidan oldingi bosqichga bog'lash to'lovga qobiliyatsizlikka yo'l qo'ymaslikka qaratilgan profilaktik maqsadga to'liq mos keladi, amaliyotdagi aniqlikni ta'minlaydi va huquqiy noaniqliklarni bartaraf etadi.

Ikkinchidan , sudgacha sanatsiya jarayonlarida aynan fuqarolik-huquqiy munosabatlar ustuvorligi bilan tavsiflanadi. Chunki, ushbu bosqichda qarzdor va kreditorlar o'rtasida tuziladigan kelishuvlar umumiy sanatsiya yoki tugatish tartib-taomillaridagi sud nazorati ostidagi bitimlardan farqli ravishda ixtiyoriylik, o'zaro manfaatli shartlar asosida kelishish va xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi ishbilarmonlik munosabatlarini saqlab qolishga qaratilgan huquqiy mexanizmlar yetakchi o'rin tutadi. Sudgacha sanatsiya doirasida amalga oshiriladigan sog'lomlashtirish chora-tadbirlari ham odatda, qarzdorning o'zi bilan tuzilgan bitim yoxud fuqarolik-huquqiy kelishuv asosida kreditorlar, manfaatdor uchinchi shaxslar yoki qarzdor muassislari tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Bunday huquqiy mexanizmlar ayniqsa qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyekti sifatida faoliyat yurituvchi korxonalar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, agrar sohada vaqtinchalik to'lov qobiliyatsizligi ko'p uchraydi va ularni sud tartibiga yetkazmasdan hal qilish iqtisodiy jihatdan ham huquqiy jihatdan ham samarali hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, sudgacha sanatsiya fuqarolik-huquqiy bitimlarga tayangan holda amalga

oshirilishi uning tartibga solish mexanizmlarini yanada aniq belgilashni talab etadi. Xususan, qonunchilikda sudgacha sanatsiyaning fuqarolik-huquqiy bitimlar asosida amalga oshirilishi qarzdor-kreditor munosabatlarida nizolarni hal qilish tartibini alohida normalar bilan belgilash maqsadga muvofiqdir. Shu bois, fikrimizcha, qonunchilikka sudgacha sanatsiya jarayonida qarzdor va kreditorlar o'rtasida fuqarolik-huquqiy bitimlar tuzishning huquqiy maqomi, tartibi va oqibatlarini aniq belgilovchi maxsus norma kiritish jumladan, qonunning 32-moddasiga quyidagicha qo'shimchalar kiritilishi taklif etiladi: *"Sudgacha sanatsiya qarzdor va kreditorlar o'rtasida to'lovlar muddatini kechiktirish, ularni bo'lib-bo'lib to'lash, qarzning qisman kechilishi, vaqtinchalik moliyaviy yordam ko'rsatish yoki qarzdorni sog'lomlashtirishga qaratilgan boshqa iqtisodiy choralarni o'z ichiga olgan fuqarolik-huquqiy bitimlar asosida amalga oshiriladi. Bunday bitim sudga qadar amal qiluvchi alohida huquqiy shakl deb e'tirof etiladi va uning bajarilishi taraflar uchun majburiy hisoblanadi."* Ushbu norma ayniqsa qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlari uchun muhim ahamiyat kasb etishi barobarida bir tomondan sudgacha sanatsiyaning fuqarolik-huquqiy tabiatini mustahkamlaydi, ikkinchi tomondan esa qishloq xo'jaligidagi tadbirkorlik subyektlariga moliyaviy qiyinchiliklarni sud jarayoniga yetkazmasdan, tezkor va samarali usulda bartaraf etish imkonini yaratadi.

Uchinchidan, sudgacha sanatsiyaning yana bir muhim va dolzarb xususiyati bu qarzdor subyektning faoliyati to'xtatilmasligi, balki aksincha, uning uzluksiz ishlashi uchun qonuniy shart-sharoitlar yaratilishiga qaratilganligidir. Bu bosqichda faoliyatni to'xtatish emas, balki mavjud qiyinchiliklarni yengib o'tish, biznes jarayonlarini saqlab qolish va ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatida uzilishlar yuzaga kelmasligini ta'minlash ustuvor vazifa sifatida qaraladi. Shu nuqtayi nazardan sudgacha sanatsiya jarayonlari *qarzdor faoliyatini uzluksizligini ta'minlash, ixtiyoriy kelishuv va manfaatlarni*

uyg'unlashtirish, profilaktik va moliyaviy barqarorlik, moratoriy joriy etish va himoya choralari qo'llash kabi prinsiplarga asoslanishi zarur. Fikrimizcha, qonunchilikka qarzdorning faoliyatini to'xtatmaslik bilan uzviy bog'liq yuqoridagi prinsiplarni kiritish taklif etiladi, zero bu qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarini sudgacha sanatsiya qilishni samaradorligi va amaliyotda uning ahamiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Qonunda sudgacha sanatsiya orqali qarzdorning to'lov qobiliyatini tiklashni nazarda tutsa-da, uni amalga oshirishda kreditor va qarzdor o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar aniq tartibga solinmaganligi va davlat moliyalashtirishi budjetda alohida ko'rib chiqilmasligi, maxsus vakolatli organ nomi aniq belgilanmaganligi uchun qonun normalarini qo'llash mexanizmi amaliyotda mavjud emas¹⁰². Shu nuqtayi nazardan, fikrimizcha, qishloq xo'jaligi tadbirkorlik subyektlari uchun sudgacha sanatsiya jarayonida moratoriy muddatini ikki yilgacha chegaralash va shu davrda neustoyka, penya va moliyaviy sanksiyalar qo'llanmasligini rasmiy ravishda belgilash, bundan tashqari, qonunchilikda moratoriy davrida quyidagi harakatlarni ya'ni qishloq xo'jaligi korxonasini qayta tashkil etish yoki tugatish; muassislar yoki ishtirokchilar tomonidan mol-mulkdan ulushni ajratib olish; dividendlar to'lash yoki korxona daromadini muassislar (ishtirokchilar) o'rtasida taqsimlash; qarzdorga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida ish qo'zg'atishni taqiqlash taklif etiladi. Zero, moratoriy va sudgacha sanatsiyani tartibga soluvchi maxsus qoidalarni qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlari uchun qonunchilikda belgilash, kreditorlar bilan kelishilgan sog'lomlashtirish rejalarini amalga oshirishga va to'lovga qobiliyatsizlikka o'tish xavfini bartaraf etishga xizmat qiladi.

Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligini sudgacha sanatsiya qilish bo'yicha xorijiy tajribaga ko'ra, sudgacha sanatsiya

¹⁰² Бу Ўзбекистон Республикасининг “Қишлоқ хўжалиги корхоналарини санация қилиш тўғрисида”ги Қонунида ҳам белгиланмаган// Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон.

yoki “pre-insolvency” mexanizmlari qonunchilikda alohida yoʻnalish sifatida koʻrib chiqilgan. Masalan, Germaniyada qishloq xoʻjaligidagi fermerlarga bankrotlik toʻgʻrisidagi qonun doirasida alohida tartibga amal qiladi. Unga koʻra, moliyaviy inqirozga duch kelayotgan korxonalar (masalan, suv yetishmasligi, hosilning kam yoki koʻp boʻlishi) kreditorlar bilan teng asosda restrukturizatsiya kelishuvlarini tuzish imkoniga ega boʻladi¹⁰³. Fransiyada esa “redressement judiciaire” (moliyaviy qayta tashkil etish) va “liquidation judiciaire” (sud orqali tugatish) kabi protseduralar qishloq xoʻjaligi korxonalariga ham tatbiq qilinadi¹⁰⁴. Shuningdek, AQSHda ham qayta tashkil etish jarayonlari qishloq xoʻjaligi subyektlariga qoʻllaniladi¹⁰⁵. Bu jarayonda korxona oʻz faoliyatini toʻxtatmay, qarzdorlik majburiyatlarini qayta tuzish va kreditorlar bilan kelishuv asosida moliyaviy barqarorlikni taʼminlash imkoniyatiga ega boʻladi. MDH davlatlarida qishloq xoʻjaligi korxonalari qarzdorlik inqirozlarini oldindan bartaraf etish maqsadida sudgacha sanatsiya yoki restrukturizatsiya jarayonlaridan foydalanishi mumkin. Masalan, Qozogʻistonda “O reabilitatsii i bankrotstve” qonuni qishloq xoʻjaligidagi ishlab chiqaruvchilar uchun maxsus holatlar nazarda tutadi¹⁰⁶, agar qarzdorning muammolari mavsumiylik yoki tabiiy-klimat sharoitlaridan kelib chiqsa, ularning majburiyatlari qayta koʻrib chiqilishi mumkin. Rossiyada esa bankrotlik va sanatsiya mexanizmlari oʻzaro bogʻliq tarzda qoʻllaniladi¹⁰⁷, qishloq xoʻjaligi korxonalari uchun maxsus huquqiy modellar va

¹⁰³<https://www.bauernzeitung.de/agrarpraxis/unternehmen-recht/insolvenzverfahren-landwirtschaftliche-betriebe/?utm.>; Schwehr B. Corporate rehabilitation proceedings in the United States and Germany // International Insolvency Review. – 2003. № 1. – P. 11–35.

¹⁰⁴<https://www.lafranceagricole.fr/compte-de-resultat/article/873137/les-defaillances-d-entreprises-agricoles-bondissant-au-troisieme-trimestre?utm>

¹⁰⁵ АҚШ Банкrotлик кодекси (Title 11) // Cornell University Law Scholl [расмий сайт]. <http://uscode.house.gov/view.xhtml?path=/prelim@title11&edition=prelim>

¹⁰⁶ Закон “О реабилитации и банкротстве” РК. <https://adilet.zan.kz/rus/docs/Z1400000176>

¹⁰⁷ Федеральный закон «О несостоятельности (банкротстве)» от 26.10.2002 №127-ФЗ в ред. Федерального закона от 29.06.2015 №186-ФЗ [Электронный ресурс]. URL: http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_39331/ (дата обращения: 04.12.2019).

restrukturizatsiya mexanizmlari mavsumiylik, tabiiy-klimat ta'siri va past likvidlik kabi xususiyatlarini inobatga olgan holda ishlaydi¹⁰⁸.

Mamlakatimizda qonunchilik belgilab bergan mezonlarga ko'ra, sudgacha sanatsiya qilish institutining huquqiy subyektlari ikki asosiy guruhga ajratilgan bo'lib, bu holat ushbu institutning qo'llanish doirasi, mexanizmlari va maqsadlarini aniq belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. *Birinchi guruh*, qishloq xo'jaligi korxonalari bo'lib, ularning sudgacha sanatsiyasi sohaviy qonunchilik normalari asosida tartibga solinadi, jumladan, "Qishloq xo'jaligi korxonalarini sanatsiya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, shuningdek sohaviy vazirlik va idoralarning me'yoriy-huquqiy hujjatlari tashkil etadi. Ushbu guruh subyektlari uchun sudgacha sanatsiyaning amalga oshirilishida qishloq xo'jaligi sohasiga xos bir qator omillar, xususan, mahsulot ishlab chiqarishning mavsumiyligi, moliyaviy resurslar yetarli emasligi, ishlab chiqarish xatarlari ya'ni iqlim sharoiti, biologik omillar, bozor kon'yunkturasining tez o'zgaruvchanligi, agrar tarmoqdagi infratuzilmaviy va texnologik cheklovlar mavjudligi sababli qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarida sudgacha sanatsiya jarayoni nafaqat moliyaviy chora-tadbirlarni, balki ishlab chiqarish va tashkiliy-menejment yo'nalishidagi choralarni ham o'z ichiga oladi. Mazkur guruhdagi subyektlar uchun sudgacha sanatsiyani amalga oshirish samaradorligi korxonaning mavsumiy ish rejalari, agroteknik talablar va bozor sharoiti bilan uzviy bog'liq bo'lib, uning huquqiy tabiati sohaviy xususiyatlarni hisobga olgan holda to'liq namoyon bo'ladi. *Ikkinchi guruhni* agrar sohadan tashqari faoliyat yurituvchi korxonalar, ya'ni boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar tashkil

¹⁰⁸ Д.В. Башмаков Актуальные вопросы несостоятельности (банкротства) в агропромышленном комплексе России.// Антикризисное управление. № 9 (120) 2011.-С.43-48.; Кучма Д.С. Особенности правового регулирования несостоятельности (банкротства) сельскохозяйственных организаций// Научный журнал «Эпомен», № 71, 2022 | Epomen Scientific Journal, No. 71 (2022).-С.118-122.; Ю.В. Горбунов, О.А. Поволоцкая Управление сельскохозяйственным предприятием в условиях несостоятельности.// Экономика профессия бизнес 2020. №1.-С.49-53.

etadi¹⁰⁹ . Ushbu korxonalar uchun sudgacha sanatsiya jarayoni Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 28 oktyabrdagi 708-son qarori bilan tasdiqlangan “Sudgacha sanatsiya qilishni davlat tomonidan yordam ko’rsatgan holda o’tkazish tartibi to’g’risida”gi nizom asosida tartibga solinadi va vakolali davlat organi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi belgilangan.

Biroq, amaliyotda qishloq xo’jaligida tadbirkorlik subyektlari uchun sudgacha sanatsiya jarayonlari deyarli olib borilmayotganligini qayd etish lozim , shu bilan birga “Qishloq xo’jaligi korxonalarini sanatsiya qilish to’g’risida”gi Qonuni maxsus ushbu subyektlar faoliyatida aynan sudgacha sanatsiya jarayonlarini huquqiy tartibga solishga qaratilgan bo’lsa-da, unda ushbu jarayonlarni amalga oshirish tamoyillari, vakolatli davlat organlarining aniq nomi, ularni vazifa va majburiyatlari, sudgacha sanatsiya qilishni moliyalashtirish mexanizmlari, uni yakunlash tartibi, yakunlash bo’yicha qanday qarorlar qabul qilinishi kabi jarayonlar biror me’yoriy hujjatda belgilab berilmagan ¹¹⁰ . Mustaqillikning dastlabki yillarida davlat tomonidan qishloq xo’jaligi va boshqa sohalarda zarar ko’rib ishlayotgan korxonalarni sanatsiyalash amaliyoti iqtisodiy va ijtimoiy siyosat ustuvorliklaridan kelib chiqqan holda amalga oshirilgan va bu jarayonda hukumat komissiyasi qarori asosida zarar ko’rgan korxonalarga sanatsiya choralari qo’llanib, ularning moliyaviy va iqtisodiy barqarorligini tiklashga qaratilgan tadbirlar amalga oshirilgan va unga maxsus vakolatli Iqtisodiy nochor korxonalar ishlari qo’mitasi mas’ul¹¹¹ ekanligi belgilangan bo’lsa, bugungi kunda ushbu soha

¹⁰⁹ Nizomda uning amal qilishi qishloq xo’jaligi korxonalariga tatbiq etilmasligi belgilangan.

¹¹⁰ Vaholanki, Qonunda sudgacha sanatsiyani nazorat qilish, bu haqida iltimosnomani ko’rib chiqish va o’zi tashabbus ko’rsatish, uni o’tkazish haqida qaror qilish, tanlov e’lon qilish, moratoriy joriy qilish, rejani tasdiqlash, ekspertiza o’tkazish, tashqaridan boshqaruvchi tayinlash va uni vakolatlari to’xtatish, sanatsiya qilishni to’xtatish kabi vazifalarni aynan vakolatli organ amalga oshirish belgilangan bo’lib, ularni ijro mexanizmi va mas’ul tashkilot aniq belgilanmagan.

¹¹¹ 1998-2000-yillar oralig’ida 336 ta xo’jalikda sanatsiya tadbirlari o’tkazilganligini yozadi . Korxonalarni bankrotlik holatidan chiqarish maqsadida O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, davlat qo’mitalari va manfaatdor idoralar bilan birgalikda 2002-yilda 259 ta, 2004-yilda 451 ta, 2006-yilda 180 ta, 2007-yilda yesa 137 ta bankrot holatidagi korxonalar sog’lomlashtirilgan.// Шукуруллаев А.Х. Қишлоқ хўжалик корхоналарини қайта ташкил этиш ва тугатишнинг фуқаролик ҳуқуқий тартибга солиниши: юрид. фан. ном. ... Дисс. Ташкент, 2001. – Б. 131.

bo'yicha vakolatli organ aniq belgilanmaganligi ¹¹² sababli sudgacha sanatsiya instituti faqat nazariy qoidalar darajasida qolmoqda. F ikrimizcha, qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarini sudgacha sanatsiya institutini takomillashtirishga qaratilgan yangi qonun loyihasi "Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarini sudgacha sanatsiya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini ishlab chiqish lozim. Ushbu qonunda qishloq xo'jaligi korxonalarining moliyaviy barqarorligini saqlash, to'lov qobiliyati pasaygan holatlarda profilaktik choralar ko'rish, kreditor va qarzdor manfaatlarini muvofiqlashtirish hamda sudgacha sanatsiya jarayonining huquqiy asoslarini aniq belgilash maqsadga muvofiqdir. Zero, sudgacha sanatsiya instituti aniq huquqiy maqsadga ega bo'lib, uning amalda qo'llanishi qishloq xo'jaligi tadbirkorlik subyektlarida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va bankrotlikka tushish xavfini kamaytirishga xizmat qiladi.

Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarini sudgacha sanatsiya instituti o'ziga xos tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy chora-tadbirlar majmuidan iborat bo'lib "Qishloq xo'jaligi korxonalarini sanatsiya qilish to'g'risida"gi Qonunning 4-moddasida ushbu choralar sanatsiyaning qator turlari sifatida ifodalangan. Vaholaki, bu sudgacha sanatsiyaning alohida mustaqil turlari emas balki sudgacha sanatsiya doirasida qo'llaniladigan chora-tadbirlari ya'ni sanatsiyani amalga oshirish vositalari hisoblanadi. Sudgacha sanatsiyaning t urlari deganda, odatda institutsional yoki tashkiliy jihatdan bir-biridan farq qiluvchi shakllar tushunilib, ular moliyaviy sanatsiya, tashkiliy (strukturaviy) sanatsiya, texnik sanatsiya, korporativ sanatsiya kabi tarzida bo'lishi mumkin ¹¹³.

¹¹² Xattoki, Qonunda Davlat aktivlarini boshqarish agentligida (to'lovga qobiliyatsizlik ishlari bo'yicha vakolatli organ) sifatida belgilangan bo'lsa-da, biror normativ hujjatda aynan qishloq xo'jaligida sudgacha sanatsiyani amalga oshirish bilan bog'liq aniq vakolatlarni uchratmaymiz.

¹¹³ Гончаров А.И., Терентьева М.В. Досудебное восстановление платежеспособности хозяйствующего субъекта. – СПб.: Издательство Р. Асланова «Юридический центр Пресс», 2004. - С. 218.

Sudgacha sanatsiya choralari Z.Umarov shartli ravishda uchta guruhga ya'ni iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy choralarga ajratishni taklif etadi¹¹⁴.

Qishloq xo'jaligi korxonalarining to'lov qobiliyatsizligi yuzaga kelgan holatlarda sudgacha sanatsiya instituti tadbirkorlik subyektini iqtisodiy qiyinchilikdan chiqarishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmui tarzida namoyon bo'lib, ularning mohiyatga ko'ra fikrimizcha, quyidagi guruhlarga ajratish mumkin: Birinchidan, *moliyaviy barqarorlikni tiklashga qaratilgan chora-tadbirlar* hisoblanib, ush bu guruh chora-tadbirlari korxonaning likvidligi, pul aylanmasi va qarz yukini optimallashtirishga, avvalo, qarzdorning kreditorlar oldidagi majburiyatlarini qayta ko'rib chiqish asosida moliyaviy resurslar bilan ta'minlash va soliq yukini yengillashtirishga qaratilgan bo'ladi. Xususan, to'lov muddati o'tkazib yuborilgan qarzlarni to'liq yoki qisman sotib olish (sessiya yoki qarzni restrukturizatsiya qilish orqali); kreditorlar oldidagi qarzlarni to'lash muddatini kechiktirish; qarzlarning ma'lum qismidan kreditorlar tomonidan ixtiyoriy ravishda kechish; qarzlarni bo'lib-bo'lib to'lash mexanizmini joriy etish; o'zaro qarz surishishni tashkil etish belgilanishi mumkin. Soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha yengilliklarni nazarda tutuvchi soliqlar hamda yig'implarni to'lash muddatini sanatsiya davriga uzaytirish; davlat kreditlarining qaytarilish muddatini kechiktirish; ayrim hollarda soliq yukini vaqtinchalik kamaytirish imkoniyatlarini qo'llash choralari ko'riladi. Shuningdek, tashqi moliyaviy yordamni jalb etish uchun tadbirkor faoliyatidan manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qo'shimcha moliyaviy resurslar ajratilishi; homiylik, investitsiya kiritish yoki qarz berish orqali tadbirkorni qo'llab-quvvatlash choralari ko'rilishi mumkin. Ikkinchidan, *iqtisodiy-ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar* sanalib, bu guruhdagi chora-tadbirlar ishlab chiqarish quvvatini tiklash,

¹¹⁴ Ўзбекистон Республикасининг “Банкротлик тўғрисида”ги қонунига шарҳлар (Умаров З.С. II боб) // Муаллифлар жамоаси: М.К.Азимов ва бошқ. – Тошкент: 2007. – Б. 117-118.

mahsulot tannarxini kamaytirish va raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan bo'ladi. Jumladan, tadbirkorlik subyektini raqobatbardosh xaridorgir mahsulotlar ishlab chiqarishga moslab qayta ixtisoslashtirish; mavjud texnikalarini yangilash, modernizatsiya qilish; resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash, mavsumiy yo'qotishlarni kamaytirish va mahsulot assortimentini ko'paytirish kabilardan iborat bo'lishi mumkin. Uchinchidan, *tashkiliy va boshqaruvga oid chora-tadbirlar* ya'ni xo'jalik subyektining ichki boshqaruv tizimini takomillashtirish, mutaxassislar salohiyatini oshirish va malakali kadrlar bilan ta'minlash mazkur guruh chora-tadbirlarining asosini tashkil qiladi. Bunda xo'jalikka tashqaridan menedjer boshqaruvini joriy etish; boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish, hisob-kitob va tahlil tizimini kuchaytirish; xarajatlarni samarali rejalashtirish va nazorat qilish mexanizmlarini joriy etish, chetdan yuqori malakali mutaxassislarni jalb etish; xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish mumkin. Shu o'rinda qayd etish lozim, qonunda¹¹⁵ qo'llanilgan "tashqaridan tayinlangan boshqaruvchi" atamasi mazmunan ma'lum darajada cheklanganlikni ifoda etadi hamda uning huquqiy maqomi va funksiyalarini to'liq ochib bermaydi. "Tashqaridan tayinlangan boshqaruvchi" iborasi faqat uning tayinlanish manbasiga urg'u beradi, ya'ni u xo'jalik ichidagi emas, balki tashqi subyekt ekanligini ko'rsatadi, xolos. Vaholanki, sudgacha sanatsiya jarayonida mazkur boshqaruvchining asosiy ahamiyati uning qaysi manbadan tayinlanganligida emas, balki u bajaradigan vazifalar, egallagan vakolatlar va huquqiy maqomining o'ziga xosligidadir. Shu jihatdan qaraganda, "maxsus boshqaruvchi" atamasi uning funksional mohiyatini to'laroq va aniqroq aks ettiradi. Shu bois fikrimizcha, qishloq xo'jaligida qarzdorga nisbatan sudgacha sanatsiya qilishda tashqaridan boshqaruvchi nomini "*maxsus boshqaruvchi*" sifatida belgilash maqsadga muvofiq bo'lib, uning vakolatlari va

¹¹⁵ O'zbekiston Respublikasining "Qishloq xo'jaligi korxonalarini sanatsiya qilish to'g'risida"gi Qonuni 20-moddasi // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон.

mas'uliyatlarini qonunchilikda aniq va mustahkam tarzda belgilovchi normalarni kiritish zarur. To'rtinchidan, *tadbirkorlik subyekting tuzilmaviy va huquqiy qayta tashkil etilishi* ya'ni u shbu chora-tadbirlar xo'jalikning huquqiy maqomi, tuzilmasi va korporativ boshqaruvini takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, qarzdor yuridik shaxsni qayta tashkil etish (qo'shilish, qo'shib yuborish, ajratib chiqarish va boshqa shakllar); tadbirkorlik subyekting tashkiliy-huquqiy shaklini o'zgartirish; aktiv va passivlarning tarkibini qayta ko'rib chiqish va optimallashtirish tarzida amalga oshiriladi.

Nazarimizda mazkur sudgacha sanatsiya chora-tadbirlarining bunday tizimlashtirilgan klassifikatsiyasi ushbu institutning mohiyatini to'liq ochib berishga, uning huquqiy va iqtisodiy vazifalarini aniq belgilashga imkon beradi.

Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarini sudgacha sanatsiya qilish jarayonida mediatsiyani qo'llash alohida ahamiyat kasb etadi. Fikrimizcha, ushbu jarayonda mediatsiyaning mohiyati shundaki, u qarzdor va kreditorlar o'rtasida ixtiyoriy, teng va o'zaro manfaatli kelishuvlar orqali moliyaviy miqdorlarni qayta tuzish, qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektni to'lov qobiliyatini tiklash va ishlab chiqarish jarayonlarini uzluksiz davom ettirish imkonini beradi. Biroq, qonunchilik jihatidan, hozirda sudgacha sanatsiyada mediatsiyani amalga oshirish uchun aniq mexanizmlar va tartiblar yetarli darajada belgilanmagan. Shu bois, "Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarini sanatsiya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni loyihasiga sudgacha sanatsiyada mediatsiyani qo'llash tartiblari va ularni amalga oshirish mexanizmlarini kiritish, maxsus boshqaruvchi instituti va uning huquqiy-iqtisodiy vakolatlarini belgilash taklif etiladi.

Shuningdek, nazarimizda sudgacha sanatsiya jarayonlaridan samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida qishloq xo'jaligi sohasida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlari uchun qo'shimcha imtiyozlar va ta'sirchan huquqiy mexanizmlarni joriy etish zarur. Amaldagi qonunchilik tahlili shuni

ko'rsatmoqdaki, qarzdorni to'lovga qobiliyatsiz deb topish uchun sudga murojaat qilishdan oldin majburiy tartibda talabnoma yuborish instituti nazarda tutilmaganligi bois, amaliyotda hatto kam miqdordagi qarzdorlik asosida ham¹¹⁶ kreditorlar bevosita sudga qarzdorni to'lovga qobiliyatsiz deb topish bo'yicha arizasi bo'yicha, ayniqsa qishloq xo'jaligi sohasidagi tadbirkorlik subyektlarining (ko'p hollarda klasterlarning) to'lovga qobiliyatsiz deb topilish jarayoni boshlanishiga olib kelmoqda. Bunday vaziyatda sud tomonidan ish yuritish qo'zg'atilishi bilan qarzdor xo'jalik darhol murakkab moliyaviy holatga tushib qoladi. Chunki, ish qo'zg'atilgandan so'ng, hatto arizachi kreditor oldidagi qarzdorlik bartaraf etilgan taqdirda ham qonun talabi bo'yicha sud ishni kreditorlar birinchi yig'ilishi natijalariga asosan ko'rib chiqadi. Natijada, barcha kreditorlar doirasi shakllantirilib bo'lingach, qarzdorning to'lovga qobiliyatsizlik holatidan chiqish imkoniyatlari keskin cheklanadi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, hatto barcha kreditorlar ishni sudgacha sanatsiya tarzida ko'rishga rozilik bildirgan taqdirda ham ish to'lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari doirasida davom ettiriladi va bu esa qarzdor subyektning iqtisodiy ahvolini yanada og'irlashtiradi. Shu nuqtayi nazardan, qonunchilikni takomillashtirish maqsadida bir qator aniq protsessual mexanizmlarni joriy etish taklif etiladi. Jumladan, qarzdorga nisbatan berilgan ariza yuzasidan birinchi sud majlisiga qadar qarzdor va arizachi kreditor o'rtasida mediativ kelishuvga erishilgan taqdirda, arizani protsessual qoidalarga muvofiq ko'rmasdan qoldirish tartibini belgilash lozim¹¹⁷. Bu yondashuv nizolarni sudgacha hal etishni rag'batlantirish bilan birga, ortiqcha sud aralashuvining oldini oladi va tadbirkorlik subyektlarning faoliyatiga salbiy ta'sirni kamaytiradi. Shu bilan birga, kreditorlar birinchi yig'ilishida sudgacha sanatsiya o'tkazish barcha kreditorlar tomonidan qo'llab-quvvatlangan

¹¹⁶ Qonun 41-moddasiga ko'ra, arizachi kreditor mavjud haqdorligini tasdiqlovchi hujjatni o'zi yetarli, ushbu qarzdor bo'yicha sud hujjati mavjudligi, ijro harakatlari olib borilganligi talab etilmaydi.

¹¹⁷ Chunki, ish ko'rmasdan qoldirilganda ham boshqa kreditorlar huquqlari cheklanmaydi, ya'ni o'zlarining haqdorligi bo'yicha alohida sud tartibida nizolashi huquqi mavjud bo'ladi.

hollarda to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ish yuritishni tugatish imkoniyatini qonunchilikda mustahkamlash zarur. Taklif etilayotgan mazkur o'zgartish va qo'shimchalar sudgacha sanatsiya institutning amaliy samaradorligini oshirishga, qishloq xo'jaligi sohasidagi tadbirkorlik subyektlarini asossiz ravishda to'lovga qobiliyatsiz deb topilishidan himoya qilishga hamda ularning moliyaviy barqarorligini saqlab qolishga xizmat qiladi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligini sudgacha sanatsiya qilish instituti - bu iqtisodiy va huquqiy kategoriyalarning uyg'unligida shakllangan kompleks mexanizmdir. U qarzdorning moliyaviy barqarorligini tiklashga qaratilgan texnik, ishlab chiqarish, moliyaviy, iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi, shuningdek kreditorlar ishonchi va o'zaro manfaatlar asosida fuqarolik huquqiy normalar doirasida hamkorlik qilish imkonini yaratadi.

1.4.§ Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligiga oid milliy va xorijiy qonunchilikning rivojlanish tendensiyalari

Mamlakatimizda qishloq xo'jaligi sohasidagi tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligiga doir qonunchilikni tizimlashtirish va takomillashtirish masalasi so'nggi o'n yilliklarda nafaqat huquqiy, shu bilan birga iqtisodiy-ijtimoiy nuqtayi nazardan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Buning asosiy sababi iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishda qishloq xo'jaligi sohasi asosiy o'rin egallab borayotganligi, iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlash va aholi turmush farovonligini yanada yaxshilashda muhim o'rin egallaganligi bois, ularni to'lovga qobiliyatsizlik jarayonini oldini olish, ularni sog'lomlashtirish va keng ko'lamli iqtisodiy islohotlarning lokomativi sifatida faoliyatini

kengaytirishga qaratilgan qonunchilik bazasini yanada mustahkamlash ustuvor ahamiyat kasb etib bormoqda.

Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligiga doir munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik fuqarolik huquqiy va ma'muriy huquq normalarini o'zida mujassamlashtirgan, ommaviy va xususiy-huquqiy munosabatlardan¹¹⁸ kelib chiqadigan qishloq xo'jaligi, tadbirkorlik¹¹⁹ va boshqa huquq tarmoqlari bilan uzviy aloqada bo'lgan qoidalarni o'z ichiga qamrab oladi. Bu borada to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi qonunchilikni kompleks tarmoq sifatida tavsiflagan olimlar fikricha, mazkur qonunchilik «real hayotda o'zaro bog'liq bo'lgan xususiy (gorizontal) va ommaviy (vertikal) munosabatlar majmuini tartibga solishga qaratilgan, xususiy va ommaviy huquq normalarini o'z ichiga olgan kompleks qonunchilik» hisoblanadi ¹²⁰. Boshqa mualliflar ham to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi qonunchilikni kompleks tarmoq sifatida baholar ekan, unda normalarni ikki turga moddiy-huquqiy va protsessual-huquqiy normalar ajratadi¹²¹. Bu esa, qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligi sohasidagi qonun hujjatlarining sohalararo xususiyatidan kelib chiqib, konseptual asoslari belgilash, fuqarolik huquqiy normalar bilan o'zaro nisbatini¹²² tizimli ravishda o'rganish hamda qonun chiqaruvchi tomonidan ham tadbirkorlik faoliyati subyektlari sifatida qishloq xo'jaligi korxonalarining to'lov qobiliyatini tiklash, ularning barqaror, samarali faoliyat yuritishini ta'minlash, to'lovga qobiliyatsiz holatiga tushib qolgan ushbu korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish

¹¹⁸ Korporativ huquqning ajralmas qismi sifatida fikrlar ham mavjud // Раҳмонкулов Ҳ.Р., Гулямов С.С. Корпоратив ҳуқуқ. Ҳуқуқшунослик олий ўқув юртлари учун дарслик. – Т.: ТДЮИ, 2007. – Б. 372.

¹¹⁹ Tadbirkorlik huquqining tarkibidagi institut sifatida qarashadi // Дўстов У.Н. Хўжалик юритувчи субъектлар банкротлиги. Ўқув қўлланма / Ф.Х.Отахоновнинг умумий таҳрири остида. – Т.: ТДЮИ, 2007. – Б. 10.; Жилинский С.Э. Предпринимательское право (правовая основа предпринимательской деятельности): учебник для вузов. – 8-е изд. 2007. – С. 865.

¹²⁰ Смирнов, Р.Г. Природа правоотношения несостоятельности (банкротства): дис. ... канд. юрид. наук: 12.00.03 / Р.Г. Смирнов [Электронный ресурс]. – М.: РГБ, 2005. - 198 с.

¹²¹ Говоруха, М.А. Правовое положение органов управления несостоятельного должника [Электронный ресурс]: автореф. дис. ... канд. юрид. наук: 12.00.03 / М.А. Говоруха. – М.: РГБ, 2008. - 24 с.

¹²² Кучер В.Н., Особенности гражданско-правового регулирования залоговых обязательств в процедуре банкротства // Молодой ученый. 2021, №22 (364), -С. 337-339.

choralarini ko'rish samaradorligini oshirishga qaratilgan norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Zero, qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarini to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi qonunchilik nafaqat ushbu subyektlarga to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ish ochilgandan keyin paydo bo'ladigan munosabatlar, balki undan oldingi to'lovga qobiliyatsizlik alomatlari paydo bo'lgan paytdagi munosabatlarga nisbatan ham amal qiladi. Shu bilan birga, to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi qonunchilik bozor iqtisodiyotini rivojlantirishning vositalaridan biridir, undan samarali foydalanish mulkiy munosabatlar ishtirokchilariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi¹²³.

Huquqiy adabiyotlarda qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligini huquqiy asoslarini belgilovchi, tartibga soluvchi, to'lovga qobiliyatsizlik jarayonida tadbirkorlik subyektlarining qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishni ta'minlovchi qonun hujjatlarining rivojlanishini o'rganishda ularni yuridik kuchiga ko'ra (qonun hujjatlari va qonunosti hujjatlari), davlat organlarining qabul qilish vakolatiga ko'ra, davriy rivojlanish vaqtida ko'ra, tartibga solish sohasi, subyektlari yoki hududiy amal qilishiga ko'ra tasniflanishi borasida turlicha yondashuvlar mavjud¹²⁴.

Biroq, aynan qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligi jarayonidagi faoliyatini huquqiy asoslarini qamrab oluvchi qonun hujjatlari mazmunini tizimli tahlil qilgan holda, fikrimizcha ularni xronologik jihatdan muayyan davrlariga tasniflagan holda o'rganish maqsadga

¹²³ Лопаяева Н.В. Учебное пособие по дисциплине «Правовое регулирование банкротства хозяйствующих субъектов». – Т.: Издательство ТГЮИ, 2008. – С. 3.

¹²⁴ Qarang: Ayrim olimlar O'zbekistonda to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi qonunchilik rivojlanishini to'rt bosqichga ya'ni 1994–1997-yillar; 1998–2002-yillar; 2003–2008-yillar va 2009-yildan keyingi davrlar ajratadi// Умаров У. Хорижий мамлакатлар иктисодиётида банкротлик – иктисодий ночорлик институти ривожланишининг назарий жиҳатлари // Халқаро муносабатлар. – 2015. – №3. – Б. 35.; O'zbekistonda bankrotlikka oid qonunchilikning rivojlanish tarixini uch bosqichga – musulmon huquqi davri, mustaqillikkacha bo'lgan darv va mustaqillikdan keyingi davrga ajratishadi // Отахонов Ф.Х., Ибратова Ф.Б. Хўжалик судларида банкротлик ишларини кўришнинг ўзига хос хусусиятлари. Монография. –Т.: ТДЮИ нашриёти, 2024. –Б.22-25.

muvofiq bo'ladi. Chunki, muayyan qonun hujjatida qishloq xo'jaligi sohasidagi tadbirkorlik subyektini nafaqat himoya qilish, balki turli huquqiy vositalar asosida to'lovga qobiliyatsizlik jarayonida ularni saqlab qolish, sanatsiya qilish (sog'lomlashtirish) orqali qo'llab quvvatlash, tartibga solish va ushbu choralarni ko'rishni takomillashtirish tendensiyalarini aniqlash bilan bog'liq masalalar belgilanmoqda. Shu bois, qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligini huquqiy asoslarini belgilovchi, ularni tartibga solishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasining qonunlari va qonunosti hujjatlarining rivojlanish davrini uchta bosqichga (1991-2002 yillar, 2003-2021 yillar hamda 2022 yildan keyingi davr) tasniflash maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Birinchi bosqich qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligini tartibga solish ga oid qonun hujjatlarining shakllanishi (1991-2002 yillar) o'ziga xos murakkab davr bo'lib, unda mustaqillikning ilk kunlaridan bozor iqtisodiyotining qonunchilik asoslarini shakllantirish, tadbirkorlik subyektlarini, xususan qishloq xo'jaligida faoliyati yurituvchi tadbirkorlarni sanatsiya qilish orqali sog'lomlashtirishga doir me'yoriy hujjatlari ishlab chiqishga e'tibor qaratildi.

Darhaqiqat, mustaqillikning dastlabki yillaridan yer egalikning yangi tashkiliy huquqiy shakllari keng joriy etilib, qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlari sifatida fermer xo'jaliklari, dehqon xo'jaliklari amalda xalq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishning asosiy subyektiga, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishini ta'minlashida yetakchi harakatlantiruvchi kuchga aylandi. Qayd etish lozim, qishloq xo'jaligi korxonalarining tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning huquqiy asoslari va to'lovga qobiliyatsizlikni huquqiy tartibga solishga qaratilgan ayrim normalar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Fuqarolik kodeksi, Yer kodeksi, O'zbekiston Respublikasining Xo'jalik protsessual kodeksi, "Bankrotlik to'g'risida"gi, "Tadbirkorlik faoliyati

erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi, "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi, "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi, "Qishloq xo'jalik kooperativlari (shirkat xo'jaliklari) to'g'risida"gi, "Garov to'g'risida"gi qonunlarda o'z ifodasini topdi va ushbu davr mobaynida qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarini isloh qilish va bozor mexanizmlarini joriy etish bo'yicha samarali ishlar amalga oshirildi.

Birinchi marotaba 1994 yilda qabul qilingan to'lovga qobiliyatsizlik munosabatlarini tartibga soluvchi maxsus qonunchilik "Bankrotlik to'g'risida"gi Qonuni¹²⁵ da ushbu subyektlarning to'lovga qobiliyatsizligi umumiy qoidalar asosida tartibga solinishi nazarda tutildi. Lekin, ushbu qonun ishlab chiqilishida to'lovga qobiliyatsizlik jarayonida qishloq xo'jaligi sohasi tadbirkorning to'lovga qobiliyatsizligiga mansub o'ziga xos xususiyatlar (mavsumiylik, davlat subsidiyalari, yerdan foydalanish huquqi) yetarlicha inobatga olinmadi, qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligini tartibga solish ga nisbatan maxsus subyekt sifatida belgilamadi. Shuningdek, qonunda qarzdorni sanatsiya qilishning ikki ko'rinishi, ya'ni sudgacha sanatsiya va sud sanatsiyasi taomillari joriy etilishi mumkinligi nazarda tutilgan bo'lsada, biroq ikki holatda ham qarzdorning to'lov qobiliyatini tiklashning haqiqiy imkoniyati mavjud bo'lganlik sharti bilan sanatsiya qilish lozimligi belgilanmadi.

Keyinchalik mazkur Qonunning 1998 yilda qabul qilingan tahririda¹²⁶ "Qishloq xo'jaligi korxonalarining bankrotligi" masalasida alohida bob kiritilib, ularni maxsus subyekt sifatida o'ziga xos xususiyatlari inobatga belgilandi. Xususan, qishloq xo'jaligi korxonalarining bankrotligi to'g'risida ish yuritish qo'zg'atilgunga qadar ularga nisbatan belgilangan tartibda sudgacha sanatsiya qilish qo'llanilishi mumkinligi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi maqsadlarida ishlatilayotgan va bankrot deb topilgan qishloq xo'jaligi korxonasiga tegishli bo'lgan ko'chmas mol-mulk obyektlari sotilayotganda ushbu obyektlarni sotib

¹²⁵ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1994 й., 5-сон, 130-модда.

¹²⁶ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1998 й., 9-сон, 167, 168-моддалар.

olishda boshqa shartlar teng bo'lgani holda aynan shu hududda joylashgan qishloq xo'jaligi korxonalari ustun huquqdan foydalanishi nazarda tutildi. Shuningdek, mazkur qonunda qishloq xo'jaligi korxonasiga nisbatan tashqi boshqaruv joriy etilganda tadbirkor yetishtirgan (ishlab chiqargan, ishlab chiqarilib qayta ishlagan) qishloq xo'jaligi mahsulotini realizatsiya qilish uchun zarur vaqtni hisobga olgan holda qishloq xo'jaligi ishlarining tegishli davri tugagunga qadar bo'lgan muddatga joriy etilishi, ushbu muddat mobaynida tabiiy ofatlar va boshqa fors-major vaziyatlar tufayli qishloq xo'jaligi korxonasining ishlab chiqarishida pasayish va moliyaviy holatida yomonlashish sodir bo'lgan bo'lsa, tashqi boshqaruv muddati bir yilga uzaytirilishi mumkinligi belgilandi.

Shuningdek, 1997 yil 25 dekabrda qabul qilingan "Qishloq xo'jaligi korxonalarini sanatsiya qilish to'g'risida"gi¹²⁷ O'zbekiston Respublikasining Qonuni bilan qishloq xo'jaligi korxonalarining to'lovga qobiliyatsizligi to'g'risida ish qo'zg'atishga qadar sudgacha sanatsiya qilish amalga oshirilishi nazarda tutilib, qishloq xo'jaligi korxonasining to'lov qobiliyatini, iqtisodiy quvvatini tiklash va kelgusida uning faoliyati samarali bo'lishi uchun shart-sharoitlar yaratish lozimligi va bunda qishloq xo'jaligi korxonasining faoliyatini tashkil etish va uni boshqarishni takomillashtirishga qaratilgan zarur o'zgartishlarni amalga oshirish; raqobatbardosh mahsulot yetishtirish va uni realizatsiya qilish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish; korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash asosiy vazifalardan bo'lishi belgilandi.

Shu bilan birga ushbu davrda qator qonunosti hujjatlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Korxonalar bankrotligi va sanatsiyasi mexanizmini takomillashtirish to'g'risida"gi 1999 yil 23 iyuldagi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 14 yanvardagi 21-sonli "Qishloq xo'jaligi korxonalarini sanatsiya qilish bo'yicha me'yoriy

¹²⁷ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1998 й., 1-сон, 4-модда.

hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi¹²⁸, 1998 yil 26 dekabrda "Qishloq xo'jaligi korxonalarini sanatsiya qilish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 537-sonli, 1999 yil 26 iyulda 362-sonli "Korxonalarining bankrotligi to'g'risidagi qonunchilikni amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar haqida"gi qarorlari qabul qilindiki, ushbu hujjatlar qishloq xo'jaligi korxonalarini to'lovga qobiliyatsizligini o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olishga qaratilib, ushbu korxonalarini sog'lomlashtirish choralarini ko'rish, sudgacha sanatsiya qilish va davlat tomonidan qo'llab quvvatlash hamda qonun ustuvorligini qat'iy ta'minlashni asoslari belgilab berdi. Biroq, ushbu hujjatlar bozor munosabatlarining rivojlanib borgan sari takomillashtirishga ehtiyoj seza boshladi. Birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "bankrotlik to'g'risidagi amaldagi qonunlarni, xususan, "Bankrotlik to'g'risida"gi qonunni qayta ko'rib chiqish, unda iqtisodiy nochor korxonalarga qo'yiladigan talablarni kuchaytirish, tugatish muddatlarini qisqartirish, pirovard natijalari uchun xo'jalik sudlari va tugatish komissiyalari mas'uliyatini oshirish yuzasidan o'zgartishlar kiritish zarur"¹²⁹ bo'lgan vaqt yetib keldi va bu qonunchilikni yangi bosqichga ko'tarishni taqazo etdi.

Ikkinchi bosqich bu mamlakatimizda 2003 - 2021 yillar tom ma'noda tadbirkorlik faoliyati subyektlari, xususan qishloq xo'jaligida tadbirkorlik faoliyati subyektlarining bankrotligi masalasida "to'lov qobiliyatsizlikni oldini olish" choralarini ko'rish tizimini konseptual asoslarini yaratilishini ta'minlashga xizmat qiluvchi moddiy va protsessual qonun hujjatlarini modernizatsiya qilish davri bo'ldi.

¹²⁸ Mazkur hujjat bilan "Qishloq xo'jaligi korxonalarini sanatsiya qilish tartibi", "Sanatsiya qilinayotgan qishloq xo'jaligi korxonalarining tashqi boshqaruvchisi to'g'risida"gi nizom, "Sanatsiya qilinadigan zarar ko'rib ishlayotgan qishloq xo'jaligi korxonalari ro'yxati" ilovaga muvofiq tasdiqlandi.

¹²⁹ Каримов И.А. Озод ва обод ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. 8-том. – Т.: Ўзбекистон, 2000. – Б. 55.

Darhaqiqat ushbu konseptual muhim asoslar “Bankrotlik to‘g‘risida”gi Qonunining 2003 yildagi tahrirda¹³⁰ ishlab chiqilgan bo‘lib, unda qishloq xo‘jaligi korxonalarining bankrotligi masalasida “to‘lov qobiliyatsizlikni oldini olish” va “sog‘lomlashtirish (reabilitatsiya)” choralarini belgilab berdi ¹³¹. Xususan, qishloq xo‘jaligi korxonasining bankrotligi to‘g‘risidagi ish sud tomonidan ko‘rib chiqilayotganida mahalliy davlat hokimiyati organlari ham ishda ishtirok etuvchi shaxslar ishga tegishli taraf sifatida jalb qilish mumkinligi, qishloq xo‘jaligi korxonalarida kuzatuv, sud sanatsiyasi va tashqi boshqaruvning o‘ziga xos xususiyatlari hamda ushbu korxonalarning mulkini va mulkiy huquqlarini sotishning (ulardan o‘zganing foydasiga voz kechishning) o‘ziga xos jihatlari birinchi marta qonun normalari asosida tartibga solindi.

Mazkur Qonunga 2011 yil 3 oktyabrdagi O‘RQ-300-son qonun bilan kiritilgan¹³² o‘zgartish va qo‘shimchalarga ko‘ra, korxonani (biznesni) sotish narxi kreditorlar yig‘ilishi yoki kreditorlar qo‘mitasining qaroriga ko‘ra pasaytirilishi mumkinligi, biroq bunda pasaytirish avvalgi kim oshdi savdosidagi narxning 10 foizidan ko‘p bo‘lmasligi kerakligi nazarda tutildi. Shu bilan birga kiritilgan eng asosiy jihati sud tomonidan qarzdorning faoliyati xususiyatidan kelib chiqib (ayniqsa qishloq xo‘jaligida tadbirkorlik faoliyatini olib boruvchi korxonalari ham bunga tegishli – ta’kid bizniki), qarzdorni bankrot deb topish to‘g‘risidagi qarorida kreditorlar yig‘ilishining va (yoki) tegishli davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining iltimosnomasiga ko‘ra qarzdorning faoliyatini to‘xtatmasdan tugatishga doir ish yuritish o‘tkazilishini ko‘rsatishi mumkinligi belgilandi. Bu esa hali dalada paxta yoki g‘allasi yoxud shunga o‘xshash boshqa tovari to‘liq olinmagan tadbirkorlik subyektlari uchun qulay imkoniyat bo‘lib, keyinchalik

¹³⁰Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2003 й., 5-сон, 63-модда.

¹³¹ Bu o‘zgarish BMT va Jahon bankining bankrotlik bo‘yicha tavsiyalariga muvofiq bo‘lgan (UNCITRAL Legislative Guide on Insolvency Law, 2004.

¹³² Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2011 й., 40-сон, 411-модда.

mavjud mahsulotni yetirishtirib sotish evaziga to'lovga qobiliyatsizlik holatidan chiqib, sog'lomlashib ketishiga imkon berishga asos bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 23 martdagi "Iqtisodiy nochor korxonalarining sud boshqaruvchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 138-son qarori bilan "Sud boshqaruvchilari to'g'risida"gi Nizom tasdiqlandi.

Ushbu davrdan boshlab to'lovga qobiliyatsizlikka doir ishlarni yuritishda shaffoflik, boshqa kreditorlarni o'z vaqtida xabardor etish va boshqa qonunbuzilishlarini oldini olish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 11 iyundagi 160-sonli "Bankrotlik to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida nazarda tutilgan ma'lumotlarni e'lon qilishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori¹³³ asosida bankrotlik to'g'risidagi ma'lumotlar "Birja" va/yoki "Soliq info" gazetalarida rasmiy nashrlar sifatida (keyinchalik "Biznes-Daily "Birja" iqtisodiy gazetasida) e'lon qilinishi belgilab berildi.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 14 avgustdagi 224-sonli qarori bilan korporativ boshqaruv sifatini yaxshilash, xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy ahvoli barqarorligi yuzasidan ularning rahbarlari va mulkdorlarining mas'uliyatini oshirish, shuningdek soxta bankrotlik, bankrotlikni yashirish va qasddan bankrotlikka olib kelingan holatlarini o'z vaqtida aniqlash maqsadida sud boshqaruvchisi tomonidan qarzdorning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini soxta to'lovga qobiliyatsizlik, to'lovga qobiliyatsizlikni yashirish va qasddan to'lovga qobiliyatsizlikka olib kelish alomatlarini aniqlash yuzasidan tahlil qilish tartibini belgilaydigan "Soxta bankrotlik, bankrotlikni yashirish va qasddan bankrotlikka olib kelish alomatlarini aniqlash qoidalari" ¹³⁴ tasdiqlandi.

¹³³ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2009 й., 24-сон, 274-модда.

¹³⁴ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2013 й., 33-сон, 441-модда.

Darhaqiqat, xalqaro reytinglarda O'zbekiston Respublikasining pozitsiyasini yaxshilash hamda 2017 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da¹³⁵ amalga oshirishga oid Davlat dasturining 3.1.-rejasi, 124-bandida "Kreditorlarning huquqlarini himoya qilishni kuchaytirish maqsadida quyidagi tartiblarni belgilash: qarzdorning moliyaviy ahvoli to'g'risidagi axborotni har qanday kreditorga uning yozma so'rovi olingan vaqtdan boshlab 10 kun ichida taqdim etish; kreditorga qarzdorni bankrot deb topish to'g'risidagi qarorga e'tiroz bildirish huquqini berish" bayon qilingan. "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili" davlat dasturida¹³⁶ belgilangan ustuvor vazifalardan biri sifatida ham bankrotlik taomillarini yanada soddalashtirish, sud boshqaruvchilari faoliyatini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu vazifalarni amalga oshirish maqsadida bois O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 1 fevraldagi 4146-sonli "Bankrotlik taomillarini yanada soddalashtirish va sud boshqaruvchilari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori¹³⁷ qabul qilindi va unga binoan, soliq xizmati organlari soliqlar va yig'imlar bo'yicha qarzdorlikni undirish imkoniyati bo'lmaganligi sababli ijro hujjatlari qaytarilgan kundan boshlab 30 kundan kechiktirmasdan qarzdorga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida ish qo'zg'atish to'g'risidagi ariza bilan sudga murojaat qilishi, to'lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari qo'llanilgan qarzdorlarning mol-mulki sud boshqaruvchilari tomonidan «E-auksion» elektron savdo platformasida elektron onlayn-auksion orqali yoki qonun hujjatlarida belgilangan hollarda mazkur platformaning tanlov savdolari orqali sotilishi, 2019 yil 1 maydan

¹³⁵ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 17 декабрдаги Ф-4760-сонли "Халқ билан мулоқот ва инсон манфаатлари йили" Давлат дастурини ишлаб чиқиш ва амалга оширишнинг ташкилий чора-тадбирлари тўғрисидаги Фармойиши //Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 8-сон, 119-модда.

¹³⁶ Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 18.01.2019 й., 06/19/5635/2502-сон.

¹³⁷ Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 02.02.2019 й., 07/19/4146/2566-сон.

davlat soliq xizmati organlarining arizalari bo'yicha qo'zg'atilgan to'lovga qobiliyatsizlikning soddalashtirilgan taomillarini o'tkazishda sud boshqaruvchilarini davlat soliq xizmati organlari xodimlari orasidan tayinlash amaliyoti bekor qilinishi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchilik tizimi uchun nisbatan nisbatan huquqiy tartibga solish mexanizmining murakkabligi bilan ajratilib turadigan to'lovga qobiliyatsizlik institutini qishloq xo'jaligi sohasi xususiyatlarini inobatga olgan holda samarali xalqaro tajribalar asosida takomillashtirish zaruriyati yuzaga kela boshladi. Qonun hujjatlarida fermer xo'jaliklariga va yuridik shaxsni tashkil etgan holdagi dehqon xo'jaliklariga va bankka tashqi boshqaruv joriy qilinmasligi bayon qilindi. Biroq, bu qoida boshqa qishloq xo'jaligi sohasida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlari uchun mumkin yoki mumkin emasligi masalasi keltirilmadi. To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi qonunchilikning umumiy qoidalari ayrim toifadagi yuridik shaxslarni, kredit tashkilotlari huquqiy maqomi spetsifikasiga mos kelmaydi, bu qoidalarni qo'llash samara bermaydi ¹³⁸. Shu munosabat bilan, amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan qoidalarni rivojlangan davlatlar tajribasi asosida qayta ko'rib chiqish, xususan, alohida toifadagi yuridik shaxslar, jumladan qishloq xo'jaligi sohasidagi tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligiga doir bahsli masalalarni ilmiy jihatdan huquqiy tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb vazifaga aylandi. Huquqshunos X.Burxanxodjayeva Rossiya qonunchiligi tajribasi asosida alohida "Yuridik shaxs tashkil etmagan holda birgalikdagi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi oilaviy tadbirkorlik, oddiy shirkat va dehqon xo'jaligining bankrotligining o'ziga xos xususiyatlari" degan bob kiritishni taklif

¹³⁸ Юлова Е.С. Правовое регулирование несостоятельности (банкротства) кредитных организаций. Автореф. ... канд.юрид.наук. – М., 2004. – С. 3.

etadi¹³⁹. Bu albatta ushbu davr amaliy muammosini huquqiy yechimi uchun asos bo'lishi mumkin edi.

Qishloq xo'jaligi subyektlarining iqtisodiy-huquqiy xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning to'lovga qobiliyatsizligini tartibga soluvchi qonun hujjatlarini rivojlantirishning uchinchi bosqichi - 2022 yildan keyingi davrga to'g'ri keladi. Ushbu zamonaviy konseptual bosqichda islohotlar mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning strategik ustuvor yo'nalishlari bilan uzviy bog'liq ravishda amalga oshirildi. Xususan, qonunchilikni modernizatsiya qilish jarayoni O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi hamda Prezidentning sohaviy qarorlarida belgilangan vazifalar ijrosi doirasida izchil davom ettirildi.

Ilg'or xorijiy tajribani inobatga olgan holda to'lovga qobiliyatsizlik sohasidagi huquqiy tartibga solish tizimi tubdan takomillashtirildi va natijada "To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida"gi Qonun¹⁴⁰ 2022 yil 12 aprelda qabul qilindi. Mazkur qonun to'lovga qobiliyatsizlik institutni zamonaviy bozor munosabatlari talablariga moslashtirish, rehabilitatsiya mexanizmlarini kengaytirish va alohida toifadagi subyektlar, jumladan agrar sohadagi tadbirkorlik subyektlari faoliyatining o'ziga xos jihatlarini hisobga olgan holda huquqiy tartibga solishni ta'minlashga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Mazkur yangi qonun qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligini huquqiy tartibga solish zamonaviy iqtisodiy transformatsiya sharoitida alohida konseptual ahamiyat kasb etmoqda. Qonun to'lovga qobiliyatsizlik institutni tizimli ravishda yangilab, uni bozor iqtisodiyoti talablariga moslashtirdi hamda qishloq xo'jaligidagi tadbirkorlik subyektlariga nisbatan sud tartibida to'lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarini qo'llash imkoniyatini aniq belgilab berdi. Qonun bilan to'lovga

¹³⁹ Бурханходжаева Х.В. Якка тартибдаги тadbirkor банкротлиги // Ўзбекистон Республикаси Олий ҳўжалик суди Ахборотномаси. –Тошкент. –2011. –№7. –Б.38-41.

¹⁴⁰ Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 13.04.2022 й., 03/22/763/0306-сон.

qobiliyatsizlikning dual modeli joriy etildi, ya'ni vaqtincha (likvidlik inqiroziga asoslangan) va doimiy (balans nomuvofiqligiga asoslangan) to'lovga qobiliyatsizlik mezonlari mustahkamlandi. Bu esa likvidlik testi va balans testiga asoslangan aralash (kombinatsiyalashgan) yondashuv orqali qarzdorning moliyaviy holatini kompleks baholash imkonini yaratdi. Yangi qonunchilikning agrar sektor uchun asosiy afzalliklaridan biri to'lovga qobiliyatsizlik institutini jazolovchi mexanizm emas, balki iqtisodiy tiklash va sog'lomlashtirish vositasi sifatida qayta konseptual takomillashtirilganidir. Xususan, sog'lomlashtirish tartib-taomillarining ustuvorligi, mavsumiy to'lov grafiklarini qo'llash imkoniyati, qarz majburiyatlarini kechiktirish¹⁴¹ va tabiiy ofatlar sharoitida vaqtincha imtiyozlar berish kabi mexanizmlar orqali agrar sohaning strategik ahamiyati bo'lgan oziq-ovqat xavfsizligi, qishloq aholisi bandligi va hududiy barqarorlikni ta'minlash nuqtayi nazaridan iqtisodiy aylanishdan chiqarib yubormaslikka qaratilgan muvozanatli modelni shakllantirdi.

Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligini huquqiy tartibga solishda milliy rivojlanish tendensiyalarini aniqlash zamonaviy huquqiy islohotlarning strategik yo'nalishini belgilash nuqtayi nazaridan alohida ahamiyat kasb etadi¹⁴². Agrar sektor iqtisodiyotning ijtimoiy va oziq-ovqat xavfsizligi bilan uzviy bog'liq tarmog'i sifatida to'lovga qobiliyatsizlik institutini qo'llashda umumiy bozor mexanizmlariga nisbatan

¹⁴¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi PF-50-son Farmonining 13-bandiga binoan, ushbu hujjat kuchga kirgunga qadar fermer xo'jaliklarining soliq qarzdorligi bo'yicha hisoblangan penya hisobdan chiqarish hamda sud va ijro ishlarining ushbu penyani undirish bilan bog'liq qismi tugatish belgilandi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 25.03.2025 й., 06/25/50/0272-сон.; Shuningdek, ushbu sanada qabul qilingan PQ-290-sonli Qarori 3-bandiga ko'ra, tijorat banklari orqali 2022-2023-yillar paxta hosiliga ajratilgan kreditlardan qarzdorligi mavjud bo'lgan paxta-to'qimachilik klasterlari bo'yicha 2025-yil 1-avgustdan boshlab faqat asosiy qarzni to'lashga hamda asosiy qarz tugagandan keyingi 12 oyda teng ulushlarda foiz to'lashga ruxsat etildi, 2025-yil 1-avgust holatiga to'lanmagan foizlarga hisoblangan penya summaları hisobdan chiqarilish belgilandi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 22.09.2025 й., 07/25/290/0860-сон.

¹⁴² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-noyabrdagi "Agrar sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida qishloq xo'jaligi sohalarida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlariga davlat tomonidan ko'rsatiladigan qo'llab-quvvatlash choralari samaradorligini oshirish hisobiga qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2030-yilga qadar bosqichma-bosqich 20 foizga ko'paytirish kabi qator vazifalar uchun Qishloq xo'jaligi vazirligi huzurida Agrar sohada to'lovlar aagentligi tashkil etildi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 22.11.2025 й., 06/25/224/1074-сон.

murakkabroq va moslashuvchan yondashuvni talab qiladi. Shu bois milliy qonunchilikda shakllanayotgan tendensiyalarni ilmiy jihatdan tahlil qilish, ularning yo'nalishi va istiqbolini belgilash huquqni takomillashtirishning muhim sharti hisoblanadi.

So'nggi yillarda milliy qonunchilikda qishloq xo'jaligi subyektlariga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarini qo'llashda sog'lomlashtirishga yo'naltirish tendensiyasi kuzatilmoqda. Xususan, restrukturizatsiya mexanizmlarining ustuvorligi, mavsumiy to'lov grafiklarini qo'llash imkoniyati, tabiiy ofatlar sharoitida majburiyatlarni vaqtincha to'xtatish kabi normalar agrar ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda shakllantirilmoqda.

Darhaqiqat, milliy rivojlanish tendensiyalarini samarali shakllantirish va ilmiy asoslash ko'proq xorijiy qonunchilik tajribasini kompleks o'rganish bilan bevosita bog'liqdir¹⁴³. Dunyo tajribasida to'lovga qobiliyatsizlik institutlarini huquqiy-iqtisodiy jihatdan tasniflashda uch asosiy konseptual yondashuv ya'ni qarzdor huquqlari ustuvor (prodebitor), kreditor huquqlari ustuvor (prokreditor) va aralash, gibrid (neytral) modellar farqlanadi. Agar klassik kreditorlarga yo'naltirilgan yondashuv (Angliya, Germaniya) aktivlarni maksimal darajada sotish va talablarni proporsional qondirishni ustuvor maqsad sifatida belgilagan¹⁴⁴ bo'lsa, qarzdorni rehabilitatsiya qilishga qaratilgan model (ayniqsa AQSH va Fransiya amaliyotida) iqtisodiy subyektni saqlab qolish va biznesning uzluksizligini ta'minlashni asosiy vazifa sifatida e'tirof etadi¹⁴⁵. Qishloq xo'jaligi sohasiga oid to'lovga qobiliyatsizlik

¹⁴³ Toshboeva, R. (2026) Agribusiness of Uzbekistan: Features of Legal Regulation, Problems of Law Enforcement Practice and Ways to Improve Legislation. *Open Journal of Business and Management*, 14, 568-586. doi: [10.4236/ojbm.2026.141034](https://doi.org/10.4236/ojbm.2026.141034).

¹⁴⁴ Flessner A. "German International Insolvency Law and its Relation to the EC Convention on Insolvency Proceedings" *European Business Law Review* №10 1999; Степанов В.В. Несостоятельность (банкротство) в России, Франции, Англии, Германии. - М.: Статут, 1999. - 204 с.

¹⁴⁵ Rideau J. "Droit institutionnel de l'Union et des Communautés Européennes" 2 ed. P.: L.C.D.J., 1996; Кулешов В.В. Унификационные тенденции правового регулирования несостоятельности (банкротства) в странах Европейского Союза: автореф. дис. ... канд. юрид. наук. Москва, 2002. 15 с.

munosabatlarida o'ziga xos alohida tartibda ko'rib chiqish xususiyati bilan nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyatga ega¹⁴⁶. Bu borada alohida to'xtalgan huquqshunos L.A.Lisenko qishloq xo'jaligi tashkilotlarining nochorligiga oid huquqiy model "qarzdorga yo'naltirilgan" bo'lishi, ushbu modelni mazkur yo'nalishda takomillashtirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaydi¹⁴⁷.

Nazarimizda, qishloq xo'jaligi sohasida to'lovga qobiliyatsizlik munosabatlarini tartibga solish zamonaviy to'lovga qobiliyatsizlik qonunchiligining umumiy evolyutsiyasi bilan uyg'un holda rivojlanmoqda. Bu jarayon an'anaviy kreditorlararo va qarzdorlararo modellar o'rtasidagi dualizmdan institutsional muvozanat konsepsiyasiga o'tish tendensiyasi bilan izohlanadi. Yevropa Ittifoqi davlatlarida qonunchilik tendensiyalarida maxsus rejimlar fermerlar to'lovga qobiliyatsizligi uchun alohida huquqiy institutlar shakllanganligi qayd etish lozim. Masalan: Fransiyada "Code Rural" doirasida fermerning vaqtinchalik to'lov qobiliyatsizligi holatlarida "conciliation agricole" (agrar yarashuv) instituti joriy etilgan. Germaniyada "Landwirtschaftliche Insolvenzordnung" (2019) fermerga bankrotlikdan oldin moliyaviy reabilitatsiya rejasi tuzish imkonini beradi. Rossiya Federatsiyasining "Bankrotlik to'g'risida"gi qonunida¹⁴⁸ agrar tashkilotlar uchun alohida moddalar mavjud bo'lib, ularda mavsumlik va qishloq xo'jaligi aktivlarini sotish tartibiga oid yengilliklar belgilangan. Qozog'iston Respublikasida esa "agrar ishlab chiqaruvchi" tushunchasi qonun darajasida aniqlanib, ular uchun qayta

¹⁴⁶ Малхасян А. В. Аграрно-правовые проблемы в сфере обеспечения продовольственной безопасности : автореф. дис. ... канд. юрид. наук. Москва, 2014. 22 с.; Митина И.А., Салтанова Т.А., Челышева Э.А. Проблемы регулирования развития агропромышленного комплекса национальной экономики в контексте экономической безопасности // Вестник Евразийской науки. 2020. № 5. [Электронный ресурс]. URL: <https://esj.today/PDF/57ECVN520.pdf> (дата обращения 15.08.2023).; Новоселов С.Н., Белкина Е.Н. Продовольственная безопасность на фоне пандемийных процессов // Московский экономический журнал. 2021. № 9. С. 140–151.

¹⁴⁷ Лысенко Л. А. Проблемы несостоятельности (банкротства) субъектов предпринимательства сферы сельскохозяйственного производства по законодательству Российской Федерации: Дис. ... канд. юрид. наук: Ростов н/Д, 2003. 175 с.

¹⁴⁸ Федеральный закон РФ «О несостоятельности (банкротстве)», 2002 г.

tiklanish (reabilitatsiya) tartibida maxsus shartlar joriy etilgan ¹⁴⁹. AQSHda “Farm Bankruptcy Act” (Chapter 12, U.S. Code) qishloq xo‘jaligi korxonalari uchun maxsus bankrotlik rejasini belgilaydi¹⁵⁰ va bu yerda qarzdor fermer mol-mulkini yo‘qotmasdan qayta tashkil etish, qarzdorga faoliyatni to‘xtatmasdan qayta moliyaviy tiklanish imkoniyati yaratadi. Xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy to‘lovga qobiliyatsizlik qoidalari qishloq xo‘jaligi sohasi uchun samarali emasligi bois agrar subyektlarga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlikni tartibga solishda differensial va moslashuvchan modelni qo‘llash tendensiyasi izchil rivojlanmoqda.

Zamonaviy qonunchilik tendensiyasi shundan iboratki, qishloq xo‘jaligi subyektlariga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari faqat likvidatsion mexanizm sifatida emas, balki tarmoq barqarorligini ta‘minlovchi iqtisodiy siyosat instrumenti sifatida ko‘rilmoqda. Ayniqsa, so‘nggi yillarda Yevropa Ittifoqi doirasida qabul qilingan restrukturizatsiyaga oid yondashuvlar ¹⁵¹ erta ogohlantirish, sudgacha kelishuv va majburiyatlarni qayta tuzish orqali xo‘jalik yurituvchi subyektlarni saqlab qolishga qaratilgan bo‘lib, bu agrar ishlab chiqarishning uzluksizligini ta‘minlash nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan fikrimizcha, qishloq xo‘jaligida to‘lovga qobiliyatsizlikni huquqiy tartibga solishda zamonaviy qonunchilikning gibridd modelga tayanadi ¹⁵², chunki bu yondashuv bir tomondan, kreditorlar huquqlarini kafolatlash orqali moliyaviy intizomni saqlashga qaratilsa, ikkinchi tomondan, qarzdor agrar subyektni iqtisodiy aylanmadan chiqarib

¹⁴⁹ Қозоғистон Республикасининг “Банкротлик тўғрисида”ги Қонуни, 2014 йил.

¹⁵⁰ United States Bankruptcy Code, Chapter 12 (Family Farmer Bankruptcy), USA.

¹⁵¹ Arias Varona F. J., Niemi J., Hupli T., 2020, “Discharge and entrepreneurship in the preventive restructuring directive”, Int. Insolv. Rev.; 29, 8–31.; Balp, G., 2019, “Early Warning Tools at the Crossroads of Insolvency Law and Company Law”, Global Jurist Vol. 19; Issue 2, 22 Jan 2019.; Garrido, J. M. (dir.), Bergthaler, W., DeLong, C., Johnson, J., Rasekh, A., Rosh, A., and Stetsenko, N., 2019, “The Use of Data in Assessing and Designing Insolvency Systems”, IMF WP 19/27, <https://www.imf.org/en/Publications/WP/Issues/2019/02/04/The-Use-of-Data-in-Assessing-and-Designing-Insolvency-Systems-46549>

¹⁵² Гибрид модель концепцияси ва табиати борасида маълумот учун қаранг: Jose M. Garrido, Out-of-Court Debt Restructuring (The World Bank 2012) 47-49.; Antonia Menezes and Akvile Gropper, 'Overview of Insolvency and Debt Restructuring Reforms in Response to the COVID-19 Pandemic and Past Financial Crises: Lessons for Emerging Markets' (n 4); Aurelio Gurrea-Martinez, 'The Future of Reorganization Procedures in the Era of Pre-Insolvency Law' (2020) 21(4) European Business Organization Law Review 829.

yubormaslik orqali ijtimoiy va oziq-ovqat xavfsizligi manfaatlarini muhofaza qilishga xizmat qiladi. Bunday yondashuvni Ye.Yulovning “neytral” tizim sifatida e’tirofiga¹⁵³ qo’shilgan holda ushbu modelni to’lovga qobiliyatsizlik institutini tarmoq siyosati, davlat qo’llab-quvvatlash mexanizmlari va bozor barqarorligi bilan integratsiyalashgan kompleks huquqiy institut sifatida talqin qilish imkonini beradi. Kelgusida mazkur yo’nalish yanada institutsional takomillashib, agrar soha uchun maxsus protsessual rejimlar, soddalashtirilgan sud tartiblari va gibrid (suddan tashqari va sud nazorati ostidagi) restrukturizatsiya mexanizmlari kengayishi kutilmoqda. Bunda to’lov majburiyatlarini qayta tartiblash va ishlab chiqarishni saqlash, kreditorlar bilan kelishuv institutlarini kengaytirish, davlat qo’llab-quvvatlash choralari va ekologik standartlar ustuvorligi, elektron bankrotlik platformalari, onlayn monitoring tizimlari, Big Data va sun’iy intellekt asosidagi erta ogohlantirish mexanizmlari muhim o’rin egallamoqda.

Demak, zamonaviy sharoitda agrar sohada to’lovga qobiliyatsizlik qonunchiligi faqat kreditorlar yoki qarzdorlar emas, balki iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy barqarorlik o’rtasidagi muvozanatni ta’minlashga qaratilgan evolyutsion-huquqiy model sifatida namoyon bo’lmoqda. Shu nuqtayi nazardan, milliy va xorijiy tendensiyalar o’rtasidagi bog’liqlik dialektik xarakterga egaligidan kelib chiqib, xorijiy tajribani milliy qonunchilikka mexanik tarzda qabul qilish emas, balki uni tanqidiy tahlil asosida agrar sektorning mahalliy iqtisodiy, tabiiy-iqlim va institutsional sharoitlariga mos tartibda implementatsiya qilish lozim bo’ladi.

Zamonaviy qonunchilik tendensiyalari qishloq xo’jaligida to’lovga qobiliyatsizlikni huquqiy tartibga solishda gibrid modelga tayanayotganligidan kelib chiqib, ushbu yo’nalishdagi milliy qonunchilikni takomillashtirishda sudgacha sanatsiya va erta moliyaviy diagnostika mexanizmlarini

¹⁵³ Юлова У.С. Конкурсное право: правовое регулирование несостоятельности (банкротства) : Учебное пособие, 2-е изд. –М: Изд-во МГИУ, 2008. -22 с.

rivojlantirish; davlat qo'llab-quvvatlash institutlarini huquqiy jihatdan mustahkamlash; agrar subyektlar uchun differensiallashgan huquqiy tartib-taomillarni, soddalashtirilgan mexanizmlarni kengroq joriy etish; raqamli monitoring va shaffof hisobot mexanizmlarini kengaytirish kabi tendensiyalarga ustuvorlik berish muhim deb hisoblaymiz. Ushbu jihatlar avvalo, zamonaviy iqtisodiy va huquqiy sharoitlarda qishloq xo'jaligi subyektlari - fermer va dehqon xo'jaliklari, kooperativlar, klasterlar hamda agrofirmalar moliyaviy qiyinchilikka duch kelgan holatlarda ularni barqarorlashtirish va tiklashning samarali mexanizmlarini shakllantirish muhimdir.

Birinchidan, xalqaro amaliyotda qishloq xo'jaligi subyektlariga tegishli ma'lumotlar bazasi, dasturiy ta'minot va boshqa nomoddiy resurslarni qamrab olgan raqamli aktivlarni baholash, hisobga olish hamda raqobat muhitiga integratsiya qilish masalalari tobora dolzarblashmoqda¹⁵⁴. Bu esa ularning iqtisodiy qiymatini aniqlash va huquqiy muomalaga kiritish bo'yicha yangi metodologik yondashuvlarni shakllantirish zaruratini yuzaga keltiradi. Biroq, amaldagi qonunchilikda mazkur yo'nalish bo'yicha to'liq va tizimli huquqiy asoslar yetarli darajada shakllanmagan. Xorijlik olimlar ularni mol-mulk sifatida tan olib, raqamli aktivlarni bankrotlik maqsadlari uchun ham mol-mulk sifatida tan olish mumkin, degan fikrni ilgari suradilar¹⁵⁵. Bu yondashuv fikrimizcha, mantiqan to'g'ri hisoblanadi, chunki soliq solish maqsadlarida ham kriptovalyuta mol-mulk sifatida qaralishi mumkin. Shu sababli, qonunchilikda raqamli aktivlarning huquqiy maqomi, baholash mezonlari va hisobga olish tartibini aniq belgilash zarurati saqlanib qolmoqda. Fikrimizcha, raqamli

¹⁵⁴ Федоров М.В. Цифровые активы в конкурсной массе: теория и практика // Арбитражные споры. 2024. - №1. - С. 193-205; Shishmareva T.P., En'kova E.E. Digital assets as objects of the recovery in the bankruptcy proceedings./Journal of Siberian Federal University. Humanities & Social Sciences 2024 17(6): 1078–1087; Одинцов С.В., Грибановская М.С. Цифровые активы в личном банкротстве: опыт Австралийского Союза // Право Журнал Высшей школы экономики 2025. №3. – С.226-251.

¹⁵⁵ Allen J.G., Rauchs M., Blandin A et al Legal and Regulatory Considerations for Digital Assets CCAF Publications, 2020, pp 1–55 Available at: URL: <https://ssrn.com/abstract=3712888>.

aktivlarni fuqarolik-huquqiy obyekt sifatida tan olish hamda ularni to'lovga qobiliyatsizlik qonunchiligiga kiritish vaqti keldi, chunki ular kreditorlar talablarini qondirishda real iqtisodiy qiymatga ega manba sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, "Qishloq xo'jaligi korxonalarini sanatsiya qilish to'g'risida"gi qonun bugungi raqamlashtirish jarayonlari, ESG (ekologik, ijtimoiy va boshqaruv) standartlari, davlat-xususiy sheriklik, iqlim o'zgarishiga moslashuv va zamonaviy investitsiya instrumentlari kabi yangi iqtisodiy omillarni to'liq qamrab olmaydi. Shu bois sohaviy xususiyatlarni inobatga olgan holda yangi "Qishloq xo'jaligi sohasidagi tadbirkorlik subyektlarini sanatsiya qilish to'g'risida"gi qonun qabul qilish ilmiy va amaliy jihatdan asosli hisoblanadi. Ushbu qonunning asosiy tendensiyalari agrar sohada moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, inqirozga qarshi preventiv mexanizmlarni kuchaytirish va bozor tamoyillariga mos ravishda tiklash instrumentlarini joriy etishga qaratilgan bo'lishi lozim. Xususan, qonun raqamlashtirish, ESG (ekologik, ijtimoiy va boshqaruv) mezonlarini inobatga olish, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish va iqlim o'zgarishi sharoitida barqaror agrobiznes modellarini qo'llab-quvvatlash tendensiyalarini aks ettirishi zarur. Qonunning maqsadi moliyaviy qiyinchilikka uchragan subyektlarning to'lov qobiliyatini tiklash, ishlab chiqarish salohiyatini saqlab qolish va kreditorlar manfaatlarini muvozanatli himoya qilishdan iborat bo'lishi kerak. U shaffoflik, adolat, iqtisodiy samaradorlik va barqarorlik prinsiplariga asoslanib, sanatsiya bosqichlarini (moliyaviy audit, sanatsiya rejasini ishlab chiqish va tasdiqlash, monitoring), moliyalashtirish manbalarini (davlat qo'llab-quvvatlashi, qarzlarini restrukturizatsiya qilish, investitsiyalar) hamda vakolatli organlar ishtirokini aniq belgilashi lozim.

Ikkinchidan, qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligiga oid qonunchilikni takomillashtirish doirasida sud

boshqaruvchilari faoliyatini raqamli baholash va ochiq reyting tizimini joriy etish kompleks institutsional islohot sifatida qaralishi lozim. Bu mexanizm avvalo, shaffoflikni ta'minlash, korrupsiya xavfini kamaytirish va sud nazorati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Yagona elektron reyestr doirasida har bir sud boshqaruvchining ish yurituvdagi ishlar soni, har bir ish bo'yicha bosqichlar va protsessual muddatlarga rioya etish holati, sanatsiya yoki tugatish jarayoni natijalari, kreditorlar qoniqish darajasi va shikoyatlar statistikasi, shuningdek intizomiy choralar yoki huquqbuzarlik holatlari haqidagi ma'lumotlar aks ettirilishi kerak. Ushbu ko'rsatkichlar asosida avtomatik shakllantiriladigan reyting tizimi sud boshqaruvchisining ishchanlik tarixi va kasbiy samaradorligini obyektiv baholash imkonini beradi. Shuningdek, qonunchilikda sudyalarga ushbu ochiq elektron ma'lumotlarga tayangan holda, hududiy cheklovlardan qat'i nazar, ishning murakkabligi va xususiyatiga mos sud boshqaruvchini tanlash huquqini berish maqsadga muvofiq. Bunda tanlov ishning iqtisodiy hajmi, sohaviy ixtisoslashuv, ilgarigi ishlarning muvaffaqiyatli yakunlanish darajasi va raqamli reyting ko'rsatkichlari kabi obyektiv mezonlarga asoslanishi lozim. Bu yondashuv inson omili ta'sirini qisqartiradi va tayinlash jarayonini institutsionallashtiradi. Ayni paytda, reyting tizimining adolatli va huquqiy jihatdan mustahkam bo'lishi muhim. Shu sababli baholash mezonlari normativ-huquqiy hujjatlarda aniq belgilab qo'yilishi, avtomatlashtirilgan algoritm inson omilini minimallashtirishi, sud boshqaruvchiga reyting natijalari ustidan shikoyat qilish huquqi berilishi hamda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish kafolatlanishi zarur.

Darhaqiqat, ma'lumotlarni ommaviy va tizimli yuritish to'lovga qobiliyatsizlik jarayonlarida korrupsiyaga qarshi samarali profilaktik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Ochiq elektron platforma orqali qishloq xo'jaligi subyektlari, kreditorlar va jamoatchilik qarzdorning moliyaviy holati,

sanatsiya rejasining bajarilishi va sud boshqaruvchisining faoliyatini tezkor kuzatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu axborot asimmetriyasini kamaytiradi va manfaatlar to'qnashuvi ehtimolini pasaytiradi. Xorijiy tajriba ham mazkur yondashuvning samaradorligini tasdiqlaydi. Xususan, Yevropa Ittifoqi davlatlarida bankrotlik jarayonlarini raqamlashtirish, elektron reyestrlar va avtomatlashtirilgan hisobot tizimlari orqali sud nazorati kuchaytirilgan. Ayniqsa, Germaniya amaliyotida bankrotlik boshqaruvchilari faoliyati ochiq ma'lumotlar va standartlashtirilgan hisobotlar orqali baholanadi, bu esa shaffoflikni oshirib, korrupsiya xavfini sezilarli darajada kamaytiradi. Shu tariqa, milliy qonunchilikda ochiq elektron monitoring, kasbiy reyting va javobgarlik haqidagi ma'lumotlarning oshkoraligini kompleks tarzda mustahkamlash to'lovga qobiliyatsizlik institutining barqarorligini kuchaytiradi, sud nazoratini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi va agrar sohada huquqiy ishonch muhitini yanada yuksaltiradi.

Uchinchidan, qishloq xo'jaligi sohasidagi tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligiga oid qonunchilikni amalga oshirishda yagona sud amaliyotini ta'minlash ustuvor vazifa hisoblanadi. Bu maqsadda maxsus "Qishloq xo'jaligi sohasidagi tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligi to'g'risida"gi Plenum qarori ishlab chiqilishi taklif etiladi. Qarorda yagona huquqiy talqin va amaliyotni ta'minlash, sudlar tomonidan qonun normalarini bir xil usulda qo'llash, ixtiyoriy va majburiy tugatish jarayonlari, sanatsiya bosqichlari, vakolatli organlar ishtirokining huquqiy asoslari, shuningdek, sud boshqaruvchilari faoliyatini baholash va tanlash mezonlari kabi masalalar qamrab olinishi lozim. Bu yondashuv qishloq xo'jaligi subyektlarini to'lovga qobiliyatsizlik jarayonlarida huquqiy barqarorlik, institutsional shaffoflik va samaradorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

II BOB QISHLOQ XO'JALIGIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING TO'LOVGA QOBILIYATSIZLIGIDA FUQAROLIK-HUQUQIY HIMOYA VOSITALARI VA ULARNI AMALGA OSHIRISH MEKANIZMLARI

2.1.§ Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizlik sharoitida fuqarolik-huquqiy himoya vositalarining tushunchasi, tizimi va sohaviy xususiyatlari

Raqamli va innovatsion iqtisodiyot sharoitida qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizlik munosabatlarini huquqiy tartibga solishda fuqarolik-huquqiy normalari o'rni markaziy ahamiyat kasb etib bormoqda. Bozor iqtisodiyotiga integratsiya jarayonida ma'muriy tartib qoidalari ham o'z o'rnini sekin-asta fuqarolik-huquqiy institutlarga bo'shatadi¹⁵⁶, bu esa huquqiy mexanizmlarning samaradorligini va bozor munosabatlariga mosligini oshiradi.

Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizlik sharoitida qarzdor va kreditorlar o'rtasidagi munosabatlardagi nizolarda taraflar huquqlari asosan fuqarolik-huquqiy vositalar orqali himoya qilinadi. Ushbu vositalar qarzdorning majburiyatlarini barqaror tiklash, kreditorlar huquqlarini muhofaza qilish, huquqlarni tiklash va ularning iqtisodiy barqarorligini ta'minlaydigan institutsional tizimdir. Shu bois, huquqiy himoya vositalari nafaqat huquqni amalga oshirish, balki barqaror iqtisodiy muhit va kreditorlar bilan muvofiq munosabatni saqlash uchun zamonaviy, dolzarb va strategik mexanizm sifatida ahamiyatlidir.

Qishloq xo'jaligi sohasida tadbirkorlik huquqlarini muhofaza qilish vositalarini tavsiflovchi tushunchalarga nisbatan huquqiy adabiyotlarda «himoya choralari», «himoya usullari», «himoya shakllari», «himoya vositalari» va «himoya mexanizmlari» kabi atamalar qo'llaniladi. Doktrinal tahlillar shuni ko'rsatadiki, ayrim olimlar ushbu tushunchalarni qonunchilik va sud

¹⁵⁶ Боротов М.Х. Фуқаролик-хуқуқий муносабатлар субъекти сифатида давлат иштирокининг назарий ва амалий муаммолари: Юрид. фан. док....дис. –Тошкент, 2008. –Б.9.

amaliyotida farqlarsiz qo'llanadigan sinonimlar sifatida baholasalar¹⁵⁷, boshqa nazariyotchi olimlar ularni himoya qilishning tarkibiy elementi sifatida alohida tushunchalar sifatida e'tirof etishadi¹⁵⁸. Bu qarashlar huquqni muhofaza qilish mexanizmlarining nazariy asoslarini chuqur tushunish, turli huquqiy institutlar va protseduralarning o'zaro bog'liqligini aniqlash imkonini beradi. Yuqoridagi huquqiy tushunchalar subyektiv huquqlarni himoya qilishga qaratilgan muayyan darajada ma'nodosh tushunchalar bo'lsa-da biroq, ularni har doim ham sinonim tushunchalar sifatida qo'llab bo'lmaydi. Masalan, Fuqarolik kodeksida ushbu atamalar orasida asosan «himoya usullari» tushunchasi qo'llanilgan nazariy va amaliyot jihatdan farqlar mavjud. Shu sababli, ularning mohiyati, vazifasi va o'ziga xos xususiyatlari inobatga olingan holda qonunchilikda ularni umumiy tushuncha - fuqarolik-huquqiy vositalar sifatida izohlash maqsadga muvofiqdir¹⁵⁹.

Huquqiy adabiyotlarda fuqarolik-huquqiy himoya vositalari borasida ham turli nazariy yondashuvlar mavjud¹⁶⁰. Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizlik sharoitida ushbu vositalarni qo'llash xususiy va ommaviy huquq prinsiplari dualizmiga asoslangan fuqarolik normalari orqali tartibga solinadi. Bu esa huquqiy mexanizmlarning mo'tadilligini va samaradorligini ta'minlaydi, qarzdor va kreditorlar o'rtasidagi munosabatlarda huquqiy barqarorlikni ta'minlash imkonini yaratadi. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligidagi xususiy va umumiy iqtisodiy xavflar, mavsumiylik va biologik omillar himoya vositalari tizimini qo'llashda o'zgacha xususiyatlarni

¹⁵⁷ Умаров Т. Ўзбекистонда шахсий номулккий ҳуқуқларни фуқаролик-ҳуқуқий воситаларида ҳимоя қилиш масалалари.-Т.: «ФАН» нашриёти, 2000. –Б.43.

¹⁵⁸ Мильков А.В. Правовое регулирование защиты гражданских прав и правовых интересов. Дисс... док.юрид.наук.-М.: 2015.-С.128-137.

¹⁵⁹ Бердияров Р.Т. Тadbirkorlik subyektlarini soliқ organlarining qonunga xilof harakatlari dan fuqarolik-хуқуқий ҳимоя қилиш. Монография. Маъсул муҳаррир: ю.ф.д., проф. Ш.Н.Рўзиназаров. – Тошкент: ТДЮУ, 2022. – 140 бет.

¹⁶⁰ Қаранг: Топилдиев В. Фуқаролик ҳуқуқи. I қисм. «Университет» -Т:2014.-Б.288.; Муртазин А.А., Арсланов К.М. Современные тенденции в развитии механизма гражданско-правовой защиты прав предпринимателей // Вестник экономики, права и социологии. 2015 №2. С.131-133.; Стёпин А.Б. Защита прав предпринимателей в системе российском законодательстве // Российская юстиция. 2017 №10.С.2-5.; Кархалиев Д.Н. Способы защиты гражданских прав в Швейцарии// Современная права. 2017 №9. С.130-133.

talab qiladi, bu esa ularning sohaviy ahamiyatini hamda qonunchilik va sud amaliyotidagi samaradorligini oshiradi.

Huquqshunos Yu.S.Berejnoj fikriga ko'ra, himoya vositalari bu buzilgan yoki nizolashilayotgan huquq yoki manfaatlarni tiklash yoki tan olish bo'yicha normativ hujjatlarda belgilangan choralar majmui bo'lib, ular muayyan shaklda va qonunchilik doirasida mexanizmlarni qo'llash yo'li bilan amalga oshiriladi¹⁶¹. Zero, qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyekti o'z huquq va manfaatlarini har qanday buzilishdan faol himoya qilishi, shuningdek qonunda ta'qiqlanmagan huquqiy vositalardan foydalanishga haqlidir. Ushbu subyektiv huquqlarni himoya qilish uchun zarur sharoit va muhitni yaratishda nafaqat huquqiy, balki qonun hujjatlarida nazarda tutilgan iqtisodiy, siyosiy va boshqa choralardan ham foydalanish mumkin¹⁶².

Professor I. Zokirov ta'kidlaganidek, mulk huquqi turli huquq sohalari orqali xususan fuqarolik huquqi, ma'muriy huquq, jinoyat huquqi va boshqalar bilan ham himoya qilinadi¹⁶³. Ye.A. Suxanov fikriga ko'ra, himoya vositalari keng ma'noda fuqarolik huquqlarini buzganlik uchun javobgarlik choralari, tor ma'noda esa huquqbuzarlikni oldini olishda ifodalanadi¹⁶⁴.

Qonunchilikda huquqlarni himoya qilish vositalariga nisbatan alohida ta'rif yoki yagona doktrinal qoida mustahkamlanmagan bo'lsa-da, biroq huquqiy adabiyotlarda berilgan tushuntirishning ma'nosida¹⁶⁵ huquqni buzilishini oldini olish, buzilgan huquqni tiklash, buzilishi oqibatida ko'rilgan zararni qoplashga qaratilgan, ishtirokchilarining huquq hamda qonuniy

¹⁶¹ Бережной Ю.С. Защита прав субъектов предпринимательской деятельности при осуществлении государственного контроля (надзора). Автореф.дисс...канд.юрид.наук. –М., 2011.-С.11.

¹⁶² Гражданское право. Т.1. Под.ред. А.П.Сергеев, Ю.К.Толстой. – М.: Проспект, 2003. С.335.

¹⁶³ Зокиров И.Б.Фуқаролик ҳуқуқи: Дарслик. I қисм.-Т.:ТДЮИ нашриёти, 2006.-Б.255.

¹⁶⁴ Гражданское право. Учебник. В 4. Т. 1:Общая часть / отв.ред. Е.А.Суханов. 3-е изд. Перераб. и доп.-М.: Волтерс Клувер, 2008. С.669.

¹⁶⁵ Қаранг: Эргашев В.Ё. Ўзбекистон Республикасида мулк ҳуқуқининг долзарб муаммолари ва ривожланиш истикболлари.-Т.: ТДЮИ, 2009.-Б.239.; Кузнецов С.А. О защите прав по обязательствам путем их признания// Вестник Высшего Арбитражного Суда РФ.2014, №7.; Кравченко А.А. К вопросу о понятии способа защиты гражданских прав// Адвокат. 2014.№7. С.26.

manfaatlarini amalga oshirilishini to'siqlardan himoyalash va ta'minlash choralari sifatida keltiriladi.

Nazarimizda, huquqlarni himoya qilishga qaratilgan barcha choralar, usullar va shakllar mazmunan fuqarolik-huquqiy himoya vositalarini o'zida mujassamlashtiradi. Ya'ni, mazkur kategoriya formal-terminologik jihatdan cheklanmagan bo'lsa-da, uning mazmuni keng va kompleks xarakterga ega. Fuqarolik-huquqiy himoya vositalari deganda huquqni buzilishining oldini olish, huquqbuzarlikni bartaraf etish, buzilgan huquqni tiklash va (yoki) uning buzilishi natijasida yetkazilgan zararni qoplashga qaratilgan barcha huquqiy choralari tushuniladi. Ushbu vositalar nafaqat moddiy-huquqiy mexanizmlarni, balki ularni amalga oshirishning protsessual tartib-taomillarini ham qamrab oladi.

Zero, zamonaviy huquqiy taraqqiyot sharoitida fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish faqat ayrim himoya usullarini kengaytirish bilan cheklanmasdan, balki samarali, shaffof va adolatli himoya mexanizmlarini shakllantirishni ham taqozo etadi¹⁶⁶. Bu esa fuqarolik-huquqiy vositalardan nafaqat huquqlarni himoya qilish usullarini qo'llashda, balki ularni tegishli shakllarda amalga oshirish, huquqiy ta'sir choralarini izchil va maqsadga muvofiq tatbiq etish jarayonida ham keng foydalanishni nazarda tutadi.

Darhaqiqat, fuqarolik qonunchiligida mustahkamlangan himoya usullari¹⁶⁷ va boshqa huquqiy ta'sir choralari o'z tabiatiga ko'ra universal xarakterga ega bo'lsa-da, ularni to'lovga qobiliyatsizlik jarayonida fuqarolik-huquqiy himoya vositalari sifatida to'g'ridan to'g'ri tatbiq etib bo'lmaydi. Chunki, to'lovga qobiliyatsizlik munosabatlari odatdagi fuqarolik-huquqiy nizolardan farqli o'laroq, alohida da'vogar va javobgar o'rtasidagi munosabat emas, balki

¹⁶⁶ Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасининг фуқаролик қонунчилигини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармойиши // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 06.04.2019 й., 08/19/5464/2891-сон.

¹⁶⁷ ФКнинг 11-моддасида келтирилган ва ушбу ҳимоя усуллари тугал эмаслиги белгиланган бўлиб, бу қонунда таъқиқланмаган бошқа ҳимоя усулларида ҳам фойдаланиш имкониятини беради.

qarzdor xo'jalik yurituvchi subyektning iqtisodiy faoliyatini saqlab qolish va tiklashga qaratilgan huquqiy huquqiy rejim ¹⁶⁸ va kreditorlar talablarini qondirishga qaratilgan o'ziga protsessual mexanizm sifatida ¹⁶⁹ namoyon bo'ladi. Bunday sharoitda fuqarolik-huquqiy himoya vositalari o'zining klassik individual xarakterini yo'qotib, institutsionallashtirilgan tartibda qo'llaniladi. Ya'ni, huquqni himoya qilishning an'anaviy vositalari (masalan, qarzdorlik va neustoykani undirish, zararni qoplash) to'lovga qobiliyatsizlik jarayonida mustaqil emas, balki maxsus tartib va cheklovlar doirasida amal qiladi. Bu esa himoya vositalarining mazmunan transformatsiyaga uchrashini anglatadi.

Mazkur nuqtayi nazardan, fuqarolik-huquqiy himoya vositalari qishloq xo'jaligi subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligi sharoitida ikki o'lchamli vazifani bajaradi: birinchidan, kreditorlar manfaatlarini adolatli va mutanosib ta'minlash; ikkinchidan, qarzdor xo'jalik yurituvchi subyektning ishlab chiqarish salohiyatini saqlab qolish va tiklash hisoblanadi. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi sohasida tadbirkorlik subyektining to'lovga qobiliyatsizlik jarayonida bu holat yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Agrar ishlab chiqarishning biologik va mavsumiy xususiyati, yer resurslarining alohida huquqiy maqomi hamda sohaning ijtimoiy ahamiyati, strategik ishlab chiqar tarmoqligi kabi omillar himoya vositalarini qo'llashda mutlaq erkinlikka emas, balki funksional moslashuvga ehtiyoj tug'diradi. Demak, to'lovga qobiliyatsizlik jarayonida fuqarolik-huquqiy himoya vositalari formal jihatdan emas, balki institutsional maqsad va tamoyillarga muvofiq ravishda qo'llanilishi lozim bo'lgan transformatsiyalangan huquqiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligi sharoitida fuqarolik-huquqiy himoya vositalari universal va mexanik qo'llaniladigan institut emas, balki maxsus huquqiy rejim doirasida mazmunan

¹⁶⁸ Xudaybergenov B.B. To'lovga qobiliyatsiz korxonalarni sog'lomlashtirishning huquqiy masalalari. "Falsafa va huquq" jurnali. 2021. № 1. – B. 62-65.

¹⁶⁹ Воякин Д.В. Осуществление и защита прав кредиторов юридических лиц, признанных несостоятельными (банкротами); автореф. дис. ... канд. юрид. наук. Краснодар, 2006. –С. 28.

o'zgargan, mulkiy va nomulkiy talablarning turlicha protsessual shakllarda amalga oshirilishini nazarda tutuvchi kompleks mexanizm sifatida baholanishi lozim.

Avvalo, mulkiy mablag' undirish bilan bog'liq huquqlarini himoya qilishning huquqiy rejimi o'zgaradi. Qonunning 12-moddasi birinchi qismiga muvofiq, to'lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari qo'llanilayotganda barcha kreditorlarning manfaatlarini kreditorlar yig'ilishi yoki kreditorlar qo'mitasi himoya qiladi va sud qarzdorga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida ish qo'zg'atish haqidagi arizani ish yuritishga qabul qilib olgan kundan e'tiboran kreditorlar qarzdorga o'z talablarini yakka tartibda qanoatlantirish maqsadida murojaat qilishga haqli emas sanaladi. Boshqacha aytganda, to'lovga qobiliyatsizlikka doir ish qo'zg'atilgandan boshlab mulkiy, xususan pul undirish bilan bog'liq talablar odatdagi da'vo ishi tartibida emas, balki maxsus protsessual rejim asosida ariza tartibida amalga oshiriladi¹⁷⁰. Bunday talablar alohida ijro harakatlari orqali emas, balki kreditorlar talablarini reyestrغا kiritish, ularni tan olish va navbatlilik asosida qondirish tartibida (Qonuning 150-moddasi) hal etiladi.

Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizlik sharoitida huquqni tan olish vositasi orqali himoya qilish mexanizmi eng samarali va sodda tartibda amalga oshiriladigan huquqiy institut sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu usulda kreditor o'z huquq va talablarini sudga murojaat qilishdan avval, sud boshqaruvchiga ariza yoki talabnoma orqali ixtiyoriy ravishda e'tirof etadi. Ya'ni, qarzdorning noroziligi yoki nizolashuvi shart emas va kreditor tomonidan huquqning tan olinganligi huquqiy asos sifatida qabul qilinadi, aks holda bu sud tartibida nizolashiladi (Qonuning 18-moddasining oltinchi qismi). Demak, qarzdorlikni qaytarish, zararni qoplash, neustoyka undirish yoki burchni aslicha bajarish kabi klassik fuqarolik-

¹⁷⁰ Qonunning 18-moddasiga ko'ra, kreditorlar talablari reyestrini sud boshqaruvchi yuritib, ularni ushbu reyestrغا kiritish, chiqarish va uni tuzishda yuzaga keladigan kelishmovchilar sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

huquqiy himoya usullari to'lovga qobiliyatsizlik jarayonida to'liq va avtomatik ravishda qo'llanmaydi. Bu usullar faqat huquqni tan olish orqali mustahkamlangan asoslar va sud boshqaruvchisi orqali tasdiqlangan hollarda, moddiy va protsessual mexanizmlar bilan birgalikda, transformatsiyalangan tartibda tatbiq etiladi.

Ikkinchidan, nomulkiy da'vo talablari sifatida ko'riladigan himoya qilish usullari to'lovga qobiliyatsizlik jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular mulkiy talablardan farqli ravishda kreditorning huquqiy manfaatlarini sud orqali tiklash yoki nazorat qilishga qaratilgan. Bunday talablar qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy barqarorligini saqlash va umumiy iqtisodiy muvozanatni ta'minlashda o'zgacha mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, kreditorlar yig'ilishi qarorini haqiqiy emas deb topish, kreditorni talablar reyestriga kiritish yoki chiqarish, boshqaruvchi harakatlarining qonuniyligini baholash kabi masalalar fuqarolik-huquqiy himoya vositalarining maxsus institutsional ko'rinishidir. Bu yerda huquqni himoya qilish an'anaviy kompensatsion mazmunga emas, balki protsessual va korporativ tartibni ta'minlashga qaratilgan, institutsional muvozanatni ta'minlovchi mexanizm sifatida amal qiladi.

Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizlik sharoitida huquqiy munosabatni bekor qilish yoki o'zgartirish usuli fuqarolik-huquqiy himoyaning muhim institutsional vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Bu usul qarzdor va kreditorlar o'rtasidagi mavjud huquqiy munosabatlarning samaradorligini tiklash, ularning manfaatlar balansini ta'minlash va iqtisodiy barqarorlikni saqlashga qaratilgan bo'lib, sud tartibida ko'rilganda nomulkiy xarakterdagi talab sifatida ko'riladi. Amaliyotda ushbu usul turli shakllarda namoyon bo'ladi. Birinchidan, shartnomalarni bekor qilish yoki ularni o'zgartirish orqali qarzdorning moliyaviy imkoniyatlari va kreditorlar talablari inobatga olinadi. Buning natijasida qarz miqdori, to'lov muddatlari va shartlari

qayta belgilanishi mumkin. Ikkinchidan, kelishuv bitimlari, nizoli qarorlar yoki boshqaruv organlari xulosalari qayta ko'rib chiqilib, ularning moddiy va protsessual ta'siri cheklanadi yoki bekor qilinadi. Bu esa faqat huquqni himoya qilish bilan cheklanmay, qishloq xo'jaligi subyektlarining iqtisodiy faoliyatini saqlash va barqarorlashtirishga xizmat qiladi.

Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizlik sharoitida fuqarolik-huquqiy himoya usullarini funksional jihatdan maqsad va manfaat yo'nalishiga qarab shartli ravishda uch asosiy toifaga ajratish mumkin.

Birinchidan, qarzdor foydalanishi mumkin bo'lgan himoya usullari masalan, qarzdorning huquqiy tartibda aktivlarini qayta tashkil etish, talablarni kelishuv asosida qondirish yoki bitimlarni qayta ko'rib chiqish, qarzdorlikni, zararni, neustoykani undirish kabi usullar shu toifaga kiradi.

Ikkinchidan, kreditorlar manfaatiga qaratilgan fuqarolik-huquqiy himoya usullari ya'ni, kreditorlar yig'ilishi qarorlarini haqiqiy emas deb topish, talablarni reyestrغا kiritish, shartnomalarni sud orqali tasdiqlash yoki haqiqiy emas deb topish orqali huquqni himoya qilish usullari mazkur toifaga kiradi.

Uchinchidan, barcha subyektlarning (qarzdor va kreditorlar), manfaatdor shaxslar, uchinchi shaxslar manfaatlarini muhofaza qilishga qaratilgan kompleks himoya usullari mavjud bo'lib, individual va jamoaviy manfaatlarni uyg'unlashtirish, muvozanatni ta'minlash va iqtisodiy hamda huquqiy barqarorlikni saqlash maqsadida qo'llaniladi. Masalan, kelishuv bitimlari, sanatsiya va restrukturizatsiya jarayonlari, nizoli qarzlarni qayta taqsimlash kabi mexanizmlar shu turga kiradi.

To'lovga qobiliyatsizlik sharoitida huquqiy himoya vositalarining, xususan fuqarolik-huquqiy himoya usullarining qo'llanilishi sohaviy xususiyat kasb etadi va mohiyatan muayyan darajada transformatsiyaga uchraydi. Bunda gap qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan yangi usullar paydo bo'lishi haqida emas, balki amaldagi qonunchilikda belgilangan himoya usullarining o'ziga xos

protsessual tartibda, maxsus subyektlar doirasida hamda alohida maqsadga yo'naltirilgan holda qo'llanilishi haqida bormoqda. Ya'ni, fuqarolik qonunchiligida umumiy tartibda nazarda tutilgan huquqni tan olish, zararni qoplash, bitimni haqiqiy emas deb topish, majburiyatni naturada bajartirish kabi usullar to'lovga qobiliyatsizlik jarayonida ham saqlanib qoladi. Biroq ularning amalga oshirilishi tanlovi ish yurituvining vazifalari qarzdorning to'lov qobiliyatini tiklash yoki kreditorlar talablarini adolatli va mutanosib qondirish maqsadlariga bo'ysundiriladi.

Shu jihatdan, mazkur usullar subyekt tarkibi (qarzdor, kreditorlar yig'ilishi, sud boshqaruvchisi) bilan; qo'llash tartibining imperativligi va sud nazorati kuchaytirilganligi bilan; ommaviy (jamoaviy) manfaat unsuri mavjudligi bilan; talablarni qondirish navbatining qat'iy belgilanganligi bilan farqlanadi. Boshqacha aytganda, to'lovga qobiliyatsizlik sharoitida fuqarolik-huquqiy himoya usullari mazmunan emas, balki ularni qo'llash mexanizmi, maqsadi va protsessual shakli jihatidan transformatsiyalanadi. Bu esa ularning mustaqil sohaviy xususiyat kasb etishini anglatadi.

Avvalo, subyekt tarkibi bilan bog'liq sohaviy xususiyatlarni ilmiy nuqtayi nazardan tahlil etsak, qishloq xo'jaligi sohasida to'lovga qobiliyatsizlik munosabatlarida ishtirok etuvchi shaxslarning protsessual maqomi va vakolatlari umumiy fuqarolik-huquqiy munosabatlar doirasidagi maqomdan sezilarli darajada farq qiladi. Bu farq, avvalo, mazkur institutning xususiy-huquqiy tabiati bilan bir qatorda, ommaviy-huquqiy elementlarga egaligi bilan izohlanadi. Xususan, qarzdor (yoki uning manfaatlarini amalga oshiruvchi sud boshqaruvchisi) FK ning 11-moddasida mustahkamlangan huquqni himoya qilish usullaridan foydalanish huquqini saqlab qoladi. Ya'ni, u zararni qoplash, asosiy qarzdorlikni undirish, neustoyka talab qilish, bitimni haqiqiy emas deb topish, huquqni tan olish yoki boshqa mulkiy talablar bilan sudga murojaat etishi mumkin. Ilmiy jihatdan bu holat qarzdorning huquq subyektligi to'lovga

qobiliyatsizlik jarayonida to'liq yo'qolmasligini, balki maxsus protsessual rejimda transformatsiyalanishini anglatadi.

Qishloq xo'jaligi subyektlari uchun bu ayniqsa ahamiyatlidir, chunki ular faoliyatida debitorlik qarzdorligi yuqori ulushni tashkil etadi (yetkazib berilmagan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, agrotexnika, yoqilg'i-moylash materiallari, mineral o'g'itlar bo'yicha majburiyatlar va h.k.). Sud boshqaruvchisi ana shu talablarni reyestrini shakllantirish orqali tugatish massasini shakllantiradi hamda qarzdorning to'lov qobiliyatini tiklash yoki kreditorlar talablarini mutanosib qondirishga huquqiy zamin yaratadi.

Biroq, kreditorlarning protsessual maqomi boshqacha huquqiy rejimga bo'ysundiriladi. Qonunning 12-moddasiga muvofiq, ish qo'zg'atilgan paytdan boshlab kreditorlar qarzdorga nisbatan o'z talablarini yakka tartibda qanoatlantirish maqsadida sudga murojaat qilish huquqidan mahrum etiladi. Ular talablarini umumiy da'vo tartibida emas, balki maxsus to'lovga qobiliyatsizlik ish yurituvi doirasida, belgilangan muddat va tartib asosida talablar reyestriga kiritish uchun sud boshqaruvchiga murojlat qilish orqali amalga oshiradi¹⁷¹. Mazkur cheklovning huquqiy mohiyati kreditorlar o'rtasida tenglik (par condicio creditorum) prinsipini ta'minlashga qaratilgan, nizoni sudgacha hal etish choralaridan biri sanaladi. Umumiy qoida bo'yicha ushbu tartibga rioya qilinmagan kreditorning da'vo arizasi sudga kelib tushsa, IPK 154-moddasi birinchi qismining 1-bandiga asosan da'vo arizasi (ariza)ni ish yuritishga qabul qilish rad etiladi, agarda ko'rsatilgan holatlar da'vo arizasi ish yuritishga qabul qilingandan keyin aniqlansa, IPK 107-moddasining 9-bandiga asosan da'vo arizasi ko'rmasdan qoldiriladi. Agar sud boshqaruvchisi tomonidan bildirilgan talablarni reyestriga kiritish rad etilsa yoki kreditorning asosiy qarzdorlik, neustoyka va boshqa pul mablag'larini undirish bilan bog'liq

¹⁷¹ Bundan mulk huquqini e'tirof etish, ma'naviy ziyonni kompensatsiya qilish, mol-mulkni boshqa shaxsning qonunsiz egaligidan talab qilib olish, asossiz orttirilgan boylikni qaytarish, bitimlarni haqiqiy emas deb topish va ularning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo'llash, huquqiy ta'sir choralari qo'llash to'g'risidagi talablar, shuningdek joriy to'lovlar bo'yicha talablar mustasno.

talablari miqdori yuzasidan nizo kelib chiqsa, bunday holat sud tartibida hal etiladi. Ya'ni, manfaatdor shaxs sudga ariza bilan murojaat qilib, tegishli talabni reyestrda kiritish majburiyatini yuklashni so'rashga haqli. Qishloq xo'jaligi sohasida bu qoida alohida ahamiyat kasb etadi, chunki qarzdorning aktivlari, odatda, cheklangan va mavsumiy xususiyatga ega bo'ladi (yer uchastkalariga bo'lgan ijara huquqi, qishloq xo'jaligi texnikasi, hosil, chorva mollari va boshqalar). Agar ayrim kreditorlarga yakka tartibda undirish huquqi berilsa, tugatish massasining asossiz kamayishi va boshqa kreditorlar manfaatlarining buzilishiga olib kelishi mumkin. Shu bois, sud mazkur murojaatni ko'rib chiqish jarayonida talabning huquqiy asoslanganligini, uning qonunga muvofiqligini hamda miqdorini tekshiradi va huquqiy baho beradi.

Shu tariqa, subyekt tarkibi nuqtayi nazaridan qishloq xo'jaligida to'lovga qobiliyatsizlik munosabatlari fuqarolik-huquqiy himoya usullarining mazmunini emas, balki ularni amalga oshirish vakolatlarini qayta taqsimlaydi. Qarzdor (va uning boshqaruvchisi) aktivlarni oshirishga qaratilgan da'vo vakolatlarini saqlab qolsa, kreditorlar yakka tartibda himoya qilish imkoniyatidan mahrum etilib, kollektiv protsessual mexanizm doirasida harakat qiladi. Bu holat qishloq xo'jaligi sohasida to'lovga qobiliyatsizlik institutining sohaviy, institutsional va funksional jihatdan kompleks huquqiy tabiatga egaligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Ikkinchidan, fuqarolik-huquqiy himoya usullarining qo'llanilishida umumiy tenglik prinsipi to'lovga qobiliyatsizlik sharoitida muayyan darajada transformatsiyaga uchraydi. Boshqacha aytganda oddiy fuqarolik muomalasida taraflar protsessual imkoniyatlar jihatidan nisbatan teng va dispozitiv vakolatlarga ega bo'lsa, to'lovga qobiliyatsizlik instituti doirasida mazkur tenglik maxsus, imperativ tartib orqali ta'minlanadi. Shu ma'noda, imperativlik va kuchaytirilgan sud nazorati mazkur institutning eng muhim sohaviy belgilaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi sohasida bu

jihat nazariy va amaliy nuqtayi nazardan alohida ahamiyat kasb etadi. Avvalo, imperativlik shunda ifodalanadiki, fuqarolik-huquqiy himoya usullarini qo'llash tartibi taraflarning erkin ixtiyoriga to'liq havola etilmaydi. Ularning amalga oshirilishi qat'iy protsessual qoidalar bilan chegaralanadi va huquqiy rejim nuqtayi nazaridan markazlashtirilgan tartibga bo'ysundiriladi. Bu qoidalar, birinchi navbatda maxsus Qonun hamda protsessual qonunchilik normalarida mustahkamlangan. Jumladan: kreditorlar talablarini faqat qonunda belgilangan muddat va shaklda taqdim etishi shartligi, talablarni reyestrda kiritish masalasi sud tomonidan tekshirilishi va protsessual tartibda tasdiqlanishi, qarzdor mulkini realizatsiya qilish, garov predmetini undirish yoki aktivlarni boshqarish faqat sud nazorati ostida amalga oshirilishi, kelishuv bitimi sud tasdig'isiz yuridik kuchga ega bo'lmasligi kabilardan namoyon bo'ladi.

Qishloq xo'jaligi sohasida mazkur imperativ tartib yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ushbu soha subyektlarining aktivlari - yer uchastkalariga bo'lgan huquq, hosil, chorva mollari, texnika va boshqa ishlab chiqarish vositalari iqtisodiy jihatdan strategik hamda ijtimoiy ahamiyatga ega hisoblanadi. Shu bois ularni realizatsiya qilish, ijara huquqini bekor qilish yoki garovni qanoatlantirish kabi harakatlar faqat xususiy manfaatlar doirasida emas, balki kengroq ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlar nuqtayi nazaridan baholanadi.

Ilmiy jihatdan mazkur holatlar dispozitivlik prinsipining institutsional darajada cheklanishi sifatida baholanadi. Ushbu jihatlar qishloq xo'jaligida to'lovga qobiliyatsizlik sharoitida fuqarolik-huquqiy himoya usullari nafaqat mazmun jihatidan, balki ularni qo'llashning imperativ protsessual rejimi, markazlashtirilgan tartibi va kuchaytirilgan sud nazorati orqali ham alohida sohaviy xususiyat kasb etadi.

Uchinchi, to'lovga qobiliyatsizlik sharoitida fuqarolik-huquqiy himoya usullarining qo'llanilishida ommaviy (jamoaviy) manfaat unsurining mavjudligi

mazkur institutning eng muhim konseptual xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Agar umumiy fuqarolik-huquqiy munosabatlarda himoya usullari, qoida tariqasida, muayyan shaxsning individual buzilgan huquqini tiklashga qaratilgan bo'lsa, to'lovga qobiliyatsizlik doirasida ularning maqsadi kengayib, jamoaviy manfaatni ta'minlashga yo'naltiriladi. Bu, avvalo, kreditorlar o'rtasida tenglik va mutanosiblik prinsiplarini amalga oshirishda namoyon bo'ladi. Maxsus Qonun normalari dagi kreditorlarning yakka tartibda talab qondirish huquqi cheklanishi aynan shu jamoaviy manfaatni ta'minlashga qaratilgan. Bu yerda ustuvorlik alohida shaxsning subyektiv huquqiga emas, balki kreditorlar jamoasining umumiy huquqiy manfaatiga beriladi.

Qishloq xo'jaligi sohasida ommaviy manfaat unsuri yanada keng mazmun kasb etadi. Chunki mazkur soha faqat iqtisodiy faoliyat turi bo'lib qolmay, balki oziq-ovqat xavfsizligi, aholi bandligi va hududiy barqarorlik bilan uzviy bog'liqdir. Shu bois, fermer xo'jaligi yoki agrar sohadagi subyektning to'lovga qobiliyatsizligi faqat uning kreditorlari manfaatiga emas, balki keng ijtimoiy qatlamlar manfaatiga ham daxldor bo'ladi. Ilmiy nuqtayi nazardan qaraganda, mazkur holat fuqarolik-huquqiy himoya usullarining funksional transformatsiyasi sifatida baholanadi. Ya'ni, qishloq xo'jaligida to'lovga qobiliyatsizlik sharoitida fuqarolik-huquqiy himoya usullari nafaqat shaxsiy buzilgan huquqni tiklash vositasi, balki kreditorlar jamoasi va keng ijtimoiy manfaatlarni himoya qilish mexanizmi sifatida sohaviy xususiyatini ko'rsatadi.

To'rtinchidan, fuqarolik-huquqiy himoya usullarining to'lovga qobiliyatsizlik sharoitidagi yana bir muhim sohaviy xususiyati shundaki, unda talablarni qondirish navbatining qat'iy belgilanganligi bilan farqlanishidir. Umumiy fuqarolik munosabatlarida qarzdorning aktivlarini undirish yoki da'volarni qondirish tartibi ko'pincha dispozitiv tarzda, ya'ni sud yoki taraflarning ixtiyoriga bog'liq holda amalga oshiriladi. Biroq, to'lovga qobiliyatsizlik jarayonida bu usullar qat'iy protsessual me'yorlar va belgilangan

navbat asosida amalga oshiriladi (Qonunning 150-moddasi talablari). Ilmiy jihatdan qaraganda, talablarni qondirish navbatining qat'iy belgilanganligi to'lovga qobiliyatsizlik institutini individual-huquqiy munosabatdan jamoaviy-muammoli munosabatga aylantiruvchi muhim mexanizm hisoblanadi. Bu mexanizm orqali nafaqat barcha kreditorlar o'rtasida tenglik va adolatlilik ta'minlanadi, balki qishloq xo'jaligi sohasida ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlik ham himoya qilinadi.

Yana bir muhim masala, qishloq xo'jaligi sohasida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligi sharoitida huquqlarni himoya qilish mexanizmining protsessual shakli masalasi kompleks va tizimli yondashuvni talab etuvchi mustaqil ilmiy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Xususan, qarzdor, kreditorlar va boshqa manfaatdor shaxslar tomonidan buzilgan huquqlarni tiklashga qaratilgan qaysi talablar to'lovga qobiliyatsizlik ishi doirasida ko'rib chiqilishi shartligi va qaysi talablar alohida iqtisodiy nizo tartibida hal etilishi lozimligi to'g'risidagi masala amaliyot uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lsa-da, qonunchilikda aniq konseptual va protsessual chegaralar bilan mustahkamlanmagan. Sud amaliyotida shakllangan turlicha yondashuvlar mazkur nazariy muammoning amaliy ifodasi hisoblanadi. Ayrim hollarda sudlar talabning iqtisodiy mazmuni va tugatish massasiga ehtimoliy ta'sirini inobatga olgan holda uni to'lovga qobiliyatsizlik ishi doirasida ko'rib chiqishlar, boshqa holatlarda esa talabning mustaqil moddiy-huquqiy tabiati ustuvor deb baholanib, alohida iqtisodiy nizo sifatida ish yuritish tartibida hal etishmoqda. Misol uchun: Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudining 2022 yil 27 dekabrda hal qiluv qarori bilan Toshkent shahar Olmazor tumani Soliq inspeksiyasi (arizachi)ning "SHS Kumush" mas'uliyati cheklangan jamiyati (qarzdor)ni to'lovga qobiliyatsiz deb topish to'g'risidagi arizasi qanoatlantirilgan va bankrot deb topilib, tugatishga doir ish yuritish boshlangan. Qarzdorning tugatish boshqaruvchisi sudga ariza bilan murojaat

qilib, Qonunning 126-moddasi talablari doirasida qarzdorning mulki sotilganligi sababli “Mikrokreditbank” ATB zimmasiga “MAN” avtotransport vositasini taqiqdand yechish majburiyati yuklatishni so‘ragan. Ariza to‘lovga qobiliyatsizlik ishi doirasida ko‘rib, sudning ajrimi bilan ariza qanoatlantirilgan. Mazkur ajrim apellyatsiya sudlov hay‘ati tomonidan, keyinchalik taftish instansiyasi sudi tomonidan o‘zgarishsiz qoldirilgan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudning taftish instansiyasi sud tomonidan tugatish boshqaruvchisining majburiyat yuklash to‘g‘risidagi arizasini to‘lovga qobiliyatsizlik ishi doirasida ko‘rib protsessual xatolikka yo‘l qo‘yilganligi, alohida da‘vo tartibida ko‘rish lozimligi qayd qilinib, quyi instansiya sud hujjatlari bekor qilingan va ularga nisbatan xususiy ajrim chiqarilgan¹⁷².

Nazariy jihatdan fuqarolik-huquqiy himoya usullarini qo‘llashda formal emas, balki funksional mezon ustuvor bo‘lishi lozim. Agar talab tugatish massasi shakllanishiga, kreditorlar talablarining navbat tartibida qondirilishiga yoki qarzdorning mulkiy holatiga bevosita ta‘sir etsa, u to‘lovga qobiliyatsizlik ishi doirasida ko‘rib chiqilishi aksincha, tugatish jarayonining umumiy maqsadlariga to‘g‘ridan to‘g‘ri daxldor bo‘lmagan, mustaqil majburiyat munosabatlaridan kelib chiqadigan talablar bo‘lsa alohida iqtisodiy nizo sifatida yuritilishi lozim. Shu bois, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Iqtisodiy sudlar tomonidan “To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarorining 11-qismini qo‘shimcha band bilan to‘ldirish va unda qaysi ishlar to‘lovga qobiliyatsizlik doirasida va qaysi arizalar alohida iqtisodiy nizo tarzida ko‘rish bo‘yicha tushuntirish berish taklif etiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo‘jaligida tadbirkorlik subyektlari uchun huquqiy himoyani ta‘minlash va nizolarni samarali hal qilish masalasi alohida ahamiyatga ega. Zero, fuqarolik huquqlarini sud tartibida himoyalash

¹⁷² 4-1001-2220/56350- sonli ish

huquqiy himoya institutida asosiy hisoblasa-da, ammo u himoyaning yagona shakli asosida amalga oshirish mumkinligiga doir qoida bilan cheklab qo'yilmasligi lozim. Huquqiy himoya shakli - bu himoya usulini amalga oshirish vositasi va subyektiv huquqni qonuniy tarzda amalga oshirish mexanizmi hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda himoya shakllari sud orqali va suddan tashqari qo'llanadigan turlarga ajratiladi¹⁷³ va bu ajratish mohiyatan o'rinli sanaladi. Chunki, turli huquqiy mexanizmlar qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizlik jarayonida qarzdor va kreditorlarning huquq va manfaatlarini samarali himoya qilish imkonini beradi. Shu bois, nazarimizda huquqiy himoya institutini xalqaro standartlar talablariga muvofiqlashtirish vazifalaridan¹⁷⁴ kelib chiqib FKning 10-moddasi birinchi qismi qoidalarini «buzilgan huquqlarni tiklash va ularni sud, ma'muriy tartib hamda boshqa muqobil huquqiy vositalar orqali himoya qilish» shaklida kengaytirish ilmiy jihatdan asosli taklif hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlari uchun to'lovga qobiliyatsizlik holatlarida muqobil himoya vositalari, xususan mediatsiya institutini joriy etish eng dolzarb vazifa hisoblanadi. Mediatsiya - nizodagi taraflarning neytral va betaraf uchinchi shaxs yordamida o'zaro muvofiq kelishuvga erishish jarayoni¹⁷⁵ bo'lib, u qarzdorning biznesini tiklash va likvidatsiya yo'nalishini reabilitatsion yo'nalishga o'zgartirish imkonini beradi ¹⁷⁶.

¹⁷³ Qarang: Rўzinazarov Ш.Н. Тadbirkorlik faoliyatini huqukiy tartibga solish: (Qonun hujjatlari va sud amaliyoti masalalari). -Т.:ТДЮИ. 2004.-Б.254; Камалов О. Тadbirkorlik subyektlari huquq va manfaatlarini huqukiy himoya qilish shakllari // Юридик фанлар ахборотномаси/Вестник юридических наук/Review of law sciences. №2.2020.-Б.140-145.

¹⁷⁴ Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасининг фуқаролик қонунчилигини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармойиши // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 06.04.2019 й., 08/19/5464/2891-сон.

¹⁷⁵ Qarang: Хайрулина А., Хабибуллаев Д. Медиация как новый вид альтернативных способов разрешения споров в Узбекистане //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 3/С. – С. 494- 501.; Ибратова Ф. Правовые вопросы медиация как альтернативный способ урегулирования споров //Слияние экономических и правовых идей: перспективы для инновационного роста. – 2023. – С. 5-14.

¹⁷⁶ Максудов А. Перспективы применения медиативных технологий в процедурах неплатежеспособности в Республике Узбекистан.// “Юридик фан ва ҳуқуқни қўллаш амалиётининг долзарб муаммолари: одил судлов ва юридик ёрдам имкониятлари” мавзусида халқаро илмий-амалий конференция материаллари тўплами // –Т.: “Lesson press”. 2022. –С.561-569.

Shu munosabat bilan qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlariga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik ishlarini yuritishda maxsus vakolatli organ tomonidan sudgacha to'lovga qobiliyatsizlik ishini hal qilish chorasini ko'rish va kreditorlar bilan qarzdor o'rtasida mediativ kelishuvni amalga oshirish majburiyligini belgilovchi mexanizmni qonunchilikka joriy etish taklif etiladi. Bu jarayonda protsessual qonunchilikni taraflar o'rtasida shartnomada yoki qonunda agar sudgacha sanatsiya qilish to'g'risida shartnoma tuzilgan bo'lsa, mediativ kelishuv choralari ko'rilmagan bo'lsa, sud berilgan arizani rad qilish to'g'risida qoidalarni kiritish taklif etiladi. Chunki, qarzdor faoliyatini sudgacha sanatsiya qilish vaqtida ham kreditorlar talablarini qanoatlantirish, pul majburiyatlari bajarish yoki taraflar o'zaro mediativ kelishuvga erishish orqali qarzdorlikni kechiktirish tarzda to'lovga qobiliyatsizlik holatini vaqtincha bo'lsa-da bartaraf qilishi mumkin bo'ladi.

2.2-§. To'lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarida kreditorlar yig'ilishi qarorlarini haqiqiy emas deb topishning fuqarolik-huquqiy tabiati va amalga oshirish mexanizmlari

Qishloq xo'jaligi sohasida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligi tartib-taomillarida kreditorlar yig'ilishi muhim huquqiy institut sifatida namoyon bo'lib, uning qarorlari qarzdorning mol-mulki taqdiri, kreditorlar talablarini qondirish tartibi hamda sanatsiya, tashqi boshqaruv yoki tugatish kabi jarayonlarni belgilashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, mazkur institut kreditorlar huquqlarini fuqarolik-huquqiy himoya qilish hamda qarzdor mulkiy manfaatlarini adolatli taqsimlash jarayonida muhim o'rin tutadi. Shu bois kreditorlar yig'ilishi qarori oddiy protsessual hujjat sifatida emas, balki qarzdor qishloq xo'jaligi tadbirkorlik subyektining mol-mulki va mulkiy manfaatlariga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi, huquqiy oqibatlar keltirib chiqaradigan kollegial organning jamoaviy irodasi

sifatida baholanadi¹⁷⁷. Shundan kelib chiqib, kreditorlar yig'ilishini chaqirish, uni o'tkazish yoki ovoz berish tartibi buzilgan hollarda bunday qarorlarni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi talablar kreditorlar huquqlari hamda qarzdor qishloq xo'jaligi tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy manfaatlarini adolatli himoya qilishga qaratilgan fuqarolik-huquqiy himoya usuli sifatida namoyon bo'ladi.

To'lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarida kreditorlar yig'ilishi qarorlarini haqiqiy emas deb topishning fuqarolik-huquqiy masalalarini tahlil qilishda, avvalambor, ushbu qarorlarning huquqiy tabiati va ularni haqiqiy emas deb topishning fuqarolik-huquqiy himoya mexanizmlari tizimidagi o'rnini aniqlash katta ahamiyatga ega bo'lsa-da, biroq mamlakatimizda mazkur institut mustaqil ilmiy tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada o'rganilmagan. Shuningdek, sudga bunday talab bilan murojaat qilish huquqiga ega subyektlar doirasi, xususan "kreditor" tushunchasi hamda uning huquq va majburiyatlari hanuz aniq belgilangan emas. Bu nuqtayi nazardan, kreditorlar yig'ilishining fuqarolik huquqi subyekti sifatidagi maqomi, qarorlarning huquqiy oqibatlari va ularni haqiqiy emas deb topish orqali himoya qilinishi, ishtirok etuvchi subyektlar huquqlari hamda tartib-taomillarning samarali amalga oshirilishi bilan bevosita bog'liqdir. Shu bois, ushbu institutning huquqiy mohiyati hamda uning nazariy va amaliy samaradorligini tahlil qilish dissertatsiyaning metodologik asosiy vazifalaridan biri sifatida katta ahamiyat kasb etadi.

Darhaqiqat, kreditorlar yig'ilishining huquq subyektliligi bo'yicha hozirgi vaqtda bu masala huquqiy doktrina va amaliyotda yagona tushunchaga ega emas. Qonunchilikda ham kreditorlar yig'ilishining aniq ta'rifi mavjud emasligi turli qarama-qarshi nuqtayi nazarlarni yuzaga keltirmoqda. Masalan, ba'zi

¹⁷⁷ Телюкина М.В. Порядок признания недействительными сделок должника в процедурах банкротства // Арбитражная практика. -2002. №1. - С. 19-22.; Пантюхин А.В. Гражданско-правовое регулирование участия кредиторов в управлении несостоятельным юридическим лицом. Автореф. дисс. . канд. юрид. наук. М., 2006.- С.26.

mualliflar kreditorlar yig'ilishini kreditorlarning kollektiv organi¹⁷⁸, boshqaruv organi¹⁷⁹ sifatida qarashni taklif qiladilar. Shu bilan birga, doktrinal darajada uni fuqarolik huquqi subyektlari bilan solishtirish va vakillik huquqiy instituti bilan bog'lash masalalari¹⁸⁰ ham muhokama qilinadi.

Ayrim olimlar tomonidan kreditorlar yig'ilishini fuqarolik huquqi munosabatlaridan alohida, uni bir nechta huquq tarmoqlari normalarini o'z ichiga olgan kompleks institut subyekti sifatida baholaydi va shu bois ham kreditorlar yig'ilishini bankrotlik huquqida «maxsus subyekt» sifatida qarashadi¹⁸¹. Huquqshunos olim G.F.Shershenevichning fikriga ko'ra, kreditorlar yig'ilishini (jamlanmasini) mustaqil huquq subyekti e'tirof etishni rad etadi, uning qarori orqali yangi huquqlar yaratilmaydi va har bir kreditor o'z shaxsiy huquqlari bilan faoliyat yuritadi¹⁸². Chunki, kreditorlar umumiy yig'ilishining tashkil etilishi ular o'rtasida huquqiy birlikni anglatmaydi, balki ularni faqat umumiy manfaatlar ya'ni kreditorlik talablarni imkon qadar to'liq va tezroq qanoatlantirishga qaratilgan xohishlari birlashtiradi.

M.V.Telyukina esa bankrotlik ishlaridagi kreditorlar yig'ilishi, kreditorlar qo'mitasi boshqa huquq subyektlaridan farqli ravishda yuridik shaxs yoki vakil bo'lib hisoblanmasligini ta'kidlaydi¹⁸³. Kreditorlar yig'ilishi haqida T.P.Shishmareva, uni kreditorlar jamiyati organi sifatida vakolatli bo'lib, qarzdorning bankrotlik ishi yuzasidan ish jarayonini boshqarishni

¹⁷⁸ Шайбаков С.В. Правово статус собрания и комитета кредиторов в системе органов управления корпоративных организаций // ОБРАЗОВАНИЕ И ПРАВО. 2024. № 3. С.373-375.

¹⁷⁹ Kutlimuratov F.K. Tijorat yuridik shaxsni qayta tashkil etishda kreditorlarning huquqlarini himoya qilishni takomillashtirish: yuridik fanlari doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan Diss. // - :Nukus. 2025. –Б.28-29.

¹⁸⁰ Согоян Д.П. Кредиторское сообщество в правоотношениях несостоятельности (банкротства): опыт России и зарубежных стран // Проблемы экономики и юридической практики. 2025. № 1. С. 110-121.

¹⁸¹ Одинцов С. В. Гармонизация регулирования трансграничного банкротства в странах ЕС : Сборник статей Международной научно-практической конференции памяти профессора В.К. Пучинского. М., РУДН, 2014.с.109.

¹⁸² Шершеневич Г.Ф. Курс торгового права в 4 т. Том 4. Торговый процесс. Конкурсный процесс. - Москва : Издательство Юрайт, 2025. - 453 с.

¹⁸³ Телюкина М.В. Собрание кредиторов несостоятельного должника как субъект конкурсного права // Адвокат. 2003.-№2. С.30.

belgilaydigan qarorlarni qabul qilish huquqiga ega deb hisoblaydi¹⁸⁴. Shuningdek, M.A.Govoruxa ta'kidlashicha, kreditorlar (yoki kreditorlar qo'mitasi) yig'ilishining bankrotlik huquqi subyekt sifatidagi maqomini mustaqil vakolatlar (kompetensiya) mavjudligi; kreditorlar yig'ilishining alohida kreditorlardan mustaqilligi; irodani shakllantirish va ifoda etish qobiliyati kabi belgilari orqali namoyon bo'ladi¹⁸⁵. Yuridik shaxs nazariyasida ham yuridik shaxs organlarini faqat ichki korporativ munosabatlarda mustaqil maqomga ega deb hisoblaydigan yondashuv mavjud¹⁸⁶.

Yurtimiz olimlaridan N.V.Lopayeva kreditorlar yig'ilishi asosida tashkil etilishi mumkin bo'lgan qo'mita¹⁸⁷ haqida fikr bildirib, uni kreditorlarning maxsus organi ekanligi, to'lovga qobiliyatsizlikda huquq subyekt bo'lishi mumkinligi, lekin fuqarolik subyekt hisoblanmasligi, chunki unga vakolatlarni alohida kreditorlar emas, balki o'zi ham fuqarolik subyekt bo'lmagan kreditorlar yig'ilishi taqdim etishini ta'kidlaydi¹⁸⁸. Professor F.B. Ibratova fikriga ko'ra esa kreditorlar yig'ilishi (yoki qo'mitasi) faol protsessual sheriklikning o'ziga xos shaklidir. Unda barcha kreditorlarning umumiy manfaatlari yig'ilish orqali ifodalanadi¹⁸⁹.

K. B. Korayev kreditorlar yig'ilishini kreditorlar o'z huquqlarini jamoaviy tarzda amalga oshiradigan tartib sifatida ta'riflaydi¹⁹⁰. Shunga yaqin pozitsiyani ilgari surgan Ye.G.Doroxina, kreditorlar yig'ilishini «qonun bilan belgilangan vakolatlar doirasida bankrotlik ishining asosiy masalalari bo'yicha kreditorlar

¹⁸⁴ Шишмарева Т.П. Защита прав кредиторов в процедурах несостоятельности (банкротства)// «Законы России: опыт, анализ, практика», 2019. № 9. С. 46-50.

¹⁸⁵ 6. Говоруха, М.А. Правовое положение органов управления несостоятельного должника [Электронный ресурс]: автореф. дис. ... канд. юрид. наук: 12.00.03 / М.А. Говоруха. – М.: РГБ, 2008. —24 с.

¹⁸⁶ Агеев, А.Б. Создание современной системы корпоративного управления в акционерных обществах. Вопросы теории и практики / А.Б. Агеев. – М.: Волтерс Клувер, 2010. – 288 с.; Долинская, В.В. Акционерное право. Основные положения и тенденции / В.В. Долинская. – М.: Волтерс Клувер, 2006. – 720 с.

¹⁸⁷ Kreditorlar qo'mitasi kreditorlar soni yigirmata va undan ko'p bo'lsa kreditorlar yig'ilishining qarori bilan tashkil etiladi va uning tarkibiga kreditorlar yig'ilishi tomonidan belgilanadigan miqdorda kreditorlar vakillari kiritiladi.

¹⁸⁸ Лопаева Н.В. Ўзбекистон Республикасининг “Банкротлик тўғрисида”ги Қонунига шарҳлар // Муаллифлар жамоаси: М.К.Азимов ва бошқ. –Т.:2007. –Б.78-79.

¹⁸⁹ Ибратова Ф. Б. Тадбиркорлик субъектларини банкрот деб топишнинг фуқаролик-ҳуқуқий муаммолари: юрид. фанлар. докт. дисс. – Тошкент, 2021. – Б.45.

¹⁹⁰ Кораев, К.Б. Правовой статус конкурсных кредиторов в деле о банкротстве: автореф. дис. ... канд. юрид. наук: 12.00.03 / К.Б. Кораев [Электронный ресурс]. - М.: РГБ, 2008. - 23 с.

irodasini shakllantirish vakolati berilgan shaxslar guruhi» sifatida ta'riflaydi¹⁹¹. Fikrimizcha, to'lovga qobiliyatsizlik jarayonida kreditorlarining huquqlari sud boshqaruvchi belgilaydigan yig'ilish tartibiga muvofiq jamoaviy asosda amalga oshirilishi mumkin. Bunday jamoaviy qarashlarni amalga oshirish uchun esa alohida huquq subyektini tashkil etish talab qilinmaydi.

Qonunchiligimizda to'lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari qo'llanilayotganda barcha kreditorlar manfaatlari kreditorlar yig'ilishi yoki qo'mitasi tomonidan himoya qilinishi va qarzdorga nisbatan amalga oshiriladigan barcha huquqiy harakatlar ham kreditorlar nomidan bajarilishi nazarda tutilgan (Qonunning 12-moddasi birinchi qismi). Bu qoidalar, kreditorlar yig'ilishini mustaqil fuqarolik huquqi subyekti sifatida emas, balki barcha kreditorlar manfaatlarini jamoaviy ravishda ifodalaydigan huquqiy mexanizm sifatida qarashni taqozo qiladi. Ya'ni, kreditorlar yig'ilishi alohida huquq va majburiyatlarga ega bo'lmagan, balki yig'ilish ishtirokchilarining yuridik iroda va vakolatlari orqali faoliyat yuritadi.

Shu bois, fikrimizcha, kreditorlar yig'ilishi (qo'mitasi)ni mustaqil fuqarolik huquqi subyekti sifatida e'tirof etish nazariy konstruktsiya va amaliyot ehtiyojlariga to'la mos kelmaydi. Chunki, u mustaqil ravishda fuqarolik muomalasida ishtirok etmaydi, balki kreditorlar jamlanmasining birlashtirilgan irodasini ifodalovchi protsessual-huquqiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, uning qarorlari yangi subyektiv huquqlarni vujudga keltiruvchi mustaqil iroda emas, balki kreditorlar umumiy manfaatlarini muvofiqlashtirish va to'lovga qobiliyatsizlik jarayonida huquqiy oqibatlarini amalga oshirishga qaratilgan vosita sifatida baholanishi lozim. Bu yondashuv ayniqsa, qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligida qarzdor mulkini adolatli taqsimlash hamda kreditorlar huquqlarini himoya qilishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

¹⁹¹ Дорохина, Е.Г. Правовое регулирование управления в системе банкротства / Е.Г. Дорохина. - М.: Система ГАРАНТ, 2009. - 171 с.

To'lovga qobiliyatsizlik munosabatlarida kreditorlar yig'ilishi qarorlarining huquqiy tabiati masalasi huquqshunoslik ilmda munozarali va dolzarb nazariy muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi sohasida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligi bilan bog'liq munosabatlarda mazkur masala alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining mavsumiyligi, tabiiy-iqlim omillariga yuqori darajada bog'liqligi hamda moliyaviy barqarorlikning nisbatan zaifligi ushbu sohada faoliyat yurituvchi subyektlarning to'lovga qobiliyatsizlik holatiga tushib qolish xavfini oshiradi. Bunday sharoitda to'lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarida kreditorlar yig'ilishi qarzdorning mol-mulki taqdirini belgilash, kreditorlar talablarini qondirish tartibi va navbatini aniqlash, sanatsiya, tashqi boshqaruv yoki tugatish tartibini tanlash kabi strategik ahamiyatga ega qarorlarni qabul qiluvchi markaziy institut sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois, mazkur organ tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning huquqiy tabiatini aniqlash nafaqat nazariy-huquqiy tahlil nuqtayi nazaridan, balki huquqni qo'llash amaliyoti samaradorligini ta'minlash nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy adabiyotlarda kreditorlar yig'ilishi qarorlarini fuqarolik-huquqiy hujjat sifatida baholash yoki ularni protsessual qaror sifatida talqin qilish masalasida turli yondashuvlar mavjud.

Birinchi yondashuvga ko'ra, kreditorlar yig'ilishi qarorlari fuqarolik-huquqiy hujjat sifatida qaraladi. Chunki, ushbu qarorlar kreditorlar irodasining kollektiv ifodasi sifatida shakllanadi va ularning mazmuni qarzdorning mol-mulkiga doir mulkiy munosabatlarning rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Masalan, qishloq xo'jaligi korxonalariga tegishli yer uchastkalari, texnika vositalari, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yoki boshqa aktivlarni realizatsiya qilish tartibini belgilash, korxonani moliyaviy sog'lomlashtirish choralarini ko'rish yoki uni tugatish masalalari bo'yicha qabul qilinadigan qarorlar

кредиторlar va qarzdor o'rtasidagi mulkiy munosabatlarga bevosita ta'sir etadi. Shu jihatdan kreditorlar yig'ilishi qarorlari kreditorlarning mulkiy huquqlarini amalga oshirish mexanizmini belgilaydigan fuqarolik-huquqiy institut sifatida namoyon bo'ladi.

Ayrim olimlar umumiy yig'ilish qarorlarini bitim sifatida qarash mumkinligini ta'kidlaydilar¹⁹². Bu qarash umumiy jihatdan yuridik fakt tabiati bilan nemis huquqshunosligidagi yondashuvga mos keladi¹⁹³. L.K.Bedjashe va Yu.G.Stepanov, yig'ilish qarori yuridik fakt sifatida qaralsa, har bir bunday qaror harakat hisoblanishi, chunki u ongli-irodaviy xususiyatga ega bo'lib, umumiy maqsad yuridik hujjat, ya'ni yig'ilish qarorini qabul qilishga qaratilgan bo'lishi va bu holat yig'ilish qarorining yuridik fakt sifatidagi belgilari bilan fuqarolik-huquqiy bitim belgilari o'rtasidagi o'xshashlik mavjudligi, «yuridik fakt sifatida baholanishi mumkin bo'lgan har qanday yig'ilish qarori fuqarolik-huquqiy bitim deb atalishi lozim» deb ta'kidlashadi¹⁹⁴. Umumiy yig'ilishi qarorlarining huquqiy tabiatini tahlil qilib, ularning fuqarolik huquq va majburiyatlarini vujudga keltirish, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan-qaratilmaganiga qarab ikki toifaga ya'ni «bitim shaklida qarorlar» va «bitim bo'lmagan qarorlar»ga ajratishni¹⁹⁵, shuningdek, yig'ilish qarorlarini ko'p tomonlama bitim¹⁹⁶ yoki ko'p tomonlama korporativ bitim¹⁹⁷ sifatida talqin qilishni taklif etadi.

Ikkinchi yondashuvga ko'ra esa, kreditorlar yig'ilishi qarorlari muayyan darajada protsessual xususiyatga ham ega. Buning sababi shundaki, mazkur

¹⁹² Андреев В.К. Решения собраний // Цивилист. 2013. №3. С. 71-79.; Дегтярева А. Поправки в ГК РФ: анализ изменений. Новеллы о решениях собраний // Административное право. 2014. № 2. С. 45–49.

¹⁹³ Егоров А. Закон и практика: от борьбы к единству // ЭЖ-Юрист, № 3 (307) январь 2004 г., С.1-6.

¹⁹⁴ Беджаше Л. К., Степанов Л. Г. Правовая природа решений собраний // Теория и практика общественного развития. 2014. № 15. С. 133-136.

¹⁹⁵ Шумилова В.С. Правовая природа решений собраний // Молодой ученый. 2016.№20 (124). С.596-601.; Фомичева Н.В Решения собрания кредиторов в делах о банкротстве как основания возникновения гражданских прав и обязанностей. Журнал [Цивилистика: право и процесс](#). 2019.№1. С. 27-34.

¹⁹⁶ Крашенинников Е.А., Байгушева Ю.В. Односторонние и многосторонние сделки // Вестник ВАС РФ. 2012. № 7. С. 30-31.

¹⁹⁷ Козлова Н.В. Правосубъектность юридического лица. М.: Статут. 2005. С.203-205.

qarorlar mustaqil ravishda emas, balki to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi sud ishi doirasida qabul qilinadi va ularning amalga oshirilishi ko'p hollarda sud nazorati bilan bog'liq bo'ladi. Sud to'lovga qobiliyatsizlik ishini yuritish jarayonida kreditorlar yig'ilishi qarorlarining qonuniyligi va asoslilikini tekshirish, zarur hollarda ularni tasdiqlash yoki haqiqiy emas deb topish vakolatiga ega. Bu holat ayniqsa, qishloq xo'jaligi sohasida faoliyat yurituvchi subyektlarning to'lovga qobiliyatsizligida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bunday korxonalar faoliyati ko'p hollarda strategik ahamiyatga ega bo'lib, ularning tugatilishi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy oqibatlarni ham keltirib chiqarishi mumkin.

Zamonaviy huquqiy doktrinada esa kreditorlar yig'ilishi qarorlarining huquqiy tabiatiga nisbatan kompleks yondashuv ustuvor hisoblanadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, mazkur qarorlar faqat fuqarolik-huquqiy yoki faqat protsessual hujjat sifatida emas, balki moddiy va protsessual huquq elementlarini o'zida mujassam etgan murakkab huquqiy hodisa sifatida qaraladi¹⁹⁸. Huquqshunos olimlar N.Imomov va Q.Mehmonovlar Rossiya Federatsiyasining tajribasi asosida fuqarolik qonunchiligiga yig'ilish qarorlariga oid alohida bob kiritishni taklif etishadi¹⁹⁹. Chunki, qarorlar mazmuni bir tomondan qarzdor va kreditorlar o'rtasidagi mulkiy munosabatlarga ta'sir ko'rsatib, ularning huquq va majburiyatlarini amalga oshirish tartibini belgilasa, ikkinchi tomondan ushbu qarorlar sud jarayoni doirasida qabul qilinishi va amalga oshirilishi tufayli protsessual huquq normalari bilan uzviy bog'liq hisoblanadi.

¹⁹⁸ Бруско Б.С. Защита прав и законных интересов кредиторов в конкурсном праве. Автореф. дисс. . канд. юрид. наук. М.,2004.-С.26.; Rai Mantili, P. E. (2021). Postponement of Debt Payment Obligations (PKPU) Related to Debt Settlement in Bankruptcy. Journal of Actual Justice, 6.; Согоян Д.П. Правосубъектность кредиторского сообщества в отношениях несостоятельности: теоретическое обоснование и практические следствия // Юридические исследования. 2025.№8. С.101-124.

¹⁹⁹ Имомов Н.Ф., Меҳмонов Қ.М. Фуқаролик қонунчилигини такомиллаштириш истикболлари (Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексининг Биринчи қисм I Бўлими (1–163-моддалар)) (ахборот-таҳлилий материал). – Тошкент: ТДЮУ, 2020. - Б.70.

Fikrimizcha, ayni asoslar bilan ham zamonaviy huquqiy doktrinada mazkur masalaga nisbatan ko'proq kompleks (aralash) yondashuv ustuvorlik kasb etmoqda. Shu boisdan, kreditorlar yig'ilishi qarorlari aralash huquqiy tabiatga ega bo'lib, ular mazmun jihatidan fuqarolik-huquqiy xarakterga, qabul qilinishi va amalga oshirilishi tartibi jihatidan esa protsessual xususiyatga ega hisoblanadi. Bu holat ayniqsa, qishloq xo'jaligi sohasidagi tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligi bilan bog'liq munosabatlarda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, mazkur qarorlar orqali nafaqat kreditorlar talablarini qondirish, balki iqtisodiy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lgan qishloq xo'jaligi subyektlarining faoliyatini saqlab qolish yoki qayta tiklash imkoniyatlari ham belgilanadi.

Fuqarolik huquqida subyektiv huquqni himoya qilish usullari qatorida huquqiy hujjatni haqiqiy emas deb topish alohida o'rin tutadi (FKning 11-moddasi). Agar qishloq xo'jaligi sohasidagi tadbirkorlik subyekti qarzdor sifatida to'lovga qobiliyatsizlik holatiga tushsa va kreditorlar yig'ilishi qarori qonun talablariga zid tarzda qabul qilinsa, ovoz berish tartibi buzilsa yoki ayrim kreditorlarning huquqlari nomutanosib cheklansa, uni haqiqiy emas deb topish talabini qo'yish bu buzilgan subyektiv huquqni tiklashga qaratilgan yuridik fakt va fuqarolik-huquqiy himoya usuli sifatida amalga oshiriladi.

Kreditorlar yig'ilishi qarorini haqiqiy emas deb topish institutning huquqiy mohiyati avvalo, kreditorlar, qarzdor yoki boshqa manfaatdor shaxslarning buzilgan huquqlarini tiklashga qaratilgan fuqarolik-huquqiy himoya vositasi sifatida namoyon bo'lishida ifodalanadi. Chunki, kreditorlar yig'ilishi qarorlari ayrim hollarda qonun talablarini buzgan holda qabul qilinishi, kreditorlar o'rtasidagi tenglik tamoyilini izdan chiqarishi yoki alohida ishtirokchilarning manfaatlariga asossiz ravishda zarar yetkazishi mumkin. Bunday holatlarda ularni haqiqiy emas deb topish orqali huquqiy adolatni

tiklash va bankrotlik jarayonida manfaatlar muvozanatini ta'minlash imkoniyati yaratiladi.

Fuqarolik huquqi nuqtayi nazaridan qaralganda, kreditorlar yig'ilishi qarorlarini haqiqiy emas deb topish instituti muayyan darajada huquqiy bitimlar yoki korporativ qarorlarni haqiqiy emas deb topish mexanizmlariga yaqin hisoblanadi. Chunki, bu yerda ham asosiy maqsad huquqiy oqibatlarni vujudga keltirgan qarorning qonuniyligi va asoslilikini tekshirish hamda qonun talablariga zid bo'lgan qarorlarni huquqiy kuchdan mahrum etishdan iborat.

Kreditorlar yig'ilishining qarorlarini haqiqiy emas deb topish usuli bitimni haqiqiy emas deb topish yoki korporativ qarorni haqiqiy emas deb topish kabi fuqarolik-huquqiy institutlar bilan taqqoslanadi. Bu taqqoslash huquqiy mexanizmlarning umumiy maqsadini huquqiy munosabatlarda buzilgan huquqlarni tiklashni hamda ularning har birida moddiy-huquqiy va protsessual elementlar nisbatini ko'rsatadi. Masalan, qarorning haqiqiy emasligi moddiy-huquqiy nuqtayi nazardan uning huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarish imkoniyati yo'qligini anglatga, protsessual jihatdan da'vo berish tartibi va dalillar bazasi orqali uni sudda e'tirof etish mexanizmlari ko'zda tutiladi. Shu ma'noda mazkur institut bankrotlik munosabatlarida ishtirok etuvchi shaxslarning mulkiy huquqlarini himoya qilishga qaratilgan muhim fuqarolik-huquqiy vositalardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Qayd etish lozimki, to'lovga qobiliyatsizlik jarayonlarida kreditorlar yig'ilishi qarorini haqiqiy emas deb topish instituti ham muayyan evolyutsion shakllanish bosqichlarini bosib o'tgan. Chunki 1994 yilda qabul qilingan "Bankrotlik to'g'risida"gi Qonunda²⁰⁰ kreditorlar yig'ilishi qarorlaridan norozi shaxslar tomonidan uni sud tartibida shikoyat qilish imkoniyati alohida himoya usuli sifatida nazarda tutilmagan edi. Bunday sharoitda kreditorlar qaroridan

²⁰⁰ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1994 й., 5-сон, 130-модда.

norozi bo'lgan shaxslar o'z huquqlarini, asosan, sud tomonidan qabul qilingan sud hujjatlari ustidan shikoyat berish orqali himoya qilishlari mumkin bo'lgan.

Qonunning 1998 yilda yangi tahrirda²⁰¹ kreditorlar yig'ilishi instituti qayta joriy etildi va u bankrotlik jarayonida kreditorlar manfaatlarini ifoda etuvchi muhim boshqaruv mexanizmi sifatida (167, 168-moddalar)e'tirof etildi. Biroq, mazkur tahrirda ham kreditorlar yig'ilishi qarorlarini haqiqiy emas deb topishning aniq huquqiy mexanizmi yoki asoslari belgilab berilmadi. Shu sababli, kreditorlar yig'ilishi qarorlaridan norozi bo'lgan shaxslar o'z huquqlarini, asosan, sud boshqaruvchisining xatti-harakatlari ustidan yoki sud tomonidan qabul qilingan protsessual hujjatlar ustidan shikoyat qilish orqali himoya qilish imkoniyatiga ega bo'lgan.

Qonunning 2003 yilda qabul qilingan yangi tahrirda²⁰² ham kreditorlar yig'ilishi qarorlarining haqiqiylikini baholashning mustaqil huquqiy tartibi to'liq shakllantirilmadi. Garchi Qonunning 13-moddasida bankrotlik to'g'risidagi ishda ishtirok etuvchi shaxslarga kreditorlar yig'ilishi qarori ustidan sudga shikoyat qilish huquqi berilgan bo'lsa-da, mazkur huquqni amalga oshirishning shakli va tartibi aniq belgilab berilmagan holda qoldirildi. Keyinchalik, 2006 yil 27 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 142-sonli "Bankrotlik to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini xo'jalik sudlari tomonidan qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi qarorida²⁰³ kreditorlar yig'ilishi qarorining haqiqiyliyi yuzasidan qabul qilingan xo'jalik sudi ajrimi ustidan ham shikoyat qilish mumkinligi belgilandi. Biroq, mazkur Plenum qarorida ham huquqi buzilgan kreditorlar tomonidan kreditorlar yig'ilishi qarorini haqiqiy emas deb topish to'g'risida sudga mustaqil tarzda ariza bilan murojaat qilish tartibi to'liq ochib berilmadi.

²⁰¹ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1998 й., 9-сон.

²⁰² Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2003 й., 5-сон, 63-модда.

²⁰³ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2023-yil 20-fevraldagi 6-sonli "O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi va O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining ayrim qarorlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish hamda ba'zi qarorlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish haqida"gi qaroriga asosan o'z kuchini yo'qotgan.

Shunga qaramasdan, qonunchilikda aniq huquqiy mexanizm belgilanmagan bo'lsa-da, sud amaliyotida kreditorlar yig'ilishi qarorlaridan norozi bo'lgan shaxslar tomonidan ularni haqiqiy emas deb topish to'g'risida sudga murojaat qilish orqali huquqlarni himoya qilish amaliyoti shakllanib bordi. Bu esa mazkur institutning dastlab qonun normalarida emas, balki sud amaliyoti asosida rivojlanganini ko'rsatadi.

Darhaqiqat, qonunchilikda kreditorlar yig'ilishi qarorlarini haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi talablar bo'yicha aniq protsessual tartib belgilanmaganligi sababli, qaysi shaxslar sudga murojaat qilish huquqiga ega ekanligi, shu murojaatlar to'lovga qobiliyatsizlik ishi doirasida ko'rib chiqilishi kerakmi yoki alohida da'vo tartibida yuritilishi lozimmi degan masalalar ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi. Bu muammo faqatgina protsessual huquq subyektlarini aniqlash bilan cheklanmay, balki to'lovga qobiliyatsizlik munosabatlarida ishtirok etuvchi turli subyektlarning huquq va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilish mexanizmlari bilan ham bevosita bog'liqdir. Amalda qonunchilikda bunday murojaat qilish huquqiga ega shaxslar sifatida kreditorlar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar nazarda tutilgan (Qonuning 17-moddasi). Biroq, "ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar" tushunchasiga na qonunchilikda, na Plenum qarorida aniq va barqaror ta'rif, tushuntirish berilmagan. Bu esa sud amaliyotida turlicha yondashuvlarga, huquqiy noaniqlik va amaliyotda tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, kreditorlar yig'ilishi qarorlarini haqiqiy emas deb topish to'g'risida talab qo'yish huquqiga ega shaxslar doirasini nazariy jihatdan asoslash, ularning huquqiy manfaatdorligi mezonlarini belgilash va bu borada qonunchilikni takomillashtirish masalasi to'lovga qobiliyatsizlik huquqi nazariyasi va amaliyotida muhim ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Kreditorlar yig'ilishi qarorlarini haqiqiy emas deb topish to'g'risida talab qo'yish huquqiga ega shaxslar doirasi borasida huquqiy adabiyotlarda turlicha qarashlar mavjud. Ayrim mualliflar bu huquqni faqatgina kreditorlar va qarzdorga cheklaydi, ular ishda bevosita ishtirok etuvchi shaxslar sifatida qaraladi²⁰⁴, boshqa mualliflar esa bankrotlik munosabatlarida ishtirok etadigan har qanday shaxs, shu jumladan sud boshqaruvchi, ishtirok etmagan uchinchi shaxslar²⁰⁵, qarzdor xodimlarining vakili, unitar korxona bo'lgan qarzdor mulkining egasi, yuridik shaxs bo'lgan qarzdor ishtirokchilari (ta'sischilari) vakili²⁰⁶ sudga murojaat qilish huquqiga ega bo'lishi mumkin, deb hisoblaydi. Shuningdek, ushbu masalada sudga ariza bilan murojaat qilish huquqiga faqat kreditorlar haqli ekanligi, qarzdorning o'zi, ta'sischilari hamda ular nomidan sud boshqaruvchi ega bo'lmasligi ²⁰⁷ haqidagi fikrlar ham bildiriladi.

Qonunning 17-moddasida belgilangan shikoyat berish mumkin bo'lgan kreditorlar toifasi ham chegaralangan, ya'ni unda har qanday kreditorlar emas, balki faqatgina kreditorlar yig'ilishida "ovoz berishda ishtirok etmagan" yoki ushbu qarorga "qarshi ovoz bergan" kreditorning ariza berish mumkinligi nazarda tutiladi²⁰⁸. Zero, to'lovga qobiliyatsizlik munosabatlaridagi kreditor tushunchasi fuqarolik huquqidagi umumiy kreditor tushunchasidan tubdan farq qiladi ²⁰⁹, chunki fuqarolik huquqida kreditor muayyan majburiyat doirasida talab huquqiga ega bo'lgan alohida shaxs sifatida namoyon bo'lsa, to'lovga qobiliyatsizlik jarayonida u maxsus protsessual maqomga ega bo'lgan, talablari belgilangan tartibda e'tirof etilgan va boshqa kreditorlar bilan

²⁰⁴ Попондопуло В.Ф. (ред.) Комментарий к Федеральному закону «О несостоятельности (банкротстве)». М.: Проспект, 2016. 1197 с.

²⁰⁵ Машкина, Т.И. Проблемы недействительных сделок несостоятельных должников // Арбитражная практика. 2002. - №5. С. 157.

²⁰⁶ Витрянский В.В. Как реформировать законодательство о банкротстве. «Законодательство». 1999. №5. С.53

²⁰⁷ Шумский А.А. Признание решений собрания кредиторов недействительными при проведении процедуры банкротства // Вопросы российского и международного права. 2019. Том 9. № 4А. С. 116.

²⁰⁸ Vaholanki, to'lovga qobiliyatsizlik munosabatlarida kreditorlar yig'ilishida hamma kreditorlar ham ovoz berish huquqiga ega bo'lmasligi, Qonunning 13-moddasi talablariga ko'ra, bir turdagi kreditorlar guruhlarida kreditorlar yig'ilishida muayyan masalalarda belgilangan kreditorlar ovoz berish mumkinligi nazarda tutadi.

²⁰⁹ Bu haqida N.V.Lopayeva bankrotlik munosabatlarida kreditorlar fuqarolik-huquqiy munosabatlarga oid bo'lmagan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishini ta'kidlaydi. Qarang: Ўзбекистон Республикасининг "Банкротлик тўғрисида"ги Қонунига шарҳлар // Муаллифлар жамоаси: М.К.Азимов ва бошқ. –Т.:2007. –Б.31.

birgalikda kollektiv tarzda harakat qiluvchi ishtirokchi sifatida ishtirok etadi. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligi sharoitida bu farq yanada yaqqol namoyon bo'ladi, chunki mazkur sohada kreditorlar tarkibi (banklar, ta'minotchilar, davlat organlari va boshqalar) turlicha bo'lib, ularning manfaatlari o'zaro uyg'unlashtirilgan holda kreditorlar yig'ilishi (qo'mitasi) orqali amalga oshiriladi va qarzdor mulkini taqsimlash hamda faoliyatni tiklash masalalari jamoaviy qaror asosida hal etiladi.

Kreditor tushunchasiga Qonunning 3-moddasida huquqiy ta'rif berilgan bo'lib, unga ko'ra, qarzdor pul majburiyatlari hamda (yoki) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishi lozim bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxslar kreditor sifatida e'tirof etiladi²¹⁰. Biroq, qarzdor yuridik shaxsning muassislari (ta'sischilari) uning korporativ munosabatlaridan kelib chiqadigan huquq va majburiyatlar doirasida kreditor sifatida e'tirof etilmaydi, chunki bunday talablar majburiyat-huquqiy emas, balki korporativ-huquqiy tabiatga ega bo'lib, ular to'lovga qobiliyatsizlik doirasida mustaqil kreditorlik talabi sifatida qaralmaydi²¹¹. Lekin, shu o'rinda muayyan holatlarda ta'sischilar ham kreditor reyestriga sifatida faqat sud tartibida kirishmoqda va bu holat qonunchilikni takomillashtirish zaruriyatini ko'rsatadi. Xususan, jamiyat ta'sischisi (aksiyadori) jamiyatga shartnoma asosida moliyaviy yordam bergan bo'lsa, jamiyatda xodim sifatida oylik ish haqidan haqdorligi mavjud bo'lganda, amaliyotda ularni faqatgina sud tartibida kreditorlar reyestriga kiritilmoqda zero, sud boshqaruvchi tomonidan bu harakatni mustaqil amalga oshirilishini Qonunning 5-moddasidagi qoidalar istisno qilmoqda. Shu bois, mazkur moddadagi tegishli jumlaning " *shuningdek, qarzdor yuridik shaxsning muassislari*

²¹⁰ Ular O'zbekiston Respublikasi yoki chet el davlatining yuridik va jismoniy shaxslar bo'lishi mumkin.

²¹¹ Kreditorlar yig'ilishida qarzdor xodimlarining vakili, qarzdor muassislari (ishtirokchilari)ning vakili yoki qarzdor mol-mulki egasining vakili ovoz berish huquqsiz ishtirok etishga haqli hisoblanadi. Biroq, ularning yig'ilishda ishtirok etmasligi mustaqil ravishda huquqiy oqibat keltirib chiqarmaydi va kreditorlar yig'ilishi yoki kreditorlar qo'mitasi qarorini haqiqiy emas deb topish uchun yetarli asos bo'la olmaydi, chunki qaror qabul qilish jarayonida hal qiluvchi ahamiyat ovoz berish huquqiga ega kreditorlarning irodasiga tegishlidir.

(ishtirokchilari) korporativ munosabatlardan kelib chiqadigan majburiyatlar bo'yicha mustasno ;" tarzida ifodalanishi o'rinli va asosli taklif bo'lardi.

Shuningdek, to'lovga qobiliyatsizlik munosabatlarida uchinchi shaxslar ishtiroki ham muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq ayrim olimlar bankrotlik ishlarida boshqa shaxslar ishtirok etishi mumkinligini tan olgan holda, ularni "uchinchi shaxslar" sifatida e'tirof etish mumkin emasligini, bankrotlik qonunchiligida "uchinchi shaxslar" tushunchasi subyekt sifatida belgilanmaganligini ta'kidlaydilar²¹². Biroq, protsessual qonunchilik tahlili shuni ko'rsatadiki, sud ishlarini yuritishda uchinchi shaxslar instituti bo'lib, unga muvofiq, ushbu shaxslar nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talab bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar (IPKning 47-moddasi) hamda nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talab bildirmaydigan ammo qabul qilinadigan sud hujjati ularning huquq va majburiyatlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan uchinchi shaxslar (IPKning 48-moddasi) sifatida ishtirok etishi mumkin. Xususan, maxsus Qonunning o'zida ham "uchinchi shaxslar" tushunchasi qator normalarda keng qo'llaniladi. Jumladan, talablaridan uchinchi shaxslar foydasiga voz kechish (18-modda), uchinchi shaxslarga zarar yetkazilgan holatlar (23-modda), mol-mulkni saqlash uchun uchinchi shaxslarga topshirish (47, 83, 98-moddalar), uchinchi shaxsning muayyan kreditor oldidagi majburiyatlarini bajarishi (65, 125, 129-moddalar), mulkning uchinchi shaxslar tomonidan asossiz ravishda olinishi (67-modda), majburiyatlarni uchinchi shaxs tomonidan ta'minlash (79-modda), uchinchi shaxslar tomonidan sud sanatsiyasini joriy etish haqida iltimosnoma kiritish (92, 93-moddalar), uchinchi shaxslarda turgan mol-mulk (115, 144-moddalar), mol-mulkni uchinchi shaxslarga foydalanish uchun topshirish (141-modda), uchinchi shaxslarga nisbatan qarzni undirish yoki qarzdorning uchinchi shaxslar egaligida turgan mol-mulki (156-modda), uchinchi shaxslar kelishuv

²¹² Фурсов Д.А. Рассмотрение и разрешение дел банкротстве. Учебное пособие .-М.: Статут. 2009. С.34.

bitimida ishtirok etishi (161–163-moddalar), qarzdorning pul majburiyatlarini uchinchi shaxslar tomonidan bajarishi (164, 166-moddalar), shuningdek uchinchi shaxslarning huquqlari buzilgan holatlar (167-modda) kabi qator normalarda mazkur subyektlar alohida qayd etilgan. Bu holat to'lovga qobiliyatsizlik munosabatlarida kreditorlar va qarzdordan tashqari boshqa manfaatdor shaxslarning ham ishtirok etish ehtimoli yuqori ekanligini ko'rsatadi. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi sohasida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligida bunday munosabatlar yanada murakkab tus oladi. Chunki, mazkur sohada ishlab chiqarish jarayoni yer uchastkalari, agrotexnika, urug'lik, yoqilg'i-moylash materiallari, mahsulotni saqlash va qayta ishlash infratuzilmasi kabi ko'plab subyektlar ishtirokida amalga oshiriladi. Natijada, fermer xo'jaliklari, klasterlar, qayta ishlovchi korxonalar, ta'minotchi tashkilotlar yoki ijara munosabatlarida ishtirok etuvchi boshqa shaxslar ham qarzdor xo'jalikning mol-mulki yoki majburiyatlari bilan bog'liq munosabatlarga kirishgan bo'lishi mumkin. Shu sababli qishloq xo'jaligi sohasida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligi to'g'risidagi ishlarida kreditorlar yig'ilishi qarorlari faqat kreditorlar yoki qarzdorgagina emas, balki mazkur munosabatlarga daxldor bo'lgan uchinchi shaxslarning ham huquq va qonuniy manfaatlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Qonunning 38-moddasida to'lovga qobiliyatsizlikka doir ishlarda "ishda ishtirok etuvchi shaxslar"ga kiruvchi shaxslar keltirilgan bo'lib, bu Belorusiya²¹³, Tojikiston Respublikasi to'lovga qobiliyatsizlik qonunchiligida²¹⁴ biroz kengroq, ya'ni prokuror, qarzdor joylashgan joyi bo'yicha mahalliy ijro hokimiyati kabilar kiritilgan. Sud amaliyotida prokuratura organlari ²¹⁵ boshqa

²¹³ Закон Республика Беларусь "Об экономической несостоятельности (о банкротстве) [http:// www.pravo.by](http://www.pravo.by)

²¹⁴ Закон Республика Беларусь "Об экономической несостоятельности (о банкротстве) [http:// www.pravo.tj](http://www.pravo.tj)

²¹⁵ O'zbekiston Respublikasi "Bankrotlik to'g'risida"gi qonunlarda prokuror ishda ishtirok etuvchi shaxslar qatorida keltirilgan va bu turkumdagi ishlarda majburiy ishtirok etuvchi subyekt sifatida qaralar edi. "To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida"gi qonundan prokuror ishtiroki chiqarib tashlandi, kreditor manfaatida ariza kiritish vakolati bekor qilindi, faqat IPK talablari asosida sud hujjati ustidan shikoyat berish bo'yicha taraflardan ariza kiritilganda ushbu murojaat asosida protest kiritish mumkin.

sohalarda bo'lgani kabi qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligi jarayonlarida noto'g'ri tugatilgan holatlari bo'yicha davlat manfaatlarida sud hujjatiga nisbatan protest, ayrim holllarda yangi ochilgan holatlar bo'yicha ariza berishmoqda. Bu esa, sud amaliyoti bilan qonunchilikdagi nomutanosibliklarni ko'rsatadi.

Yuqorida qayd etilgan holatlarga ko'ra, fikrimizcha, sudga ariza topshirish, xususan kreditorlar yig'ilishi qarorini haqiqiy emas deb topish bo'yicha murojaat qilish huquqini cheklash oqilona emas. Zero, huquq va qonuniy manfaatlar buzilgan har qanday shaxs kreditorlar yig'ilishi qarorlarini haqiqiy emas deb topish maqsadida sudga murojaat qilish huquqi ta'minlanishi lozim. Shu bois, kreditorlar, qarzdor, uning ta'sischilari (aksiyadorlar), sud boshqaruvchi, to'lovga qobiliyatsizlik ishini sudda ko'rish jarayonida jalb qilingan uchinchi shaxslar shuningdek, huquq va majburiyatiga ta'sir qiluvchi har qanday shaxs (xatto jismoniy shaxs ham) kreditorlar yig'ilishi qarorlarini haqiqiy emas deb topish to'g'risida sudga talab qo'yish huquqi haqli sanaladi. O'ylanmanki, bu yondashuv zamonaviy fuqarolik-huquqiy prinsiplar va huquqiy nazariyalar talablariga mos keladi hamda to'lovga qobiliyatsizlik munosabatlarida ishtirok etuvchi subyektlarning huquqlarini keng himoya qilishni ta'minlaydi.

Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizlik jarayonida qarzdorning huquqlarini ta'minlash, kreditorlar o'rtasida adolatli muvozanatni saqlash va bu jarayonlarni bevosita sud nazorati ostida olib borishning fuqarolik-huquqiy himoya mexanizmlaridan biri sifatida kreditorlar yig'ilishi qarorini haqiqiy emas deb topish instituti muhim hisoblanadi. Ushbu institut orqali to'lovga qobiliyatsizlik ishida ishtirok etuvchi shaxslar qonun talablariga zid ravishda qabul qilingan qarorlarni sud tartibida qayta ko'rib chiqish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bunda kreditorlar yig'ilishi qarorini haqiqiy emas deb topishning huquqiy asoslarini aniqlash alohida ahamiyatga

ega, chunki aynan shu asoslar orqali sud tomonidan qabul qilingan qarorning qonuniyligi va asosliliği baholanadi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur institutning samarali amal qilishi ko'p jihatdan haqiqiy emas deb topish asoslarining aniq va izchil belgilab qo'yilganligiga bog'liq.

Huquqiy adabiyotlarda kreditorlar yig'ilishi qarorini haqiqiy emas deb topish asoslari va ularning huquqiy tabiati masalasida turlicha yondashuvlar mavjud. Ayrim olimlar bunday asoslarni, avvalo, qaror qabul qilish tartibining buzilishi bilan bog'liq protsessual kamchiliklar sifatida talqin qiladilar²¹⁶. Boshqa tadqiqotchilar esa mazkur institutni moddiy-huquqiy himoya vositasi sifatida baholab, qarorning mazmuni huquqiy munosabatlari ishtirokchilari huquq va qonuniy manfaatlariga zid bo'lgan holatlarni asosiy mezon sifatida ko'rsatadilar²¹⁷. Bu borada qonunchiligimizda ham bir qator mezonalar, asoslar ko'rsatilgan bo'lib, Qonunning 17-moddasiga ko'ra, kreditorlar yig'ilishi qarorining haqiqiy emas deb topishning asoslari sifatida ushbu qaror qabul qilish jarayonida ushbu qonun va boshqa qonun hujjatlari talablari buzilganligi hamda kreditorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzadigan qaror qabul qilinganligi (17-moddaning beshinchi qismi) hamda to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzishi (17-moddaning oltinchi qismi) nazarda tutiladi. Huquqshunos olim V.F. Popondopulo, kreditorlar yig'ilishining qarorini haqiqiy emas deb topishda qonunchilikda belgilangan asoslar to'liq va aniq ifodalanishi lozimligini, bu esa sudlarga qarorlarni subyektiv talqiniga asoslanmay qonuniy va adolatli baholash imkonini berishini shuningdek, asosiy mezonlar sifatida qaror haqida talab qo'yayotgan shaxsning qonuniy huquq va manfaatlarini buzilganligi, yig'ilishning o'z vakolati doirasiga kirmaydigan masala

²¹⁶ Соколова Н. В. Недействительные сделки в процедурах несостоятельности (банкротства) : дис. ... канд. юрид. наук : 12.00.03. – М., 2006. – 180 с.

²¹⁷ Гутников О. В. Недействительные сделки в гражданском праве: Теория и практика оспаривания. – М. : Бератор-Пресс, 2003. 576 с.; Шухарева А.В. Институт недействительности решений собраний: общетеоретический аспект // Алтайский юридический вестник. 2016 № 1 (13). С.127-129.

yuzasidan qaror qabul qilishi hamda ishtirokchilarning xabardor qilinmagan yoki tegishli tarzda xabardor qilinmaganligini ta’kidlaydi²¹⁸. Ayrim huquqshunoslar kreditorlar yig’ilishi qarorini haqiqiy emas deb topishga doir ishlarda arizachi tomonidan ikki holatdan kamida biri ya’ni huquqlar va qonuniy manfaatlarining buzilganligi yoki kreditorlar yig’ilishining vakolat doirasi buzilganligi isbotlanishi lozimligini bildiradi²¹⁹.

Fikrimizcha, qonunchiligiimizda belgilangan asoslar amaliyotda kreditorlar yig’ilishining qarorini qonuniyligiga huquqiy baho berishda har doim to’liq va qoniqarli huquqiy yechim bermaydi. Bu asoslar faqat umumiy prinsiplarni belgilaydi, lekin qarorning mazmuni, uni qabul qilish tartibi va ishtirokchilar huquqlariga ta’siri jihatidan har bir holatda sud alohida tahlil va huquqiy baho berishga majbur bo’ladi. Kreditorlar yig’ilishining qarorini haqiqiy emas deb topilishida sudlar Qonunda belgilangan protsessual tartibga rioya qilinmaganligi, ya’ni kreditorlar yig’ilishini chaqirish tartibi qonunga muvofiq bo’lmagan bo’lsa; kvorum talablari ta’minlanmagan holda qaror qabul qilinsa; ishtirokchilar to’g’ri xabardor qilinmagan bo’lsa; ovoz berish tartibi va huquqlari buzilgan bo’lsa; bayonnoma rasmiylashtirilmagan yoki soxtalashtirilgan bo’lsa; vakolatiga kirmaydigan masalani hal etgan bo’lsa kabilarni o’rganishlari lozim. Shuningdek, moddiy-huquqiy (mazmunga oid) asoslarini ya’ni qaror mazmuni ishda ishtirok etuvchi ishtirokchi shaxslar, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar, uchiinchi shaxslarning huquqlariga va qonuniy manfaatlariga zid bo’lsa; qaror ayrim kreditorlarga asossiz imtiyoz berilishi yoki boshqa kreditorlarning manfaatlari cheklanishiga, manfaatlar to’qnashuviga yo’l qo’ysa; kreditorlar o’rtasida tenglik va adolatli muvozanat tamoyili buzilsa; qishloq xo’jaligi sohasida davlat tomonidan beriladigan

²¹⁸ Попондопуло В.Ф. (ред.) Комментарий к Федеральному закону «О несостоятельности (банкротстве)». М.: Проспект, 2016. 1197 с.

²¹⁹ Илистинова М.Х., Одинцов С.В. Особенности оспаривания решений собрания кредиторов // ИМУЩЕСТВЕННЫЕ ОТНОШЕНИЯ В РФ. № 9 (192) 2017. С. 38-41.

subsidiyalar va imtiyozli kreditlardan noto'g'ri foydalanish holatlariga yo'l qo'yilgan bo'lsa kabi holatlar inobatga olish kerak.

Qolaversa, Qonun 17-moddasining beshinchi qismi kreditorlar yig'ilishiga nisbatan shikoyat berish huquqini "ovoz berishda ishtirok etmagan" yoki "qarshi ovoz bergan" kreditorga berilib²²⁰, aslida yig'ilishda qatnashgan biroq "betaraf qolgan", "qatnashmagan, xabardor qilinmagan", "ovoz berish huquqsiz ishtirok etuvchi" kreditorlar huquqlari e'tibordan chetda qolgan. Ushbu normadagi "boshqa qonun hujjatlari talablari buzilgan" tushunchasiga tushuntirish berilmagan va sud amaliyotida tushuncha keng talqin etilmoqda ya'ni har qanday huquqiy tartib talabining buzilishi qarorni haqiqiy emas deb topish uchun asos bo'lishi mumkinligi e'tibordan chetda qoladi. Vaholanki, Qonuning 38-moddasi belgilangan "ishda ishtirok etuvchi shaxslar" qatorida bo'lgan sud boshqaruvchisi, vakolatli davlat organi, qarzdorning majburiyatlari bo'yicha ta'minot bergan shaxslarning shikoyat qilish huquqlari e'tibordan chetda qolgan²²¹. Yana bir muhim jihat, kreditorlar yig'ilish qarori bo'yicha shikoyat qilish Qonunda maxsus muddat 20 kun etib belgilangan bo'lib, ushbu norma "ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar" uchun belgilangan, lekin ishda ishtirok etuvchi shaxslar uchun shikoyat berish muddati qancha vaqtni tashkil etish masalasi aniq belgilanmagan²²². Ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar uchun belgilangan muddat "qaror haqida bilgan yoki bilishi kerak bo'lgan kundan" boshlab hisoblanishi, biroq ushbu muddat qat'iyligi yoki protsessual muddatni tiklash masalasi nazarda nazarda

²²⁰ Korporativ qonunchilikda qo'llaniladigan "ovoz berishda ishtirok etmagan yoki ushbu qarorga qarshi ovoz bergan ishtirokchi" mezonini kreditorlar yig'ilishi qarorlarini haqiqiy emas deb topishga doir munosabatlarga mexanik tarzda ko'chirish to'g'ri emas. Zero, mazkur munosabatlar o'zining huquqiy tabiati, ishtirokchilar tarkibi va manfaatlar muvozanati bilan korporativ munosabatlardan sezilarli darajada farq qiladi. Korporativ munosabatlarda qaror qabul qilish asosan yuridik shaxs ishtirokchilarining ichki boshqaruviga oid bo'lsa, to'lovga qobiliyatsizlikda kreditorlar yig'ilishi qarori keng ya'ni kreditorlar, qarzdor, sud boshqaruvchisi va boshqa ishtirokchilar doirasini qamrab oladi. Ovoz berish huquqi ishtirokchilarning korporativ ulushiga emas, balki ularning talablari miqdoriga bog'liq bo'ladi..

²²¹ Iqtisodiy sudlar amaliyotida sud boshqaruvchilarning arizalari asosida kreditorlar yig'ilishi qarorini haqiqiy emas deb topishga doir ishlar ko'rib chiqilmoqda.

²²² Vaholanki, Germaniya qonunchiligi ikki hafta (14 kun), AQShda "reasonable time" (oqilona muddat), federal sud pretsedentlariga ko'ra 10–30 kun, Rossiyada 20 kun ichida, ammo har qanday holatda ham kreditorlar yig'ilishi qarori qabul qilingan sanadan boshlab olti oydan kechiktirmasdan shikoyat qilish huquqi belgilangan.

tutilmagan. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi sohasidagi tadbirkorlik subyektlariga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik ishlari bo'yicha shikoyat berish muddatini sohaviy xususiyatlarini inobatga olib, belgilash maqsadga muvofiq.

Yuqorida qayd etilgan holatlarni umumlashtirgan hamda ularning huquqiy asoslarini tizimli tarzda tartibga solish maqsadida qonunchilikni takomillashtirish zarur. Xususan, amaldagi Qonunning 17-moddasini qo'shimcha ravishda 17¹-modda bilan to'ldirish, ya'ni alohida "Kreditorlar yig'ilishi qarorini haqiqiy emas deb topish asoslari va tartibi"ni nazarda tutuvchi normani kiritish taklif etiladi²²³. Bu esa kreditorlar yig'ilishi qarorlarini baholashda huquqiy aniqlikni ta'minlash, sud amaliyotidagi turlicha yondashuvlarni bartaraf etish hamda bankrotlik jarayoni ishtirokchilarining huquq va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilishga xizmat qiladi.

Darhaqiqat, kreditorlar yig'ilishi qarorlarini haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi talablar to'lovga qobiliyatsizlik ishi doirasida ko'rib chiqilishi kerakmi yoki alohida da'vo tartibida yuritilishi lozimmi, degan masala yuzasidan milliy qonunchiligimizda aniq va batafsil tushuntirishlar mavjud emas, shu bilan birga bu borada ham yagona yondashuv mavjud emas. Biroq, yurtimizdagi sud amaliyotida kreditorlar yig'ilishi qarori to'lovga qobiliyatsizlik jarayonining "ichki protsessual harakati" sifatida baholanib, uning haqiqiyligini tekshirish va baholash vakolati faqat bankrotlik ishini yurituvchi sudga tegishli, degan yondashuv shakllandi. Mazkur amaliyot, muayyan ma'noda, milliy huquq tizimida to'lovga qobiliyatsizlik ishlarini ko'rishda protsessual yondashuv ustuvor bo'lgan ilmiy-amaliy qarashlarning shakllanishiga olib kelganini ko'rsatadi. Chunki, kreditorlar yig'ilishi qarorlari to'lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarining tarkibiy qismi sifatida qaraladi va ularni baholash ham mazkur ish yurituv doirasida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

²²³ Tadqiqot ishiga ilova qilinadi.

Shu bilan birga, bu borada xorijiy davlatlar amaliyoti ham bir xil emasligini qayd etish lozim. Xususan, ayrim huquqiy tizimlarda kreditorlar yig'ilishi qarorlarini haqiqiy emas deb topish masalasi to'lovga qobiliyatsizlik ishi doirasida ko'rib chiqiladi (masalan, Rossiya Federatsiyasi va AQSH huquqiy amaliyotida). Boshqa ayrim davlatlar sud amaliyotida esa bunday nizolar alohida da'vo tartibida ko'rib chiqilishi mumkin (masalan, Belarus Respublikasida). Bu esa mazkur institutni huquqiy tartibga solishda turli konseptual yondashuvlar mavjudligini ko'rsatadi.

Sud amaliyotida kreditorlar yig'ilishi qarorini to'lovga qobiliyatsizlik ishi doirasidagi sud tomonidan ko'rib chiqish har doim ham to'g'ri hisoblanmaydi. Chunki kreditorlar yig'ilishi qaroriga nisbatan haqiqiy emas deb topish talablari to'lovga qobiliyatsizlik masalasini muhokama qilishning davomi sifatida ko'rilmaydi, balki u boshqa turkumga mansub, nomulkiy xususiyatga ega bo'lgan mustaqil nizo sifatida baholanadi. Bu nuqtayi nazardan, kreditorlar yig'ilishi qarorini baholash jarayoni alohida da'vo tartibida yuritilishi qonuniy jihatdan maqbuldir, chunki qarorning huquqiy oqibatlari ko'pincha alohida nizolarni yuzaga keltirishi va turli subyektlarning huquq va manfaatlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ayniqsa, sud amaliyotida ayrim holatlarda ishda ishtirok etmagan yoki sud tomonidan jalb qilinmagan shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlariga bevosita ta'sir qiluvchi vaziyatlar uchrab turadi. Bunday holatlarda kreditorlar yig'ilishi qarori ushbu shaxslarning mulkiy manfaatlari yoki majburiyatlariga bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin. Agar bunday shaxslar tomonidan qarorga nisbatan e'tiroz bildirilsa, uning huquqiy ta'sirini faqat to'lovga qobiliyatsizlik ishi doirasidagi ichki protsessual baholash orqali hal qilish samarali bo'lmaydi. Bunday vaziyatlar ayniqsa, qishloq xo'jaligi sohasidagi tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligi bilan bog'liq ishlarida ko'proq kuzatiladi. Chunki, mazkur sohada qarzdorning faoliyati ko'p hollarda

texnikalar, agrotexnika vositalari va ular bilan bog'liq boshqa mulkiy obyektlardan foydalanish bilan bog'liq bo'lib, bu obyektlar ayrim hollarda uchinchi shaxslarga tegishli bo'lishi yoki ularning egaligida saqlanishi mumkin. Natijada kreditorlar yig'ilishi qarorlarining mulkiy ta'siri doirasi kengayib, ishda ishtirok etmagan boshqa shaxslarning manfaatlari bilan ham bog'lanib ketadi. Shu bois, kreditorlar yig'ilishi qarorini haqiqiy emas deb topishga doir nizolarni alohida da'vo tartibida ko'rib chiqish huquqiy jihatdan ustuvordir. Bunday yondashuv har bir shaxsga o'z huquq va qonuniy manfaatlarini mustaqil ravishda himoya qilish imkonini beradi. Ya'ni, ishda ishtirok etmagan shaxslar ham mustaqil huquq subyekti sifatida qaralib, ular o'z huquqlari va manfaatlari buzilganini sudda isbotlash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Fikrimizcha, kreditorlar yig'ilishi qarorini haqiqiy emas deb topishga oid nizolarni alohida da'vo tartibida ko'rib chiqish huquqiy jihatdan maqbul hisoblanadi. Bu mexanizm orqali sud barcha manfaatdor shaxslarning e'tiroz va dalillarini har tomonlama baholay oladi. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi sohasida texnikalar va agrotexnika vositalari bilan bog'liq mulkiy munosabatlarning mavjudligi bu institutning ahamiyatini yanada oshiradi, chunki bunday obyektlarning huquqiy maqomi va egalik tartibi ko'p hollarda ishda ishtirok etmagan uchinchi shaxslar manfaatlari bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Shu tariqa, alohida da'vo tartibida qarorni ko'rish orqali to'lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarida ishtirok etuvchi barcha subyektlarning huquq va qonuniy manfaatlari muvozanatli himoya qilinadi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur masalani sud amaliyotida yagona yondashuv asosida hal etish maqsadida uni Oliy sud Plenumi qarori orqali aniq belgilash va tegishli protsessual tartibni mustahkamlash taklif etiladi. Bu esa kreditorlar yig'ilishi qarorlarini baholashdagi huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etish va huquqni qo'llash amaliyotini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Darhaqiqat, qishloq xo'jaligi sohasida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarida kreditorlar yig'ilishi qarori sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi fuqarolik-huquqiy himoyani ta'minlashning o'ziga xos va samarali mexanizmlaridan biri sifatida ahamiyat kasb etadi. Ilmiy adabiyotlarda²²⁴ va sud amaliyotda korporativ yig'ilish qarorlari bilan kreditorlar yig'ilishi qarorlarini haqiqiy emas deb topish institutlari umumiy huquqiy prinsiplarga ega bo'lsa-da, qo'llanish doirasi, maqsadi va huquqiy oqibatlari jihatidan farq qiladi.

To'lovga qobiliyatsizlik jarayonida kreditorlar yig'ilishi qarori haqiqiy emas deb topilganda, u qabul qilingan kundan boshlab qaror asosida amalga oshirilgan barcha protsessual harakatlar yuridik jihatdan bekor qilinadi²²⁵, bu esa qarzdorning qishloq xo'jaligi aktivlari taqsimoti va moliyaviy majburiyatlarini qayta baholashni zarur qiladi. Masalan, qaror asosida yer maydoni va texnika bilan bog'liq qimmatli faoliyatni tarqatish yoki qarzdorning mol-mulkini sotish kabi harakatlar qayta ko'rib chiqilishi yoki bekor qilinishi mumkin. Shu bilan birga, qarorni haqiqiy emas deb topish to'lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarining keyingi bosqichlariga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi²²⁶. Masalan, agar qaror asosida fermer korxonasi mol-mulkini sotish ya'ni tugatish tartib-taomili belgilangan yoki tugatish boshqaruvchisi tayinlangan bo'lsa, qaror haqiqiy emas deb topilganidan so'ng bu masalalar qaytadan ko'rib chiqilishi va zarur hollarda kreditorlar yig'ilishi qayta chaqirilishi lozim bo'ladi. Agarda ariza talabi qisman qanoatlantirilganda qarorning faqat ayrim bandi yoki qismlari yuridik kuchini yo'qotishiga olib

²²⁴ Береснева И.Д., Баркова Е.Н. Особенности оспаривания решений собрания кредиторов в процедуре банкротства // [Интернаука](#). 2019. №20-3 (102). с.6-7.; Юлова Е.С. Современные проблемы правового регулирования корпоративного управления в процедурах банкротства // [Либерально-демократические ценности](#). 2021.№1. С.109-117.²²⁵ Пологутин К.С., Шепель Т.В. Проблемы правовой регламентации последствий признания решения собрания недействительным // Юридическая наука и практика. 2018.№14(1). С.34-39.

²²⁵ Пологутин К.С., Шепель Т.В. Проблемы правовой регламентации последствий признания решения собрания недействительным // Юридическая наука и практика. 2018.№14(1). С.34-39.

²²⁶ Журавлева А.А. Правовые последствия признания недействительным решения собрания участников хозяйственного общества // Законодательство. 2015. №2. С.34-37.

keladi. Qolgan bandi va qismlar esa o'z kuchini saqlaydi, natijada huquqiy munosabatlar faqat bekor qilingan qismga muvofiq tartibga solinadi.

Amaldagi Qonunda kreditorlar yig'ilishi qarorining sud tomonidan haqiqiy emas deb topil ishining oqibatlari va uni qo'llash, shuningdek, qarorini qayta ko'rib chiqish masalasi belgilanmagan²²⁷. Shu bois, sudlar qaror haqiqiy emasligini o'z tashabbuslari bilan qo'o'lay olmaydi, shu bilan birga ariza talabida oqibatlarini qo'llash so'ralganda ham bu talab rad etilishi lozim. Zero, kreditorlar yig'ilishining qarorini haqiqiy emas deb topish oqibatlari, ya'ni qaror asosida amalga oshirilgan harakatlar va moddiy munosabatlar, odatda alohida da'vo tartibida hal qilinishi maqsadga muvofiq. Chunki, sud qarorni haqiqiy emas deb topishi faqat qarorning qonuniyligini bekor qiladi, lekin qaror asosida amalga oshirilgan to'lovlar, aktivlar taqsimoti yoki uchinchi shaxslar huquqiga ta'sir etgan harakatlar ham inobatga olinsa, ularni qaytarish yoki bekor qilish uchun alohida da'vo qo'zg'atilishi lozim bo'ladi. Bunday mexanizmni sudlarga tushuntirish Plenum qarori asosida amalga oshirilishi zarur, deb hisoblagan holda tegishli qo'shimchalar kiritish taklif etiladi. Bu esa qarzdor, kreditor va uchinchi shaxslar huquqlarini adolatli va teng tarzda himoya qilish hamda qishloq xo'jaligi sohasida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligi jarayonida sud nazoratining samarali va qonuniy amalga oshirilishini kafolatlaydi.

2.3-§. Qarzdor tomonidan tuzilgan bitimlarni haqiqiy emas deb topishning sivilistik mazmuni va uning huquqiy oqibatlari

Qishloq xo'jaligi sohasida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizlik jarayonida qarzdor tomonidan tuzilgan bitimlarni haqiqiy emas deb topish instituti nafaqat kreditorlar uchun, balki qarzdor

²²⁷ Rossiya qonunchiligida ham qarzdorga nisbatan kreditorlar yig'ilishining qarorini qayta ko'rib chiqish masalasi belgilanmagan // Агеев А.Б. Банкротство: особенности процедуры внешнего управления // Юридический мир. – 2000. -№ 5. – С. 18-24.

uchun ham nizoli bitimlar tufayli buzilgan huquqlarni tiklashga qaratilgan fuqarolik-huquqiy himoyaning muhim va samarali choralaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Binobarin, huquqni qo'llash amaliyoti tahlillari shuni ko'rsatmoqdaki²²⁸, taraflar xo'jalik yurituvchi subyektlar shartnomaviy munosabatlarda o'z huquqlarini himoya qilishda ko'proq bitimlarni haqiqiy emas deb topish fuqarolik-huquqiy himoya usuliga tayangan holda sudlarga da'vo arizalari bilan murojaat qilishni afzal bilishmoqda. Bu esa mazkur institutning fuqarolik huquqi tizimida buzilgan huquqlarni tiklash, manfaatlariga yetkazilgan zararlarni qoplash, shu bilan birga to'lovga qobiliyatsizlik jarayonida adolatli mulkiy muvozanatni ta'minlashda samarali, zamonaviy va ilmiy asoslangan huquqiy mexanizm ekanligidan dalolat beradi.

To'lovga qobiliyatsizlik jarayonida qarzdor tomonidan tuzilgan bitimlarni haqiqiy emas deb topish masalasi fuqarolik qonunchiligida belgilangan umumiy qoidalar orqali asoslansa ham, ushbu bitimlardan kelib chiqqan huquqiy munosabatlar to'lovga qobiliyatsizlik sharoitiga xos o'zgacha xususiyatlarni ko'rsatadi²²⁹. Bu xususiyatlar, avvalo, qarzdorning maqsadli harakatlari, kreditorlar manfaatlariga zarar yetkazish ehtimoli va aktivlarni chiqarib yuborish motivi kabi omillar bilan bog'liq bo'lib, ular huquqiy baholashda alohida yondashuvni talab qiladi.

Darhaqiqat, to'lovga qobiliyatsizlik taomillarida qarzdor tomonidan tuzilgan bitimlarni haqiqiy emas deb topish masalasini atroflicha tahlil qilish uchun, avvalo, fuqarolik huquqida bitimning haqiqiyligiga qo'yilgan umumiy talablarni ilmiy jihatdan tahlil qilish zarur. Chunki, to'lovga qobiliyatsizlik munosabatlarida bitimlarni baholash masalasi eng avvalo, fuqarolik huquqida shakllangan umumiy nazariy qoidalar va huquqiy mezonlarga tayanadi. Shu

²²⁸ Iqtisodiy sudlarga taraflar tomonidan bitimlarni haqiqiy emas deb topishga doir nizolar bo'yicha 2023-yilda 801 ta, 2024-yilda 576 ta, 2025-yilda 539 ta da'vo arizalari kelib tushgan.

²²⁹ Xudaybergenov B.B. Bankrotlik to'g'risidagi ishda bitimlarni haqiqiy emas deb topishning o'ziga xosligi // "O'zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar" mavzusidagi Respublika 21-ko'p tarmoqli ilmiy konferensiya materiallari. http://doi.org/10.26739/online_21. №21. 2020 yil 31-oktyabr. www.tadqiqot.uz. – B. 22-25.

nuqtayi nazardan, akademik H.Rahmonqulov fuqarolik qonunchiligi bitimning haqiqiy bo'lish-bo'lmasligi uning tuzilishi uchun sabab bo'lgan asoslariga bog'liq²³⁰ deb hisoblaydi va professor I.Zokirov esa bitimni haqiqiy deb sanalishi uchun bir qator shartlarni belgilaydi ²³¹ .

Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlari tomonidan tuzilgan bitimlarni haqiqiy emas deb topish institutini shartnomani bekor qilish institutidan aniq farqlash ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, mazkur ikki huquqiy mexanizm tashqi ko'rinishdan o'xshash huquqiy natijaga muayyan shartnoma munosabatlarining tugashiga olib kelsa-da, ularning huquqiy tabiati, qo'llanilish maqsadi hamda yuzaga keltiruvchi oqibatlari jihatidan sezilarli darajada farq qiladi²³². Ko'plab huquqshunos olimlar mazkur tushunchalarni nazariy jihatdan farqlash zarurligini ta'kidlasalar-da, bankrotlik munosabatlari doirasida ular amalda bir xil huquqiy natijaga olib kelishini qayd etadilar²³³. Jumladan, Ye.A.Suxanovning ta'kidlashicha, bitim haqiqiy emas deb topilganda boshidanoq yuridik oqibatlarni yuzaga keltirmaydigan harakat sifatida baholanadi²³⁴, bekor qilingan bitim esa dastlab haqiqiy bo'lgan, biroq keyinchalik sud qarori bilan o'z yuridik kuchini yo'qotgan bitim sifatida qaraladi. Demak, mazkur ikki tushuncha o'rtasidagi farq, asosan, ularning yuridik kuchga ega bo'lish vaqti va huquqiy oqibatlarning yuzaga kelish xususiyati bilan bog'lashadi.

Binobarin, bitimlarni haqiqiy emas deb topish instituti bitimning tuzilgan paytda huquqiy talablarga muvofiqligi va qonuniyligini baholashga qaratilgan maxsus mexanizm hisoblanadi. Ushbu institutning asosiy xususiyatlari

²³⁰ Раҳмонқулов Ҳ. Битимлар. Ўқув қўлланма. –Т.: ТДЮИ нашриёти, 2010. –Б.31-32.

²³¹ Зокиров И.Б. Ўзбекистон Республикасининг фуқаролик ҳуқуқи. Тошкент. “Адолат”, 1996. –Б.108.

²³² Bitimlarni bekor qilish instituti bitim tuzilgan paytdan emas faqat kelgusidagi huquq va majburiyatlarga ta'sir qiladi, qonunda yoki shartnomadagi bekor qilish asoslari yuzaga kelishi kerak, bekor qilish talabini shartnoma amal qilish muddati mobaynida bildirish mumkin.

²³³ Витрянский В.В. Проблемы арбитражно-судебной защиты гражданских прав участников имущественного оборота. Автореферат дисс... д.ю.н. -М., 1996. - С.23.; Витрянский В.В. Недействительность сделок в арбитражно-судебной практике /Гражданский кодекс России.Проблемы.Теория.Практика /-М.,1998. - С.140.

²³⁴ Суханов Е.А. Гражданское право: Учебник. Т. I : Общая часть/ отв. ред. Е. А. Суханов. – 2-е изд., перераб. и доп. - Москва: Статут, 2019. С. 412–413.

shundaki, bitim boshidan yuridik kuchsiz harakat sifatida e'tirof etiladi, uning haqiqiy emasligi har qanday manfaatdor shaxs tomonidan talab qilinish imkoniyatiga ega va talablar amal qilish davri tugagan (bekor bo'lgan) bitimlarga nisbatan ham qo'llanilishi mumkin. Haqiqiy emas deb topishning oqibatlari bitimni huquqiy muomaladan chiqarish va u bilan bog'liq moliyaviy mablag'lar hamda mulklarni qaytarish orqali amalga oshiriladi. Ya'ni bitim tuzilgan paytdan boshlab amal qila olmaydi, va uning yuridik oqibatlari hamda kreditor va qarzdor huquqlari tiklanadi.

Huquqshunos olim I.B. Zokirov ta'kidlaganidek²³⁵, bitim haqiqiy hisoblanishi uchun uning mazmuni qonunchilik hujjatlari va umumiy huquqiy tamoyillarga zid bo'lmasligi, uni tuzuvchi shaxslar zarur muomala layoqatiga ega bo'lishi, shuningdek, bitim tashqi ko'rinish uchun emas, balki muayyan yuridik oqibatlarni vujudga keltirish maqsadida tuzilgan bo'lishi lozim. Mazkur shartlar fuqarolik-huquqiy bitimning haqiqiylikini belgilaydigan fundamental mezonlar hisoblanadi. Shu bilan birga, professor H. Rahmonqulov ham bitimning qonuniyligi uning muhim va ajralmas belgisi ekanligini alohida ta'kidlaydi²³⁶. Olimning fikricha, har qanday fuqarolik-huquqiy bitim qonunga muvofiq ravishda amalga oshirilgan harakat sifatida faraz qilinadi va aynan shu jihat uning huquqiy tabiatini belgilaydi. Demak, qonun talablariga javob bermaydigan, huquqiy tartibni buzgan yoki huquqiy oqibatlarni qonuniy tarzda vujudga keltirishga qaratilmagan bitimlar haqiqiy emas deb topilishi tabiiydir. Zero, qonuniy bitimlar yuridik fakt sifatida fuqarolik huquq va burchlarini vujudga keltiradigan, o'zgartiradigan yoki bekor qiladigan muhim huquqiy asos hisoblanadi (FKning 101-moddasi). Bunday bitimlar, avvalo, ularni amalga oshirayotgan subyektlarning huquqiy maqomi va vakolatlariga mos kelishi,

²³⁵ Зокиров И.Б. Фуқаролик ҳуқуқи: Дарслик. I қисм. Масъул муҳаррир: Ҳ.Раҳмонқулов: Қайта ишланган ва тўлдирилган бешинчи нашр. -Т.: ТДҶОИ нашриёти, 2009. - 318 б.

²³⁶ Раҳмонқулов Ҳ. Битимлар // Ўқув қўлланма. – Т.: ТДҶОИ нашриёти. 2009. - 18 б.

shuningdek, uchinchi shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini buzmasligi kabi talablarga javob berishi lozim.

Biroq, huquqni qo'llash amaliyoti tahlillari shuni ko'rsatadiki, to'lovga qobiliyatsizlik holatiga tushgan qishloq xo'jaligi tadbirkorlik subyektlari tomonidan fuqarolik va to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan talablarga mos kelmaydigan bitimlarni tuzish holatlari amaliyotda tez-tez uchrab turadi. Amaliyotda bunday bitimlar, odatda, qarzdorning mavjud mulkiy aktivlarini saqlab qolish, ayrim kreditorlarga asossiz ustunlik berish yoki mol-mulkni uchinchi shaxslar ixtiyoriga o'tkazish orqali umumiy kreditorlar manfaatlariga zarar yetkazishga qaratilgan harakatlar bilan bog'liq bo'ladi. Natijada bunday bitimlar kreditorlar talablarining qondirilishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi hamda qarzdorning mulkiy massasini sun'iy ravishda kamayishiga olib kelishi mumkin. Shu bois, qishloq xo'jaligidagi tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligi sharoitida qarzdor tuzgan bitimlarni haqiqiy emas deb topish institutini bir qator o'ziga xos xususiyatlari ya'ni bunday bitimning huquqiy maqsadi va mazmuni, ishtirokchi subyektning huquqiy maqomi, nizolashishning protsessual tartibi kabi jihatlarini hisobga olgan holda kompleks tarzda tahlil qilinishi lozim.

Darhaqiqat, bitimlarning mazmuni va haqiqiy emas deb topishning huquqiy asoslaridagi o'ziga xoslikka alohida e'tibor qaratish zarur bo'ladi. To'lovga qobiliyatsizlik munosabatlarida haqiqiy emas deb topiladigan bitimlar fuqarolik huquqidagi umumiy bitimlardan o'zining maxsus huquqiy tabiati bilan farq qiladi. Ushbu maxsuslik, avvalo, bitimning tuzilgan vaqti va subyekti bilan bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. Xususan, mazkur kategoriyaga to'lovga qobiliyatsizlikdan oldin qarzdor tomonidan tuzilgan bitimlar, shuningdek, tartib-taomillar davrida, sud boshqaruvchisi ishtirokida amalga oshirilgan bitimlar kiradi. To'lovga qobiliyatsizlikdan oldin tuzilgan bitimlarni baholashda ularning kreditorlar manfaatlariga ta'siri, xususan, aktivlarni kamaytirish yoki

ayrim kreditorlarga imtiyoz berish holatlari ustuvor ahamiyat kasb etsa, tartib-taomillar davrida tuzilgan bitimlarda esa asosiy e'tibor vakolat doirasiga rioya etilishi va qonunchilikda belgilangan tartibning buzilgan-buzilmaganligiga qaratiladi.

Boshqacha aytganda, mazkur toifadagi nizolarning obyektini sifatida bitimlar oddiy fuqarolik-huquqiy bitimlardan farqli ravishda, ularning iqtisodiy mazmuni, tuzilish vaqti va ishtirok etuvchi subyektlar doirasi bilan belgilanadi. Shu jihat, o'z navbatida, ularni haqiqiy emas deb topishning huquqiy asoslarida ham o'ziga xos yondashuvni taqozo etadi.

Fuqarolik huquqida bitimni haqiqiy emas deb topish asoslari, odatda, umumiy qoidalariga asoslanilsa, to'lovga qobiliyatsizlik munosabatlarida esa mazkur yondashuvni o'zi yetarli emas. Chunki, qarzdor tuzgan bitimlarni haqiqiy emas deb topish institutida FKda nazarda tutilgan umumiy asoslar bilan bir qatorda Qonunning 63–66-moddalari, 120-moddasining ikkinchi qismi hamda 140-moddasining yettinchi qismida belgilangan maxsus asoslar ham qo'llaniladi. Bunda asosiy e'tibor bitimning formal qonuniyligiga emas, balki asosiy e'tibor uning qarzdor, kreditorlar va boshqa manfaatdor shaxslar manfaatlariga ko'rsatgan ta'siri, iqtisodiy natijalari va adolatli taqsimot tamoyiliga zidligiga qaratiladi. Ya'ni, qarzdor tuzgan bitimni haqiqiy emas deb topishdan ko'zlangan asosiy maqsad qarzdorning mulkiy massasini asossiz kamaytirishga yoki ayrim kreditorlarga ustunlik berishga qaratilgan harakatlarni bartaraf etishdan iborat bo'ladi.

Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligi jarayonida bitimlarni haqiqiy emas deb topishning asoslarini to'g'ri va aniq belgilash, ularni huquqiy jihatdan asoslab berish muhim ahamiyatga ega. Huquqiy adabiyotlarda qarzdor tuzgan bitimlarni haqiqiy emas deb topishning asoslari va shartlari borasida turlicha yondashuvlar mavjud²³⁷. M.A.Vikut

²³⁷ Соколова Н. В. Недействительные сделки в процедурах несостоятельности (банкротства): дис. ... канд.

fikriga ko'ra, da'vogar da'vo talabida huquqiy asosni alohida ko'rsatish shart emas, da'vo uchun asosiy narsa yuridik faktlar bo'lib, bu faktlarga huquqiy baho berilishi sud majburiyati sanaladi²³⁸. Bunga qarama qarshi fikrlar bildirgan olimlar da'vogar bitimlar bilan bog'liq nizolarda arizadagi huquqiy talablarni har qanday holatda ham asoslari muhimligini ta'kidlaydi²³⁹. G.L.Osokina esa bitimni haqiqiy emas deb topishda da'vo asosini ikki turga ya'ni faktik va huquqiy asoslarga ajratadi²⁴⁰. Bu ikki asosning bir vaqtda bo'lishi muhimdir. Professor E.Egamberdiyev o'rinli ta'kidlaganlaridek²⁴¹, nizolarida da'vo talablarini asoslari va shartlari muhim elementlari sanalib, bu isbotlash bilan uzviy bog'liqdir. Nazarimizda, to'lovga qobiliyatsizlik jarayonida qarzdor tuzgan bitimlarni haqiqiy emas deb topishda asoslar qonunchilikda belgilangan huquqiy holatlarda, shartlar esa ushbu asoslarni tasdiqlovchi va sud tomonidan baholanadigan faktik holatlar sifatida namoyon bo'ladi.

Shu bois, bitimni haqiqiy emas deb topishning asoslari deganda, qonunchilikda belgilangan va mavjudligi aniqlanganda muayyan bitimni haqiqiy emas deb topishga olib keladigan huquqiy holatlar tushunish mumkin. Bularga, masalan, qarzdor tomonidan mol-mulkni bozor qiymatidan past narxlarda tasarruf etish, mulkni tekinga berish, ayrim kreditorlarga nisbatan asossiz afzallik yaratish yoki kreditorlar manfaatlariga zarar yetkazuvchi boshqa harakatlar kiradi. Bitimni haqiqiy emas deb topishning shartlari esa ushbu asoslarni amalga tatbiq etish uchun zarur bo'lgan yuridik va faktik holatlar majmuini ifoda etadi. Ya'ni, muayyan bitim haqiqiy emas deb topilishi uchun nafaqat qonunchilikda nazarda tutilgan asos mavjud bo'lishi, balki u

юр. наук. - Москва., 2006. -180 с.; Рыков Д.А. Недействительность сделок должника в деле о банкротстве: гражданско-правовые аспекты: дис. ... канд. юрид. наук.- Москва., 2018. 185 с.

²³⁸ Вукот М.А. Иск как элемент права на судебную защиту, его юридическая природа и обоснование // Вопросы теории и практики гражданского процесса: Сборник. 1976. Выпуск I. - С. 47-62.

²³⁹ Ивакин В.Н. Фактическое основание иска: понятие и состав // Актуальные проблемы российского права. 2020. № 4. - С. 74-82.

²⁴⁰ Осокина Г.Л. Иск (теория и практика) // Москва: Городец., 2000. -192 с.

²⁴¹ Эгамбердиев Э. Суд ишларини юритиш муаммолари (давлат органлари ва бошқа органлар, мансабдор шахсларнинг хатти-ҳаракатлари (қарорлари) устидан берилган шикоятлар ва аризалар бўйича судда кўриб ҳал қилинадиган ишларнинг процессуал тартиби). -Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ институти нашриёти, 2008.-Б.72.

kreditorlar manfaatlariga zarar yetkazganligi, qarzdorning moliyaviy holatini yomonlashtirganligi yoki ayrim kreditorlarga asossiz afzallik berganligi kabi holatlar ham isbotlanishi lozim. Binobarin, protsessual qonunchilikdagi isbotlash majburiyati har bir subyekt uchun muhim, lekin to'lovga qobiliyatsizlik jarayonida bitimlarni haqiqiy emas deb topishda birlamchi mas'uliyat hamisha da'vogar zimmasida (IPKning 68-moddasi²⁴² birinchi qismi talabi) bo'lishi lozim.

Misol uchun, «BOG'OLON BEEF» fermer xo'jaligi sudning 2024 yil 28 noyabrdagi hal qiluv qarori bilan bankrot topilgan va tugatishga doir ish yuritish boshlangan. Tugatish ishi jarayonida sud boshqaruvchi tomonidan fermer xo'jaligining noturar obyekti «XORAZM FAXRI URUG'CHILIK KLASTERI» MCHJga 2022 yil 30 avgustdagi 1/2-sonli ko'chmas mulkni sotish shartnomasiga asosan bozor qiymatidan past narxlarda 50.000.000 so'mga sotilganligi aniqlangan. Shu bois, tugatish boshqaruvchi tumanlararo iqtisodiy sudiga da'vo arizasi bilan murojaat qilib, taraflar o'rtasida tuzilgan ko'chmas mulkni sotish shartnomasini haqiqiy emas deb topish topishni so'ragan. Urganch tumanlararo iqtisodiy sudining 2025 yil 16 maydagi hal qiluv qarori bilan fermer xo'jaligining 2022 yil 1 yanvar holatiga taqdim qilingan balans hisobotida asosiy vositalarning balans qoldiq qiymati 357.750.000 so'mni tashkil etishi, qurilishi tugallanmagan molxona binosini past qiymatda 50.000.000 so'mga sotilganligi va buni natijasida kreditorlar manfaatlariga zarar yetkazilganligini asos qilib, taraflar o'rtasida 2022 yil 30 avgustda tuzilgan 1/2-sonli oldi-sotdi shartnomasi FKning 11, 116-moddalariga hamda Qonunning 63, 64-moddalariga asosan haqiqiy emas deb topilgan²⁴³.

Huquqiy adabiyotlarda qarzdor tomonidan tuzilgan bitimlarni haqiqiy emas deb topish masalasini asoslashga qaratilgan bir qator nazariyalar ham

²⁴² Umumiy qoida bo'yicha ishda ishtirok etuvchi har bir shaxs o'z talablari va e'tirozlariga asos qilib keltirayotgan holatlarni isbotlashi kerak biroq, da'vogar nizo talabi bilan chiqqanligi uchun ham birlamchi sanaladi //Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 25.01.2018 й., 02/18/ИПК/0623-сон.

²⁴³ Urganch tumanlararo iqtisodiy sudining 4-2201-2501/3963-sonli iqtisodiy ishi.

ilgari surilgan. Jumladan, “delikt nazariyasi”, “sud qarorini ijro kuchi nazariyasi”, “sud garovi nazariyasi” , shuningdek “kreditorlar manfaatlarini alohida himoya qilish (huquqiy himoya) nazariyasi” kabi yondashuvlar mavjud. Shu bilan birga, so‘nggi yillarda subyektiv va obyektiv nazariyalar²⁴⁴ ham ilgari surilmoqda va ular mazkur institutni ilmiy jihatdan tahlil qilishda qo‘llanilmoqda. Darhaqiqat, ushbu nazariyalar qonunchilikda aks etmasa-da, ular qishloq xo‘jaligi sohasida qarzdor tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tahlil qilishda, kreditorlar manfaatlarini samarali himoya qilishda hamda sud amaliyotida qabul qilinayotgan qarorlarni ilmiy-huquqiy jihatdan asoslashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchi muhim xususiyat mazkur institutning maqsadi bilan bog‘liq bo‘lib, u fuqarolik huquqiy munosabatlardagidan²⁴⁵ farqli ravishda, qishloq xo‘jaligidagi tadbirkorlik subyektlarining to‘lovga qobiliyatsizlik munosabatlarida uning vazifasi kengroq va strategik ahamiyatga ega. Qishloq xo‘jaligida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlari uchun to‘lovga qobiliyatsizlikka yo‘l qo‘yish xavfi sezilarli darajada yuqori bo‘lib, to‘lovga qobiliyatsizlik munosabatlarida bitimlarni haqiqiy emas deb topish instituti qarzdorning mol-mulk massasini saqlab qolish, uni sun‘iy ravishda kamaytirishga qaratilgan harakatlarni bartaraf etish va barcha kreditorlarning huquqlarini teng darajada himoya qilish vazifasini amalga oshiradi.

Fikrimizcha, qarzdor tomonidan tuzilgan bitimni haqiqiy emas deb topish mexanizmi qishloq xo‘jaligi subyektlari uchun uch asosiy maqsadga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Birinchisi, qarzdor mulkini muhofaza qilish ya‘ni past

²⁴⁴ Subyektiv nazariyaga ko‘ra, qarzdorning kreditorlarga zarar yetkazishga qaratilgan harakatlari mavjud bo‘lgan har qanday bitim haqiqiy emas deb topilishi mumkin bo‘lsa, obyektiv nazariya talabiga ko‘ra, qonunda belgilangan omillar mavjud bo‘lsa, bitim haqiqiy emas deb topilishi mumkin, ya‘ni bitimni nizolash uchun faqat obyektiv mezonlar (asoslar) bo‘lganda nizolash mumkin bo‘ladi // Карелина С.А. Подозрительные сделки в процессе несостоятельности (банкротства): правовые проблемы оспаривания // Предпринимательское право. 2012. № 4. - С. 23.; Рыков, Д.А. Недействительность сделок должника в деле о банкротстве: гражданско-правовые аспекты : дисс...к.ю.н. - Москва, 2018. - 185 с.

²⁴⁵ Fuqarolik huquqida bitimni haqiqiy emas deb topishning asosiy maqsadi taraflarning buzilgan huquqlarini tiklash va ularni bitim tuzilishidan oldingi holatga qaytarishdan iborat.

qiymatdagi bitimlar yoki nomutanosib shartlar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy yo'qotishlarni oldini olish bo'lib, bu qishloq xo'jaligi subyektlari uchun alohida ahamiyatga ega. Ikkinchisi, kreditlar manfaatlarini himoya qilish ya'ni ayrim kreditorlarga asossiz ustunlik berilishini va talablar qondirish tartibi buzilishini oldini olish hisoblanadi. Uchinchisi, manfaatdor shaxslar foydasiga tuzilgan bitimlarni nazorat qilish ya'ni merosxo'rlar yoki boshqa bog'liq shaxslar foydasi uchun tuzilgan bitimlardan kelishi mumkin bo'lgan zararni bartaraf etish hisoblanadi. Qishloq xo'jaligida bu, masalan, fermerning mulkiy aktivlarini noto'g'ri transaksiya qilish orqali umumiy kreditorlar manfaatlariga ta'sir ko'rsatish xavfini kamaytiradi.

Shu tariqa, qarzdorni bitimlarini haqiqiy emas deb topish instituti faqat fuqarolik-huquqiy nuqsonlarni bartaraf etish vositasi emas, balki moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, kreditorlar o'rtasida adolatli taqsimotni amalga oshirish va manfaatdor shaxslarning zararni oldini olishga qaratilgan strategik huquqiy mexanizm sifatida amalga oshadi.

Uchinchi muhim xususiyati bu turkumdagi nizolarda subyektlar tarkibidagi o'ziga xosligidir. Fuqarolik munosabatlaridan farqli ravishda²⁴⁶ to'lovga qobiliyatsizlik munosabatlarida bitimlarni haqiqiy emas deb topish talabi bilan chiqish huquqiga ega subyektlar doirasi kengroq va ayni paytda o'ziga xosdir. Darhaqiqat, ushbu subyektlar tizimida sud boshqaruvchisi markaziy va fundamental subyekt sifatida qaraladi²⁴⁷. Qonun chiqaruvchi sud boshqaruvchisiga qarzdorning har qanday bitimi, shu jumladan, to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida ish qo'zg'atilgunigacha qadar uch yil mobaynida yoki tashqi boshqaruv hamda sud sanatsiyasi tartib-taomillari joriy etilguniga qadar amalga oshirilganlariga nisbatan ham haqiqiy emas deb topish bo'yicha talab

²⁴⁶ Fuqarolik huquqida bitimni haqiqiy emas deb topish haqidagi talab, odatda, ushbu bitim taraflari yoki qonuniy huquq va manfaatlarini buzilgan shaxslar tomonidan qo'zg'atilishi mumkin.

²⁴⁷ Несостоятельность (банкротство): В 2 т. / отв. ред. С.А. Карелина. Т. 1. М.: Статут, 2019. 925 с.

qo'yish huquqini beradi²⁴⁸. Bu huquqiy mexanizmning nazariy asosi to'lovga qobiliyatsizlik munosabatlarida qarzdor qishloq xo'jaligi sohasidagi tadbirkorning mulkiy resurslarini muhofaza qilish va kreditorlar manfaatlarini himoya qilish zaruratiga tayanadi hamda adolatli mulkiy muvozanatni ta'minlashni maqsad qiladi.

Qarzdor tomonidan tuzilgan bitimlarni haqiqiy emas deb topishda kreditorlarga qarzdorning ishtirokchisi tarkibidan chiqqanligi sababli unga mol-mulkdagi ulushini to'lash yoki ajratib berish bilan bog'liq bitimlar (Qonun 63-moddasi) va kreditorlarga ba'zi talablarni boshqalar talablariga nisbatan afzalroq qanoatlantirish bilan bog'liq bitimlar (65-modda) borasida nizolashish huquqi belgilangan bo'lsa-da, biroq boshqa turdagi bitimlar bo'yicha, xususan, qarzdor tomonidan kreditorlarga zarar yetkazuvchi bitimlar (64-modda) va qarzdorning huquqiy vorislari bilan bog'liq bitimlar (66-modda) bo'yicha kreditorlar sudga murojaat qilish huquqi belgilanmagan²⁴⁹. Shuningdek, sudga da'vo arizasi faqat sud boshqaruvchisi nomidan berilishi mumkinligi (68-moddaning birinchi qismi), kreditorlar yoki kreditorlar yig'ilishi esa faqat takliflar berishi yoki qaror chiqarish orqali sud boshqaruvchisini harakatga chaqirishi nazarda tutilgan bo'lib, biroq mustaqil ravishda sudga ariza topshirish huquqi nazarda tutilmagan.

Fikrimizcha, bu kamchiliklar kreditorlar manfaatlarining cheklanishi yuzaga keltiradi, agar sud boshqaruvchi passiv bo'lsa yoki qarzdor bilan manfaatdor bo'lsa, u zararli bitimlar bo'yicha sudga murojaat qilmasligi mumkin. Bu holda, sud boshqaruvchisining vakolatlari mutlaq markazlashgan

²⁴⁸ Vaholanki, sud boshqaruvchisining bu vakolati tarixiy davrlardagi qonunchilik tahlilga ko'ra, nizolashish muddatlari turlicha tartibga solingan. Masalan, 1994-yildagi tahrirda bu huquq faqat ish qo'zg'atilgan kundan boshlab bir yil mobaynidagi bitimlarga nisbatan qo'llanilsa, 1998-yilda tashqi boshqaruv joriy etilgunga qadar, jumladan, qarzdor ishtirokchilari tarkibidan chiqqanligi sababli unga mol-mulkdagi ulushini to'lash yoki ajratib berish bilan bog'liq olti oy davomida tuzilgan bitimlarga nisbatan qo'llanilgan. 2003-yildagi tahrirda esa mazkur qoidalar tarqoq va turli moddalarda ifodalanib, muddatlar aniq tartibga solinmagan.

²⁴⁹ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi 13-sonli qarori 32-bandida Qonuda nazarda tutilmagan bo'lsa-da, da'vo ariza berish huquqi faqat kreditorlar talablari reestriga kiritilgan kreditorlar mumkinligi nazarda tutilgan.

holda barcha tashabbus uning qo'lida to'planadi. Bu esa, agar kreditorlar yig'ilishi yoki sud nazorati yetarlicha samarali faoliyat yuritmasa, huquqiy himoyani sustlatishi mumkin. Amaliyotda ham yagona yondashuv mavjud emasligi kuzatiladi ya'ni ayrim iqtisodiy sudlar kreditorning mustaqil arizasini rad etadi, boshqalari esa qabul qiladi va bu turlicha amaliyot va noaniqlikka olib keladi. Shuningdek, sud boshqaruvchilarning hammasining ham malakasi va mas'uliyati bir xilda yuksak deb baholab bo'lmaydi. Shu bois, qarzdor tuzgan bitimlarni haqiqiy emas deb topish borasida sudga murojaat qiluvchi subyektlar doirasini kengaytirish haqida huquqiy adabiyotlarda ham takliflar bildiriladi²⁵⁰.

Bu borada xorijiy mamlakatlar xususan Rossiyada sud boshqaruvchisi, ayrim kreditor yoki vakolatli organ (masalan, soliq xizmati) bitimni haqiqiy emas deb topish haqida ariza kiritishi mumkinligi belgilangan ²⁵¹ bo'lsa, Fransiyada ariza berish huquqi sud tomonidan tayinlangan administrator, likvidator yoki kreditorlar guruhiga tegishli²⁵², AQSHda esa bitim bo'yicha da'vo kiritish huquqiga ega shaxslar Trustee (likvidator yoki administrator), kreditor (agar sud ruxsat bersa), United States Trustee (davlat organi) hisoblanadi²⁵³.

Fikrimizcha, qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligi jarayonida kreditorlarning huquqiy manfaatlarini samarali himoya qilish maqsadida subsidiar (qo'shimcha) murojaat huquqi joriy etish, bunday huquqni ishtirokchi (ta'sischi)larni ham berilishi maqsadga muvofiq sanaladi. Ya'ni, agar sud boshqaruvchisi belgilangan muddat ichida qarzdor

²⁵⁰ Okyulov O., Ruzinazarov Sh., Esenbekova F., Burkhanhodzhaeva H., Ibratova F. GENERAL PROVISIONS ON INVALIDITY OF TRANSACTIONS IN BANKRUPTCY PROCEDUR // Norwegian Journal of development of the International Science No 68/2021. C.18-20.

²⁵¹ Belgilangan cheklov shundaki, kreditorlar reyestriga kirgan, umumiy kreditor talablarining 10% dan kam bo'lmagan (yoki birgalikda) shaxs sudga da'vo qilish huquqi belgilangan. Федеральный закон Российской Федерации №127-ФЗ "О несостоятельности (банкротстве)", 61.9-modda // https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_39331/

²⁵² Code de commerce, Article L632-4.// <https://www.legifrance.gouv.fr/codes/id/LEGISCTA000006177084/>

²⁵³ U.S. Bankruptcy Code, §547(b) va §548(a).// <https://www.law.cornell.edu/uscode/text/11>

tuzgan bitimlarni haqiqiy emas deb topish to'g'risida sudga ariza kiritmasa, alohida kreditor mustaqil ravishda, sud boshqaruvchi va kreditor til biriktirib qarzdor mulkini arzon narxda sotishsa qarzdor egasi bo'lgan ishtirokchi (ta'sischi) mulkdor ushbu bitimni haqiqiy emas deb topish bo'yicha sudga murojaat qilish huquqiga ega bo'lishi taklif etiladi. Shu ma'noda, Qonuning 68-moddasining birinchi qismiga “ *shuningdek, kreditorlar hamda ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar, nizolashilayotgan bitim orqali huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilgan yoki ularga ta'sir ko'rsatadigan har qanday subyektlar tomonidan berilishi mumkin*” tarzida o'zgartish, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025 yil 23 iyundagi 13-sonli qarori 32-bandi qoidalarini “ *Sud boshqaruvchisi, kreditorlar hamda ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar, shuningdek, nizolashilayotgan bitim orqali huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilgan yoki ularga ta'sir ko'rsatadigan har qanday subyektlar qarzdor tomonidan tuzilgan bitimni (nizoli yoki o'z-o'zidan haqiqiy bo'lmagan) haqiqiy emas deb topish va (yoki) uning haqiqiy emasligi bilan bog'liq yuridik oqibatlarni qo'llash bo'yicha da'vo taqdim etish huquqiga ega*”, tarzida takomillashtirish taklif etiladi.

Qarzdor tuzgan bitimlarni haqiqiy emas deb topish institutining fuqarolik huquqidagi farqli xususiyatining to'rtinchisi da'vo muddatlari bilan bog'liq jihatlardir²⁵⁴. To'lovga qobiliyatsizlik munosabatlarida bitimlarni haqiqiy emas deb topish bilan bog'liq talablar uchun belgilangan muddatlar, odatda, qat'iy hisoblanadi chunki, ularni uzrli deb topib tiklash imkoniyati qonunchilikda nazarda tutilmagan.

Bitimlarni nizolashning maxsus vaqtinchalik chegaralari, ya'ni amaliyotda “shubhali davr” deb ataladigan muddatlar turli davlatlar qonunchiligida turlicha belgilangan²⁵⁵. A.E.Sindyaykina qayd etishicha, qonunchilikda bunday

²⁵⁴ Fuqarolik huquqida da'vo muddatini o'tkazib yuborish ayrim hollarda uzrli sabablar mavjud bo'lganda to'xtatilishi, uzilishi va tiklanishi mumkin (FKning 156,157 va 159-moddalari).

²⁵⁵ Germaniyada ish qo'zg'atilgunga qadar bo'lgan davr - kreditor talablarini afzal qondirishga qaratilgan arizalar

davr iqtisodiy aylanmani qonuniy va barqarorligini ta'minlash maqsadida belgilanadi²⁵⁶, huquqshunos A.Sh.Kuzulgurtova esa bunday davriy muddatni bitim xususiyatiga qarab turlicha bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi²⁵⁷. To'lovga qobiliyatsiz-likdagi "shubhali davr" ni rivojlangan davlatlar (Buyuk Britaniya, Germaniya, AQSH, Fransiya) qonunchiligida tahlil qilgan Ye.A. Kravchenko uni bankrotlik qonunchiligining ajralmas qismi sifatida baholaydi va shubhali muddatda tuzilgan bitimlarning haqiqiy emas deb topilishi qarzdorning to'lov qobiliyatini tiklash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish imkonini beradi ²⁵⁸, deb xulosa qiladi.

Qonunchiligimizda "shubhali davr" (63-modda) nazarda tutilgan bo'lib, unga ko'ra, agar bitim to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida ish qo'zg'atilgunga qadar uch yil ichida (qarzdorning ishtirokchilari tarkibidan chiqqanligi munosabati bilan unga mol-mulkdagi ulushni to'lash yoki ajratib berish bilan bog'liq bitimlar esa 36 oy ichida) tuzilgan bo'lsa, bunday bitimlar haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Umumiy qoidaga ko'ra esa, bitimni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi da'vo muddati da'vogar shaxs bitimni haqiqiy emas deb topish uchun asoslar mavjudligini bilgan yoki bilishi lozim bo'lgan kundan e'tiboran hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi sohasida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligi sharoitida mazkur normalarning qo'llanilishi ayrim o'ziga xos jihatlariga ega. Xususan, sud boshqaruvchisi tomonidan qarzdorning moliyaviy ahvoli tahlil qilinishi, xo'jalik faoliyatiga oid hujjatlar o'rganilishi

bo'yicha 3 oy, kreditorlarga zarar yetkazuvchi bitimlarda 10-yil, bepul bitimlar bo'yicha 4-yil // Шишмарева, Т.П. Правовые средства обеспечения эффективности процедур несостоятельности в России и Германии: Дис... докт.юрид.наук. - Москва, 2022. - 546 с.; Xitoyda "shubhali davr" ish qo'zg'atilgunga qadar bo'lgan bir yilni tashkil etadi // Закон КНР от 27.08.2006 «О банкротстве предприятий» //Законодательство Китая. Текст: электронный. - URL:http://chinalawinfo.ru/economic_law/law_enterprise_bankruptcy/law_enterprise_bankruptcy_ch4

²⁵⁶ Циндяйкина А.Э. Правовое регулирование конкурсного оспаривания сделок должника при несостоятельности (банкротстве): Дис... канд.юрид.наук. - Москва, 2012. - С.91.

²⁵⁷ Кузулгуртова А.Ш. Искусственное изменение периода подозрительности по делам о банкротстве в практике Верховного Суда РФ // Вестник арбитражной практики. 2021. № 5. - С. 41-45.

²⁵⁸ Кравченко Е.А. Проблемы защиты и реабилитации должника при несостоятельности (банкротстве) в Великобритании, Германии, США, Франции, России (сравнительно-правовой анализ): дис... канд. юрид. наук. - М., 2003. - С. 101-166.

hamda agrar aktivlar (yer uchastkalari, qishloq xo'jaligi texnikasi, hosil yoki kelgusi hosilga oid huquqlar) bilan bog'liq bitimlar tekshirilishi jarayonida avval ma'lum bo'lmagan holatlar aniqlanishi mumkin. Qonunchilik bitimlarni to'lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari joriy etilgandan keyin ham nizolashish imkonini beradi. Amaliyotda bitimning haqiqiy emasligiga oid asoslar to'lovga qobiliyatsizlik jarayonida moliyaviy tahlil yoki sud boshqaruvchisi o'rganishi natijasida aniqlanadi. Bu holat shubhali davr da tuzilgan bitimlarga nisbatan da'vo qilish muddatini hisoblashda qonunchilik sud boshqaruvchisiga nisbatan bilgan yoki bilishi shart bo'lgan kundan e'tiboran hisoblanishini belgilaydi (Qonuning 68-moddasi ikkinchi qismi). Lekin, amaliyotda turlicha fikrlar yuzaga kelmoqda (sud boshqaruvchi almashishi, turli vaqtda ma'lum bo'lishi kabi).

Fikrimizcha, sud boshqaruvchi uchun ushbu muddat sudda to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ish qo'zg'atilgan kundan hisoblanishi asosli bo'ladi, chunki ish qo'zg'atilgan kundan sud boshqaruvchi ish holatlarini o'rganish, aniqlash imkoniyati yaratiladi, boshqacha aytganda shu vaqtda bilishi shart bo'lgan davr boshlanadi. Shu bois, bu bo'yicha ham Plenum qarori orqali tushuntirish berish taklif etiladi.

Qolaversa, Qonunning 63-moddasi, to'rtinchi qismidagi qarzdorning o'ttiz olti oy ichida ishtirokchisiga ulushini to'lash bilan bog'liq bitimni haqiqiy emas deb topishga oid qoidalar nazariy va amaliy jihatdan bahslarni keltirib chiqarmoqda. Bu ayniqsa, qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligi sharoitida yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Uning asosiy sababi normada "ishtirokchi qarzdorning ishtirokchilari tarkibidan chiqqanligi munosabati bilan" jumlasini qo'llanilishi bilan bog'liq²⁵⁹. Amalda

²⁵⁹ Binobarin, ishtirokchilar safidan chiqish bitim orqali emas, balki ishtirokchilar yig'ilishi qarori yoki sud tartibida amalga oshiriladi, ulush qiymati jamiyatga o'tgan paytdan bir yil ichida (jamiyat ustavida qisqaroq muddat belgilangan bo'lsa, ustav muddatida) to'lanishi yoki xuddi shunday qiymatdagi mol-mulk asli holatida qaytarilishi shart aks holda, ulush qiymati sud tartibida undiriladi // Oliy xo'jalik sudi Plenumining 2014-yil 20-iyundagi 262-sonli qarori 22.2.-bandida tushuntirish berilgan.

qishloq xo'jaligi subyektlarida ulush qiymatini to'lash ko'pincha pul mablag'lari orqali emas, balki yerga bo'lgan foydalanish huquqi, texnika, mahsulot yoki boshqa mol-mulk orqali amalga oshiriladi. Qarzdorning ulush qiymatini to'lash (mol-mulk bilan ijro qilish) amaliyoti ko'pincha sud yoki kreditor qarorlari asosida amalga oshiriladi. Shu bilan birga, qarzdor va ishtirokchi o'rtasida tuzilgan bitimdan kelib chiqishi ham mumkin.

Bundan tashqari, normada 36 oylik muddatning belgilanishi ham moddaning ichki mantig'ini zaiflashtiradi. Zero, amalda ulush qiymatini to'lash majburiyati qonunga muvofiq bir yil ichida (yoki jamiyat ustavida belgilangan qisqaroq muddatda) bajarilishi lozim²⁶⁰. Bu haqida huquqshunos V.Yu.Kolomeyseva ushbu turkumdagi nizolar bo'yicha 6 oylik muddatni yetarli va o'rinli²⁶¹ deb hisoblaydi. Demak, uch yillik "shubhali davr"ni belgilash mazkur munosabatning huquqiy tabiatiga mos kelmaydi hamda boshqa bitimlarni nizolash muddatlari bilan sun'iy ravishda tenglashtirilganligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, qonundagi tartibga ko'ra, bunday "bitim" haqiqiy emas deb topilganda ishtirokchiga to'langan mol-mulk (pul mablag'i) qarzdorga qaytariladi va u to'rtinchi navbatdagi kreditor sifatida e'tirof etiladi. Bu ishtirokchining jamiyat tarkibidan chiqqanligi huquqiy jihatdan bekor bo'lishi va u yana ishtirokchi maqomida saqlanib qolishini ifodalaydi. Bunday holatda uni kreditor sifatida tan olish korporativ huquqning ishtirokchi va kreditor maqomlarini ajratishga oid umumiy qoidalariga zid keladi²⁶² hamda huquqiy kolliziyaning yuzaga keltiradi. Mazkur ziddiyat qishloq xo'jaligi korxonalarida yanada salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin, chunki bunda ishtirokchi bir

²⁶⁰ O'zbekiston Respublikasi "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi Qonuni 22-moddasining to'qqizinchi qismi // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон.

²⁶¹ Коломейцева В.Ю. Теории недействительности сделок должника при банкротстве // International Journal of Humanities and Natural Sciences, vol. 11-2 (62), 2021. – С. 160-163.

²⁶² Chunki, Qonuning 3-moddasida kreditorlar tushunchasi berilgan tushuntirish mazmuniga ko'ra, qarzdorning majburiyatlari bo'yicha uning ishtirokchilari (muassislari) kreditor sifatida talab qo'ya olmaydi va bu huquqiy istisno hisoblanadi.

vaqtning o'zida ham boshqaruvda ishtirok etuvchi shaxs, ham talab qo'yuvchi subyekt (kreditor) sifatida namoyon bo'ladi. Boshqacha aytganda amaldagi qoida sud bitimlar zanjirini kompleks baholab, nafaqat mulkiy hisob-kitoblarni, balki korporativ harakatning o'ziga ham huquqiy baho berish mumkinligini istisno etmaydi. Demak, ishtirokchining chiqishi bilan bog'liq munosabatlarda haqiqiy emaslik instituti, avvalo, oqibati orqali qarzdorning mol-mulkiy holatini tiklashga qaratilgan bo'lsa-da korporativ munosabatlarning o'ziga nisbatan ham oqibati bevosita ta'sir etishi mumkin. Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish maqsadida Qonunning 63-moddasi to'rtinchi qismini konseptual jihatdan qayta ishlash zarur, deb hisoblaymiz. Xususan, mazkur normada " *bitim*" tushunchasini " *ulush qiymatini to'lash (ijro etish)*" kategoriyasi bilan almashtirish maqsadga muvofiq. Bu orqali munosabatning haqiqiy huquqiy tabiati ya'ni, korporativ majburiyatni bajarish fakti aks ettiriladi. Shuningdek, 36 oylik muddatni xorijiy tajriba asosida²⁶³ qisqartirish va uni ulush qiymatini to'lash uchun qonun va ustavda belgilangan muddatlar bilan, xususan, qishloq xo'jaligidagi bir yillik ishlab chiqarish sikli hamda "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi Qonunning 22-moddasida nazarda tutilgan bir yillik davr bilan uyg'unlashtirish eng maqbul yechim hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, quyidagi tahrirda bayon etish taklif etiladi: " *To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ish qo'zg'atilganidan keyin yoki ish qo'zg'atish haqida ariza berilganidan oldingi bir yil ichida qarzdor tomonidan uning ishtirokchisiga jamiyatdan chiqqanligi munosabati bilan ulush qiymatini to'lash yoki mol-mulk berish tarzida amalga oshirilgan ijro (bitim), agar u kreditorlar huquqlariga zarar yetkazgan bo'lsa, sud boshqaruvchisining yoki*

²⁶³ Rossiya qonunchiligida qarzdor tomonidan alohida kreditorlarga afzallik berishga olib keluvchi harakatlar (preferensial to'lovlar)ni haqiqiy emas deb topish uchun nisbatan qisqa muddatlar (bir oy yoki olti oy)belgilangan // Федеральный закон РФ от 26.10.2002 № 127-ФЗ «О несостоятельности (банкротстве)», ст. 61.3.; Xitoy Xalq Respublikasi qonunchiligida qarzdor tomonidan bankrotlik ishi qo'zg'atilishidan oldingi bir yil ichida amalga oshirilgan va kreditorlar manfaatlariga zarar yetkazuvchi harakatlar haqiqiy emas deb topilishi mumkin // Enterprise Bankruptcy Law of the People's Republic of China (2006), Article 31.; Germaniya huquqida (Insolvenzordnung) ayrim turdagi shubhali harakatlar uchun turlicha muddatlar nazarda tutilgan bo'lsa-da, preferensial to'lovlar bo'yicha nisbatan qisqa muddatlar qo'llaniladi // Insolvenzordnung (Germany), §§ 129-131.

kreditorning arizasiga ko'ra sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Bunday holda berilgan mol-mulk (pul mablag'lari) qarzdorga qaytariladi. Agar bitim haqiqiy emaslik oqibati natijasida ishtirokchining jamiyatdagi ulushga bo'lgan huquqi tiklansa, ishtirokchi jamiyat ishtirokchisi maqomini saqlab qoladi va kreditor sifatida e'tirof etilmaydi. Agar ishtirokchining jamiyatdagi ishtiroki tiklanmasa, u holda u qarzdorga nisbatan mulkiy talab egasi sifatida e'tirof etiladi va ushbu Qonunning 150-moddasiga muvofiq to'rtinchi navbat kreditor sifatida qanoatlantiriladi."

Shuningdek, qarzdor tuzgan bitimlarni haqiqiy emas deb topishga doir nizolarda da'vo muddatlari va ularni qo'llashning o'ziga xos jihatlari amaliyotda turlicha talqin etilayotganligi kuzatilmoqda. Xususan, umumiy fuqarolik-huquqiy va to'lovga qobiliyatsizlikka oid maxsus (shubhali davr) muddatlar o'rtasidagi nisbat, ularning boshlanish vaqti hamda qo'llanilishi masalalarida yagona yondashuv shakllanmagan²⁶⁴. Bu holat qishloq xo'jaligi sohasida mavsumiylik xususiyati tufayli yanada murakkablashib, sud amaliyotida turlicha qarorlar qabul qilinishiga olib kelmoqda. Shu munosabat bilan, sud amaliyotini bir xillashtirish maqsadida Oliy sud Plenumining qarorida mazkur masalalar yuzasidan aniq tushuntirishlar (muddatlarning nisbati, hisoblanishi va qo'llanilishi tartibi) belgilab berish taklif etiladi.

Yuridik adabiyotlarda to'lovga qobiliyatsiz qarzdor bilan tuzilgan bitimlarni tasniflash borasida ham turlicha yondashuvlar mavjud bo'lib, M.V.Telyukina to'lovga qobiliyatsizlik ishi qo'zg'atilishidan oldin tuzilgan bitimlarni ikkiga (shubhali va imtiyozli) ajratgan holda shubhali bitimlarning o'zini ham ikki toifaga ya'ni obektiv shubhali (noteng) va subektiv shubhali tarzda tasniflaydi²⁶⁵. D.A.Barkov esa haqiqiy emas deb topilishi mumkin bo'lgan bitimlarni shubhali bitim va imtiyozli bitimlarga ajratadi. Bunday

²⁶⁴ Карелина С.А. Подозрительные сделки в процессе несостоятельности (банкротства): правовые проблемы оспаривания // Предпринимательское право. 2012. № 4. - С. 22-26.

²⁶⁵ Телюкина М.В. Система подозрительных сделок при банкротстве должника в России и Казахстане // Гражданское право. 2014. № 6. – С. 77-82.

tasniflanishiga qo'shilmagan S.A.Karelina tomonidan bunday bitimlarni uch toifaga "noteng bitimlar", "shubhali bitimlar" va "imtiyozli bitimlar"ga ajratish lozimligini ilgari suradi²⁶⁶. Huquqshunos olim B.Xudaybergenov esa ushbu tasniflashni quvvatlagan holda har bir guruhning o'ziga xos xususiyatlari mavjudligini ta'kidlaydi²⁶⁷.

Fikrimizcha, qishloq xo'jaligi sohasida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligi jarayonida tuzilgan bitimlarning mazmuni va iqtisodiy xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni tizimli ravishda quyidagi tasniflash²⁶⁸ taklif etiladi.

Birinchidan, shubhali bitimlar (*suspect transactions*) ya'ni qarzdorning mol-mulkini sun'iy ravishda kamaytirish yoki kreditorlar manfaatlariga zarar yetkazish ehtimoli yuqori bo'lgan bitimlar hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi sohasida bunday holatlar, masalan, hosil mavsumi boshlanishidan oldin mahsulotni bozor qiymatidan ancha past narxlarda realizatsiya qilish, aktivlarni nomutanosib shartlarda boshqa shaxslarga o'tkazish yoki muayyan kreditorlarning talablarini ustuvor tartibda qanoatlantirish orqali ko'rinishi mumkin. D.A.Rikov yashirin (nomutanosib) bitimlar ham shubhali bitimlar turiga kirishini ta'kidlaydi²⁶⁹. Bunday bitimlarni shubhali deb baholashda asosiy mezon ularning kreditorlar mulkiy manfaatlariga zarar yetkazish ehtimolini yuzaga keltirishi hamda qarzdorning moliyaviy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi deb hisoblashadi. Shu ma'noda, bitim mazmunidan kelib chiqib, uning taraflari qarzdorda to'lovga qobiliyatsizlik belgilari mavjudligini bilgan yoki bilishi lozim bo'lganligi, shuningdek bitim natijasida kreditorlar

²⁶⁶ Несостоятельность (банкротство): Учебный курс. В 2 т. / Под ред. д.ю.н., проф. С.А. Карелиной. Т. 2. – М.: Статут, 2019. – С. 619.

²⁶⁷ Xudaybergenov B.B. To'lovga qobiliyatsizlikni huquqiy tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari: sanatsiya va bankrotlik: yurid. fan. dok. ... diss. Toshkent, 2023. – B.168-185.

²⁶⁸ FKda belgilangan asoslar bo'yicha ularni bitimning qonun talab qiladigan shakliga rioya etmasligi hamda korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi ta'sirida tuzilgan bitimlar (115-116, 125-moddalar), yanglishish, aldash, zo'rlik yoki qo'rqitish ta'sirida tuzilgan bitimlar (122-123-moddalar) hamda qalbaki va ko'zbo'yamachilik bitimlari hamda yuridik shaxs vakolatidan tashqariga chiqadigan bitimlar(124-125-moddalar) tarzida tasniflash mumkin.

²⁶⁹ Рыков, Д.А. Недействительность сделок должника в деле о банкротстве: гражданско-правовые аспекты : дисс. к.ю.н. - Москва, 2018. – С. 160-185.

manfaatlariga zarar yetkazilishi mumkinligini anglagan holda harakat qilganligi taxmin qilinishi mumkin. Odatda, to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ish qo'zg'atilguniga qadar olti oy ichida amalga oshirilgan o'zaro hisob-kitoblar shubhali bitimlar sifatida faqat kreditor tomonidan insofsiz harakatlar sodir etilganligi aniqlangan taqdirdagina nizolashilishi mumkin. Masalan, hosil yoki qishloq xo'jaligi mahsulotlariga doir talab huquqlarining bozor qiymatidan ancha past narxlarda boshqa shaxslarga o'tkazishi yoki muayyan shaxs tomonidan majburiyatlar oqilona pul kompensatsiyasiz (jumladan, qarzni o'tkazish orqali) zimmaga olinishi orqali namoyon bo'lishi mumkin. Agar mazkur harakatlar natijasida qarzdorning moliyaviy ahvoli yomonlashib, oxir-oqibatda uning to'lovga qobiliyatsizligiga sabab bo'lgan bo'lsa, bu holatlar kreditorning insofsizligi mavjudligini ko'rsatuvchi muhim dalil sifatida baholanadi. Shuningdek, agar qarzdorning (yoki qarzdorga nisbatan) pul majburiyatlari bo'yicha talab qilish huquqi to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ish qo'zg'atilguniga qadar insofsizlik bilan olingan bo'lsa²⁷⁰, bunday huquqiy munosabatlar ham shubhali bitimlar qatoriga kiritilishi mumkin. Ayniqsa, agrar sohada hosil yetishtirish, mahsulotni oldindan sotish yoki qishloq xo'jaligi resurslarini moliyalashtirish bilan bog'liq talab huquqlarining boshqa shaxslarga o'tkazilishi amaliyotida bu holatlar uchraydi. Bunday vaziyatda, aksini isbotlash majburiyati talab qilish huquqini sotib olgan shaxs zimmasiga yuklanadi. Bu esa qishloq xo'jaligi sohasida tadbirkorlik subyektlarining mulkiy aktivlarini asossiz ravishda kamaytirishning oldini olish hamda kreditorlar manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, imtiyozli bitimlar (*preferential transactions*) ya'ni ayrim kreditorlarning talablari boshqa kreditorlarga nisbatan afzal tarzda qanoatlantirilishiga olib keladigan bitimlar hisoblanadi (Qonunning 65-

²⁷⁰ Agar talab qilish huquqini olgan shaxs qarzdorda to'lovga qobiliyatsizlik alomatlarini mavjudligini bilgan yoki bilishi lozim bo'lgan holda ushbu huquqni olgan bo'lsa, u insofsizlik bilan olingan deb taxmin qilinadi (Qonunning 60-moddasi qoidalarini).

moddasi). Bunday bitimlar natijasida qarzdorning mulkiy massasi kamayib, kreditorlar o'rtasidagi qonuniy navbat va mutanosiblik tamoyili buzilishi mumkin ²⁷¹. Masalan, qarzdor qishloq xo'jaligi subyekti tomonidan muayyan ta'minotchi, moliya tashkiloti yoki boshqa kreditorning talabini boshqa kreditorlarga nisbatan ustuvor tartibda qanoatlantirish orqali namoyon bo'ladi. Bunda bitim natijasida boshqa kreditorlar bilan solishtirganda muayyan kreditorning muddati kelmagan talabi qanoatlantirilishi yoki unga qonunchilikda belgilangan navbatdan tashqari afzallik berilishi kuzatiladi. Majburiyatni ta'minlashga qaratilgan yoki kreditorlar talablarini qanoatlantirish tartibini o'zgartirishga olib kelgan bitimlar ham imtiyozli bitimlar sifatida baholanishi mumkin²⁷².

Uchinchidan, noto'g'ri (noteng) bitimlar (*gratuitous / unfair transactions*) bu mulk bepul yoki bozor qiymatidan ancha past shartlarda boshqa shaxsga o'tkazilgan bitimlardir. Notenglik bu huquqiy munosabatlarda ishtirok etuvchi subyektlarning huquq va majburiyatlari, shuningdek ularning mulkiy yoki protsessual imkoniyatlari o'rtasida muayyan tafovut mavjudligini ifodalovchi huquqiy kategoriya hisoblanadi. Bunday tafovut har doim ham huquqbuzarlikni anglatmaydi, biroq u muayyan holatlarda huquqiy baholashni talab qiladi. Bunday bitimlarda "shubhali bitimlar"dan farqli ravishda kontragentning insofsizligini aniqlash talab etilmaydi. Shu bois, har bir muayyan ish bo'yicha sud notenglikning mavjud yoki mavjud emasligini ish materiallari va dalillar yig'indisini har tomonlama tahlil qilish orqali aniqlaydi ²⁷³. Qishloq xo'jaligi sohasida bu holatlar, masalan, mol-mulkni hadya qilish yoki mahsulotni bozor qiymatiga mos kelmaydigan shartlarda realizatsiya qilish orqali namoyon bo'lishi mumkin.

²⁷¹ Ручкина Г.Ф. Правовое регулирование несостоятельности (банкротства) : учебник / Г.Ф. Ручкина, Е. Ю. Матвеева, С. В. Крашенинников. - Москва : Прометей, 2020. - 358 с.

²⁷² Bu ayniqsa, qishloq xo'jaligi subyektlari tomonidan mavsumiy tushumlar hisobidan ayrim kreditorlar talablarini boshqalarga nisbatan ustuvor tartibda qanoatlantirish holatlarida namoyon bo'ladi.

²⁷³ Васильева, А. Соотношение общегражданских и банкротных оснований недействительности сделок: суды в поисках баланса // Юридическая работа в кредитной организации. – 2020. № 2 (64). - С. 54-64.

To'rtinchidan, mavsumiy (agrar) bitimlar (*seasonal / agricultural transactions*) bu qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining mavsumiy xususiyati bilan bog'liq bo'lgan bitimlar bo'lib, ular sohaning o'ziga xos jihatlarini inobatga oladi.²⁷⁴ Masalan, hosildan oldin to'lov qilish, kelgusi mahsulotni oldindan sotish yoki agrar resurslarni mavsum boshlanishidan oldin berish bilan bog'liq bitimlar shunday munosabatlarga kiradi²⁷⁵. Bu yondashuv qishloq xo'jaligi sohasidagi tadbirkorlik subyektlari faoliyatida kreditorlar manfaatlarini samarali himoya qilish hamda qarzdorning mulkiy aktivlarini adolatli va teng tartibda taqsimlash imkonini ta'minlaydi.

Shuningdek, qarzdor tomonidan tuzilgan bitimlarning haqiqiy emasligini baholashga doir nizolarni protsessual jihatdan ikki turga ajratish mumkin. Birinchisi, qarzdor to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida ish qo'zg'atilguniga qadar tuzilgan bitimlar bilan bog'liq nizolar (Qonuning 63, 66-moddalari) va ikkinchisi esa qarzdor to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida ish qo'zg'atilgandan keyin tuzilgan bitimlar (Qonunning 64, 65-moddalari) bo'yicha nizolar bo'lib, bu tasniflash ularning mezonlari va ularni qonuniy tartibda hal etish mexanizmini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega.

Darhaqiqat, qarzdor qishloq xo'jaligi sohasida tadbirkorlik subyektlari tuzgan bitimlarni haqiqiy emas deb topishga doir nizolarni sudlarda ko'rib chiqishning qator o'ziga xos xususiyatlarini ega bo'lib, birinchidan, qonunchilik qarzdor (vakili yoki sud boshqaruvchi) tomonidan tuzilgan bitimlarni haqiqiy emas deb topish bo'yicha nizolashish huquqini "da'vo arizasi" shaklida amalga oshirilishi mumkinligi (65-modda) nazarda tutiladi. B.Xudaybergenov ta'kidlaydiki²⁷⁶, qarzdor bilan tuzilgan bitimlarni haqiqiy emas deb topish

²⁷⁴ Тошбоева Р.С. Аграрное право. Учебное пособие. Т., ТГЮУ, 2020, с.164.

²⁷⁵ Sud amaliyotida mavsumiy bitimlar avtomatik ravishda haqiqiy emas deb topilmaydi, balki ularning insofsizligi va qarzdorning moliyaviy holatiga ta'siri aniqlangan taqdirda huquqiy baholanadi.

²⁷⁶ Xudaybergenov B.B. Bankrotlik to'g'risidagi ishda bitimlarni haqiqiy emas deb topishning o'ziga xosligi // "O'zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar" mavzusidagi Respublika 21-ko'p tarmoqli ilmiy konferensiya materiallari. http://doi.org/10.26739/online_21. №21. 2020 yil 31-oktyabr. www.tadqiqot.uz. – B. 22-25.

to'g'risidagi da'volar (kvazi-da'vo)²⁷⁷ sifatida baholanadi. Mazkur qoida ushbu turkumdagi nizolarni to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ish doirasida emas, balki umumiy da'vo tartibida ko'rib chiqilishi mumkinligini ko'rsatadi. Bu esa, protsessual qonunchilikda belgilangan sudlovga tegishlilik qoidalari hamda taraflarning huquqiy maqomi hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini anglatadi. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi sohasidagi tadbirkorlik subyektlari faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari (mavsumiy ishlab chiqarish, yer uchastkalari va agrar aktivlar bilan bog'liq huquqiy munosabatlar, jismoniy shaxslar ishtirokining yuqori darajasi) mazkur toifadagi nizolar ishtirokchilari tarkibining turlicha bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois, qarzdor tomonidan tuzilgan bitimlarni haqiqiy emas deb topish va uning oqibatlarini qo'llash to'g'risidagi talablar sudga mustaqil da'vo arizasi bilan murojaat qilish orqali qo'zg'atilib, nizo ishtirokchilarining huquqiy maqomiga qarab mazkur ishlar iqtisodiy sudlar yoki fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar ko'rishi mumkinligi masalasida aniq protsessual ko'rsatmalar berilmagan. Shu munosabat bilan, qishloq xo'jaligi sohasidagi tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligi bilan bog'liq holatlarni inobatga olgan holda, mazkur toifadagi nizolarning sudlovga tegishliligi yuzasidan Oliy sud Plenumi qarori orqali qo'shimcha tushuntirishlar berish taklif etiladi.

Ikkinchidan, bitimni haqiqiy emas deb topish turkumidagi ishlar sudda ko'rishning o'zgacha protsessual xususiyatlariga ega. Amalda ular IPKni talabiga muvofiq bir oylik muddatda ko'rib chiqilmoqda, ammo asosiy to'lov qobiliyatsizlik ishi va uning har bir taomili alohida muddatlarda ko'rilishi tufayli bitimlar bo'yicha da'volar tabiiy ravishda uzoq muddatda yuritilishi mumkin. Bu qarzdorning mol-mulkiy holatini tiklash va kreditorlar huquqlarini samarali himoya qilishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Qonunda kreditor tomonidan

²⁷⁷ Bitimning haqiqiy emasligi uchun ariza sudda da'vo tartibida ko'rib chiqiladi, lekin u shaxsiy huquqni himoya qilishga emas, balki qarzdorning mol-mulkiy holatini tiklash va kreditorlar huquqlarini ta'minlashga qaratilgan, shuning uchun uning mohiyati an'anaviy da'vodan farq qiladi.

bitimni haqiqiy emas deb topish uchun o'n besh kunlik maxsus muddat belgilangan bo'lsa-da, bitimlarga nisbatan bunday muddat qo'llanishi aniq emas. Shu bois, Plenum tomonidan rasmiy tushuntirish berilgan holda, ushbu ishlar ham o'n besh kunlik muddatda ko'rib chiqilishi lozimligi taklif etiladi.

Uchinchidan, qishloq xo'jaligi sohasida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlari tomonidan tuzilgan bitimlarni haqiqiy emas deb topish da'volari sudda ko'rishga tayyorlash jarayonida, sud bitimning barcha taraflari hamda boshqa manfaatdor shaxslarning ishtirokini inobatga olishi lozim. Bu talab bitimning oqibatlaridan huquq va manfaatlari ta'sirlanadigan barcha shaxslarni qamrab olishni ta'minlaydi va sud qarorining ijro etadigan huquqiy samaradorligini oshiradi. Masalan, yer uchastkalari, hosil yoki moliyaviy aktivlar bilan bog'liq bitimlarda tadbirkorning sheriklari, kreditorlar va mahalliy ijro hokimligi ham ishga jalb qilinishi mumkin. Shu bilan birga, qonunchilikda haqiqiy emas bitimni haqiqiy emas deb topish to'g'risida da'vo berish huquqi cheklanmagan bo'lib, nisbiy shaxslar uchun ham da'vo berish imkoniyatini saqlaydi.

Qishloq xo'jaligi korxonasi bo'lgan qarzдор tomonidan tuzilgan bitimning haqiqiy emasligi oqibatida kontragent olgan narsani natura shaklida qaytarishning imkoni bo'lmasa, qonunchilik uning qiymatini pul shaklida qoplashni nazarda tutadi (67-moddaning birinchi, uchinchi qismi). Biroq, qiymatni aniqlash mezoni (olingan vaqtdagi qiymat yoki qaytarish vaqtidagi bozor qiymati) qonun bilan aniq belgilanmagan. Xatto, agroklatrlarning raqamli aktivlari (mulk sifatida) aniqlaganda kontragent kriptoaktivlariga kirishni ta'minlaydigan samarali vositalar mavjud emas. Bu turli talqin va muammolarga sabab bo'lib, sudlar orasida qiymatni aniqlash mezoni bo'yicha turlicha amaliyot shakllanmoqda. Fuqarolik huquqida asosiy nazariya shuni ko'rsatadiki, huquqiy oqibatning maqsadi tomonlarni avvalgi mulkiy holatga qaytarishligi bois, olingan vaqtdagi haqiqiy qiymat ustuvor hisoblanadi.

Ma'lumki, umumiy qoidadan²⁷⁸ farqli ravishda qarzdorning to'lovga qobiliyatsizligi munosabatlarida bitimning haqiqiy emasligi oqibati sifatida mulk yoki pul mablag'i qarzdorning mulkiy (tugatish) massaciga qaytariladi. Qonunda qarzdor bilan bitim tuzgan tarafning talablarini qarzdorga nisbatan taqdim etish huquqi belgilangan (67-moddaning ikkinchi qismi) bo'lsa-da, ularning qaysi navbatda qondirilishi aniqlanmagan. Huquqiy adabiyotlarda ularni kreditorlar reyestriga kiritishga qarshi fikrlar ham bildirilib, noqonuniy raqobatli bitimlar orqali mol-mulkni olgan shaxsning talabini kreditorlar reyestriga qo'shish haqiqiy emaslikning adolatsiz oqibati ekanligini ta'kidlashadi²⁷⁹. Sud amaliyotida qarzdorning pul majburiyati qarzdorning to'lovga qobiliyatsizligi to'g'risida ariza qabul qilinganidan keyin yuzaga kelganligi sababli, Qonunning 4, 150-moddasi birinchi qismiga asoslanib, kontragentning tiklangan talabi kreditorlar reyestriga kiritilmay, joriy to'lovlar qatorida, xatto to'rtinchi navbatda qanoatlantirish holatlari mavjud.

Shuningdek, qarzdor tuzgan bitimning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo'llash masalasi ham protsessual jihatdan o'ziga xos xususiyatga ega. Xususan, agar da'vo arizasida bitimning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo'llash to'g'risida talab bildirilmagan bo'lsa, sud mazkur oqibatlarni o'z tashabbusi bilan qo'llashga haqli emas²⁸⁰. Zero, bunday oqibatlarni qo'llash (o'z-o'zidan haqiqiy bo'lmagan bitimda ham) alohida mustaqil talab asosida protsessual tartibda qo'zg'atilgan da'vo doirasida amalga oshirilishi mumkin. Masalan, da'vogar "Progress" fermer xo'jaligi tugatish boshqaruvchisi sudga da'vo arizasi bilan murojaat qilib, qarzdor 2023 yil 24 avgustda sudning hal qiluv qarori bilan bankrot deb topilib, tugatish tartib taomili joriy etilgan bo'lsa-da, taraflar

²⁷⁸ Fuqarolik huquqiy bitimlarda bitim haqiqiy emas deb topilsa, mulk yoki pul mablag'i oldinggi egasiga qaytarilishi va u zarar sifatida talab qo'yishi mumkin.

²⁷⁹ Карелина С.А. Подозрительные сделки в процессе несостоятельности (банкротства): правовые проблемы оспаривания // Предпринимательское право. 2012. № 4. - С. 22-26.

"Iqtisodiy sudlar tomonidan bitimlarni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi fuqarolik qonunchiligi normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida" 2014-yil 28-noyabrda 269-sonli Plenumining qarorining 7-bandida, sud o'z-o'zidan haqiqiy bo'lmagan bitim haqiqiy emasligining oqibatlarini o'z tashabbusi bilan ham qo'llashga haqli ekanligi belgilangan.

o'rtasida 2023 yil 1 noyabrda 1-sonli shartnoma tuzilib, shartnomaga asosan javobgarning hisob raqamiga 850 000 000 so'm moliyaviy yordam o'tkazilganligi sababli ushbu 2023 yil 1 noyabrdagi 1-sonli shartnomani haqiqiy emas deb topishni so'ragan. Sud jarayonida mazkur shartnoma taraflar vakillari taqdim etmagan va o'z navbatida uning tuzilmagan holda to'lovlar o'tkazilganligi vakillar ko'rsatmasi bilan aniqlangan. Sudning 2024 yil 25 noyabrdagi hal qiluv qarori bilan da'vogar taraflar o'rtasida tuzilgan shartnoma taqdim etilmaganligi (aslida tuzilmaganligi) sababli rad etilgan²⁸¹. Bunday holatda sud boshqaruvchisi qarzdor tuzgan shartnoma Qonunning 79, 81, 141-moddasi talablariga zid ravishda tugatish tartib taomili joriy etilgan bankrot xo'jalik bilan tuzilganligi va bunday holatda o'z o'zidan haqiqiy bo'lmasligi sababli bitimning oqibatlari bo'yicha ushbu 850.000.000 so'm pul mablag'ini MCHJdan undirish bo'yicha sudga alohida murojaat qilishi lozim edi. Shu bois, tuzilgan bitimlarni haqiqiy emas deb topish va uning oqibatlarini qo'llashga oid ishlar bo'yicha barcha taraflar va manfaatdor shaxslarni ishga jalb qilish, o'z-o'zidan haqiqiy emas bitimlar oqibatlarini qo'llash yuzasidan da'vo berish huquqini cheklamaslik, sudning mazkur oqibatlarini o'z tashabbusi bilan qo'llash mumkin emasligini belgilash, shuningdek ushbu masalani alohida da'vo tartibida ko'rib chiqish yuzasidan Plenum qarori orqali aniq tushuntirishlar berish taklif etiladi.

Xulosa qilib aytganda, qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligi sharoitida bitimlarni haqiqiy emas deb topish va uning oqibatlarini qo'llash instituti nafaqat qarzdor, kreditorlar hamda boshqa manfaatdor shaxslar huquq va manfaatlarini himoya qilish, adolatli moliyaviy muvozanatni ta'minlashda muhim fuqarolik-huquqiy vosita hisoblanadi.

²⁸¹ Andijon tumanlararo iqtisodiy sudining 4-1701-2401/3492-sonli iqtisodiy ishi..

XULOSA

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va ularning iqtisodiy faoliyati uzluksizligini saqlash davlat iqtisodiy siyosati hamda huquqiy islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi sohasida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligi munosabatlarini samarali huquqiy tartibga solish nafaqat kreditorlar va qarzdorlarning mulkiy manfaatlarini himoya qilish, balki mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq aholisi bandligini saqlash va agrar iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qilishi bilan ham ahamiyatlidir.

Monografiya doirasida amalga oshirilgan tadqiqot natijalari qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligi umumiy to'lovga qobiliyatsizlik institutining tarkibiy qismi bo'lsa-da, sohaning iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy xususiyatlari mazkur munosabatlarni tartibga solishda maxsus yondashuvlarni talab qilishini ko'rsatdi. Ishlab chiqarishning mavsumiyliги, tabiiy-iqlim omillariga yuqori darajada bog'liqlik, uzoq ishlab chiqarish sikli, yuqori moliyaviy xavf va bozor kon'yunkturasining o'zgaruvchanligi qishloq xo'jaligi subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligini huquqiy tartibga solishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot jarayonida to'lovga qobiliyatsizlik institutining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tahlil qilinib, zamonaviy huquqiy tizimlarda mazkur institutning vazifasi faqat qarzdorni tugatish emas, balki uning to'lov qobiliyatini tiklash, iqtisodiy faoliyatini saqlab qolish va kreditorlar manfaatlarini adolatli ta'minlashdan iborat ekanligi asoslantirildi. Shu nuqtayi nazardan sudgacha sanatsiya, moliyaviy sog'lomlashtirish va rehabilitatsiya mexanizmlari to'lovga qobiliyatsizlik huquqining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida baholandi.

Monografiyada qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligini aniqlash mezonlari hamda uning huquqiy va iqtisodiy belgilari kompleks tahlil qilinib, moliyaviy inqiroz holatlarini erta aniqlash va ularning oldini olishda iqtisodiy tahlil hamda prognozlash mexanizmlarini keng qo'llash zarurligi asoslab berildi.

Tadqiqotning muhim natijalaridan biri sifatida qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligi sharoitida qo'llaniladigan fuqarolik-huquqiy himoya vositalarining nazariy asoslari va amaliy ahamiyati ochib berildi. Xususan, kreditorlar yig'ilishi qarorlarini haqiqiy emas deb topish hamda qarzdor tomonidan tuzilgan bitimlarni haqiqiy emas deb topish institutlari kreditorlar huquqlarini himoya qilish, tanlov massasini saqlab qolish va manfaatlar muvozanatini ta'minlashning muhim huquqiy kafolati ekanligi asoslantirildi. Shu bilan birga, mazkur institutlarni qo'llash amaliyotida mavjud huquqiy bo'shliqlar va talqin muammolarini bartaraf etishga qaratilgan ilmiy takliflar ishlab chiqildi.

Qiyosiy-huquqiy tahlil natijalari Germaniya, AQSH, Fransiya, Rossiya Federatsiyasi va boshqa davlatlarda to'lovga qobiliyatsizlik munosabatlarini tartibga solishda qarzdorni iqtisodiy jihatdan tiklash, rehabilitatsiya qilish va kreditorlar huquqlarini muhofaza qilishga ustuvor ahamiyat berilayotganligini ko'rsatdi. Bu esa milliy qonunchilikni xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy tajriba asosida yanada takomillashtirish zaruratini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish uchun sohaga xos maxsus huquqiy normalarni rivojlantirish, sudgacha sanatsiya mexanizmlarini kengaytirish, kreditorlar huquqlarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish hamda raqamli monitoring va tahlil tizimlarini joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunday choralar moliyaviy qiyin ahvolga

tushgan subyektlarni o'z vaqtida aniqlash, ularning iqtisodiy faoliyatini saqlab qolish va to'lovga qobiliyatsizlik oqibatlarini kamaytirish imkonini beradi.

Umuman olganda, qishloq xo'jaligida tadbirkorlik subyektlarining to'lovga qobiliyatsizligini fuqarolik-huquqiy tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish agrar sohaning barqaror rivojlanishi, investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va iqtisodiy munosabatlarning samaradorligini ta'minlashning muhim huquqiy omillaridan biri hisoblanadi. Monografiyada ilgari surilgan nazariy xulosalar va amaliy takliflar milliy qonunchilikni takomillashtirish, huquqni qo'llash amaliyotini rivojlantirish hamda qishloq xo'jaligida to'lovga qobiliyatsizlik munosabatlarini samarali tartibga solishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

I. METODOLOGIK Ahamiyatga ega nashrlar va normativ-huquqiy hujjatlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir // O'zbekiston respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 27 yilligiga bag'ilangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi // <https://president.uz>

2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. // Toshkent: "O'zbekiston", 2021. -464 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. T o'lovga qobiliyatsizlik institutini takomillashtirish va moliyaviy ahvoli og'ir tadbirkorlik subyektlarini sog'lomlashtirish bo'yicha yangi yondashuvlar yuzasidan taqdimoti // <https://president.uz/uz/lists/view/9071>

4. Ўзбекистон Республикасининг “Қишлоқ хўжалиги корхоналарини санация қилиш тўғрисида”ги Қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1998 й., 1-сон, 4-модда.

5. Ўзбекистон Республикасининг “Банкротлик тўғрисида”ги Қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1994 й., 5-сон, 130-модда, 1998 й., 9-сон.

6. Ўзбекистон Республикасининг “Тадбиркорлик фаолияти эркинлигининг кафолатлари тўғрисида”ги Қонуни // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси. – 25.12.2025. – № 03/25/1104/1213.

7. Ўзбекистон Республикасининг “Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида”ги Қонуни // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 13.04.2022 й., 03/22/763/0306-сон.

8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 1 февралдаги 4146-сонли “Банкротлик таомилларини янада соддалаштириш ва суд бошқарувчилари фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 02.02.2019 й., 07/19/4146/2566-сон.

9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020–2030 йилларга мўлжалланган стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Фармони // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси. – 24.10.2019. – № 06/19/5853/3955.

10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020–2030 йилларга мўлжалланган стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Фармони // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси. – 24.10.2019. – № 06/19/5853/3955.

11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Мамлакат тараққиётининг 2030 йилгача мўлжалланган устувор йўналишлари доирасида ислохотларни изчил давом эттириш ва янги босқичга олиб чиқишнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси. – 17.02.2026. – № 06/26/21/0145.

12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Тўловга қобилиятсизлик инстутини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 07.05.2026 й., 06/26/78/0454-сон.

13. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 708-сон қарори “Судгача санация қилиш тартиби тўғрисидаги низом” // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси. – 29.10.2024. – № 09/24/708/0864.

14. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг “Иқтисодий судлар томонидан “Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни нормаларини қўллашнинг айрим масалалари тўғрисида” 2025 йил 23 июндаги 13-сон қарори.

15. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг “Иқтисодий судлар томонидан “Судлар томонидан шахсий номулккий ҳуқуқлар ва бошқа номоддий неъматларни ҳимоя қилиш тўғрисидаги қонунчиликни қўллаш амалиёти ҳақида” 2025 йил 24 ноябрга 21-сон қарори.

II. MONOGRAFIYALAR, DISSERTATSIYALAR VA AVTOREFERATLAR

1. Агеев А. Б. Банкротство в гражданском праве: проблемы теории: дис. ... канд. юрид. наук. – Москва, 1999. – 144 с.

2. Азизов Х. Т. Банкротлиқни ҳуқуқий тартибга солиш. – Тошкент: ТДЮУ, 2017. – 205 б.

3. Лопатова Н.В. Учебное пособие по дисциплине «Правовое регулирование банкротства хозяйствующих субъектов». – Т.: Издательство ТГЮИ, 2008. – С. 3.
4. Рўзиназаров Ш. Н. Бозор шароитида қишлоқ хўжалик ишлаб чиқариш тузилмаларининг фуқаролик-ҳуқуқий мақоми. – Тошкент, 1997. – 140 б.
5. Телюкина М. В. Теория и практика несостоятельности (банкротства). – Москва, 2002. – 105 с.
6. Туркина А. А. Институт несостоятельности (банкротства) сельскохозяйственных товаропроизводителей: дис. ... канд. юрид. наук. – Москва, 2003. – 102 с.
7. Карелина С. А. Механизм правового регулирования отношений несостоятельности (банкротства): автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Москва, 2008. – 54 с.
8. Свириденко О. М. Концепция несостоятельности (банкротства) в Российской Федерации: автореф. дис. ... д-ра юрид. наук. – Москва, 2011. – 54 с.
9. Шукуруллаев А. Х. Қишлоқ хўжалик корхоналарини қайта ташкил этиш ва тугатишнинг фуқаролик-ҳуқуқий тартибга солиниши: юрид. фан. номз. дисс. – Тошкент, 2001. – 131 б.
10. Поляков Б. М. Право несостоятельности (банкротства) в Украине. – Киев: Ин Юре, 2003. – 440 с.
11. Лысенко Л. А. Проблемы несостоятельности (банкротства) субъектов предпринимательства сельскохозяйственного производства: дис. ... канд. юрид. наук. – Ростов н/Д, 2003. – 120 с.
12. Отахонов Ф.Х., Ибратова Ф.Б. Хўжалик судларида банкротлик ишларини кўришнинг ўзига хос хусусиятлари. Монография. –Т.: ТДЮИ нашриёти, 2024. –Б.22-25.
13. Худайбергенов Б. Б. Суд санациясининг ҳуқуқий асосларини тақомиллаштириш масалалари. – Тошкент: ТДЮУ, 2018. – 270 б.
14. Кузнецов С. А. Основные проблемы института несостоятельности (банкротства). – Москва: Инфотропик Медиа, 2020. – 304 с.
15. Кулешов В.В. Унификационные тенденции правового регулирования несостоятельности (банкротства) в ЕС: автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Москва, 2002. – 15 с.

16. Ибратова Ф. Б. Тадбиркорлик субъектларини банкрот деб топишнинг фуқаролик-ҳуқуқий муаммолари: юрид. фанлар. докт. дисс. – Тошкент, 2021.

17. Xudayberganov B. B. To'lovga qobiliyatsizlikni huquqiy tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari: юрид. фанлар. докт. дисс. – Toshkent, 2023 й.

III. ILMIY MAQOLALAR VA BOSHQA NASHRLAR

1. Atalykova G. Sh., Narzullaev O. Kh., Ibratova F. B. Formation and development of civil law doctrines on bankruptcy of business entities in Uzbekistan // International Journal of Professional Science. – 2021. – № 10. – P. 5–11.

2. Avagyan G., Melkonyan M. Bankruptcy law as a structural element of the legal system // State and Law. – 2025. – Vol. 99, № 2. – P. 121–133.

3. Витрянский В. В. Как реформировать законодательство о банкротстве // Законодательство. – 1999. – № 5.

4. Жданова О. В. Банкротство сельскохозяйственных предприятий // Вестник АПК Ставрополя. – 2011. – № 2. – С. 65–67.

5. Ершова И. В., Енькова Е. Е. Банкротство: законодательная модель и правоприменительная практика // Lex Russica. – 2016. – № 8. – С. 178–207.

6. Toshboeva R. Agribusiness of Uzbekistan: Features of legal regulation // Open Journal of Business and Management. – 2026. – Vol. 14. – P. 568–586. DOI: 10.4236/ojbm.2026.141034.

7. Ковальчук М. Д., Тычинин С. В. Проблемы правового регулирования банкротства аграрных предприятий // Эпомен. – 2020. – № 40. – С. 201–207.

8. Степанов В.В. Несостоятельность (банкротство) в России, Франции, Англии, Германии. – Москва: Статут, 1999. – 204 с.

IV. XORIJIY ADABIYOTLAR

1. Allen J. G., Rauchs M., Blandin A. et al. Legal and Regulatory Considerations for Digital Assets. – Cambridge Centre for Alternative Finance, 2020. – P. 1–55. – URL: <https://ssrn.com/abstract=3712888>.

2. Bork R. Grundfragen der Zahlungsunfähigkeit (§17 InsO) // Zeitschrift für Insolvenzrecht. – 2005. – Nr. 3.

3. Mooney C. W. A normative theory of bankruptcy law: bankruptcy as civil procedure // Washington and Lee Law Review. – 2004. – Vol. 61. – P. 931–990.
4. Ram Mohan M. P. The role of insolvency tests: implications for Indian insolvency law // Indian Law Review. – 2022. – Vol. 6, № 3. – P. 387–408. DOI: 10.1080/24730580.2022.2129197.
5. Rideau J. Droit institutionnel de l'Union et des Communautés européennes. – Paris: L.G.D.J., 1996.
6. Flessner A. German International Insolvency Law and its Relation to EC Insolvency Convention // European Business Law Review. – 1999.
7. Zubrenkova O. A. et al. Forecasting bankruptcy in agricultural organizations // Fundamental Research. – 2020. – № 12. – P. 74–79.
8. Harz M., Baumgartner U., Conrad G. Kriterien der Zahlungsunfähigkeit und Überschuldung // ZInsO. – 2005. – Nr. 24.

ELEKTRON RESURSLARI

1. <http://www.lex.uz>
2. <http://www.norma.uz>
3. <http://www.sud.uz>
4. <http://www.prezident.uz>
5. <https://parliament.gov.uz>
6. <http://www.natlib.uz>